

SH.SH. NEGMATOVA

FALSIFA
TARIXI
(ANTI-K DAVR FALSIFASI)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Sh.Sh.NEGMATOVA

**FALSAFA TARIXI (“ANTIK DAVR
FALSAFASI” QISMI)**

O‘quv qo‘llanma

Samarqand – 2021

UO’K 1(09)

KBK 87.3

N 37

**Sh.Sh.Negmatova. Falsafa tarixi (“antik davr falsafasi” qismi)
O’quv qo’llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 236 b.**

O’quv qo’llanmada falsafiy tafakkur tarixining Qadimgi Sharq va G’arbdagi asosiy ta’limotlari, stixiyali tarzda shakllangan oqimlari, yo’nalishlari, o’z davrida mashhurlikka erishgan allomalarning qarashlari bayon qilingan. Unda Qadimgi dunyo mifologiyasi, old falsafa va falsafacining shakllanishi va rivojlanishiga oid ma’lumotlar va ularning hozirgi davr fani va falsafasi bilan bog’liq jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan. 5120500 – Falsafa yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan. Undan barcha nofalsafiy yo’nalishlar talabalari ham “Falsafa” kursini o’rganishda foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir: Falsafa fanlari doktori, professor Yaxshilikov J.Ya.

Taqrizchilar: Falsafa fanlari doktori, professor Shodiyev R.T.
Falsafa fanlari bo’yicha PhD, dotsent Sultonova G.S.

Samarqand davlat universiteti Kengashining 2021-yil, 30-noyabrdagi 5-soni qaroriga asosan o’quv qo’llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6672-6-6

© Samarqand davlat universiteti, 2021

So'z boshi

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim va ilm –fan, davlatimizning yoshlarga oid siyosatini hayotga tatbiq etish jamiyatimiz va mamlakatimiz kenlajagini belgilaydigan strategik ahamiyatga ega vazifalardan biri ekani, buni amalga oshirish uchun ta'limning yangi , zamonaviy usullarini qo'llash, respublikamiz va jahon fani yutuqlarini hisobga olib, “tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur”¹ ekanligini alohida ta'kidladi. Buni amalga oshirish mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarning muhim bir qismini tashkil etishi ayondir. Bu yo'nalishda “Ta'lim haqida” Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan keyin boshlangan va hozirda jadal sur'atlar bilan davom etayotgan ishlar dastlabki sezilarli natijalarga olib kelmoqda. Uni ayniqsa yoshlarimizning ongu tafakkuri yuksalib, yon – atrofda bo'layotgan barcha voqyea – hodisalarga dahldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotgani misolida ko'rish, anglash qiyin emas. Bunda borliqni, xususan, ijtimoiy borlig'imizni falsafiy anglashning, falsafiy meros, falsafiy qadriyatlarni o'zlashtirish va qayta anglash, ularni ijodiy boyitish va samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etayotgani yaxshi ma'lum.

Falsafa – madaniyatning, xususan, ma'naviy madaniyatning muhim qismi, falsafa tarixi esa – o'tmish ma'naviy merosining zaruriy tarkibiy elementi, aniqrog'i, uning zamonaviy falsafiy yondashuv orqali qayta anglanishi va baholanishi, tizimlashtirilishi natijasida fan maqomini kasb etgan bilimdan iborat. Undan bexabar bo'lgan kishini, ayniqsa Platon va Aristotel, Forobiy va Ibn Sino yoki Beruniy va Navoiy kabi buyuk daholarning ilmiy-falsafiy merosi to'g'risida hech bo'lmaganda umumiy tasavvurga ega bo'lmagan kishini madaniyatli, yuksak ma'naviyatli inson deyish qiyin. Falsafa yo'nalishini tanlagan oliy o'quv yurti talabasi uchun esa falsafa tarixini o'rganish kasbiy tayyorgarlikning zaruriy bo'g'ini, soha bo'yicha faoliyat yuritishi uchun zarur malaka va ko'nikmalarni egallashning shartidir.

Bu mulohazalar falsafa tarixini, ayniqsa antik davr falsafasini o'rganishning milliy g'oyamiz, mafkuramizning falsafiy-tarixiy ildizlari va mohiyatini tushunib yetish, ularni xalq, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariva 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza.2017 yil14 yanvar – Toshkent:"O'zbekiston", 2017-B.45

,mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, antik davr falsafasi falsafa fanining muammolari, asosiy tushunchalari va tamoillarining qanday sharoitda shakllangani, xususan uning asosiy masalalaridan biri bo'lgan moddiy va ma'naviy olamlarning o'zaro munosabati masalasi to'g'risida ma'lumotlar olishga imkon beradi.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, ko'p ilg'or faylasuflar o'z fikr – mulohazalari, g'oyalarini keskin mafkuraviy kurash sharoitida bildirishgani sababli o'z hayotlarini va fan taqdirini xavf ostida qoldirishgan. Bunday faylasuflar faoliyatini I.A.Karimov ma'naviy jasorat deb baholaydi va misol tariqasida Sokrat o'limidan keyin yunon falsafasining taqdiri xavf ostida qolganda Platonning fidoyilik ko'rsatgani, ustozini davom ettirib, Afinada Akademiya tashkil etishi, fan va falsafa rivojiga o'z hissasini qo'shganini zikr etadi. U asos solgan ilmiy maskanning ming yil davomida nafaqat yunon, balki butun Sharq G'arb olamining rivojiga kuchli ta'sir o'tkazganini, insoniyat tafakkur taraqqiyotining istibolini belgilab berganini alohida ta'kidlaydi¹.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar antik davr falsafasining falsafiy bilimlar tizimida qanchalik muhim o'ringa egaligini tasdiqlaydi. Xususan, bu fan talabalarni, ayniqsa faylasuflik kasbini egallashni maqsad qilib qo'ygan talabalarni, falsafiy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tendensiyalari, falsafiy oqimlar va maktablarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va, umuman, dunyoqarashning falsafiy – tarixiy asoslari bilan tanishtiradi hamda shu asosda ularning ongiga falsafiy qadriyatlar va milliy g'oya mazmunini singdirishga xizmat qiladi.

Antik davr falsafasi bo'yicha o'zbek tilida dastlabki o'quv qo'llanma S.A.Yo'ldoshev tomonidan tayyorlandi va 1999 yili "Universitet" nashriyotida nashrdan chiqdi. S.Yo'ldoshev, M.Usmonov, R.Karimovlarning "Qadimgi va o'rta asr falsafasi.-T.:Sharq,2003 " o'quv qo'llanmasi yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishdagi yangi bir bosqich bo'ldi. Bundan keyingi davr mobaynida falsafa yo'nalishi ta'lim standartlari, o'quv dasturlari bir qancha marta qayta ko'rib chiqildi, mazmuni va strukturasi takomillashtirildi, xususan, Qadimgi Sharq falsafasiga oid masalalar doirasi kengaytirildi. Yuqoridagi ko'rsatilgan nashrlarda Qadimgi Sharq falsafasi tarixi masalalari o'z aksini topmagan.

Mazkur o'quv qo'llanma yangi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga muvofiq tarzda, xorijiy universitetlar o'quv dasturlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan va mos adabiyotlardan keng foydalanilgan holda tayyorlandi. Xususan, uni tayyorlashda respublikamizda ko'zga ko'ringan faylasuf olimlar

¹Qarang: Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent:"Ma'naviyat". 2008 –B.160.

M.Sharipov, S.Yo'ldoshev, Q.Nazarov hamda dunyoga tanilgan falsafa tarixchisi, 9 tomlik falsafa tarixi fundamental asari muallifi F.Koplston tadqiqotlari: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland,2003; shuningdek, S.Radhakrishnan. Indian Philosophy Vol. I London: Reprinted 2009; Fung, Yu-Lan. A Short History of Chinese Philosophy. (ed. Derk Bodde). New York: Macmillan, 2001; V.F. Asmusning "Antichnaya filosofiya. M.,1999"; A.N. Chanyshevning "Kurs leksiy po drevney filosofii. M.,1981" hamda "Kurs leksiy po d revney i srednevekovoy filosofii. M.,1991"; Gunnar Skirbekk, Nils Gilyelarning "Falsafa tarixi".T.,2002 kitoblari materiallaridan keng foydalanildi. Qo'llanmada falsafiy yo'nalishlar, oqimlar, ta'limotlar tarixiy izchillikda va ketma – ketlikda bayon qilindi.

1-mavzu. FALSAFA TARIXI FAN SIFATIDA

Falsafa tarixi o'zida falsafiy fikr taraqqiyotini aks ettiradi. U falsafaning dunyoqarash shakli sifatida qanday paydo bo'lgani, uning muammolari, asosiy tushunchalari va prinsiplarining qanday shakllanganligi va mazmunan boyib borgani, qanday yo'nalishlarda taraqqiy etgani, bu taraqqiyot tendensiyalari nimalarda ifodalanishini tushuntiradi. Ana shuning uchun ham falsafaga oid o'quv adabiyotlarida falsafa tarixi falsafiy propedevtika, ya'ni falsafaga kirish sifatida o'rin olgan.

Falsafa va falsafa tarixining o'zaro munosabati tarixiylik va mantiqiylikning birligi prinsipi asosida olib qaraladigan bo'lsa, bitta fanning ikki qirrasiga o'xshaydi: kelib chiqish va rivojlanish tarixi nuqtai nazaridan olib o'rganilsa – u falsafa tarixi, taraqqiyoti davomida shakllangan fundamental muammolar, tushunchalar, g'oyalar, prinsiplarning sintezlangan, umumlashtirilgan, zamonaviy ruhda talqin etilgan, mantiqiy tizimga solib bayon qilingani esa nazariy sistema yoki falsafa nazariyasidir¹.

Lekin, bu holat, ayni paytda, falsafa tarixining predmeti, asosiy masalalarini aniqlashni, uni umumnazariy falsafa predmeti, muammolari, prinsiplaridan “chegaralashni” taqoza etadi. Buning uchun tafakkur taraqqiyoti, unga xos bo'lgan xususiyatlar, qonuniyatlarga, dunyoqarashning shakllanishi va evolyusiyasi tendensiyalariga murojaat qilish lozim. Zero, falsafa predmeti, uning muammolari, fundamental tushunchalari va prinsiplari bilish, tafakkur taraqqiyoti davomida shakllana borib, turli tarixiy davrlarda jamiyat oldida turgan va hal qilinishi lozim vazifalar bilan bog'liq ravishda o'zgarishlarga uchragan. Aynan mana shu jarayon falsafa tarixini hosil qiladi, uning predmeti va muammolarini “yaratadi”.

Demak, ijtimoiy hayot, mafkuraviy muhit bilan taqozalanadigan falsafiy fikrlar rivoji bilishga xos bo'lgan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Uni ifodalovchi mantiqiy vositalardan biri abstraklikdan konkretlikka qarab ko'tarilish prinsipidan iborat. Falsafiy dunyoqarashdan avval mifologiya va old falsafaning paydo bo'lishi, ularning falsafiy muammolarning shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri buni tasdiqlaydi.

Bilish tarixi shundan guvohlik beradiki, ibtidoiy ongga xos bo'lgan subyekt va obyektning keskin farqlamaslik, masalan, olamni obrazli idrok etish, uni jonlantirishga (gilozoizm), ruhlantirishga (animatizm), dunyo binosining qismlarini jonli deb hisoblashga moyillik (animizm), shuningdek, tabiat hodisalarini insonga

¹ Bu fikr T.I Oyzermanning monografiyasida har tomonlama asoslangan (OyzermanT.I. Filosofiya kak istoriya filosofii.-M.: Vlados,2006)

o'xshatish (antropomorfizm), tabiiy jarayonlar munosabatini urug'chilik munosabatlariga qiyos qilish (urug'chilik sosiomorfizmi), mantiqiy fikrlashning deyarli yo'qligi dunyoqarashning, shu jumladan, falsafiy dunyoqarashning boshlanish nuqtasi bo'lgan inson – olam munosabati masalasining qo'yilishiga imkon bermagan. Bunda ibtidoiy ong shaklini sosioantropomorfik dunyoqarash deb hisoblash va uning asosiy xususiyatini mantiqiy fikr yuritishda deb emas, balki emosional – assosiativ hayol surishda deb bilish ustuvordir¹. Mazkur xususiyatlar muayyan darajada mifologiyada va ilk diniy tasavvurlarda o'z ifodasini topadi. Lekin, ayni paytda, ularda ibtidoiy ajdodimizning olamni va o'z – o'zini bilishga bo'lgan intilishi ham kuzatiladi. Uni hissiyot bilan tafakkur o'rtasidagi bilish hodisasi deb tavsiflash mumkin.

Mifologiyaning mohiyati va bilishda tutgan o'rniga nisbatan turli qarashlar mavjud.. Xususan, ba'zi tadqiqodchilar mifologiyani borliqni tushuntirish usuli deb hisoblasa, boshqalari uni ibtidoiy ajdodlarimizning olamni va o'z – o'zini bilishga bo'lgan intilishi deb biladilar. Bizningcha, keyingi qarash haqiqatga yaqinroq bo'lsa kerak. Aks holda mifologiyani dunyoqarash tipi sifatida tavsiflab bo'lmaydi. Mavjud adabiyotlarda, ayniqsa, o'quv adabiyotlarida uni dunyoqarash shakli deb hisoblashadi.

Lekin, shuni ham e'tiborga olish kerakki, bilish faqat sof subyektiv tajriba emas, balki obyektivlikka tayanadigan, haqiqatga intilish, uni egallashni nazarda tutadigan jarayondir. Shunday ekan, borliq qonuniyatlarini bilish, ulardan amaliyotda, kundalik hayotda foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ertami – kechmi bilish faoliyatini miqlar, afsonalar to'qish jarayoni doirasidan chiqishga, uning sferasini kengaytirishga olib keladi. Mifdan fanga, falsafaga, ya'ni, dunyoqarashning boshqa shakllariga o'tish sodir bo'ladi. Bu jarayonda muhim oraliq bo'g'in vazifasini old falsafa va parafalsafa bajarishadi.

Old falsafa – rivojlangan mifologiya va ilmiy bilimlar kurtaklari yig'indisi bo'lib, falsafaning paydo bo'lishiga shart – sharoit yaratgan. U “shakllanayotgan falsafa o'zagini, parafalsafa esa– qobig'ini tashkil etadi. Agar mazkur o'zak, yadro yo'q bo'lsa, parafalsafa old falsafa shaklida, ichida yadro paydo bo'ladigan qobiq ko'rinishida bo'ladi”².

Mazkur holat falsafaning dunyoqarash shakli, inson ma'naviy hayotining muhim tarkibiy elementi sifatida mifologiya ta'sirida hamda ilmiy tasavvurlar, masalan, matematika, astronomiya, fizika, tibbiyot va shu kabilarga oid bilimlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanganidan dalolat beradi. Falsafiy fikrning keyingi

¹ Bu to'g'risida to'laroq ma'lumot olish uchun quyidagi manbalarga murojaat qilish mumkin: Losev A.N. Istoriya antichnoy filosofii.-M.:Mysl, 1989-S.7-11; Чанышев A.N. Kurs leksiy po drevnoy filosofii.-M.:Vysshaya shkola, 1981 –S. 3 – 27.

²Чанышев A.N. Kurs leksiy po drevney filosofii – S.21.

rivoji, uning tarixini esa inson dunyoqarashining kengaya borishi, mafkuraning rivoji, ma'naviyatning yuksalishi ko'rsatkichi bo'lgan, deyishimiz mumkin.

Birinchi Prezidentimiz ma'naviyatni anglash, uni yuksaltirish bilan falsafa, uning tarixini o'rganishning o'zaro aloqadorligini manaviy va moddiy hayot uyg'unligi masalasi, uning negizida falsafaning asosiy tushunchalari, oqimlari – materializm va idealizmning shakllangani, ularning turli davrlarda mavjud ijtimoiy – siyosiy vaziyat va turli guruhlar, tabaqalar dunyoqarashini ifoda etgani, sof nazariy masala doirasidan chiqib, muayyan siyosiy rejim va davlatning rasmiy mafkurasiga aylangani bilan bog'liq holda tushuntiradi. Xususan, moddiy va manaviy hayot munosabati masalasiga qadimiy hind, xitoy, yunon faylasuflari, masalan Sokrat, Platon, Epikur, Demokrit, Konfusiy va boshqa allomalar ijodida keng o'rin berilganini alohida takidlaydi. U yozadi: “Masalan, antik davr faylasuflari bo'lmish Sokrat va Platon, Epikur va Demokrit, xitoy donishmandi Konfusiy va boshqa allomalarning bu boradagi nazariy qarashlari fan tarixidan yaxshi ma'lum. Ularning ayrimlari ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, ba'zilar esa moddiy olamni asosiy o'ringa qo'yadi”¹. Uning fikricha, “Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida bunday bahslar sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma'lum bir tuzum yoki davlatning rasmiy mafkurasini maqomini ham olgan.”².

Shuningdek I.A.Karimov borliqni moddiy va manaviy jihatlari birligida, yaxlit holda olib qarashning ko'hna merosimiz “Avesto ”da aks etishi³, buyuk mutafakkirlarimiz olimlarimiz, xususan Muso Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, imom Buxoriy, at-Termiziy, imom Moturidiy, Marg'inoniy, Naqshband kabilar dunyoqarashlari, ilmiy merosining olamni va insonni, ularning o'zaro munosabatini falsafiy mushohada qilishda muhim o'rin tutganini zikr etadi⁴.

Albatta, falsafiy-tarixiy jarayon, aniqrog'i, bu o'rinda falsafa tarixi va falsafa munosabati to'g'risidagi bunday turli fikr-mulohazalar, ba'zan bir-birini istisno qilish darajasigacha yetadigan qarashlarning mavjudligi masala muhokamasi davomida paydo bo'lishi tabiiy holdir, u haqiqatni anglashga yordam beradi. Haqiqat esa shundaki, o'zining shakllanish va rivojlanish bosqichlariga, ya'ni tarixiga ega bo'lmagan fan yo'q, buning aksini ta'kidlash fanning to'satdan paydo bo'lib qolishini e'tirof etishga olib keladi.

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent:”Ma'naviyat”, 2008 - 65 b.

² O'sha asar: 66 b.

³ Qarang: o'sha asar, 31 b.

⁴Qarang: o'sha asar,29-65 b.

Shunday ekan, falsafa tarixi fan sifatida mavjud. Uning predmetini falsafiy fikrning paydo bo'lishi, turli o'zaro bog'langan falsafiy ta'limolar, konsepsiyalarda uning fundamental muammolari, asosiy tushunchalari va prinsiplarining shakllanishi va mazmunan boyib borishi, falsafiy-tarixiy jarayonning qanday yo'nalishlarda taraqqiy etishi, bu taraqqiyot tendensiyalarining obyektiv qonunlarga bo'ysunishi va nimalarda ifodalanishini o'rganish tashkil etadi.

Falsafiy sistemalar plyuralizmi, xususan, falsafa tarixida bir vaqtda bir-biridan farq qiladigan, ba'zan biri ikkinchisini istisno qiladigan o'zaro zid oqimlar, yo'nalishlar, ta'limotlar, konsepsiyalar, metodologik yondashuvlar mavjudligi, ularning falsafiy fikr rivojida ortib borishi uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashni talab qiladi. Falsafiy qarashlar xilma-xilligini belgilovchi ana shunday omillardan biri bilimlar taraqqiyoti, shu jumladan, falsafiy bilimlar rivojidagi differensiasiya va integrasiya jarayonlaridan iborat bo'lib, u qonuniy xarakterga ega. *Falsafiy bilimlar differensiasiyasi*(tarmoqlashuvi) deganda muayyan boshlang'ich asos, konseptual birlik doirasida tafovut qiluvchi ta'limotlarning vujudga kelishi tushuniladi¹. Bu falsafiy-tarixiy jarayonda turli darajalarda amalga oshishi mumkin. Masalan, falsafiy dunyoqarashning boshlang'ich punkti yoki masalasi: inson – olam munosabati masalasi muhokamasi negizida ontologiya-borliq falsafasi, gnoseologiya- bilish falsafasi, ijtimoiy falsafa, falsafiy antropologiya, qadriyatlar falsafasi va boshqalar shakllanadi. Yoki, aytaylik, Qadimgi grek naturfalsafasining olamning yaxlit ontologik-kosmologik manzarasini yaratish uchun borliq substansiyasi-birlamchi materiyani aniqlashga qaratilgan urinishlari davomida bir qancha yondashuvlar va mos ta'limotlar paydo bo'ldi; xususan, Fales-suvni, Anaksimenes-havoni, Geraklit-olovni, Levkipp va Demokritlar-atomlarni substansiya deb asoslaganlari holda o'z ta'limotlarini yaratdilar. Differensiasiya natijasida hosil bo'lgan ta'limotlarning boshlang'ich asos, asosiy prinsiplar bo'yicha umumiylik, aynanligi saqlanib qoladi; tafovutlari ju'ziy xarakterga ega, ular o'rtasida qarama-qarshiliklar yo'q.

Falsafiy bilimlar integrasiyasi (qo'shiluvi) deganda muayyan fundamental muammo muhokamasi negizida vujudga keladigan turdosh qarashlar, ta'limotlar qo'shilishi, umumlashtirilishining yangi nazariy sistemaning shakllanishiga olib kelishi tushuniladi. Masalan, yuqorida qayd etib o'tilgan va boshqa shu turdagi ta'limotlar, o'z navbatida, qo'shib, sintezlab, Qadimgi Yunonistonda mifologiya, din, dastlabki ilmiy tasavvurlarni o'z ichiga olgan bilimlar umumiy massividan ilk falsafiy yo'nalish – naturfalsafaning ajralib chiqib, alohida ilm sohasi sifatida mavjud bo'lishiga olib keldi.

¹ Karang: o'sha asar.-217

Shuningdek, falsafa tarixida *falsafiy bilimlar divergensiyasi* tushunchasi ham ishlatiladi. A.S.Bogomolov va T.I.Oyzermanlar uni quyidagicha tavsiflaydilar: “Divergensiya, differensiasiyadan farqli o’laroq, avvalgi ta’limot prinsiplaridan kam deganda bittasini inkor qilishni taqozo etadi. Lekin bu inkor barcha asosiy prinsiplari raddiyasi bo’lmaganligi sababli, turdosh qarashlar qarama-qarshiliklari bir tomonlama, yetarlicha rivojlanmagan bo’ladi”¹. Masalan, Demokrit atomlarning massaga egaligini aytmaydi, Epikur esa, aksincha, ularning massasi mavjudligini asoslaydi. Lekin bu ularning prinsiplar jihatdan butunlay qarama-qarshiligini bildirmaydi, u juz’iy xarakterga ega.

Tarixan o’sib, rivojlanib borar ekan, falsafiy bilimlar divergensiyasi jarayoni zaruriy tarzda *falsafiy bilimlar qutblashuviga* – bir-birini asosiy prinsiplar, g’oyalar bo’yicha prinsiplar istisno qiluvchi falsafiy oqimlar, konsepsiyalarning paydo bo’lishiga olib keladi². Masalan, Demokrit materializmi va Platon idealizmi yoki Hegel rasionalizmi va Shopengauer irrasionalizmi ana shunday qutblashgan ta’limotlar sirasiga kiradi. Taraqqiyot manbaini ichki ziddiyatlarda deb biluvchi dialektika va tashqi ta’sir etuvchi kuchda deb hisoblaydigan metafizika ham qutblashgan falsafiy ta’limotlar va metodlardir.

Ko’rib turibmizki, falsafiy bilimlar differensiasiyasi va integrasiyasi, divergensiyasi va qutblashuvi falsafiy-tarixiy jarayonning, falsafa rivojining amalga oshish shakllari sifatida namoyon bo’ladi.

Falsafiy fikr rivojini ifodalaydigan hodisalardan biri turli falsafiy ta’limotlar, konsepsiyalar o’rtasidagi *vorisiylik*dir. Tarixda har bir avlod yaratgan moddiy ne’matlarning keyingi avlod tomonidan o’zlashtirilishi moddiy madaniyat ravnaqining sharti bo’lgani singari, avvalgi avlod qoldirgan ma’naviy meros keyingi avlod tomonidan uni mazmunan boyitib, yangi, yuqori bosqichga ko’tarish, rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Lekin bu haqiqatni anglashning murakkab tomonlari ham bor. Xususan, birinchidan, falsafa tarixida ko’pchilik tomonidan haqiqat deb e’tirof etiladigan ta’limotlar juda kam. Masalan, Aristotel Platonning g’oyalar to’g’risidagi ta’limotiga e’tirozlar bildirgan, o’z navbatida, Aristotel mantig’ini F.Bekon Yangi davrda bilish vazifalarini hal etish uchun butunlay yaroqsiz deb hisoblagan, Dekart esa, Bekon empirizmini tanqid qilgan va unga qarshi rasionalizmni bilishning haqiqiy metodi sifatida asoslagan.

Ikkinchidan, falsafiy sistemalarning xilma-xillari orasidagi munosabat ham turlicha bo’lib, ular hamma vaqt ham muhim jihatlari bo’yicha mos kelavermaydi, vorisiylik esa o’zaro muvofiqlikni talab etadi. Uchinchidan, ba’zi faylasuflar, ayniqsa buyuklari, odatda, o’z nuqtai nazarlarining haqiqatligiga ishongan, uni

¹Bogomolov A.S.,Oyzerman T.I. Основы теории историко-философского процесса.-М.:”Наука”,1983-S.219

² Karang: o’sha asar-B.222

qat'iy tarzda himoya qilgan holda, avvalgi mutafakkirlar qarashlarini qabul qilmaydilar va ularni xato deb hisoblab, rad etadilar. Masalan, Aristotel sofistlarni qalbaki donishmandlar deb atagan, Gegel Kantning kategoriyalarni bilishning aprior vositalari deb tushuntirishini butunlay rad etgan.

Bu borada F. Koplston fikrlari e'tiborga loyiqdir. Uning ta'kidlashicha, Qadimgi Gresiya falsafasi, adabiyoti va san'ati singari, asosan grek tafakkuri taraqqiyoti natijasidir. Grek madaniyatiga tashqaridan ko'rsatilgan ta'sirni maqtashga intilib, grek tafakurining o'ziga xos kuchga, mohiyatga egaligini yetarlicha baholamaslikka yo'l qo'ymaslik darkor. Bernet ta'kidlaganidek, " Biz grek tafakurining o'ziga xos ulug'vorligini ortiqcha baholashdan ko'ra, uni yetarlicha baholamaslikka moyilmiz¹. Xususan, ishonchli asos keltirmasdan barcha grek mutafakkirlari o'z g'oyalarini o'tmishdoshlaridan olgan degan xulosaga kelmaslik kerak. Agar aksini e'tirof etadigan bo'lsak, unda mantiqan qandaydir bir g'ayritabiiy iqtidorga ega mutafakkir bo'lgani va uning barcha falsafiy sistemalar boshida turganini tan olishimizga to'g'ri keladi. Xuddi shuningdek, ikkita zamondosh faylasuf yoki ikki falsafiy maktabda o'xshash konsepsiyalar bo'lishi uni bir maktabning ikkinchisidan o'zlashtirganini bildiradi, degan mulohazani to'g'ri deb hisoblay olmaymiz. Qadimgi grek falsafasida Sharq falsafasidagiga o'xshash g'oyalar bo'lsa, ular ana shu falsafadan o'zlashtirilgan degan fikr bemanilikdan boshqa narsa emas. Oxir-oqibatda inson aqli-idroki, u greknikimi yoki hindnikimi bo'lishdan qat'iy nazar, o'xshash hodisalarni bir xil talqin qilishga moyil va shuning uchun ham talqinlar o'xshashligi birining ikkinchisidan asosiy g'oyalarni o'zlashtirilgani to'g'risida xulosaga kelish uchun inkor etib bo'lmaydigan asos bo'la olmaydi.

Ayni paytda bunday mulohazalardan kelib chiqib falsafiy tafakkur taraqqiyotidagi vorisiylikni inkor etish ham noto'g'ri bo'ladi. Masalan, rimliklar o'z izlanishlarida asosan grek g'oyalariga tayanishgan. Biroq, garchi rim maktabi grek maktabi asosida vujudga kelgan bo'lsada, va buni hych kim inkor etmaydi, bu maktabda yaratilgan g'oyalar keyinchalik Yevropa ziyolilari orasida keng tarqaldi. Bu kabi holatlar, bir tomondan, turli falsafiy sistemalarning o'ziga xosligini, ikkinchi tomondan, ularning o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi, ya'ni ularning dialektik tabiatini namoyish etadi².

Demak, yuqorida aytib o'tilganidek, bilimlarning, shu jumladan, falsafiy bilimlarning rivoji obyektiv tendensiya, u muayyan taraqqiyot qonunlariga

¹ Iqtibos quyidagi manba bo'yicha: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. P.3

² Bu haqida qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. P. 2-4

bo'ysunadi. Uni turli vaqtda va sharoitlarda paydo bo'lgan falsafiy sistemalarning, hatto, qarama-qarshi, zid bo'lgan ta'limotlarning aloqalari, o'zaro taqozalanishlarisiz, ya'ni, ular rivojidadagi vorisiyliksiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Falsafada davr ruhining aks etisht, falsafiy-tarixiy jarayonning turli davrlarda kechishi falsafa tarixida davriylashtirish masalasini qo'yish va muhokama etishni taqozalaydi. Bu masalani hal etishda ko'p hollarda tarix fanida qabul qilingan davriylashtirishga murojaat qilishadi va unga asos sifatida tayanishadi. Uni tarixga sivilizasiyaviy yondashuv asosida, ya'ni jamiyatdagi ishlab chiqarish usuli va hukmron ijtimoiy-siyosiy rejim, madaniy-mafkuraviy muhit va shu kabilarni hisobga olgan holda davrlarga ajratish desak bo'ladi. Falsafada bu quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: 1) Kadingi davr falsafasi yoki antik falsafa (eng qadimgi davrlardan - eramizning IV-asrigacha, ba'zan uni VI-asrgacha davom etgan deyishadi), 2)O'rta asrlar falsafasi (V-IV-asrlar), 3)G'arb uyg'onish davri falsafasi (XV-XVI-asrlar)¹, 4)Yangi davr falsafasi (XVII-XIX-asrning birinchi yarmi), 5) Eng yangi davr falsafasi (XIX-asrning ikkinchi yarmidan-hozirgi kungacha). Bunda har bir davr falsafasining o'ziga xosligini ko'rsatish mumkin. Masalan, Qadimgi davr falsafasiga (antik falsafaga) – kosmosentrizm, o'rta asrlar falsafasiga – teosentrizm, G'arb uyg'onish davri falsafasiga – antroposentrizm, Yangi davrning XVII-asri falsafasiga – metodologizm, XVIII-asri falsafasiga –ma'rifatchilik xos deyishadi.

Har bir davr falsafasi ichida kichik davrlarni ajratish mumkin. Masalan, antik falsafani uch davrga bo'lish qabul qilingan: naturfalsafa davri, mumtoz grek falsafasi, ellin-rumo davri falsafasi. O'z navbatida, naturfalsafa davrini grek falsafasi va Italiya falsafasiga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Falsafa tarixini qanday o'rganish kerak, degan savolga javob berish ham muhimdir.

Falsafa tarixini o'rganishga kirishar ekanmiz, birinchi navbatda, u yoki bu falsafiy sistema paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlarini, uning boshqa sistemalar bilan aloqasini hisobga olishimiz lozim. Masalan, Kant apriori nazariyasining qanday yaratilganini faqat shu davrdagi tarixiy vaziyatni e'tiborga olgandagina tushuna olishimiz mumkin. Ma'lumki, shu yillarda Yumning tanqidiy falsafiy sistemasi paydo bo'ldi; mintaqada hukmron bo'lgan rasionalizmga shubha bilan qaray boshladilar, matematika va Nyuton fizikasi esa ishonchli natijalarga olib kelmoqda edi. Xuddi shuningdek, Anri Bergsonning hayot falsafasini undan

¹ Ba'zan G'arb uyg'onish falsafasini alohida davrga ajratmasdan, uni o'rta asrlar falsafasiga qo'shib yuborishadi. Masalan, S.A Nijnikov ana shunday yo'l tutib, o'rta asr falsafasini uch davrga bo'ladi:1)ilk o'rta asr (V-XI-asrlar), 2) rivojlangan o'rta asr (XII-XV-asrlar), 3) kech o'rta asr (XVI-XVII-asr o'rtasi) falsafalari (Qarang: Nijnikov S.A. Istoriya filosofii. M., 2004 –S.94)

ilgari mavjud bo'lgan mexanistik nazariyalar va fransuz spiritualizmi bilan aloqadorligini ko'rib chiqqandan keyingina tushunish mumkin edi.

Ikkinchidan, falsafa tarixini o'rganish samarali bo'lishi uchun ijodi o'rganilayotgan faylasufga jiddiy e'tibor qaratish kerak, boshqa so'z bilan aytganda, uning psixologiyasi va aql qurilishini tushuna bilish lozim. Falsafa tarixchisining ko'rib chiqilayotgan faylasufning inson sifatida qanday ekanligi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishi ham ma'qulroqdir (albatta, barcha faylasuflar to'hrisida hamma narsani bilib bo'lmaydi). Bu o'rganilayotgan sistema bilan "yashashga", unga ichki tomonidan qarashga, faqat ungagina xos bo'lgan "xushbo'ylikni" va xarakterli xususiyatlarini ilg'ashga yordam beradi. Biz o'zimizni ko'rib chiqilayotgan faylasuf o'rniga qo'yishga va uning g'oyalarini o'zimizda paydo bo'lganidek his qilishga urinib ko'rishimiz kerak. Biroq faylasuf psixologiyasini o'rganishga berilib ham ketmaslik kerak, chunki bu unig hojalarining o'z holicha chin yoki xatoligini aniqlashga, uning sistemasining boshqa faylasuflar sistemalari bilan bo'lgan aloqalarini bilishga xalaqit beradi. Aks holda faylasuf ta'limoti uning ruhiy holatining in'ikosiga o'xshab qoladi.

Ilmiy tadqiqotlarda esa, u yoki bu mutafakkir sistemasiga yo'l ochish, u ishlatgan so'zlar va jumjalarningina emas, ularning ma'nolarini, ular orqali muallif bildirmoqchi bo'lgan fikrlarni (imkoniyat darajasida, albatta) anglash, ta'limot detallarini uning yaxlitligi bilan bog'lab o'rganish hamda mazkur sistemani nima keltirib chiqargani va uning natijasi qandayligini tushunib yetish muhimdir. Shuning uchun, har bir fanda bo'lgani singari, falsafa tarixida ham muayyan mavzuni, aytaylik, Platon falsafasini o'rganayotgan kishining grek tilini va Gresiya tarixini, grek matematikasi, grek dini, fani va shu kabilarni bilishi ma'qulroq¹.

Falsafa tarixini o'rganishda uning mafkuraviy funksiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki u jamiyat hayotiga ana shu vazifasini bajarishi davomida ko'proq ta'sir etadi. Buni milliy istiqloq mafkuramiz misolida tushuntirsak bo'ladi. I.A.Karimov o'zining 2000-yili "Tafakkur" jurnali muxbiriga bergan intervyusida ("Milliy istiqloq mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir".- T.,2000) milliy istiqloq mafkurasi, milliy g'oyasining millatning bir qancha avlodining yetuk donishmandlari, mutafakkirlari, faylasuflari tomonidan yaratilishi, nazariy asoslanishi; uning xalq turmushi sinovlaridan o'tib, tasdig'ini topishi va ana shu xalqning e'tiqodiga va kelajagiga bo'lgan ishonchiga aylanishini aytib o'tgan edi. Forobiy, Navoiy, Amir Temur, jadidlarning milliy ozodlik, mustaqillik haqidagi qarashlarini o'rganmasdan, ularda mujassamlangan falsafiy mazmunni anglab

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. P.7-8

yetmasdan turib, birinchi Prezidentimiz boshchiligida ishlab chiqilgan hamda hayotimizga samarali tatbiq etilayotgan milliy istiqlol mafkurasi, milliy g'oyani, uning negizida yaratilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini", mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" falsafiy mazmun-mohiyatini tushunib bo'lmaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Falsafa va falsafa tarixi o'zaro qanday munosabatda?
2. Borliqning ibtidoiy ongdagi in'ikosi qanday xususiyatlarga ega?
3. Mifologiyaning falsafiy dunyoqarash shakllanishiga ta'siri qanday bo'lgan?
4. Old falsafa va parafalsafa nima?
5. Dunyoqarash, shu jumladan, falsafiy dunyoqarashningning boshlang'ich nuqtasini qanday masalaning qo'yilishi tashkil etadi?
6. Falsafa tarixining predmetini nima tashkil etadi?
7. Falsafa predmeti va muammolari o'zgaririb borishining davr xususiyatlariga bog'liqligini tushuntiring.
8. Falsafiy-tarixiy jarayonning yaxlitligi va tizimlili deganda nimani tushunasiz?
9. Falsafiy fikrlar rivojidadagi vorisiylikning mohiyati nimada?
10. Falsafiy-tarixiy jarayonda milliylik va umuminsoniylikning birligini qanday tushunasiz?
11. Falsafa tarixini o'rganishga qanday yondashuvlar mavjud?
12. Gegelning falsafa tarixi konsepsiyasining mohiyati nimada?
13. Falsafa tarixining milliy istiqlol mafkurasi, milliy g'oyaning shakllanishida tutgan o'rni qanday?
14. Falsafiy fikr rivojini davriylashtirish masalasining mohiyati nimada?

2-mavzu. QADIMGI MISR VA BOBILDA DUNYO HAQIDA DASTLABKI ILMY TASAVVURLAR VA OLD FALSAFANING PAYDO BO'LISHI

Qadimgi Bobildagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat. Geografik joylashuviga ko'ra Babil, ya'ni Mesopotamiya yoki Ikki daryo (Tigr va Yevfrat) oralig'i ikki qismdan: shimoliy tog'oldi va janubiy past-tekislikdan tashkil topgan. Unda paleolit davridayoq aholi yashar edi. Mesopotamiya tabiiy chegaralar, to'siqlar bilan himoyalangan, xalqlarning ko'chuv markazida joylashgan edi. Eramizgacha bo'lgan to'rtinchi ming yillikda Mesopotamiyaning tekislik qismiga shumerlar, o'rta qismiga akkadlar kelib joylashadi. Eramizgacha uchinchi ming yillikda shumerlar janubda, akkadlar shimolda qator mustaqil shahar-davlatlar barpo etadilar. Eramizgacha bo'lgan uchinchi ming yillik o'rtalarida Shumer shaharlari Lugalzagissi, Akkad shaharlari Sargon I tomonidan birlashtiriladi. Bu ikki birlashma o'rtasidagi kurash boshlanib, unda Akkad g'olib chikadi. U o'ziga Mesopotamiya tekislik qismini bo'ysundiradi. Biroq Shumer-Akkad davlati uzoq yashagani yo'q. Kelgindi gutlar Akkad davlatini yakson qiladi. Keyinchalik paydo bo'lgan Shumer davlatining Ura III dinastiyasi amoritlar va elamitlar tomonidan yo'q qilinadi, ularning o'zaro kurashida esa amoritlar g'olib chiqishdi. Ular markazi Babil bo'lgan davlatni barpo etdilar.

Qadimgi Babil hoqonligi (1894-1595) o'z yuqori cho'qqisiga Xammurapi (1792-1750) davrida erishdi. U ikkinchi ming yilning o'rtalarida xetlar va kassitlar tomonidan yakson qilindi. Kassit dinastiyasi (1518-1202) tarixi to'g'risida ma'lumotlar kam. Eramizgacha VII-asrda Mesopotamiyaning tog'oldi qismida assuriyaliklar dastlabki yirik Yaqin Sharq davlatini barpo etib, uning hududi Erondan Misrgacha bo'lgan joylarni qamrab olgan edi.

Babilning ikkinchi gullab-yashnashi Yangi Babil hoqonligiga to'g'ri keladi (612-538). Uning keyingi rivojiga forsiylar hujumi chek qo'yadi.

Qadimgi Babil- "bronza davri" madaniyatining tipik namunasi. U to'g'risidagi manbalar toshdagi va qotgan loydagi yozuvlar bo'lib, ular assuriya-babil (akkad) tilida bitilgan. Assuriya xukmdori Ashshurbanipal kutubxonasida 30 mingdan ko'proq loy jadvallar mavjud bo'lgan. Matnlarda ish xujjatlari, qoidalar, tarixiy ma'lumotlar, tibbiy reseptlar, lug'atlar, matematik masalalar, xudolar sharafiga bag'ishlangan bitiklar qayd etilgan. Ularda qadimgi ilmiy va dunyoqarash mazmuniga ega ma'lumotlar ham o'z aksini topgan.

Ilm kurtaklari. Qadimgi Babil hoqonligi davriga oid ko'p matematik masalalar mavjud. Ular orasida ko'paytirish jadvali, kvadrat va kub sonlar, hisoblash pozision sistemasi bor. Shumer va Akkad-Bobilda oltmishlik hisob sistemasi o'ylab topilgan. Eramizgacha ikkinchi ming yillikda Babil olimlariga

kvadrat diagonalining tomonlarga munosabati, aylananing radiusga munosabati ma'lum bo'lgan. Ular kvadrat va kub tenglamalarga mos keluvchi masalalarni yechishgan.

Qadimgi Babil astronomlari Aleksandr Makedonskiy davriga (eramizgacha 4-asr) kelib, oy va quyosh tutilishi davriyligini aniqlashgan. Ikki minginchi yil boshida quyosh-oy kalendarini yaratishgan. Hammurapining qo'shimcha oy to'g'risidagi buyrug'i hozirgacha saqlangan. Bu 12 oydan iborat oy yilini (354,36sutka) quyosh yiliga (365,24sutka) yaqinlashtirish maqsadida qilingan. Keyinchalik 8 quyosh yilining 90 oyga (oy yilidagi) yaqin bo'lishi aniqlangan.

Ilmiy bilimlar bilan uzviy bog'liq holda rasional bilish, tafakkur usullari rivojlana boradi, falsafiy dunyoqarash elementlari shakllana boshlaydi. Lekin Bobilda falsafa paydo bo'lgan emas. Hatto, Yangi Babil hoqonligi davrida ham olamning tuzilishi mif, afsonalar asosida tushuntirilgan. Ilmiy bilim kurtaklari hali fanni hosil qilish darajasigacha rivojlanmagan .

Shumer mifologiyasi Qadimgi Sharq madaniyatining yuksak na'munasi bo'lib, unda Abzu qamishzor, botqoqli o'rmon obrazi ko'rinishida yaratilgan va tavsiflangan. Mesopotamiyaning janubiy qismi aynan shunday bo'lgan. Afsonaga ko'ra, uning bag'rida ibtido ona Nammu paydo bo'ladi. Ulkan Kur tog'i (shumer teogoniyasining uchinchi elementi) asosida loy, yuqorisida qo'rg'oshinsimon modda (osmonga ishora) bor. Tog' asosida yer xudosi Ki, cho'qqisida osmon xudosi An joylashgan. An va Ki (Osmon va Yer) havoning ona xudosi Ninlil va ota xudosi Enlilni yaratishadi. Aynan Enlil Osmon va Yerni bir-biridan ajratadi, kosmik bo'shliqni hosil qiladi, unda odamlar va xudolar yashay boshlaydi. An va Ki dan asta-sekin Enki-yer osti va okean suvlari xudosi, nevarasi-oy xudosi-Napnar, yer osti hoqonligi xudosi Nergal, evarasi – quyosh xudosi Utu va boshqalar paydo bo'lishadi. Mazkur afsona o'zida olamning paydo bo'lishi va strukturasi ifoda etuvchi dastlabki manbalardan biridir.

Akkad-Babil mifologiyasi Shumer mifologiyasi ta'siri ostida shakllangan. Xususan, Anga akkad Anush, Enlilga-Ellil, Innanega-Ishtar, Enkiga-Ea mos keladi. Akkad-Babil mifologiyasining o'ziga xosligi "Enuma elish" teogonik poemasida yaqqol ko'zga tashlanadi. U 7ta loy jadvallariga bitilgan. Ularda Yer, Osmon, Quyosh, Oy, Havo xudolari to'g'risida, odamlarning paydo bo'lishi xaqida mifologik qarashlar bayon qilingan. Bu mifga ko'ra, inson ikki xil tabiatli: uning tanasi loy va Marduk qatl etgan sotqin xudo-Kniguning qoni aralashmasidan tashkil topgan, joni esa-Marduk nafasining hosilasi.

Ishtarining pastga tushishi-bu yerga tegishli mifik-kalendar. Bunday miflar ko'p xalqlarda bo'lgan. U yil fasllarning almashishi, yer ishlarining yillik siklini tushuntiradi. Shumerda-bu Innan va Dumuza to'g'risidagi afsonadir. Bobilda unga Ishtar va Tammuza haqidagi afsona mos keladi. Tammuza-Ishtarining

sevgilisi o'ladi, qaytib kelmas mamlakatga ketadi. Bu o'liklar mamlakatida kichik singlisi - Ishtarni yoqtirmaydigan Nergal va Ereshkigallar xukmronlik qilishadi. Tamuzzanni orqaga qaytarish uchun Ishtar o'liklar hoqonligiga tushadi. Ereshkigal unga 60 xil kasallikni yuboradi. Yerdagi hosildorlik va muhabbat xudosi yo'q, odamlar ham, hayvonlar ham tug'ilmaydi. Xudolar tashvishga tushib qolishgan. Axir, odamlar bo'lmasa, xudolarga kim qurbonlik qiladi? Shuning uchun ham ular Ereshkigaldan Ishtar va Tamuzzanni bo'shatib yuborishni so'rashadi. Ularni bo'shatishadi. Yerga yana bahor - muhabbat fasli qaytadi.

Gilgamesh haqida ertak. Gilgamesh eposi Qadimgi Sharq adabiyotining buyuk poetik asaridir. Gilgamesh haqidagi qo'shiq loy jadvalida to'rt xil tildashumer, akkad, xurrit va xet tillarida bitilgan. Unga 3,5 ming yil bo'lgan. Gilgamesh eposi-badiiy mifologik dunyoqarash namunasi. Gilgamesh-Shumerning Uruk shahri xokimi. Xudolar undan qo'rqishadi. Uni kuchsizlantirish maqsadida xudolar unga teng kuchli pahlavon Enkiduni yaratishadi. U tabiat bolasi, hayvonlar tilini biladi. Ayyor Gilgamesh Enkiduga yo'ldan adashtiruvchi ayolni yuboradi va u Enkiduni yo'ldan uradi, buning natijasida Enkidu daslabki kuchini, tabiat bilan aloqasini yo'qotadi. Hayvonlar undan yuz o'giradi. Enkiduning kuchi endi Gilgamesh kuchiga yetmasdi. Ular kurashi oxir-oqibat kelishuv va do'stlashish bilan tugaydi. Gilgamesh eposida tavsiflanishicha, ular birga ko'p jasoratlar ko'rsatishadi. Shunda xudolar Enkiduga qat'iyatsizligi uchun o'lim jo'natishadi. Gilgamesh ham ilk bor o'limni his etadi, uning o'z-o'zini anglashi sodir bo'ladi. Do'stining o'limidan dahshatga tushgan Gilgamesh quyidagilarni aytadi: "Men ham Enkidu singari o'lamanni? Qayg'u vujudimni qopladi, o'limdan qo'rqayapman va sahroga qochayapman. O'limdan daxshatga tushayapman, hayotni topa olmayapman, qaroqchi singari sahroda daydib yuribman... Qanday qilib tinchlansam ekan? Suyukli do'stim tuproqqa aylandi. Xuddi u singari men ham abadiy turmaydigan bo'lib yotib qolamanmi?"¹ Gilgamesh mangu hayotni izlab, Utnapishti tomon yo'l oladi. U akkad Ziusidrusi edi. Utnapishti Gilgameshga "o'lmaslik giyoh" ini beradi, biroq orqaga qaytayotganda uni yo'qotib qo'yadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Gilgamesh eposida o'lim va hayot mavzusi muhokama etiladi, inson borlig'ining go'zalligi va, ayni paytda, fojialiligi namoyon bo'ladi. Xudolarning abadiyligi oldida inson umrining chegaraliligi ta'kidlanadi. O'limga mahkumligini anglagan Gilgamesh faolligini yo'qotmasdan, o'z shahrini obodonlashtiradi. Shu tariqa insonning abadiyligi uning ishida, ijodida ekanligi ko'rsatiladi.

Qadimgi Misr fani, mifologiyasi va old falsafasi.Hozirda Misrning barcha fir'avnlari-shohlari to'g'risida ma'lumotlar bor. Misr tarixi Qadimgi, O'rta

¹ Epos o Gilgameshe.-M-L.,1961 -S. 57 - 58.

va Kichik hoqonlikka bo'linadi. Qadimgi hoqonlik eramizgacha bo'lgan 2900-2200 yillarni o'z ichiga oladi. O'rta hoqonlik IX-XVI dinastiyalaridan tashkil topib, 2200-1600 yillarni, yangi hoqonlik esa XVII-XX dinastiyalaridan tarkib topib, 1600-1100 yillarni qamrab oladi. Mustaqil Misr tarixi XXVI-dinastiya (665-525y) bilan tugaydi. Bu davrda Misr markazi Sais bo'lgan. Shuning uchun ham XXVI - dinastiyadagi Misr Sais Misri deb ataladi.

Misr tarixiga oid manbalar asosan papirusdagi iyeroglif matnlardan iborat bo'lib, ular garchi loy singari mustahkam bo'lmasada, Misrning qurg'oq iqlimida yaxshi saqlanadigan bo'lgan. Qadimgi Misr qo'lyozmalari hozirgacha topilmoqda. Ular orasida "Piramidalar matnlari", "Sarkofaglar haqidagi matn", "O'liklar kitobi", "№ 10188 sonli Britaniya papirusi", London, Moskva va Berlin matematik papiruslari va boshqalar bor.

Ilm-fan kurtaklari. Qadimgi Misr fani rivoji piramidalar misolida ko'zga yaqqol tashlanadi. Ularning eng ulkani Xeops piramidasi bo'lib, uning balandligi 146 metrdir. U 2,5 mln ohak va granit toshlaridan (blokларidan) qurilgan bo'lib, har biri 2,5 tonnadan 54 tonnagacha og'irlikka ega. Bu piramida 20 yil davomida 30 ming kishining mehnati bilan qurilgan. Shuningdek, 36 original matematik qo'lyozma saqlangan. Ulardan 16 tasi eramizgacha bir minginchi yildan avval yozilgan. Bularning mazmunini amaliy matematika masalalari: ba'zi kasr sonlarni surati 1 bo'lgan kasr sonlarga ajratish, $ax+bx+\dots+nx = R$ chiziqli tenglama ko'rinishidagi vazifa ("xau"-uyum), maydonlar va xajmlarni hisoblash tashkil etadi. Piramidalar qurilishida misrliklarga 1000000 soni ma'lum bo'lgan.

Eramizgacha bo'lgan ikki minginchi yil boshida silindirsimon uyning hajmini hisoblashgan. Misr matematiklari "h" qiymatini 3,16 deb qabul qilishgan. 7 nonni 8 kishiga bo'lish masalasi yechimi ham qiziqarlidir. Har bir ishchi nonning $\frac{7}{8}$ qismini oladi deyish foydasiz, u ko'rinishda kesib bo'lmaydi. Shuning uchun uni uch kasr yig'indisi ko'rinishida olishgan, ya'ni 4ta nonni yarimtadan bo'lishgan (har bir ishchiga yarim non), ikki non to'rt qismga bo'linadi (har bir ishchiga chorakta non) va qolgan bir non sakkiz qismga bo'linadi va natijada masalap quyidagicha yechimga ega bo'ladi: $\frac{1}{2} + \frac{1}{4} + \frac{1}{8}$.

Misrlik astronomlar osmonni kuzatishgan, u amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, Nil daryosining har yilda toshishi Misr osmonida eng yarqin yulduz-Siriusning paydo bo'lishiga to'g'ri kelgan. Misrlik olimlar ekliptika–Quyoshning yulduzlar to'plamidagi ko'rinishidan kelib chiqib, uni 12 qismga bo'lishgan va ular yig'indisi Zodiakni, ya'ni "xayvonlar doirasi"ni hosil qiladi, deb hisoblashgan. Ekliptikadagi har bir yulduzlar turkumiga qandaydir bir hayvon nomi berilgan. 1,5 ming yil davomida Misr olimlari 373 marta Quyosh, 832 marta Oy tutilishini kuzatishgan.

Qadimgi Misr kalendari 12 oydan tashkil topgan bo'lib, ularning har birida 30 kun bo'lgan. Yil boshida hych bir oyga kirmaydigan beshta muqaddas kun bo'lgan. Keyinchalik Quyosh-Oy kalendari yaratiladi. Oy kalendarini Quyosh kalendariga moslashtirish uchun har 25 yilda 13-oy qo'shilgan. Sutka vaqti Suv va Quyosh soatlari bilan o'lgangan.

Qadimgi Bobilda ham, Qadimgi Misrda ham ilm bilan shug'ullanish kohinlarning ishi deb sanalgan.

Qadimgi Misr mifologiyasi. Avval boshda misrliklar hayvonlarga sig'inishgan, keyinchalik xudolar hayvonlashgan odam bo'lib qolgan. Miflar ba'zi hollarda diniy, boshqa hollarda nodiniy bo'lgan. Har xil teogoniyalar mavjud. Xususan, Geliopol teogoniyasida olam asosiga dastlabki kaos qo'yilgan, u Nun deb atalgan. Nun Ra ni yaratadi, u o'z navbatida havo xudosi Shu va uning urg'ochi ibtidosi Tefnutni yaratgan. Shu va Tefnut yerni, osmonni va yana yettita xudoni yaratishadi. Ular qatorida Osiris va Isidu, Seta va Neftidular bor. Shu-havo, osmon va yerni ajratadi hamda Nut – Osmon xudosini Yer xudosi-Gebdan yuqori qo'yadi. Odamlar mazkur diniy-mifologik dunyoqarashda teogoniyaning uchinchi darajali natijasidan iborat bo'lib qoladi. Ular Quyosh xudosi Raning ko'z yoshidan yaratilgan deb ta'riflanadi.

Isida va Osiris. Ishtar va Tammuza to'g'risidagi Bobil mifiga Isida va Osiris haqidagi Qadimgi Misr mifi to'g'ri keladi. Osiris ham hayotni, ham o'limni o'zida gavalantiradi. Osiris - Nilning, butun Misrning timsoli. U o'liklar xoqonligida hakam hamdir. Nil-Osiris o'z akasi Set-sahro timsoli bilan kurashadi. Set Osirisni aldab, tobutga tushiradi va Nil daryosida oqizib yuboradi. Osirisning singlisi-xotini Isida (Misrda fir'avnlr o'z singlisiga uylanganlar) erini qidirishga tushadi. U endigina o'g'li Gorni tuqqan edi. Set Osiris tanasini bo'laklarga ajratib, turli joylarga sohib tashlaydi. Isida uning qismlarini topib, birlashtiradi. Yer osti xoqoni Anubis va Osirisning o'g'li Gor Osirisni tiriltiradi va shu tariqa u Set ustidan g'alaba qozonadi. Osiris va Set o'rtasidagi bu doimiy kurash Misrdagi yil fasllarini ifoda etadi: Nilning toshishi - ekin mavsumi, hosilning pishishi va uni o'rish mavsumi (aprel-iyun), tobutdagi Osiris-qurg'oqchilik paytidagi Nil sathining pasayishi, uning tanasi a'zolarining, qismlarining sohib yuborilishi- Nil toshqinidan keyin paydo bo'ladigan sun'iy ko'llar, botqoqlik, ko'lmaklar; Osirisning tirilishi va Gorning Set ustidan g'alabasi- Nilning yangidan toshishi, hayot tantanasi.

Biroq, yuqorida aytib o'tilganidek, Osiris faqat hayot emas, o'lim timsoli hamdir. Qadimgi misrliklarda ko'mish marosimi kuchli an'anaga aylangan. O'limdan keyin faqat tana butun bo'lgan holdagina jon to'laqonli hayot kechira oladi, deb hisoblashgan. Tanani mumlash, o'liklar shahrini – nekromaydonlarni qurish hamda katta piramidalarni-ulkan sarkofaglarni fir'avnlr uchun barpo etish

odati mana shundan kelib chiqqan. Yer osti xoqonligida (o'liklarniki) jon Osiris oldida muhayyo bo'ladi. Hakam qalbni, yurakni tarozining bir pallasiga, haqiqat haykalini ikkinchi pallasiga qo'yadi. Agar ikkinchisi baland ko'tarilsa, jon do'zax balosi tomonidan yeb qo'yiladi. Aksi bo'lsa, u maydonga-hyech qachon ko'rinmaydigan maydonga yuborilgan.

Qadimgi Misr lirikasi ham yaxshi rivoj topgan. U o'zining dunyoqarash mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, "Arfist qo'shig'i"da olamning diniy-mifologik manzarasi shubha ostiga olinadi. Unda aytiladi: "Hyech kim hali u yoqdan kelib, unda nimalar borligi to'g'risida, ularga nima kerakligi haqida hyech nima demagan, qalblarimizni tinchlantirmagan"¹. Qo'shiqda "o'lganlardan hyech biri qaytib kelmagan"² deyiladi. Tirik ekansan, qalbing xoxishiga qarab ish ko'r, deb aytiladi.

Lekin boshqa bir asarda—"O'lim maqtovi"da narigi dunyoning mavjudligi to'g'risida mulohaza bor: "Vaqt uyqu singari lip etib o'tib ketadi va Quyosh botar maydonda "xush kelibsiz" deb kutib olishadi"³. Bu maydonni misrliklar G'arbda deb hisoblashgan.

Falsafa elementlari. Bobilda ham, Misrda ham falsafa vujudga kelmagan, lekin uning elementlari bo'lgan. "Xo'jayinning o'z quli bilan gaplashishi", "Arfist qo'shig'i", "Hafsalasi pir bo'lganning o'z joni bilan bahsi"da e'tiqod bilan hyech qanday ixtilof, nizo yo'q, lekin sosioantropomorfizm dunyoqarashiga shubha, skeptisizm va pessimizm mavjud. Bu diniy-mifologik dunyoqarashning inqirozga yuz tuta boshlaganligidan dalolat beradi.

Sais Misri. Qadimgi Misr Ellada madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Birinchi ming yillikning o'rtalarida (eramizga qadar) Misr va Ellada uzviy bog'liq edi. Buni Misr XXVI-dinastiyasi fir'avnlarning grekcha turmush tarzini kechirganligi ko'rsatadi. Bu dinastiyaning eng oxirgisidan avvalgi fir'avni grek qiziga uylangan. U Misrda koloniyalar tashkil etishga ruxsat bergan. Greklar Misrga donishmandlik manbai sifatida hurmat bilan qaraganlar. Eramizgacha 525-yilda Misr forslar tomonidan bosib olindi. Deyarli 2,5 ming yil Misr forslar, greklar, rimliklar, arablar, turklar, inglizlar irodasiga bog'liq bo'lib qoldi, falsafa rivoji orqada qoldi.

Eron va Turonda falsafagacha bo'lgan fikrlar⁴.

Eramizga qadar VII-asrda midiyaliklar, keyinroq forsiylar davlatlari tez sur'atlar bilan taraqqiy eta boshlagan, ular Qadimgi sivilizasiyaning g'arbiy

¹ Lirika Drevnego Yegipta. –M., 1965 –S. 84.

² Tam je, s. 85.

³ Tam je, s. 86.

⁴ Falsafa yo'nalishi o'quv rejasida Markaziy Osiyo xalqlari falsafasi alohida predmet sifatida o'qitilishi belgilanganligi uchun biz bu masala bo'yicha qisqa tarzda umumiy ma'lumot berib o'tish bilan cheklanamiz.

qismida muhim rol o'ynagan. VI-asrda forslar midiyaliklar ustidan g'alaba qozonib, ulkan fors davlatini barpo etadilar: uning tarixi ahmoniylar dinastiyasi (558-330) bilan uzviy bog'liq. Ahmoniylar VI-asrning(er.qadar) ikkinchi yarmida Bobilni, Midiyani, qadimgi Gresiyaning Kichik Osiyo qismidagi viloyatlar-Ioniya va Eolidani, O'rta Osiyoning bir qismini, Misrni, Egey dengizining grek orollarini bosib oladi; Bolqon yarim oroliga bostirib kirib, Makedoniya va Frakiyani bo'sundiradilar. Grek-fors urushi davomida (500-449) forslar Afinagacha yetib borib, uni vayron qiladilar. Sharqda ular shimoliy-g'arbiy Xindistonni egallaydilar. Lekin er.qadar IV-asrning oxirida Fors imperiyasi Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi makedoniyaliklar va greklar qo'shinlari tomonidan to'laligicha vayronaga aylantiriladi.

Ta'kidlash joizki, bosib olingan yerlarda ular mahalliy xalqlar dinlarini hurmat qilishgan. Shuning uchun ham Kirni Marduk xudosining elchisi deb atashgan. Imperiya hududida yo'l tarmoqlari sistemasi, yagona soliq tizimi, yagona aramey tili, pochta tizimi, yagona pul birligi (oltin moneta), umumiy qonunchilik markazi mavjud edi.

Turon va Eron mifologiyasi "Avesto"da o'z ifodasini topgan. Zardushtiylikning bu yozma manbai boy dunyoqarash mazmuniga ega bo'lib, uning bosh g'oyasini Axuramazda va Axrimon obrazlari orqali ifodalangan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama – qarshilik kurashi va bu kurashda ezgulikning g'alaba qozonishi tashkil etadi. Shuningdek, unda olamning boshlang'ich asoslari va tuzilishi, yaxlitligi to'g'risida muhim fikrlar mavjud. Ayniqsa, Axuramazda timsolida gavdalangan dunyoviy Aql hamda suv, yer, havo, olovning muqaddaslashtirilishi e'tiborlidir. Bunday mulohazalarning keyinchalik Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi, xususan, lokayata falsafiy ta'limoti, Platon va Aristotel ontologik konsepsiyalarida olamning ibtidosi masalasining qo'yilishi va hal etilishiga ko'rsatgan ta'siri yaxshi ma'lum.

Zardushtiylikning dinlar va diniy ta'limotlar taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ham sezilarlidir. "Avesto"ning jiddiy tadqiqotchilaridan biri faylasuf-olim Tohir Karimning yozishicha, "Dastlab zardushtiylikda shakllantirilgan va keyinchalik barcha jahon danlarida asosiy tushunchalar sifatida suyanadigan diniy kategoriyalar, g'oyalar mazkur dinlar orqali insoniyatning asosiy diniy qadriyatlariga aylandi"¹.

¹ Tohir Karim. Milliy tafakkur taraqqiyotidan ("Avesto" zamonidan to XXI asr boshlarigacha). - T.: ChO'LPON, 2003- B.30.

Qadimgi Babil, Misr, Turon va Erondagi o'zgarib boruvchi ijtimoiy-tarixiy vaziyatlar, madaniy yuksalish, uning natijasi bo'lgan mifologiya va diniy tasavvurlarning shakllanishi, ilk ilm kurtaklari va san'at namunalari paydo bo'lishi, til va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari tahlili muayyan darajada umumlashgan, xulosalar tarzidagi fikr-mulohazalar bildirishga imkon beradi.

Avvalambor, bu hududlar ma'naviy hayotida mifologiyaning ustuvor dunyoqarash shakli bo'lganini qayd etish lozim. Borliqni mifologiya darajasida idrok etishning o'ziga xosligi shundaki, unda subyekt-obyekt munosabatlari fizikaviy va ruhiy realliklar munosabatlari tarzida talqin qilinadi. Bunday analogiya o'zining ildizlari bilan borliqni bevosita ruhiy his etish asosida modellashtiradigan animistik tasavvurlarga borib taqaladi. Bunday mifda tabiat hali bilish obyekti sifatida subyektga qarama-qarshi turmaydi. Subyekt real bilish predmeti bilan emas, jonlantirilgan, ruhlantirilgan mavjudotlar bilan ish ko'radi. Masalan, bobilliklar qurg'oqchilikdan qiynalib turgan paytda atmosferadagi muayyan o'zgarishlar ta'sirida yomg'irning yog'ishini kuzatar ekanlar, uni bahaybat qush Imdugunning paydo bo'lib, yordamga kelishi deb ko'nglidan o'tkazganlar, uni osmonni qoplab turgan momoqaldirqli qora bulut ko'rinishida tasavvur qilishganlar. Keltirilgan misol shuni ko'rsatadiki, miflarda inson hayoti uchun ahamiyatli, u bilan bevosita bog'liq hodisalar talqin qilingan. Ana shuning uchun ham mifologik obrazlarni shunchaki allegoriyalar deb bo'lmaydi. Mif tasdiqlanmaydigan, lekin muhim bo'lgan haqiqatni ochib beradi¹.

Olamni anglash yo'lidagi urinishlar davomida mifdagi animistik tasavvurlar ularga antropomorfik tus berish bilan yakunlanadi. Antropomorfizmning o'ziga xosligi shundaki, unda animizmga xos tabiatdagi barcha narsalarni ruhlantirish o'rnini inson jismiga o'xshatib yaratilgan qudratli kuch, ruhga ega demonlar, xudolar obrazlari (sosioantropomorfizm) egallaydi. Ijtimoiy hayotning keyingi taraqqiyoti davomida obro'-e'tiborli kishilar, aynisa jamoa, davlat boshliqlari ilohiylashtirila boshlanadi.

Qadimgi Babil va Misr, Turon va Eron mifologiyasi nafaqat xudolar obrazlari, diniy tasavvurlarning yaratilishiga, balki qadimgi san'at turlarining shakllanishiga, xususan, arxitektura inshootlarining (masalan, piramidalarning) barpo etilishiga, tosh o'ymakorligi san'atining paydo bo'lishiga, simvollar, til belgilarining yaratilishiga, poetika janrida (masalan, lirikada) ijodning amalga oshirilishiga turtki berdi, ularda "moddiylashdi", "miflarning estetik sekulyarizasiyalashuvi" ifodasi bo'ldi. Aytish mumkinki, mifologiyada ko'tarilgan tabiiy va g'ayritabiiy kuchlar, tana va ruh, hayot, o'lim va taqdir munosabatlari masalalari diniy tasavvurlar va san'at namunalari mazmunini belgiladi hamda ilk

¹ Qarang: Nijnikov S.A. Istoriya filosofii. M., 2004 –S.19

ilmiy tasavvurlar bilan qo'shib, old falsafaning shakllanishiga olib keldi. Old falsafani tashkil etuvchi tasavvurlar olam va odam to'g'risida umumiy bilimlar massivini hosil qilib, u sinkretik tarzda, ya'ni hali bir-biridan aniq chegaralanmagan, tarmoqlashmagan holda mavjud edi. Unda hatto ilmiy bilimlar ham diniy-mifologik "rangda" mavjud edi. Buni ba'zi sonlarning muqaddaslashtirilishi, borliqning mavjudligi va tuzilishi to'g'risidagi kosmologik tasavvurlarning teogoniya bilan bog'lanib ketishi tasdiqlaydi. Ana shuning uchun ham Qadimgi Bobil va Misrda falsafa paydo bo'lgan emas, deyiladi.

Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, mifologiya tufayli inson g'oyani predmetdan, tasavvurni uning obyektidan ajratishni o'rgandi. Yuqorida aytib o'tilgan mifologiyada ko'tarilgan masalalar falsafaning fundamental muammolarining shakllanishi uchun zamin yaratdi.

Albatta, mifologiya, din, fan, falsafa fikrlash, tafakkurning turli tiplaridan iborat, Mifologiya va falsafa insonning o'z-o'zini anglashiga intilishi natijasi bo'lgan holda, birinchisida borliqni u undagi boshqa predmetlardan o'zini ajratmagan holda mushohada qilsa, ikkinchisida u subyekt sifatida o'zini borliqdan farqlab, uni yuqori darajada abstraktlashgan, umumlashgan nazariy tushunchalarda aks ettiradi. Fan esa, ularning har ikkalasidan farq qilib, tajribaga tayangani holda predmetni adekvat tarzda in'ikos etadi, konkret predmet va hodisalarni xarakterlaydigan qonunlarni o'rnatadi, lekin dunyoqarash masalalarini hal qilmaydi.

Falsafaning dunyoqarash shakli, tafakkurning alohida tipi sifatida shakllanishini mifdan logosga o'tish deb tavsiflashadi. Bu tafakkur taraqqiyotining keyingi bosqichida Qadimgi Hindistonda sodir bo'ldi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi Bobilda ijtimoiy-tarixiy vaziyatqanday edi?
2. Qadimgi Bobildagi ilk ilmiy tasavvurlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Qadimmigi Shumer va Akkad-Bobil mifolgiyalarida qanday dunyoqarash masalalari ko'tarilgan?
4. Gilgamesh eposida hayot va o'lim masalasining muhokama etilishining ahamiyati nimada?
5. Qadimgi Misr mifologiyasining o'ziga xosligi nimada?
6. Qadimgi Misrda shakllangan dastlabki ilmiy bilimlar amaliy ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Qadimgi Misr lirikasining mifologiya bilan bog'liqligi nimada ko'rinadi?
8. Qadimgi Bobil va Misr old falsafasining sosioantropomorfik dunyoqarash, ilmiy bilim kurtaklari va mantiqiy tafakkurning ziddiyatli birligi ekanligini qanday tushunasiz?

9. Turon va Eronda falsafagacha bo'lgan fikrlar qanday edi?

3- mavzu. QADIMGI HINDISTONDA FALSAFIY FIKRLARNING

YuZAGA KELISHi

Qadimgi hind tarixini olti davrga bo'lishadi: 1) Industan aboriginlarining ibtidoiy jamoa tuzumi; 2) Ind vohasida Xarappi va Moxenjo-Daro hind old sivilizasiyasi (eramizgacha ikkinchi ming yillikda); 3) er. avv. ikki minginchi yillar o'rtalarida Ind va Gang vohasiga shimoli-g'arbdan ko'chib kelgan oriylar ibtidoiy qabilalari davri; 4) eramizgacha birinchi ming yillikning birinchi yarmida oriylarning bir-biri bilan kurashgan bronza asri ilk quldorlik davlatlari davri; 5) Magadxa davlatining yuksalish davri (eramizgacha birinchi ming yillikning o'rtasi); 6) Maurya davlatining yuksalish davri (eramizgacha 322-185 yillar).

Bu davrlar Qadimgi Hindistonning siyosiy jihatdan ibtidoiy tuzumdan quldorchilik tuzumiga o'tishi, davlatchiligining shakllanishi; iqtisodiy jihatdan mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xo'jalik faoliyatining tarmoqlashuvi, tovar-pul munosabatlarining paydo bo'lishi; ijtimoiy sohada sosial tabaqalashuvning kelishi; ma'naviy hayotida esa mifologiyaning rivojlanishi va falsafiy sistemalarning yaratila borishi bilan xarakterlanadi.

Xususan, qadimgi hind jamiyati sosial strukturasi xalqning turmush tarzi, ma'naviy hayotiga katta ta'sir o'tkazgan. Uning xarakterli xususiyatlaridan biri varna (Yevropada u kasta degan nom bilan ataladi)larga bo'linishidir. Ular braxmanlar, kshatriylar, vayshlar, shudralar bo'lib, har bir varna o'zining ramziy rangiga ega: braxmanlar – oq, kshatriylar – qizil, vayshlar – sariq, shudralar – qora rangda. Xar bir varna kishilarning o'z-o'zi bilan chegaralangan yopiq guruhidan iborat bo'lib, jamiyat hayotida aniq o'rniga va mavqyeiga ega; nikohlar ham varna ichida tuzilgan, varnaga mansublik avloddan avlodga o'tgan. Varnalarning faoliyat yuritish turi ham belgilab qo'yilgan: aqliy mehnat bilan oliy tabaqa-braxmanlar(kohinlar), harbiy ish bilan – kshatriylar, yer ishlari, xunarmandchilik, savdo bilan-vayshlar; og'ir jismoniy ishlar bilan-shudralar shug'ullanishgan. "Braxman" (shavkatli hayot) so'zi qadimgi xindlarning bosh xudolaridan birining nomidan olingan. "Kshatriy" so'zi "kish"-egallamoq, egallash, boshqarish fe'lidan olingan. "Vaysh" sodiqlik, bog'liqlik, degan ma'nolarga ega. "Shudra"so'zining ma'nosi va kelib chiqishi noaniq. Dastlabki uchta varna oriylardan tashkil topgan. Ular uchun jamiyatda bilim o'choqlari, eshiklari ochiq edi. Hokimiyat, boshqaruv ishlari braxmanlar qo'lida bo'lgan.

Hindistonda falsafagacha bo'lgan fikrlar 3 ta manbada mujassamlashgan: vedalar (veda-muqaddas bilim), Maxobxorot (18 kitobdan tarkib topgan epik asar; falsafiy g'oyalar asosan Mokshadxarma-qutulish, saqlanish yo'lida, o'z ifodasini

topgan), Bxagavadgita (Ilohiy qo'shiq) va Anugite. Hozirgi hind faylasufi-Aurobindo Gxoshning ta'kidlashicha, "Maxobxorot"-yakka, individual ong emas, milliy ong ijodi. "U xalqning o'zi to'g'risida yozgan poemasidir"¹.

Qadimgi hind falsafasi evolyusiyasini to'rtta davrga bo'lishadi.

1. Veda davri (er.avv.1500 – 600 y.). Bu davr oriylarning joylashishi va ular madaniyatining yoyilishi, "o'rmondagi universitetlar"ning paydo bo'lishi davri.

2. Epik davr (er.avv. 600- 200y.) – ilk upanishaddan darshanlar, ya'ni falsafiy sistemalargacha bo'lgan davr. Bu davrda buddizm, jaynizm va boshqa ko'plab diniy ta'limotlar paydo bo'ladi.

3. Sutra davri (er.avv. 200 y.- eramizning ikkinchi asri boshlarigacha) – qisqa va umumlashgan falsafiy ta'limotlar-sxemalar shakllanishi davri. Sutralarni talqinsiz tushunish qiyin. Bunday talqinlar anchagina bo'lib, ular ko'p hollarda asl manbalardan kam ahamiyatga ega bo'lmagan muhim falsafiy matnlardir.

4. Sxolastik davr (eramizning ikkinchi asridan boshlanadi). U mohiyatan avvalgi davrga o'xshab ketadi.

Vedalar eramizgacha uchinchi ming yillikda yig'ila boshlagan. Vedalar jami 4 ta: Rigvedalar– gimnlar to'plami, Samavedalar – ("Saman" qo'shiqlar to'plami), Yajurveda – (yajus- qurbonlik qilish formulasi) qurbonlik qilishning formulalari, qoidalari to'plami, Atxarvaveda (Atxarvak afsonaviy koxin nomi) – magiya va qasamlar to'plami. Har bir veda adabiyoti samxitlardan, ya'ni matnlardan iborat bo'lgan. Xususan, Rigvedalar 1028 gimndan tashkil topgan.

Veda adabiyotining keyingi bo'limi *braxmanlar* ("braxmana" – braxmanni tushuntirish) bo'lib, ular samxitlarga mifologik tushuntirishlar va marosimlar bayonidan iborat. Gimnlarni shoirlar to'qishgan bo'lsa, braxmanlarni kohinlar yaratishgan. Braxman tarkibiga *Aranyaki* ("O'rmon kitobi") kiradi. U o'z uyini tashlab chiqib ketgan tarkidunyochilarga mo'ljallab bitilgan. Ular amaliyotchi bo'lishlariga qaraganda, ko'proq aqliy mushohada yurituvchilardir. Aynan shular braxmanlar marosimlari bilan upanishadlar falsafasini bog'laydigan bo'g'in bo'lishgan.

Veda adabiyotining turi bilan hayot kechirish bosqichlari o'rtasida muayyan muvofiqlik bor. Xususan, samxitlar vedalarni ustoz uyida o'rganishni boshlagan o'quvchining ta'limi asosini tashkil etadi. Braxmanlar oilada yashayotgan va barcha marosimlarni bajarayotgan uy egasi maqomida hayot kechirayotgan inson uchun mo'ljallangan. Aranyaki tarkidunyochilar uchun mo'ljallangan, ulardan ma'lum bir vaqtda upanishadlar ajrab chiqqan. U qashshoq sayyoh uchun bitilgan bo'lib, qashshoqlik upanishadlar va umuman, butun Hindiston ma'naviy madaniyatidagi idealdan iborat.

¹ Iqtibos quyidagi manba bo'yicha: Nijnikov S.A. Istoriya filosofii. Kurs leksiy. –M.: Ekzamen, 2004-S.29.

Oriylarning ilk dunyoqarashi mifologik tabiatga ega va ko'pxudolikka asoslanadi. Rigvedada uch mingdan ko'proq xudolar nomi mavjud. Oriylar mifologik dunyoqarashining qadimgi qatlami matriarxatga borib taqaladi. Aditi Pritxivi ("Cheksiz ona-yer") 12 o'g'ilga ega. Varuna-tungi yulduzli osmon ifodasi (Elladada bu-Uran) va ayni paytda, tun hukmdori. Mitra-kun boshqaruvchisi, Aryaman-o'lgan ajdodlar ruhlarining boshqaruvchisi, Soma-oy xudosi, Vayu-shamol xudosi, Yama-o'lim va adolatli sud xudosi, Ushas-tong xudosi va h. Dunyo (jagat) uch olam(loka)dan tashkil topgan deb tushuniladi. Agan-Yerni, Indra-havoli makonni, Surya-osmonni boshqaradi. Inson-xudolar ijodi mahsuli, u tabiatning bir bo'lagi. Tana o'ladi, jon yashashni davom ettiradi, boshqa tanalarga ko'chib o'tadi; u *sansara* deb ataladi.

Dxarma-dastlab qonun va adolatli sud xudosi, keyinchalik qonunning o'zi. Har bir varna o'z dxarmasiga ega. Insonning hulq-atvori, qurbonlik qilishi, o'z varnasining qonunlariga bo'lgan munosabatiga qarab joni yo quyi, yo yuqori varnaga ko'chib, qayta tug'iladi. Boshqacha aytganda, jon uning egasining hulq-atvoriga qarab jazolanadi yoki rag'batlantiriladi. Xudoning jondan qasos olishi qonuni *karma* deb ataladi.

Vedalarda ifoda etilgan fikrlar mifologik dunyoqarashdan falsafiy dunyoqarashga o'tishni o'zlarida aks ettiradi.

Vedanga – vedalarning tarkibiy qismi, u *smiriti* (eslab qolingani), inson tafakkuri mahsuli. Unda bilimlar to'plangan. Aql-vedalarda yuqori baholangan sifat bo'lib, u odamlarga va xudolarga xos, deb ta'kidlanadi. Rigveda xudolari donishmandlardir. Ular orasida Brixaspati-xudolar ustoz, Dxanvatari- shifokor, Dxarma-qonun xudosi, Sarasvati-notiqlik xudosi; fan va san'at ximoyachisi bo'lgan xudolar ham bor.

Vedalar davrida dastlabki ilmiy tasavvurlar , xususan, geometrik o'lchamlar, arifmetik hisoblar, xususan o'nlik sanoq sistemasiga oid fikrlar mavjud bo'lgan. Ilk upanishad davridayoq vujudga kelgan ilmiy bilim kurtaklari mifologik dunyoqarashdan keyingi hind falsafasining ikkinchi ma'naviy manbai bo'lib xizmat qilgan.

Upanishad(atrofida o'tirish) ustoz oyog'i oldida o'tirib bilim olishni bildiradi. Bu upanishadga mansub asarlarda ko'rsatmalar, o'gitlar ko'pligidan dalolat beradi. Ayni paytda, upanishadalarda shoh saroyidagi disputlar, suhbatlar o'z aksini topgan. Upanishadlar soni 200tadan ko'proq. Ulardan ba'zilari she'r, boshqalari proza, uchinchi bir turlari aralash ko'rinishda bitilgan. Upanishadlar ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt davomida yaratilgan (eramizgacha ikkinchi ming yillik oxiridan boshlab eramizning ikkinchi ming yillari o'rtalarigacha). Upanishadlar mualliflari ismlari yashirilgan, lekin unda real shaxslar, xususan braxmanlar va bilimli kshatriylar harakati sezilib turadi.

Upanishadlar vedalarga talqinlar bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun ham ularni *vedanta* (vedalar oxiri, yakuni) deb atashgan. Keyinchalik bu termin manbaini vedalar tashkil etadigan falsafiy maktabga nisbatan qo'llaniladigan bo'ldi (Vedanta falsafiy maktabi). Upanishadlarda vedalarda ilgari surilgan fikrlar rivojlantiriladi. Masalan, Rigvedadagi Purusha gimni va kosmogonik gimnlarda ifodalangan dunyoning tuzilishi to'g'risidagi fikrni olaylik. Purusha gimnida antropomorfizm g'oyasi aks etadi. Ming boshli, ming ko'zli, ming oyoqli Purusha g'oyasi bilan yerni yopib, o'nta barmog'iga tayanib, ko'kka ilgarilaydi. Purusha barcha mavjud narsalarni yaratadi va boshqaradi. Bu upanishadlarda yagona boshlang'ich asos-substansiya g'oyasining shakllanishiga turtki beradi va u kosmogonik gimnda aks etgan: "Yagona, butun narsa nima edi... Uni Indra, Mitra, Varuna, Agni ... deb atashadi. Borliq yagonadir, donishmandlar uni turlicha atashadi"¹.

Upanishadlarda ongning to'rt holati ajratilib, tavsiflanadi: uyg'oqlik, uyqu, chuqur uyqu (tushsiz) va sof ong-*turiya*. Shuningdek, upanishadlarda "hayot nafasi" tushunchasi (*pranlar*) muhim o'rin tutadi. Asta-sekin jonning ko'chib yurishi konsepsiyasi (*sansara*), o'tmishdagi xulq-atvor, amallar uchun javob berish (*karma*) to'g'risida qarashlar shakllana boradi. Taqdirni aynan karmaning belgilashi aytib o'tiladi. Insonning xulq-atvorini, axloq qonunini *dxarma* belgilaydi.

Yuksak maqsadlarga insonni eltadigan narsa—bu bilim; upanishadlar hissiy bilim emas, balki aqliy mushohada natijasidir. Bilimga magiya kuchi xos deb sanaladi. Upanishadlarda birinchi o'ringa ikkinchi darajali xudo-*Braxman* ko'tariladi: "Kim braxman ekanligini bilsa, upanishadlar butun borliqdan iborat bo'lib qoladi. Hatto xudolar ham unga qarshilik ko'rsata olmaydi. Chunki u ularning atmani bo'lib qolgan. Kimda-kim boshqa xudoga ta'zim qilsa va "men bir narsa, u boshqa narsa" desa, u bilimli emas"². Braxman-tanasiz birlamchi sabab, borliqning boshlang'ich asosi. Braxman – bu butun dunyo.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqadi: mutloq bilim insonning ozod bo'lishi, ya'ni o'lmas, mangu hayot kechirishi, o'z-o'zini, individual "Men"ini ilohiy kuch-"Braxman" bilan birlashtirishi, "Men Braxman" degan fikrda bo'lishidan iborat.

Atman ham upanishadlardagi markaziy tushunchalardan biridir. U , birinchidan tanani, ikkinchidan, "Men" atamasini, uchunchidan individual borliqning subyektiv, ma'naviy asosini – jonning jonlanishini anglatadi. Hind old

¹ Antologiya mirovoy filosofii. V 4-x tt. T.1, ch1 –M.: Mysl, 1969 –S. 71

² O'sha joyda. B.82

falsafasining xarakterli xususiyatlaridan birini aynan ana shu tushuncha tashkil etadi. Atman (ap-nafas olish, at-harakatlanmoq) tushunchasi insonning doimo harakatda ekanligini, faolligini, shu jumladan, jonning harakatini ifoda etadi. Braxman- Atman barcha mavjudotning genetik-substansial asosi hamda yakuni, yagona, abadiy, o'zgarmas mohiyat. Bundan tashqari ularning har ikkalasi *purusha* bilan bir xil. Masalan, upanishadlarda *purusha* "barcha narsaning ichiga kirib boruvchi Braxman sifatida tavsiflanadi"¹.

Upanishadlarda mifologiyaga xos xususiyat-subyekt bilan obyektning qorishtirilib yuborilishi kuzatiladi: upanishadlarda ta'kidlanishicha, Men- butun borliq; agar atman bilib olinsa, barcha mavjudot bilib olingan bo'ladi.

Hayotning oliy maqsadi-hayot davomidayoq atman-braxman bilan qo'shilib ketish, sansaradan ozod bo'lish, "Braxman dunyosi"ga o'tish (o'limdan keyin). Bu o'g'illardan, boylikdan voz kechishdan iborat: "Boylik doimiy emas, chunki abadiy bo'lmagan narsa bilan mangu narsaga erishib bo'lmaydi"². Upanishadlar "harakat, sadaqa, hallollik, kuch ishlatmaslik, to'g'riso'zlik"ni targ'ib qiladilar. Pradjapatining o'z farzandlariga uchta vasiyati bor: "Ehtiroslarni bosish, kambag'allarga sadaqa berish, yaqin kishiga hamdard bo'lish"³. Haqiqiy braxman-bu atmanga erishgan; qaramlikdan, bog'liqlikdan, qayg'udan, hasaddan, umiddan ozod bo'lgan; bosiq, sog'lom fikrlaydigan, aldanmaydigan, o'z-o'zini anglagan odam. Braxman yo'li-bu "xudolar yo'li". An'anaviy marosimlarni bajarish yo'li-ajdodlar yo'li, sansara va karma yo'li, mashaqqatli dunyoda mangu qolish yo'li.

Upanishadlar dunyoqarashida ham idealizm, ham materializm elementlari mavjud: boshlang'ich asos- ovqat, suv, vaqt, fazo, shamol, yorug'lik, yer birgalikda materiya (*prakriti*) bo'lib, butun mavjudot sababchisidir. Zero, bu *asuralar* (demonlar, farishtalar) fikri. Xudolar ularni inkor etadi.

"*Bxagavadgita*". Eramizgacha birinchi ming yillik o'rtalarida hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi natijasida savdo-hunarmandchilik markazlari-shaharlar, pul-tovar munosabatlari paydo bo'la boshladi. Kastachilik inqirozga yuz tuta bordi: vayshlarning kshatriylarni ularning braxmanlarga qarshi kurashida qo'llab-quvvatlashi natijasida jamiyat hayotida braxmanmanlarning mavqeyi pasayib, kshatriylarning mavqeyi kuchayadi. Bu davrda o'ntadan ko'proq kshatriylar davlati paydo bo'ladi, ulardan esa, Magatxa davlati barpo bo'ladi. Ammo bu hindlarning birlashishiga olib kelmaydi.

¹ O'sha joyda. B.81

² O'sha joyda. B.90

³ O'sha joyda. B.91

Birlashish hindlarning oltinchi dinastiyasi-Maurya davrida, davlatni Ashoki boshqargan paytda (273-232) sodir bo'ladi.

Kshatriylar jamiyatni boshqargan davrda braxmanizmga muxolifatda bo'lgan ilk falsafiy sistemalar paydo bo'la boshlaydi. Ularning muhimlaridan biri "Bxagavadgita"dir. U 18 jldlik "Maxobxorot"ning oltinchi kitobining bir qismidan iborat bo'lib, unda "bxartlar jangi" hikoya qilinadi. Bu qism pandavalar (Pandu shoh bolalari) va kauravalar (pandavalarining amakivachchalari) o'rtasidagi jangga tayyorlanishni tasvirlashdan boshlanadi. Pandavalarining qo'mondoni Arjuna shubha ostida qoladi. Bu shubhani uning jangovor g'ildirakdoshi Krishna – Vishnu xudosining gavdalanishi, siy mosi tarqatadi. Arjuna shubhasining, qo'rquvining asosini quyidagi mulohazalar tashkil etadi: oldinda turgan jangda u va aka-ukalari o'z qarindoshlarini urib-yiqishi kerak; biroq o'z urug'ini yiqitib, u taxtli bo'la olmaydi-ku?! "Axir urug'ning halokati bilan birga urug'chilik qonunlari ham barham topadi-ku?!" Qonunlar o'limi butun urug'ning baxtsizligiga olib keladi, baxtiqarolik qaror topadi, urug' ayollari buzilib ketadi, bu esa kastalarning qo'shilib ketishiga, "xalq qonunlarining yo'qolib ketishiga" olib keladi. Krishnaning bunga bergan javobida zarur amal, yoga va yoginlar, Braxman haqidagi ta'limotlarni ajratish mumkin.

*Zarur amal haqidagi ta'limot*da Krishna Arjuni kamqalblikda ayblaydi hamda jangning kshatriylar burchi (dxarma) ekanligini eslatadi. Arju undan so'raydi: "Donolikni amaldan, harakatdan yuqori qo'ya turib, nega meni dahshatli ishlarga undaysan?". Unga javoban Krishnu harakat, faollik bilan ozodlikning o'zaro munosabatini tushintirib ketadi. Uning fikricha, inson barcha turmush urinishlaridan ozod bo'lib, dunyo lazzatlaridan voz kechib, ular bilan bog'lanib qolmasdan o'z burchini bajarishi, zarur amalni sodir etishi lozim. Bunda u o'z harakati, amali natijalaridan, ya'ni lazzatlardan forig' bo'lishi kerak. Demak, "Bxagavadgita"ning axloqiy ideali-inson turmushning mayda-chuyda tashvishlari bilan, ne'matlar lazzati bilan o'ralashib qolmaslik, barcha tashvishlardan ozod bo'lgan holda, zarur amallarni ado etish. Unda ozod, qat'iyatli, takabbursiz inson hayot ne'matlari bilan o'ralashib qolgan, hasadgo'y, nopok odamga qarama-qarshi qo'yiladi. Mazkur ta'limotning rasional mag'zi aynan ana shunda¹.

Darshanlar – hind falsafiy sistemalari

Darshan-ko'rish, ko'rib chiqish, ko'rilib turish, uchrashish, oldindan ko'rish, idrok, bilish, ichiga kirib borish, tanish va bilish ma'nolarida ishlatiladi hamda qadimgi grek termini *falsafaning* sinonimi bo'lib hisoblanadi. Taniqli hind

¹ "Bxagavadgita" haqida qarang: Antologiya mirovoy filosofii. V 4-x tt. T.1, ch1 –M.: Mysl, 1969 –S.94-107

faylasufi Radhakrishnan fikricha, “darshan” atamasi intuisiyani tekshirib ko’rish va uni izchil yoyishdan iborat. Hatto boshqa sistemalarda ham bu so’z haqiqatni tushunchalarda jonlantiradigan intuisiya yordamida yoki uning yordamisiz mantiqan bayon qilishda qo’llaniladi. U reallik to’g’risida inson aqli egallagan barcha qarashlarni bildiradi, agar reallik bitta bo’lsa, bir narsani ifodalamoqchi bo’lgan turli qarashlar bir-biriga zid kelmasligi kerak. Ular qandaydir tasodifiy yoki ixtiyoriy ravishda paydo bo’lgan fikrlar bo’lmay, bitta reallikdan olingan turli qarashlarni aks ettirishi kerak. Borliqni turli tomonidan qamrab oladigan aqlimizdagi bunday qarashlarning har birini hafsala bilan ko’rib chiqar ekanmiz, biz reallikni mantiqiy tushunchalarda tasvirlashning ikkinchi darajasiga ko’tarilamiz. Reallikni mantiqan in’ikos etishning yetarli emasligini anglab yetganimizda, biz unga intuisiya yordamida erishishga urinamiz. Unda bizning nihoyatda monistik sof “borliq”qa ega bo’lib, undan yana turli sistemalarda harfma-harf o’qiladigan firning mantiqiy realligiga qaytganimizni aytishadi. Oxirgi aytilgan holatga nisbatan olinganda, “darshan” reallikni har qanday chasiga ilmiy tasvirlashni anglatadi. O’zining chiroyli noaniqligi bilan bu so’z falsafiy ilhomlanishning butun murkkabligini ko’rsatadi.

“Darshan” – qalb hissiyotiga ochiladigan ma’naviy idrok, fikrlash ko’lami. Falsafa qayerda bo’lsa, shu yerda bo’ladigan qalbning bu qarashi haqiqiy faylasufning muhim belgisidir. Demak, falsafaning eng yuksak zafarlariga faqat o’zida qalb musaffoligiga erishgan kishilargina muyassar bo’la oladi. Bunday musaffolik insonda qandaydir yashirin kuch paydo bo’lib, uning yordamida hayotni nafaqat idrok etish, balki unga musharraf bo’lgandagina tushuniladigan tajribani donolarcha qabul qilishga asoslanadi. Mana shu ichki manbadan zarur ma’lumotlarni olib, faylasuf hayot haqiqatini, sof intellekt ochib bera olmaydigan haqiqatni ko’rsatadi. Butun tajriba jamlangan sirli makazdan yaratiladigan ziyraklik, farosat guldani mEva yaralgandek tabiiydir. Haqiqat izlovchi uni qidirishga tushishdan avval muayyan muhim shartlarni bajarishi lozim. Vedanta sutri Shankara o’zining birinchi sutraga bergan tushuntirishlarida falsafani o’rganuvchi har bir kishi uchun to’rtta shartni bajarish muhimligini asoslaydi. Birinchi shart mangu va o’tkinchi narsalar farqini tushunib yetishdan iborat. Haqiqat izlovchisi bir-biridan ajralib turgan faktlardan massividan haqiqatni topib chiqarishga imkon beradigan jonli xayolga, tadqiqotchilik ruhiga ega bo’lishi lozim. Ikkinchi shart sodir qilingan amallar natijalaridan hozirgi hayotda ham, kelajakdagi hayotda ham bahra olishdan voz kechishdan iborat. Bu shart barcha mayda-chuyda hohishlarni, shaxsiy manfaatdorlikni va amaliy manfaatlarni tark

etishni talab qiladi. Faylasuf hayotdan tashqarida turib, uni mushohada etishi kerak¹.

Darshanlarga-qadimgi hind falsafiy sistemalariga xos umumiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) ularda diniy-mifologik dunyoqarash ta'siri yaqqol sezilib turadi;

2) barchasi birga mavjud, yonma-yon yashagan bo'lib, ular ko'proq sof aqliy mushohadaga tayanadi, ilmu fan bilan aloqasi sayoz, an'anaviy hind turmush tarzini ifoda etadi va shuning uchun ham olamni ruh, jon orqali tasvirlash, ya'ni unga idealistik yondashish ustuvordir. Buni intellekt, tafakkurni vulgarlashtirish, xususan aqliy faoliyatni moddiy jarayon, hissiyotni fizikaviy hodisa deb tushunishda o'z ifodasini topadi. Ayni paytda, darshanlar ba'zi falsafiy masalalarni hal etishda bir-biridan keskin farq qiladi.

Hind falsafiy sistemalarini odatda veda g'oyalari, an'analariga bo'lgan munosabatiga ko'ra ikki guruhga: *astika* va *nastikaga* ajratishadi. Astikaga vedalar avtoritetini e'tirof etadigan, ortodoksal, mumtoz sistemalar – vedanta, nyaya, vaysheshika, yoga, mimansa va sankhyalar mansub. Vedalar avtoritetini tan olmaydigan ta'limotlar qatoriga lokayata, buddizm va jaynizm kiradi. Lekin ular tarkibini boshqacha talqin qilish hollari ham mavjud. Xususan, ba'zi mutaxassislar darshanlar deganda faqat astikani tushunsa, boshqalari ham astikani, ham nastikani nazarda tutishadi. A. N.Chanishev esa, darshanlarni falsafiy va parafalsafiy turlarga ajratib, keyingisiga buddizm va jaynizmni tegishli deb hisoblagani holda, darshanlarning sonini yettitaga keltiradi².

Avval **nastikaga** mansub falsafiy sistemalarni ko'rib chiqamiz.

Jaynizm (jina - g'olib) mohiyatiga ko'ra mifologiyaga borib taqaladi. U 24 yo'l boshlovchi – tirtxankar (borliqni okean orqali boshlab boruvchi) faoliyatini ko'rsatadi, shulardan ikkitasi: parshva va maxaviralalar real mavjuddir. Birinchisi Bixar (sharqiy Hindistonda) jamoa tashkil etib, unga qabul qilingan erkaklar va ayollar dunyochilar va tarkidunyochilar (asketlar) ga bo'lingan; ular to'rtta amalni saqlaganlar: *aximsa*-birovga yomonlik qilmaslik, *satya*-haqgo'ylik, *asteyya*-o'g'irlik qilmaslik, *aparigraxa* – birovga bog'lanib qolmaslik, dunyo ne'matlaridan voz kechishlik.

Maxavira kshatriylar zotidan bo'lib, eramizdan avvalgi VI asrda yashagan. U dunyovchilarga seks bilan shug'ullanmaslikni, tarkidunyochilarga erotinlarning bir-biriga xiyonat qilmasligini va dunyo lazzatlaridan o'zini tiyishni buyurgan. Tarkidunyochilar-monaxlar o'rmonlarda yashashgan. Maxaviraning o'zi jaynlar jamoasiga bosh bo'lgandan keyin (30 yoshida) oilasini tark etib, kiyimsiz

¹ Qarang: S. Radhakrishnan Indian Philosophy Vol. I London: Reprinted 2009 p.37-38

² . Qarang: Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии., М.: Высшая школа, 1981.-S.82

va deyarli ovqat yemasdan 12 yil umr kechirgan (ko'zi ochilguncha, ya'ni borliq mohiyatini tushunib yetguncha).

Maxavira 14ta kitob yozib qoldirgan. Eramizga qadar III asrda pataliputra shahrida umumjain yig'inida jainlar kanoni – "Siddxanta" tuzilgan va tasdiqlangan. Uning ichida "Kalpasutra" ko'proq o'qiladigan, yuqoriroq baholanadigan qismi bo'lib, unda astronomiya, geografiya, kosmogoniya, xronologiya, arxitektura, musiqa, raqs, erotika, geterlarni tarbiyalashga oid ilmiy va amaliy xarakter ega ma'lumotlar bor.

Jainizm da braxmanizm tanqid ostiga olinadi, vedalarning muqaddasligi inkor etiladi. Jainizm da qon chiqarib qurbonlik qilish qoralanadi, boshqa jonzoqlar hayotiga rahm qilishga chaqiradi. Jainizm xudolarni emas, jainlarni ulug'lash zarurligini ta'kidlaydi. Jainizm sansaraga ishonadi, uning maqsadi - azob-uqubatdan iborat deb tushuniladigan hayotdan ozod bo'lish. Jina – bu karma qonunini yengib o'tgan kishi. Jainizm – dualistik ta'limot. Unda tirik va o'lik dualizmi mavjud. Notirik borliq atomlar (anu)dan tashkil topgan, materiya (pudgala) – birlashish va bo'linish hususiyatiga ega bo'lib, fazo (akosha), vaqt (kana), harakatni o'z ichiga oladi. Tirik tabiat to'laligicha jonga ega, jon bitta. "Uchta gavxar"-bu: to'g'ri xulq-atvor, to'g'ri bilish, to'g'ri e'tiqod.

Jainizmning bilish nazariyasi. Jainlar "shruti" – avtoritar bilim va "matn"ni farqlashadi. Bilishda xotira, tanib-bilish va xulosalash ishtirok etadi. "Matn" ga tashqi va ichki dunyo predmetlarini hissiy qabul etish va aql bilan bilish kiradi.

Jainlarda yonma-yon yashaydigan bir necha dunyoning mavjudligi tan olinadi : quyi ikki dunyoda gunohkorlar jonini qiynaydigan, ularga azob beradigan demonlar (farishtalar) yashashadi; o'rta dunyo-yer, yuqoridagi dunyo- xudolar yashaydigan dunyo (amaldagina bu dunyo mavjud deb hisoblanadi, nazariy jixatdan esa, xudolar mavjudligi inkor qilinadi).

Buddizm – qadimgi hind dunyoqarashida kshatriylar aksibraxmanchilik harakatining (bxagavatizm va jainizmdan keyin) uchinchi shakli.

Budda(563-483) haqida. Gang vodiysining shimoliy chekkasida qadimdan oriylarning shak qabilasi yashagan. Unda shoh urug'i *Gautama* ajralib turgan. Bir vaqt shaklar urug'ida Sidxarta (o'g'il) tug'iladi, tug'ilayotganda onasi vafot etadi. Chaqaloqning, agar u kasalni, qari odamni yoki o'likni ko'rsa-monax, tarkidunyochi (asket) bo'lishi avvaldan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Otasi chaqaloqni maxsus sharoitda tarbiyalagan, unga dunyoning soya tomonini ko'rishga yo'l qo'ymagan. Uning yaxshi rafiqasi va o'g'li bo'lgan. Bir kuni u kasalni, keyin cholni, undan keyin o'likni, oxirida tarkidunyochini (asketni) – monaxni ko'radi. Uning ko'z oldida namoyon bo'lgan dunyo azob-uqubatlari ruhiyatiga qattiq ta'sir qiladi. Kunlardan birida Gautama xizmatkori bilan kiyim

almashib, xalq orasiga kirib ketadi, darveshona hayot kechira boshlaydi. Vedalarni o'rganadi. Ko'p urinadi, lekin haqiqatni topa olmaydi. Nihoyat, bir daraxtning tegida o'tirib oladi va haqiqatni anglamaguncha o'rnidan qo'zg'almaslikka harakat qiladi. To'rtinchi kunda "nurlanish" sodir bo'ladi. Siddxarta "budda"ga, ya'ni "nurlangan odam"ga aylanadi. Asta-sekin Buddha atrofida shogirdlari to'plana boradi, budda jamoasi shakllanadi. Buddha ta'limoti ilk budda matnlarida-tipitaka (uch savat) to'plamida bayon qilingan. Buddizmning braxmanizmdan farqi shundaki, braxmanizmda azob-uqubat gunohkorlikning natijasi deb hisoblansa, buddizmda har qanday hayot azob-uqubattan iborat deb sanaladi.

Hayotning bosh qonuni-ezgulik va yovuzlik mutloq qarqma-qarshi narsalar. Yovuzlik faqat yovuzlikni tug'diradi: "...hych qachon bu dunyoda nafratni nafrat bilan to'xtatib bo'lmaydi. Nafratning yo'qotilishi- nafratning tugashi"¹. Buddha to'rtta "ezgu haqiqat"ni ta'kidlaydi:

Hayot azob-uqubattan iborat: "tug'ilish – azob-uqubat, qarilik – azob-uqubat, kasallik-azob-uqubat, o'lim-azob-uqubat, yaxshi narsadan judo bo'lish-azob chekish, nimagadir yetisholmaslik-azoblanish"². Bundan ma'lum bo'ladiki, buddizm faqat hayotning qorong'i tomonini ko'radi.

Azob-uqubating kelib chiqish sababi bor. Asosiy sabab-yashashga bo'lgan ishtiyoq, lazzatlanishga bo'lgan ishtiyoq: "Ishtiyoq natijasida odamlar qo'rqqan quyon kabi chopib yurishadi. Turli yo'llar bilan bog'langan odamlar takror va takror azob-uqubatlarga qaytaveradilar".

Azoblanishga chek qo'yish mumkin, agarki uning sababi ma'lum bo'lsa: "ishtiyoqni izsiz yo'qotish, undan qutulish mumkin"(qo'shtirnoq ichiga olingan mulohazalar "samyutta-nikaya"da yozilganiga ishora qilinadi³.)

Azob-uqubattan qutulish yo'li bor: Bu yo'l sakkiztalik to'g'ri yo'lni tanlash:

- a. to'rt haqiqatni tushunish;
- b. qat'iyatlilik, iroda kuchini ishga solish (to'rt haqiqatni anglab, shunga rioya qilgan holda yashash);
- c. to'g'riso'zlik (yolg'on gapirmaslik, tuxmat qilmaslik, qo'pol muomala qilmaslik);
- d. to'g'ri amallarni bajarish-tirik zotga zarar keltirmaslik, o'g'irlik qilmaslik;
- e. to'g'ri turmush tarzi – halol mehnat bilan kun ko'rish;

¹ Antologiya mirovoy filosofii.V 4-x t.t.T.1.,Ch.1 –M.: MЫsl, 1969 -S.129

² O'sha asar: B.118

³ Qarang,o'sha asar: B.119

- f. kuch-quvvatni to'g'ri yo'naltirish – jozibador narsadan va yomon o'y-fikrdan holi bo'lish;
- g. fikrni to'g'ri yo'naltirish – barcha narsalarning o'tkinchiligini anglash;
- h. e'tiborni to'g'ri jamlash¹.

Mana shu yo'llar insonni nirvanaga (“nirva”- o'chirish, jilovlash, xususan turli xil hislarni jilovlash) eltadi. Nirvana-insonning hayoti davomida o'zini xavf-xatardan qutqarishi, azob-uqubattan uzil-kesil ozod bo'lishi, sof ong shaklida yashashi.

Buddizmning originalligi shundaki, u borliqning substansialligini inkor qiladi, ya'ni xudo va jon (Braxman va atman) tushunchalarida ifodalangan substansiyalarni tan olmaydi. Borliqning ko'p turliligi buddizmda ma'naviy asosga emas (ya'ni xudo va jonga emas), balki umumiy aloqadorlikka bog'liq holda paydo bo'lish qonuniga tayanadi va shu negizda birlikka ega bo'ladi. Substansiya bo'lmagani uchun mavjudlikning barcha shakllari nisbiy xarakterga ega, ontologik mazmuni yo'q, ya'ni hech nima, bo'shliq (shunya)dan iborat.

“Nurlanish” doktrinasi subyekt psixikasini qayta qurish va ong maydonini tozalashdan iborat. Ruhiyat - substansiya emas, u elementar xolatlar oqimidan tashkil topuvchi sof jarayon. *Dxarma* - hayot energiyasining yaraqlashi (upanishadlarda *dxarma* – qonun, tartib, burch).

Budda avtoritetlarga sig'inishga ham qarshi chiqadi : “Men braxman deb jismi, so'zi, o'y-fikri bilan yovuzlik qilmaganni tushunaman”.

Budda falsafiy masalalarni sistemali tarzda ishlab chiqmagan.

Budda nurlangandan keyin yana 30 yil yashagan va shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib, o'z ta'limotini yoygan. Bu ta'limot eramizga qadar 80 yilda shakllangan. Buddizm hozirda Xindistondan tashqari, Tibetda , Xitoyda , Yaponiyada , Birmada , Seylonda va boshqa joylarda tarqalgan . Xindistonda u braxmanizm ta'limotiga singdirib yuborilgan .

Buddizm-jahon dinlaridan biri hamdir.

Lokayata (Chorvoqlar) falsafiy ta'limoti. Lokayata (sanskrit. loka- bu dunyo yoki bu dunyoda tarqalgan) faqat bu dunyoning mavjudligini tan oladi. Bu ta'limot asoschisi Brixaspatidir. U va uning tarafdorlari fikricha, faqat hissiy qabul qilinadigan dunyogina haqiqatan mavjuddir. Moddiy dunyoning to'rtta boshlang'ich asosi: suv, havo, olov, yer barcha predmet va hodisalarning sababidir. Lokayata vakillari fikricha, ong ham o'zining mavjudligi bilan moddiy asoslarga borib taqaladi. Ular bilish masalalarida sensualizm pozitsiyasida turishadi: aql, g'ayritabiiy g'oyalarni inkor etishadi, barcha bilimlarni faqat hissiy tajriba asosida paydo bo'ladi deb ta'kidlashadi.

¹ Qarang: o'sha asar –B.118

Axloq masalalarida lokayatachilar gedonistlardir. Ular hayotning mazmun-mohiyatini baxt-saodatda deb bilishib, uni lazzatlanish ma'nosida tushunishadi.

Astikaga mansub falsafiy ta'limotlar

Yoga va yoginlar. “Yoga” sanskrit so'zi bo'lib, muvofiqlashtirish, birlashtirish, boshqarish degan ma'nolarga ega. Texnik termin sifatida ishlatilganda azob-uqubatdan qutulish sistemasini anglatadi. Yoganing bir qancha turi mavjud:

Birinchi jiyanayoga yoki bilish egasi bo'lib, unga muvofiq ozod bo'lish uchun atmanning mavjudligini, olamning illyuziya ekanligini tushunib yetish kifoya.

Ikkinchi Radjayoga yoki “shohona yoga” o'z ichki olamiga chuqur kirib borish texnikasini ishlab chiqqan.

Uchinchi Karma-yoga zaruriy, munosib amalni o'rgatadi.

Karma yoganing mohiyati dunyo ishlaridan voz kechib, butun e'tiborni atman-braxmanga qaratish, uni sevishdan iborat, ya'ni unda xudoga muhabbat targ'ib qilinadi. Xudoni sevish-bu turmush tarzi.

Yogada bilim “ko'nikish, halollik, birovga zarar yetkazmaslik, chidam, samimiylik, ustozni ulug'lash, o'zini tuta bilish, mustahkam irodalik, hissiyot manbalaridan yuz o'girish, takabburlikdan holilik demakdir, ayni paytda, tug'ilish kasallik, qarilik, o'limning kulfat ekanini tushunish, dunyo ne'matlaridan voz kechish, xotinga, o'g'ilga, uyga bog'lanib qolmaslik, fikrda doimo muvozanatda bo'lish demakdir”¹.

Yoga mashqlarini bajarishdan maqsad aqldan voz kechish, ma'no-mazmunsiz extirosiga sho'ng'ish.

Vedanta vedalar va upanishadlar avtoritetiga tayangani holda, ularni rivojlantiradi, tizimlashtiradi va yakunlaydi (*Vedanta* so'zining ma'nosi –“vedalar yakuni” ekanligi bunga ishora qiladi). *Vedanta* keng ma'noda Braxman va Atman haqidagi ta'limotlar, diniy-falsafiy maktablar majmuasidir. Mazkur falsafiy sistema braxmanizm o'rniga kelgan va hozirga qadar mavjud. Induizm uchun g'oyaviy asos bo'lib hisoblanadi. *Vedanta* xudoni olam yaratuvchisi deb qabul qiladi. Unda oliy haqiqat deganda xudoni kishilarning g'ayritabiiy ravishda anglashi, o'zi uchun kashf qilishi, borliqning va inson hayotining mohiyatini tushunishi nazarda tutiladi. *Vedantada* inson ma'naviy olamida Atman-Braxman siymosi ustuvorligi, jonning tana o'lganidan keyin ham yashashi tan olinadi.

Mimansada, *Vedantadan* farqli o'laroq, xudoning olam yaratuvchisi ekanligi inkor qilinadi, lekin dxarma, karma, qayta tug'ilish, boshqa olamlar va

¹ Qarang: Antologiya mirovoy filosofii.V 4-x t.t.T.1.,Ch.1 -B.107

g'ayri – tabiiy narsalarning mavjudligi e'tirof etiladi hamda ularning sababi muqaddas va abadiy vedalarda deb tushuntiriladi. Vedalar muqaddas kitoblardir, ularning inson tomonidan yaratilganligini isbotlab bo'lmaydi, shuning uchun ularni mangu deb qabul qilish zarur¹.

Mimansada bilishning olti vositasi farq qilinadi: idrok, xulosalash, dalillash, analogiya, faraz va faktning (hodisaning) yo'qligi. Idrok - nosoz bo'lmagan hissiy organlarning obyektlar bilan to'qnashishi natijasida hosil bo'ladigan bilim. Xulosalash Atmanga xos bo'lib, unda bilim predmet xususiyatidan aql yordamida keltirib chiqariladi. Dalillash mangu vedalardan hosil qilinadigan bilim. Analogiya kam o'rganilgan predmet to'g'risida uni shunga o'xshash, lekin yaxshi o'rganilgan narsa bilan qiyoslash yordamida bilim olish usulidir. Farazda tushunib bo'lmaydigan hodisa mavjudligi taxmin qilinadigan narsa yordamida tushuntiriladi (masalan, to'lishib ketayotgan odamning kunduz kuni hych narsa yemaganini kuzatishadi va semirishining sababini faqat kechasi to'yib ovqatlansa kerak, degan faraz asosida tushuntirishadi). Agar mana shu beshta bilim vositasi mavjud predmetlarni bilishga o'zlik qilsa, unda oltinchisi-faktning yo'qligi qayd etiladi (masalan, stol ustida turgan narsani odam payqamay qolganda ana shu holat ro'y beradi)².

Mimansa vedalardagi so'zlarning abadiyligini mutloqlashtiradi, ya'ni ularni vedalar singari mangu deb hisoblaydi hamda ular mavjudligini ilohiy sabab bilan bog'lamaydi. Xudo, garchi u mavjud bo'lganida ham, tanasizdir va shu sababli u veda so'zlarini ayta olmaydi³.

Nyaya falsafiy sistemasida ham bilish masalasi ustuvordir. Unda inson hayotining ma'no – mazmunini bilish muhimligi ta'kidlanadi va ana shundan kelib chiqib, maqsad belgilanadi. U bilishning manba va shakllarini, ayniqsa, bilish obyektini mantiqiy isbotlash qoidalari asosida tadqiq etishdan iborat. Nyayada uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan 16ta kategoriya (*tattva*) alohida ajratib ko'rsatiladi: “ 1) bilish vositalari, 2) to'g'ri bilish obyektlari (*prameya*), 3) shubha (*sanshaya*), 4) motiv (*prayodjana*), 5) misol (*drishtanta*), 6) holat (*siddxanta*), 7) sillogizm qismlari (*avayava*), 8) taxmin, faraz (*tarka*), 9) ishonch (*nirnaya*), 10) diskussiya (*vada*), 11) bahs (*djalpa*), 12) yopishib olmoq, bahona qidirmoq (*vitanda*), 13) soxta dalil (*xetvabxasa*), 14) buzib ko'rsatish (*chxala*), 15) mohiyatga daxldor emas e'tiroz (*djati*), 16) hal qiluvchi dalil (*nigraxastxana*) – ana shunday ro'yxat”⁴.

¹ Qarang: o'sha joyda.-B.156

² O'sha joyda.-S.151.

³ Qarang: Nijnikov S.A. Istoriya filosofii. Kurs leksiy. M.: "Ekzamen", 2004-S.34.

⁴ Antologiya mirovoy filosofii., T1, Ch1.-S141

Vaysheshikada (vishesha-o'ziga xoslik) olamdagi xilma-xillik, individuallikning asosini ko'rib, his qilib bo'lmaydigan atomlardan qidirib topish zarurligi uqtiriladi. Bu ta'limotga muvofiq, haqiqiy o'ziga xoslik, individuallik his etib bo'lmaydigan atomlarda ko'rinadi. *Vaysheshikada* teologiya masalalari ko'rilmaydi. Ilk bor bu ta'limot Kanadaning "Vaysheshika sutra"sida sistemali tarzda bayon qilingan. *Vaysheshika* ta'limotining o'zagini 6ta kategoriya hosil qiladi: substansiya (*dravya*), sifat, harakat, umumiylik (*samanya*), o'ziga xoslik (*vishesha*) va mansublik (*samavaya*). Bular ontologik xarakterga ega va ana shunisi bilan nyaya kategoriyalaridan (ular asosan mantiqiy kategoriyalardir) farq qiladi hamda *vaysheshikaning* borliq muammolarini muhokama etishidan dalolat beradi. Xususan, birinchi uchta kategoriya makon va zamonda mavjud bo'lgan tabiat predmetlarini, keyingi uchtasi ulardan tashqarida o'z holicha mavjud bo'lgan jisimsiz narsalarni ifodalaydi. Boshqa bir munosabatda *Vaysheshikada* barcha obyektlar ikki turga-mavjud va mavjud emaslariga ajratiladi. Bunda yuqorida qayd etilgan olti kategoriya mavjud bo'lgan obyektlarga nisbatan qo'llaniladi.

Substansiyani tavsiflar ekan, uning to'qqiz turi farqlanadi: yer, suv, olov, havo, efir, vaqt, fazo, jon va aql. Sifatning 24 turi sanab o'tiladi: tana orqali his etish, ta'm, rang, hid, tovush, miqdor, bo'linish va qo'shilish, aniqlik, uzoqlik va yaqinlik hamda bilish, lazzatlanish va azoblanish, hohish, fazilat va illat, taassurot, nafrat, hayrat, og'irlik, oquvchanlik va tezlik kabi qobiliyatlar. Harakatlanishning 5ta turi: ko'tarilish, tushirilish, siqish, kengayish va umumiy harakat.

Umumiylik ikki turda-yuqori va quyida namoyon bo'ladi. Bunda borliq yuqori umumiylik, substansiallik va boshqalar quyi umumiylikdan iborat. O'ziga xoslik yakkalikda ko'rinadi hamda mangu substansiyalarda mavjud deb ta'riflanadi. Borliq-umumiylikning oliy turi. Mansublikning mohiyati shundaki, unda ikki o'zaro chambarchas bog'langan narsalardan birining madad beruvchi, ikkinchisining madad oluvchi ekanligini bilib olishga imkon beradi. (Masalan, butun va qism, mato va ip)¹.

Vaysheshikada bilishning ikki turi: hissiy bilish va xulosalash farqlanadi.

Sankxya Qadimgi Hindistonda ilk bor shakllangan falsafiy sistemalar (darshanlar)dan biri bo'lib hisoblanadi. "Sankxya" so'zi sanskrit tilidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga o'girilganda "hisoblovchi", "sanab chiquvchi" degan ma'noni beradi. Bunday nom berilishiga sabab shundaki, mazkur ta'limot o'z oldiga borliqni uning asosiy obyektlari va ularni bilish vositalarini to'g'ri anglash, tushunishni maqsad qilib qo'ygan. Sankxyaning asoschisi mashhur hind donishmandi Kopiladir.

¹ Qarang: o'sha asar-B.148- 150.

Sankxya dualistik ta'limot deb baholanib, unga bir qancha yondashishlar mavjud. Xususan, klassik sankxya, teistik sankxya va materialistik sankxyalar farq qilinadi¹

Sankxya dualizmi unda borliqning ikkita boshlang'ich asosi-tabiat va ruhning o'zaro uyg'un holda mavjudligini ta'kidlashda ko'rinadi. Prakriti-bu tabiat, tabiiylik. Purusha esa inson zoti ibtidosi, aniqrog'i inson joni, ruhi bo'lib, u allaqanday dunyoviy ruh sifatida talqin etiladi. (bu vedalardagi purusha emas).

Sankxyada tabiat, yoki materiyaning mavjudligi 24 kategoriya orqali ko'rsatiladi. *Sattva*, *radjas* va *tamas* uchta sifat bo'lib, ularning belgilari xotirjamlik, lazzat va azobda namoyon bo'ladi. Bu uchta sifatdan ong (*buddxi*) paydo bo'lib, u buyuk (*maxat*) deb ham ataladi. Undan o'z-o'zini anglash (*axamkara*) vujudga keladi; o'z navbatida, undan yana o'n olti sifat kelib chiqadi. Ular teri sezgisi (*sparsha*), ta'm (*rasana*), ko'rish (*chakshu*), hid (*gxrana*) va eshitish (*shrotra*) a'zolari bo'lib, bilish vositalari hisoblanadi. Shuningdek, beshta harakat a'zosi: ajratib chiqarish, tug'dirish, nutq, qo'llar va oyoqlar, aql hamda beshta *tanmatralar* mavjud. Tanmatra nozik, idrok etimaydigan beshta boshlang'ich element (*bxuta*) bo'lib, ular mos idrok turlarining asosini tashkil etadi. Shakl (*rupa*)dan – yorug'lik, ta'mdan-suv, hiddan-yer, tovushdan-makon, teri sezgisidan-havo kelib chaqadi; shunga o'xshash beshta *tanmatradan* beshta boshlang'ich element vujudga keladi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, upanishadlarda ta'kidlangan hissiyot va tashqi stixiyalar muvofiqligi sankxyada dag'al, moddiy boshlang'ich elementlar (*bxuta*) vai nozik mohiyatlar (*tanmatr*)ni tushuntirish uchun qo'llaniladi. Shunday qilib, qayd etilgan yigirma to'rt kategoriya materiyani tavsiflash bilan bog'liq. Yigirma beshinchi kategoriya – *purusha* faol bo'lmagan, gunsiz, lazzatlanuvchi va hissiy mushohada etuvchi, mangu ong bilan birga bo'lgan dunyoviy ruhni ifoda etadi¹.

Sankxyada materiya va ong, tabiat va ruh o'rtasidagi aloqa qadimgi hind rivoyatidagi ko'r va cho'loq munosabatiga qiyos qilinadi: ko'r cho'loqni opichlaydi, cho'loq esa unga yo'l ko'rsatadi. Buning ma'nosi shundaki, purusha (sof ruh) o'z holicha harakatlana olmaydi, faol emas; u prakriti (materiya) faolligi tufayli harakatga keladi. Purusha bilimi yordamida prakriti ta'siridan ozod bo'ladi. Sankxya bilishning uchta vositasini tan oladi: idrok, xulosalash, va guvohlik berish.

Yuqorida bildirilgan fikrlar darshanlarga mifologiyaning kuchli ta'siri bo'lganini tasdiqlaydi.

¹ Qarang: Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии. –С.87 – 91.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi hind jamiyatidagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat qanday edi?
2. Qadimgi hind jamiyati hayotida kastachilikning roli qanday?
3. Qadimgi hind falsafasining evolyusiyasida qanday davrlarni ajratish mumkin?
4. Veda nima, uning qanday turlari bor?
5. Upanishadlar nima?
6. Vedalar va upanishadlarning asosiy tushunchalari (braxman, atman, dxarma, karma, purushua, sansara, prakriti va b.) mazmunini ochib bering.
7. “Bxagavadgita” nima?
8. Jaynizmning mohiyati nimada?
9. Buddizm falsafasining mazmunini qanday g’oyalar tashkil etadi?
10. Chorvoq (lokoyata) falsafasining o’ziga xosligi nimada?
11. Yoga falsafiy ta’limotining mazmun-mohiyati nimada?
12. Nyaya falsafiy sistemasining o’ziga xosligi nimada?
13. Vedanta falsafiy ta’limotining mohiyati nimada?
14. Vaysheshika falsafasi to’g’risida nimalarni bilasiz?
15. Mimansa falsafiy ta’limotining o’ziga xosligi nimalarda namoyon bo’ladi?
16. Sankhya falsafiy sistemasining tushunchalari nimalardan iborat?
17. Qadimgi hind falsafasining falsafiy fikrlar rivojida tutgan o’rni qanday?

4- mavzu. QADIMGI XITOIDA FALSAFANING VUJUDGA KELISHI

Qadimgi Xitoy tarixini mutaxassislar olti davrga bo’lishadi, u er.qadar 18-asrdan boshlab, er.qadar 2-asrgacha bo’lgan vaqtni qamrab oladi (bronza va temir asrlari). Temir qurollarning yaratilishi ishlab chiqarishning rivojlanishiga imkon bergan. Mehnat taqsimotining chuqurlashishi, tovar-pul munosabatlarning shakllanishi (Xitoyda dastlabki pul er.qadar 524-yilda muomalaga kiritilgan)

ijtimoiy tabaqalashuvni kuchaytirgan. Xitoyda ritualizm (marosimlarni ado etish) kuchli mavqyega ega bo'lgan. Marosimlar yuqori va quyi tabaqalarni bir-biri bilan bog'lovchi vosita vazifasini o'tagan. Rituallar-tiriklarning o'lganlarga, ruhlarga, tabiat hodisalariga (masalan, donga, yerga, osmonga) munosabatini aks ettirgan. O'tgan ajdodlar ruhiga sig'inish (manizm) keng tarqalgan. Qadimgi Xitoyliklarda osmonga (tyan), "osmon o'g'li"ga (tyan-szi) sig'inish ham kuchli bo'lgan. Shuni ham aytish kerakki, Qadimgi Xitoy mifologiyasi unchalik taraqqiy etmagan. Ular xaddan tashqari amaliyotchilar bo'lishgan.

Falsafadan oldingi qarashlar. Dastlabki miflarda olam boshlang'ich holatida xaosdan iboratligi, ularni tartibga keltiruvchi qarama-qarshi kosmik kuchlar – osmon (Yan) va Yer (In) kuchlarining mavjudligi, ularning yengil zarrachalaridan Osmonni, og'irlaridan Yerni yaratishi to'g'risidagi fikrlar o'z ifodasini topgan. Boshqa bir mifga ko'ra, xaosni tartibga keltirgan va olam strukturasi shakllantirgan kuch g'ayritabiiy insondir (Pan-Gu). Xususan, u osmonni yer ustiga ko'taradi. Dunyoning tuzilmasi o'lgan Pan-Gu tanasi qismlaridan, shamol va bulut uning uxlashidan, momoqaldiroq uning ovoqidan, Quyosh chap ko'zidan, Oy o'ng ko'zidan, olamdagi to'rt mamlakat uning oyoq-qo'llaridan, daryolar qonidan, yo'llar tog'ayidan, tuproq tana etidan, yulduzlar sistemasi boshidagi sochlari va mo'ylovlaridan, o'tlar, gullar, daraxtlar teri va tanadagi tuklardan, metallar va toshlar tish va suyaklaridan, yomg'ir va shudring terdan, chaqmoqlar ko'z yaltirog'idan tashkil topgan. Pan-Gu tanasidagi parazitlardan odamlar paydo bo'lgan va shamol ularni turli joylarga tarqatib yuborgan. Bu Qadimgi mifologiyasiga ham antropomorfizm xos ekanligini ko'rsatadi.

Qadimgi Xitoy falsafasigacha bo'lgan fikrlar "Qo'shiqlar kitobi" (Shi-szin), "Tarix kitobi" (Shu-szin), "O'zgarishlar kitobi" (I-szin), "Urf-odatlar kitobi" (Chun-syu)da o'z aksini topgan bo'lib, ular birgalikda "Besh kitob" (U-szin) ni tashkil etgan va u ilmi Xitoyliklar dunyoqarashining asosini hosil qilgan.

"Shu-szin"da zikr etiladigan dunyoning besh boshlang'ich asosi: suv, olov, daraxt, metall, yerga e'tibor qarataylik. "Suvning (doimiy tabiati) xususiyati-ho'llik va pastga qarab oqish, olovniki-yonish va yuqoriga ko'tarilish, daraxtniki-egilish va to'g'rilanish, metallniki-(tashqi ta'sirga) bo'ysunish va o'zgarish, yerning xususiyati esa shunda namoyon bo'ladiki, ekin-tekinlarni qabullaydi va hosil beradi"¹. Shuning bilan birga tabiatning beshta hodisasi-yomg'ir, Quyosh shu'lasini, issiq, sovuq, shamol alohida qayd etiladiki, ularning o'z vaqtida va me'yorida bo'lishi aholining farovonligini ta'minlaydi. Tabiatning bu hodisalari

¹ Iqtibos quyidagi manba bo'yicha: Чаньышев А.Н. Курс лекций по древней философии.-М.: Высшая школа, 1981–S.30

ijtimoiy voqyealar, axloq bilan bog'lanadi. Xususan, ular boshqaruvchining, davlat rahbarining xulq-atvori, mamlakatdagi o'rnatilgan tartib, boshchining donoligi, ehtiyohtkorligi, oldindan ko'ra olish qobiliyatiga bog'liq.

“I-szin” (O'zgarishlar kitobi) qadimgi Xitoydagi afsonaviy davlat boshlig'i Fu-Si nomi bilan bog'liq. U-xitoy yozuvi asoschisi. Xalqni baliq ovlashga o'rgatgan. Fu-Si ot-ajdarho belida rasm ko'radi va uni 8ta trigrammada aks ettiradi. Yan va Inning uchtadan qo'shilishi aynan ana shu 8ta trigrammani keltirib chiqaradi. Bunda uch Yan-osmonning, uch In – Yerning ramzi bo'lib hisoblanadi. Oradagi olti trigramma osmon suvi, osmon olovi, momoqaldiroq, shamol, yerdagi suv va havoni bildiradi. Yan va In yalpi va uzilgan chiziqlar bilan ko'rsatiladi. Masalan, ikki yalpi (biri ikkinchisining ustiga joylashtirilgan) chiziq katta Yan-Quyosh va issiq, ikki uzilgan chiziq-katta In-Oy va sovuqning ramzidir. Kichik Yan (yalpi chiziq ustidagi uzilgan chiziq)-kunduzgi yorug'lik. Kichik In (uzilgan chiziq ustidagi yalpi chiziq)-tun ramzi. Quyoshli In va Yan uch martalab 8ta trigrammani (Ba-Guani) hosil qiladi. “Osmon 5ta boshlang'ich asosni yaratadi” degan fikr asoslanadi.

Qadimgi Xitoyda falsafagacha bo'lgan fikrlar matematika, astronomiya, medisinaga oid bilim kurtaklarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Xususan, ular 30 000 gacha sanashni, Quyosh va Oy tutulishini bilishgan, astronomik hodisalarni Yerdagi sikllar bilan bog'lashgan.

Xitoy falsafasining o'ziga xosligi. Xitoyda falsafa Xitoy tarixidagi uchinchi davrda-Chjo-Lego (alohida davlatlar) da paydo bo'lgan. Keyingi davrda-Chjangoda esa rivojlangan. Bu davrni Xitoy falsafasining oltin davri deb atashadi. Xitoy falsafiy tafakkuri evolyusiyasini tadqiq etgan Sim Tan otasi Sim Syanning “Olti maktab to'g'risida asosiy ko'rsatmalar” asariga tayanib, avvalgi davrlar faylasuflari maktablarini oltitaga ajratadi.

Birinchi maktab-“in-yan szya”, yoki “in-yan” maktabi, naturfaylasuflar maktabi nomi qadimgi xitoy kosmologiyasining ikki prinsipi – in va yan dan kelib chiqqan, xususan, in – ayollik asos, yan – erkaklik asos. Xitoyliklar fikricha, barcha kosmik hodisalar ana shu in va yan ning o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladi.

Ikkinchi maktab-“ju szya”, yoki “olimlar maktabi”. G'arb adabiyotida u konfusiya maktabi deb ataladi, lekin oku iyeroglifi so'zma-so'z tarjima qilinganda “ilimli odam”, “olim” ma'nolarini beradi. Mazkur ma'noda qo'llash qisman adashtiradi, chunki bu maktab vakillarining nafaqat olim, balki mutafakkirlar ham ekanligi e'tibordan chetda qoladi. Ular, avvalambor, qadimgi klassika muallimlari bo'lishgan va shu tariqa, qadimgi madaniy qadriyatlar merosxo'rlari edilar. Konfusiy, shubhasiz, bu maktabning yetakchi figurasi va haqli ravishda uning asoschisi deb hisoblanadi.

Uchinchi maktab – “mo szya”, yoki moistlar maktabidir. U o’zining Mo-szi rahbarligida jips holdagi tashkillashuvi va qattiq intizomi bilan ajralib turadi. Uning izdoshlari o’z-o’zlarini monetalar deb atashgan. Mazkur maktab nomi, boshqalarinikidan farqli o’laroq, Sim Tan tomonidan kiritilmagan.

To’rtinchi maktab – “min szya”, yoki “ismlar” maktabi. Uning vakillarini xitoylik tadqiqotchilar “ismlar” va “faktlar” deb atashgan narsalar o’rtasidagi aloqalar va tafovutlar qiziqtirgan.

Beshinchi maktab – “fa szya”, yoki legistlar maktabi. Fa iyeroglifi “qoidani” anglatadi. Bu maktabning g’oyaviy negizini davlat arboblarning yuritadigan siyosati, optimal boshqaruv olimlar ta’kidlagan axloqiy normalarga emas, qonunlar kodeksida tasdiqlangan normalarga tayanishi kerak, degan fikr tashkil etadi.

Oltinchi maktab – “dao-de szya”, yoki “Yo’l va baxt-saodat kuchlari”. Uning asosida mazkur maktab vakillari falsafasining noborliq (Dao, yoki Yo’l) tushunchasi va uning individda insonning tabiiy fozilligi sifatida mujassamlashuvi (ye) yotadi. Mazkur termin “fozil odam” deb tarjima qilinadi, lekin uning har qanday yakka predmetda yashirin tarzda mavjud “kuch” tarzida berilishi ma’qulroq. Sim Tan “dao-de” deb nomlagan maktab keyinchalik g’arb adabiyotida daos maktabi degan nom bilan ataladigan bo’ldi. Bularning ko’pisida hayot donishmandligi bilan bog’liq amaliy falsafa, xususan, odobnoma, boshqaruv masalalari ustuvor bo’lgan. Qadimgi Xitoy falsafasi kam hollarda sistemaga solingan. Bu qadimgi Xitoy fanining va mantig’ining kuchsizligi bilan belgilanadi¹.

Konfusiychilik. Bu maktab, falsafiy oqim Kun fu-szi, Men-szi va Syun-szi nomlari bilan bog’liq. Konfusiy er.qadar 551-470 yillarda yashab, ijod etgan. Uning vatani-Lu xoqonligi. U taniqli urug’ vakili bo’lgan (otasi-uyezdlardan birining xokimi lavozimini egallab turgan), ammo kamtarona turmush kechirgan. Yoshligida podachi, qorovul bo’lgan, 15 yoshdan boshlab ilm bilan bog’langan. 50 yoshida o’z maktabini yaratgan. Shogirdlari ko’p bo’lgan, ular ustozining mulohazalarini va o’z fikrlarini yozib borishgan, natijada konfusiyachilikning bosh asari-“Lun-Yuy” (suhbatlar va mulohazalar) yaratilgan. Unda asosan axloq-odobga oid masalalar muhokamasi mavjud.

Osmon va ruhlar. Osmon – oliy kuch. U yerdagi adolatni kuzatib turadi. “Shi-szin” dan farqli o’laroq, osmon, Konfusiy fikricha, abstrakt va shaxssiz. Osmon-bu taqdir, rok, dao. Konfusiy ruhlardan uzoqroq yurishni,

¹ Bu masala bo’yicha to’laroq ma’lumot olish uchun qarang: Fung, Yu-Lan. A Short History of Chinese Philosophy. (ed. Derk Bodde). New York: Macmillan, 2001.r.38-65

tiriklarni o'liklardan yuqoriroq qo'yishni maslahat beradi va savol qo'yadi: *Odamlarga xizmat qilishni o'rganmasdan turib, ruhlarga xizmat qilish mumkinmi?*

Konfusiyning diqqat markazida kishilarning o'zaro munosabati, tarbiya kabi ijtimoiy masalalar turadi. Biroq uning mushohadalarida bugungi hayot emas, o'tmish muqaddaslashtiriladi. Uningcha, hozirgi paytda axloqni tushunadigan odamlar kam. Odamlar tanilish uchun o'qishadi, nafratlarini namoyon qilishadi, janjallashishadi; ular o'z xatolarini tuzatishga qodir emas. Konfusiy zamoni yomonlar ekan, eski davrdagi axloqni tiklash zarur deb hisoblaydi.

Asosiy axloqiy tushunchalari: “Bir-birini qo'llash”, “O'rtachasi-oltin”, “Insonni sevish” (bu to'g'ri yo'lni-daoni tashkil etadi). O'rtacha-oltin-bu odamlar xulqidagi o'zini tuta olmaslik bilan ehtiyotkorlik o'rtasi, “insonni sevish-bu ota-onaga ta'zim, kattalarga hurmat”¹. Konfusiy axloqning oltin qoidasini yaratgan: *“O'zing xoxlamagan narsani boshqaga ravo ko'rma”*².

Konfusiy axloqiy normalarga og'ishmay amal qiladigan inson obrazini yaratadi. U Syun-szi (yaxshi erkak) dir. Konfusiy uni quyi insonga qarama-qarshi qo'yadi. Birinchisi, ya'ni Syun-szi burch va qonunga amal qiladi. Ikkinchisi, Syayu-jen- hayotda yaxshi joylashish, manfaat ko'rishni o'ylaydi. Birinchisi-o'ziga talabchan. Ikkinchisi-boshqalardan talab qiladi. Birinchiga katta ishlarni ishonib topshirish mumkin. Ikkinchiga-yo'q. Birinchisi boshqalar uchun o'zini qurbon qiladi. Ikkinchisi o'z-o'zini o'ldiradi. Yaxshi erkak uch narsadan qo'rqadi: osmon, ulug' odamlar, donishmandlar irodasidan qo'rqadi.

Boshqaruv masalasiga to'xtalib, agar rahbar yaxshilikka intilsa, xalq ham yaxshilikka intiladi, deydi.

Nom (ism)ni tuzatish—Konfusiyning o'tmishni muqaddaslashtirishining cho'qqisi. U predmetni uning asl ma'nosi bilan moslashtirishni bildiradi (o'tmishdagi ma'nosi bilan), xususan, davlat arbobi-davlat arbobi, ota-ota, o'g'il-o'g'il bo'lib qolishi kerak. Nomni tuzatishdan maqsad-axloqni tuzatish, yaxshi xulq-atvorni tiklash.

Bilish-bu odamlarning bilim olishi yo'lidagi harakati demakdir. Bilimga ega kishi barchadan yuqori turadi. O'qish aqliy mushohada yuritish, fikrlash bilan to'ldirilishi kerak: o'qish va fikrlay olmaslik - vaqtni behuda ketkazish demakdir.

Konfusiy ta'limotining ijobiy tomonlaridan biri shundaki, u xalqni boshqarishning asosiy vositasi deb shaxsiy namuna ko'rsatishni, ishontirishni biladi (zo'rlashni emas).

Konfusiy izdoshlari.

¹ Antologiya mirovoy filosofii. T.1. Filosofiya drevnosti i srednevekovya.Ch.1 – M.Мысль,1969 – S.193

² O'sha asar: S.94

Men-szi-Konfusiy nevarasining shogirdi. 372-289 yillarda yashagan. Uning qarashlarining yangiligi shundaki, osmon irodasining xalq irodasida aks etishini ta'kidlaydi. Iroda (ixtiyor erkinligi)- bu eng asosiysi: "Irodani mustaxkamlang va siga kaosni olib kirmang". Inson tug'ilishiga ko'ra-bag'rikeng. "Inson tabiatan ezgulikka intiladi". Bir xil odamlar aqlini, boshqalari-muskulini o'ynatadi. Aqlini ishga solgan odam boshqalarni boshqaradi"¹.

Konfusiyning yana bir izdoshi *Syun-szi* inson tabiati to'g'risida gapirar ekan, uning ba'zi xislatlarinin instinktlar bilan bog'lab tushuntiradi. Xususan, u yozadi: "Men aytaman, har bir inson foyda orttirish instikti bilan tug'iladi. Foyda ko'rish va riyokorlikka intilish – insonning tug'ma sifatleri"².

Moizm ta'limotining asoschisi Mo-szi bo'lib, u Konfusiy vafot etgan yili tug'ilgan va er.qad.400 yilda o'lgan.

Mo-szi Konfusiyning birinchi opponetidir. Uning fikricha, konfusiychilar falsafasining prinsiplari Osmon osti hoqonligini to'rt yo'l bilan buzadilar: 1) Konfusiychilar xudolar va ruhlarga ishonishmaydi, "shuning uchun ham xudolar va ruhlar g'azablanishadi". 2) Konfusiychilar ota-onalari vafot etganda ko'mish bilan bog'liq murakkab marosimlarni ado etadilar va uch yillik motam tutadilar, bu xalq boyligi va kuchlarini talon-taroj qiladi. 3) Konfusiychilar musiqaga katta e'tibor qaratishadi, bu ham yuqorida aytilgan natijaga olib keladi. 4) Konfusiychilar taqdirning avvaldan belgilab qo'yilishiga ishonishadi, bu xalqni taqdirga bo'ysunishga va yalqovlikka undaydi. "Konfusiychilikka qarshi" deb nomlangan boshqa bobda esa, shunday deyiladi: "Hatto uzoq umr ko'radiganlar ham konfusiychilar ta'limotiga ergashish uchun zarur bo'lgan bilimlarga ega bo'lolmaydilar. Hatto yoshlik jo'shqiniga ega bo'lganlar ham barcha majburiy amallarni bajarishga qurbi yetmaydi. Hatto katta boyluk yiqqanlar ham musiqaga yetisha olmaydilar. Ular (konfusiychilar) buzuq san'atlar go'zalligini ulug'laydilar va bu bilan hukmdorlarni boshqa yo'lga boshlaydilar. Ularning ta'limoti davr ruhiga mos kelmaydi va kishilarni tarbiyalay olmaydi"³.

Ko'rinib turibdiki, tanqid konfusiychilar va moistlarning turlicha ijtimoiy kelib chiqishga egaligini namoyish qiladi

Osmon va uning irodasi. Osmon-davlat boshqaruvchisi uchun namuna. "Osmon katta hoqonlikning kichik xoqonlikga xujum qilishini, kuchlining kuchsizni, ayyor kishining soddadilni, taniqli odamning taniqli emasni talon-taroj qilinishini hohlamaydi"⁴. Konfusiyaychilardan farqli o'laroq, moistlar taqdirning

¹ O'sha asar: B.207

² O'sha asar: B.207

³ Qarang: Fung, Yu-Lan. A Short History of Chinese Philosophy. (ed. Derk Bodde). New York: Macmillan, 2001.r.55-56

⁴ Antologiya mirovovoy filosofii. T.1. Filosofiya drevnosti i srednevekovya.Ch.1 – M.Мысл,1969 – S.202

avvaldan belgilab qo'yilishini inkor etadilar va osmon hyech narsani avvaldan belgilab qo'ymaydi, deb ta'kidlaydilar.

Mehr-muhabbat deganda, Mo-szi, Konfusiyaning farqli o'laroq, yaqinlarga mehribonlik ko'rsatishni emas, balki uzoq qarindoshlarga hurmat ko'rsatishni yoqlaydi. Uningcha, *xalq*- buyuk qadriyat.

Moistlar boshqaruvning yangi vositalarini qo'llash zarurligini aytishadi: davlat rahbarlari donishmandlarni, olimu fuzalolarni hurmat qilishi, boshqaruv ishlariga layoqati bo'lgan kishilarni jalb qilishi kerak. *Qonun*-boshqaruvning yordamchi vositasi, qonunlar osmon irodasi bilan muvofiqlashtirilishi kerak, ya'ni yalpi umumiy mehr-muhabbatga xizmat qilishi zarur.

Moizmda xalq bilimi haqiqat mezoni deb e'tirof etiladi.

Daosizmning asoschisi Lao-Szidir. U Konfusiyaning katta zamondoshi. "Daodeszin" ("Dao va de haqida"gi kitob") daosizm olamining obyektiv manzarasini aniqlashga xizmat kiladigan manba hisoblanadi. Asosiy kategoriyalari : borlik, noborlik, shakl, yakka, to'plam va boshqalar.

Daos falsafasining boshlang'ich punkti-hayotni saqlash va zarar ko'rmaslik. Bu maqsadga erishishning vositasini, metodini Yan Chju "qochish"da, tog'larda va o'rmonlarda yashirinib yurishda deb biladi. U, ana shunday qilsam, inson olamiga xos yovuzliklardan o'zimni saqlab qolaman, deb o'ylaydi. Lekin inson olami shu darajada murakkab qurilganki, yaxshi yashiringaning bilan ham yovuzlikdan qochib qutula olmaysan. Shuning uchun ham, "qochish" metodi ishlamaydi¹.

"Dao"-yalpi umumiy dunyoqarash mazmuniga ega tushuncha. "Dao-boshlang'ich asos, olamning eng umumiy qonuni". "Dao-barcha narsalarning onasi", "unga ko'ra, uning tufayli barcha mavjud narsalar tug'iladi". Dao-mangu , uni hyech narsa yaratgan emas, u barcha narsalarda mavjud . U, hatto, xudoga nisbatan ham birlamchi².

Daoning ikkilanganligi: ikki xil dao: nomsiz dao (doimiy) va nomga ega dao mavjud. "Daoga qarab hyech narsani ko'rmayman va ko'rish uchun uni nomsiz deb atayman" U shaklsiz shakl, mavjudotsiz obraz. U noborliqqa qaytadi. Dao ziddiyatli xususiyatlarga ega: dao jisimsiz-lekin uning ichida va qorong'ulikda nozik zarrachalar yashirinib yotibdi. "Dao bo'm-bo'sh", "hyech nima"- "dao... bepoyon, cheksiz", "borliq va noborliq bir-birini keltirib chiqaradi", "olamda barcha narsalar borliqda tug'iladi, borliq esa noborliqda tug'iladi"³.

Daosizm sistemasida olamning tuzilishi quydagicha tasvirlanadi: noborliq-birlamchi. Aynan ana shu nomsiz "dao" nomga shuning uchun ham ega emaski,

¹ Fung, Yu-Lan. A Short History of Chinese Philosophy. (ed. Derk Bodde). New York: Macmillan, 2001.p.65

² Qarang, o'sha asar:B.65-66

³ Antologiya mirovoy filosofii. T.1. Filosofiya drevnosti i srednevekovya.Ch.1 – M.МЫСЛ,1969 – S.182-183

agar nomi bo'lsa, borliqqa aylanadi. Noborliq borliqni yaratadi. Borliq-nomga ega. "Dao"ning fizikaviy analogi Osmon va Yer.

Noborliq-barcha narsalar substansiyasi, ular doimo noborliqqa qaytib turishadi. Qaytish-narsalar dunyosidagi yagona doimiy: dunyoda turli-tuman narsa ko'p, lekin barchasi boshlang'ich asosga qaytishadi. Boshlang'ich asosga qaytish sokinlik, sokinlik deb mohiyatga qaytishga aytiladi. Mohiyatga qaytish doimiy deyiladi.

"Barcha mavjudotlar in va yanni o'zida gavdalandiradi, si bilan to'ldiriladi va garmoniyani hosil qiladi". "Dao va de xaqida" kitobida quydagilar bitilgan: "Dao (narsalarni) yaratadi (tug'adi), de ularni oziqlantiradi"¹

Daosizm gnoseologiyasi ontologiyaga bo'ysindirilgan. Ikkita "dao"ga bilimning ikki turi mos keladi. Nomsiz dao bilimi mistikaga boy, chunki u jim turishdan iborat, axir bilgan kishi hech narsa demaydi-ku! (faqat ehtirolardan ozod bo'lgan kishilargina daoning ajoyib sirini ko'ra oladi, ehtirolga ega kishi esa, daoni faqat oxirgi shaklida ko'radi). Oxirgi shakldagi dao-bu nomga ega daoga bevosita tayanadigan narsalar dunyosi.

Bilishning ikki turi o'zaro bog'liq: osmon tagida boshlang'ich asos bor va u osmon osti onasidir. Agar onani bilishga erishilsa uning bolalarini ham bilish mumkin bo'ladi va, aksincha, bolalari ma'lum bo'lsa, unda qaytadan ularning onasini eslash mumkin. Bu-eng yuqori bilim.

Daoslarning axloqiy ideali. Shenjen' (yetuk donishmand)-daoslarning axloqiy ideali bo'lib, u konfusiychilarning ideali-"yaxshi erkak" (Szyun'-szi)ga qarama-qarshi qo'yiladi. Daoslar konfusiychilar axloqiy qadriyatlarini: insonni sevish, adolat, donishmandlik, farzandning otaga hurmati, ota mehri kabilarni rad etadilar. Oliy daoli odam, ya'ni Shin-jin xayrli ishlarni qilishga intilmaydi, shuning uchun u fozildir. U nomsiz "dao"ga o'xshaydi. Uning asosiy sifati-faoliyatsizlik, axir oliy daoli odam faol emas-ku; u dao singari kurashmaydi, lekin g'olib kela oladi.

Faol bo'lmaslik prinsipini daoslar boshqaruv konsepsiyasining asosiga qo'yadilar. Yetuk donishmand boshqaruvchi barchaga o'zining tabiiy yo'li bilan-dao bilan yurishga imkon beradi. U hech narsaga aralashmaydi, daoga xalaqit bermaydi. Shuning uchun ham eng yaxshi hoqon xalq faqat uning mavjud ekanligina biladigan hoqondir. Hukumat tinch bo'lsa, xalq soddadil bo'ladi. Hukumat faoliyat ko'rsatsa, xalq baxtsiz bo'ladi.

Haqiqiy hukmdor, "dao"ga taqlid qilgani holda, hammaning oldida yuradi va o'zini hammadan pastga qo'yadi².

¹ O'sha asar.: B.182

² Qarang, o'sha asar: B187-188

Daoslarning ijtimoiy ideali. Daoslar “dao”ning mohiyatini madaniyatdan yiroqda turishda deb biladilar. Qadimda “dao”ga ergashgan odamlar xalqqa ma’rifat nurini sochmaganlar. Xalq bilimdon bo’lsa, uni boshqarish qiyin. Ana shuning uchun ham xalqni bilim yordamida boshqarish mamlakatni baxtsizlikka olib keladi. Ana shuning uchun ham ibtidoiy davrga qaytish zarurligi uqtiriladi.

Daoslar fikricha, davlat kichik va kamsonli aholiga ega bo’lishi kerak; odamlar bir joydan boshqa joyga ko’chib yurmasligi kerak. Hyech kim boshqa davlatga borishi kerak emas. Qo’shni davlatlar faqat bir-biriga razm solib turishsin, o’zaro tovuqlar qichqirishi va itlar uvlashini eshitib tursinlar; insonlar qarib-chirib o’lguncha bir-biriga borib kelmasinlar. Bunday davlatlarda xalq yeydigan taom mazali, kiyimi chiroyli, uy-joyi qulay, hayoti mazmunlidir.

“Dao” yo’li-tinchlik yo’li. “Yaxshi qo’shin-baxtsizlikni keltirib chiqaruvchi vosita”. “G’alaba nashidasini surish-bu odamlarni o’ldirishdan quvonish demakdir”¹.

Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki, daosizm qonuniyat tarzida tushunilgan dao olamning birlamchi asosi, substansiyadir. Konfusiylar va moizm tarafdorlari uchun birlamchi bo’lgan osmon, daoslar uchun ikkilamchidir (daoga nisbatan, albatta). Yer osmonga nisbatan ikkilamchi. Inson yerga nisbatan ikkilamchi. Shunday qilib, “inson yer qonunlariga, yer osmon qonunlariga, osmon “dao” qonunlariga, dao esa, o’z-o’ziga bo’ysunadi”². Yetuk donishmandning daosi-bu kurashsiz, ammo qonunga bo’ysinuvchi amaldir. **Qonunchilar**

(legistlar) Qadimgi Xitoy falsafasi rivojiga, ayniqsa uning jamiyat haqidagi ta’limotiga jiddiy ta’sir ko’rsatgan mutaffakirlardir. Qonunchilar kofusiychilarning “li” marosimiga “fa” qonunini qarama-qarshi qo’yidilar va ishontirish metodidan butunlay voz kehdilar, ya’ni ular axloqiy majburlashdan voz kechib, qonun asosida zo’rlash va jazolashga undadilar. Ular vijdonni qurol bilan almashtirdilar. Davlatni katta bir oila deb bilish davlat qalbsiz mexanizmdir degan tasavvur bilan almashdi. Fozil donishmandlar o’rnini mansabdorlar egallashdi. Hukmdor-xalq yo’lboshchisi o’rnini o’zini ajdodlardan, xalqdan, osmondan yuqori qo’yadigan despot egalladi. Bosh maqsad hokimiyat uchun kurashda g’alaba qozonish, osmon tagi hukmdorligini hamda Xitoyni birlashtirish bo’ldi. Mana shuning uchun barcha ortiqcha narsalar hayotdan quvib chiqarildi, san’at yo’q qilindi, turlicha fikrlash ta’qib qilindi, falsafa yo’qotildi. Qonunchilar davlat qudratining iqtisodiy asosini dehqonchilikda deb bildilar, hunarmandchilik va savdo kamsitildi. Dehqonchilik va urush-davlat tayanadigan va shuni deb yashaydigan narsalardir, deb uqtirishdi.

¹O’sha asar: B-188

²O’sha asar: B-183

Qonunchilarning qarashlaridagi ijobiy tomon shundaki, ular teng imkoniyatlar konsepsiyasini ilgari surdilar. Unga muvofiq, davlat lavozimlari qobilyatga qarab egallanishi zarur, ular nasldan naslga o'tmasligi kerak.

Shan Yan. U qonunchi-amaliyotchidir. Eramizga qadar IV-asrda Sin hoqonligida xukmdor maslahatchisi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Uning amalga oshirgan islohotlari tarixga "Shan Yan islohotlari" nomi bilan kirdi. Ekinzorlarga xususiy mulkchilik joriy qilindi. Davlat boshqaruvida bir-birini sotish(chaqimchilik) sistemasi qaror topdi. "Shan Szyun Shu" ("Shan viloyati hukmdori kitobi") Shan Yan nomi bilan bog'liq.

"An'analar va ixtirochilik" kitobi Shan Yanning konfusiychilar bilan munozarasidan boshlanadi. Unda konfusichilarning Sin hukmdorini ixtirochilik bilan shug'ullanmaslikka ko'ndirishga urinishlari, boy an'analarga sodiqlikka chaqirishlariga oid fikrlar bildiriladi. Shan Yanning ta'kidlashicha, odamlar va jamiyat o'zgarib turadi. Qadimda odamlar sodda va shuning uchun ham halol bo'lganlar, hozir esa, odamlar ayyor va shuning uchun ham baxtsizdirlar. Davlatning boshqarish metodini tanlashda asosiy vazifadan kelib chiqish lozim. Bu vazifa-Xitoyni kuch ishlatish yo'li bilan birlashtirish.

Shan Yanning ta'kidlashicha, oliyjonoblik va insonparvarlik-noto'g'ri hatti-harakat sodir etishning onasi. Haqiqiy fozil insonning kelib chiqishi jazodandir. Tartibsizlik kelib chiqmasdan avval tartib o'rnatish uchun quyidagilar bo'lishi zarur: 1) davlatda ko'p jazo, kam mukofat bo'lishi kerak; 2) ayovsiz jazolash zarur; 3) kichik jinoyatlar uchun ham (masalan ko'chada turgan chiroqqa zarar yetkazgan kishi o'lim jazosiga hukm qilinishi kerak) ayovsiz jazolash kerakki, toki katta jinoyatlar sodir qilishga hyech kim jur'at etmasin; 4) bir-biridan shubhalanish, bir-birini ta'qib qilish, bir-birini sotish vaziyatini yaratish yo'li bilan odamlarni bir-biridan ajratish zarur. Faqat mana shu yo'l bilangina qudratli mamlakatni-xalq davlat qonunlaridan qo'rqadigan, urushda itoatkor, xalq o'z hukmdori uchun o'limga boradigan mamlakatni barpo etish mumkin.

Xan Fey-szi-Chjan-Go davrining taniqli faylasufi. U Syun- szining shogirdi. Xan Fey-szi fikricha, tabiatni o'zgartirib bo'lmaydi, faqat jazolash oldidan undan chegaralanish mumkin. U falsafiy qarashlarida daosizmga suyangan.

Hukmdor -"daoning davladdagi gavdalanishi. Uning qalbi, yuragi-"dao" makoni¹.

Qadimgi Xitoyda muayyan darajada **naturfalsafa** an'alarining shakllana borganini ham kuzatish mumkin. Buni biz qadimgi Xitoyning taniqli faylasufi deb

¹ Xan Fey-szi to'g'risida qarang: Antologiya mirovoy filosofii. T.1. Filosofiya drevnosti i srednevekovya.Ch.1 – M.Мысл,1969 – S.235-239

hisoblanadigan Syun-szi (er.avv. 298-238 yillar) ijodida ko'rishimiz mumkin. Uni mavjud adabiyotlarda ko'p hollarda konfusiychilar maktabi g'oyalari tarafdori deb atashadi, lekin uning qarashlari amalda konfusiychilik va boshqa qadimgi Xitoy ta'limotlaridan jiddiy farq qiladi. Ana shuning uchun ham uning dunyoqarash pozitsiyasini Qadimgi Xitoy naturfalsafa maktabi vakillarining yaqin deb aytsak bo'ladi. Xususan, unda ijtimoiy axloqiy muammolarni emas, tabiatni talqin qilish masalalari ustuvordir. Syun – szi Konfusiyning Osmonning oliy maqsadga muvofiq yo'naltiruvchi iroda ekanligi to'g'risidagi fikrini rad etadi. Uningcha, dastlab osmon va yer hozir qanday holatda bo'lsa, shunday bo'lgan. Agar osmon yorug'lik sochmaganda, insonlar cheksiz g'am-alamlarga duch kelgan bo'lishar edi. Osmonda doimiylik mavjud. Unga ko'r-ko'rona ta'zim qilgandan ko'ra, yaxshirog'i, ezgu amallarni bajarib, yo'q narsalarni yaratib, tabiatni boyitib, osmonni o'zimizga "bo'ysindirish" yaxshiroqdir. Tabiat doimiy harakatda, o'zgarib, yangilanib turadi. Xususan, yulduzlar bir-birining orqasidan harakatlanadi, quyosh va oy ham xuddi shunday harakatda bo'ladi, to'rt fasl almashib turadi, *in* va *yan* holatlarida ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'lib turadi; barcha joyda shamol esadi va yomg'ir yog'adi. Ularning o'zaro muvofiqligi, roziligi ila butun mavjudot, borliq vujudga keladi, ulardan o'zining yuksalishi va mukammallashuvi uchun zarur narsalarni oladi.

Lekin, odamlar bunday jarayonlarning qanday sodir bo'lishini bilmaydilar, faqat uning natijasini ko'radilar, xolos va shuning uchun ham ularni osmon irodasi bilan emas, ruhlar faoliyati bilan bog'lashadi. Buyuk *dao* barcha narsalarning paydo bo'lishiga olib keladigan o'zgarishlar, boshqa shaklga kirishlar sababidir.

Tabiat harakatidagi doimiylik, qonuniylikni anglab, boshqaruv ishlarida undan kelib chiqilsa, insonlar baxt-saodatga erishadilar. Agar bu qonunlarga zid ish qilinsa, tartibsizlik paydo bo'ladi va u halokatga olib keladi.

Osmon, faoliyat ko'rsatmagan holda, mukammalasha boradi; talab qilmagani holda, barcha narsaga erishadi. To'g'ri, tabiiy *dao* chuqur ma'no-mazmunga ega, lekin inson u haqida turli, be'mani farazlarni surishi, unga muayyan xususiyatlarni "yopishtirmasligi" kerak. Ana shundagina tabiat sirlari rad etilmaydi, aksicha, uning ulug'vorligi e'tirof etiladi. Tabiat mohiyatini anglab, uning kuch qudratini to'g'ri baholaganimizdagina, insonning qanday paydo bo'lishi va o'sib-ulg'ayishini tushunamiz. Inson ruhiyati uning jismi, vujudi paydo bo'lganidan keyin ro'yobga chiqadi. Muhabbat va nafrat, qanoat hosil qilish va qahr-g'azab, quvonch va qayg'u kabi his tuyg'ular inson tanasi va qalbida yashiringan. Ular tabiiy his – tuyg'ular deb ataladi. Inson yuragi tanasining o'rtasidagi bo'shliqda joylashgan. U quloq, ko'z, og'iz, burun va boshqa a'zolari boshqarib turadi.

Insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat predmetlaridan foydalanadi. Ular tabiiy ozuqalar sanaladi. Syun-szining ta'kidlashicha, shu sababli inson yuragini, qalbini sof, vazminlikda saqlashi zarur. Agar inson narsalarga bir tomonlama yondashsa, uning yuragi, qalbi nimaning haqiqat, nimaning yolg'on ekanligini aniqlay olmaydi va shu sababli narsalar haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lmaydi.

Barcha narsalarni bilish – insonning tug'ma qobiliyati. Bilish esa-narsalarga xos xususiyat. Insonning bir-biri bilan bog'langan tasavvurlari uning tashqi predmetlar bilan tutashuvi natijasi bo'lib, bilim hosil qiladi. Qobiliyat, talant, kasallik, taqdir kabi biz foydalanadigan tushunchalar avvalgi davr boshqaruvchilari tomonidan kiritilgan¹.

Yuqorida biz ko'rib chiqqan ta'limotlar Qadimgi Xitoy falsafasida ijtimoiy–falsafiy va axloqiy masalalar muhokamasining ustuvorligini ko'rsatadi va bu uning o'ziga xosligini tashkil etadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi Xitoydagi diniy-mifologik tasavvurlar va old falsafaning shakllanishi qanday kechdi?
2. Konfusiyning falsafiy fikr rivojidadagi o'rni qanday?
3. Konfusiyning izdoshlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Moizmning mohiyati nimada?
5. Daosizmsning asosiy g'oyalari nimalardan iborat?
6. Daoslarning ijtimoiy ideali nimalardan iborat?
7. Daoslarning axloqiy ideali nimadan iborat?
8. Legizm qanday falsafiy ta'limot?
9. Shan Yan ijtimoiy siyosiy qarashlari qanday?
10. Qadimgi xitoy naturfalsafasi to'g'risida nimalarni bilasiz?

¹ Syun-szi to'g'risida qarang: Antologiya mirovovoy filosofii. T.1. Filosofiya drevnosti i srednevekovya. Ch.1 – M. Мысль, 1969 – S.223-234

5- mavzu. IONIYA FALSAFASI

Qadimgi grek mifologiyasi.

Milet maktabi falsafiy ta'limoti. Geraklit falsafasi.

Qadimgi Gresiya tarixida neolit va bronza asrlarini, bronza asri ichida Krit (er.avv. ikkinchi ming yillikning ikkinchi yarmi) va Gomer (er.avv. birinchi ming yillikning ikkinchi yarmi) “osiyosifat” ilk sinfiy jamiyatlarini ajratish mumkin. Gomer Gresiyasi-Ellada ilk eposlar- “Iliada” va “Odisseya”ning yaratilishi bilan mashhur. Ular Qadimgi Gresiyada falsafaning vujudga kelishida muhim rol o'ynagan. Elladada (qadimgi greklar o'zlarini ellinlar deb atashgan) falsafa quldorlik munosabatlarining shakllanishi bilan bog'liq holda vujudga keldi. Unda yer egalari aristokratiyasiga qarshi hokimiyat uchun kurashayotgan shahar sanoat-savdo sinfi dunyoqarashi o'z ifodasini topgan. Elladada polislar (shahar-davlatlar)ning vujudga kelishi va rivojlanishi shahar madaniyatining taraqqiy etishiga, shuningdek tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga turtki berdi. Siyosiy sohada esa avtoritar aristokratik tuzumdan boshqarishning dastlabki demokratik shakllariga o'tishiga olib keldi. Bu jarayon dastlab Qadimgi Gresiyaning rivojlangan hududi Ioniya sodir bo'ldi.

Ioniya–Gresiyaning boshlanishi va Osiyoning oxiri. Er. avv. XII asrda doriylar bosqinchiligi natijasida ko'hna egey madaniyati xarob bo'lgach, Gresiyaning o'zi nisbatan kaos va varvarlik holatida bo'lsa ham, Ioniya ko'hna sivilizasiya ruhini saqlab qolgan edi¹.

Er.avv. VIII-VII asrlarda Ioniya Egey dunyosining ilg'or qismi bo'lgan. U Kichik Osiyo yarim orolining g'arbiy qirg'og'ida joylashgan. 12ta mustaqil polislardan: Milet, Efes, Klazomen va boshqalardan tashkil topgan. Ioniya – epik poeziya vatani. Gomer Ioniyalik bo'lgan. Ioniya lirika vatani hamdir. Birinchi logograflar (“so'z yozuvchilar”) va birinchi tarixchilar ham ioniyaliklar. Ular orasida Miletlik geograf Gekatey, tarixchi Gerodot ham bor. Birinchi grek faylasuflari ham ioniyaliklar ekanligini aytish lozim.

Greks falsafasining shakllanishi shart-sharoitlari haqida gapiradigan bo'lsak, uning nafaqat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, balki ma'naviy omillar bilan taqozalanganligini ham aytish zarur. Ana shunday ma'naviy omillardan biri grek mifologiyasidir. Qadimgi greklar ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi Gomer va Gesiod poemalari uning muhim namunasi. Mazkur poemalar

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.13

sosioantropomorfizmning yorqin ifodasi bo'lib, unda badiiyat, mifologiya va din elementlari birgalikda mavjuddir¹.

Endi grek mifologiyasiga tegishli poemalar mazmuni ustida to'xtalib o'tamiz. Avvalambor, aytish kerakki, Gomer va Gesiod poemalari va, umuman, shu davrning boshqa eposlari mazmunida mifologik dunyoqarashga xos xususiyatlar o'z aksini topgan. Ma'lumki, mifologik dunyokarashda olamning boshlang'ich asosi masalasi Kosmosning boshlang'ich asosi yoki g'ayritabiiy er-xotin juftligining dunyoning boshlang'ich ibtidosi ekanligi masalisidan iborat. Bunday juftliklarni Gomer erkak xudo Okean va ayol xudo Tefidda ko'radi. Okean-xudolarning ibtidosi, u suv, daryolar, quduqlarni yaratadi. Stiks bilan Okean yer osti hoqonligi orkali oqadi. Gomer kosmologiyasi bo'yicha dunyo 3 qismdan: osmon, yer va yer ostidan tashkil topgan. Yer harakatsiz, dumaloq tekislik. Osmon majmuasi asosan misdan yaralgan. Juda kam hollarda temirdan yasalgani to'g'risidagi fikrlar uchraydi. Osmon va Yer oralig'ining yuqori qismi efir, quyi qismi havo bilan to'ldirilgan deb aytiladi. Osmon ustunlarga tayanib turadi. Ustunlarni titan Atlant qo'riqlab turadi. Quyosh-Gelios xudosi, Oy-Selena ona xudosi, uning singlisi Eos-Tong xudosi. Yulduzlar turkumi vaqti-vaqti bilan Okeanga sho'ng'ib, o'z jilvalarini yangilab turishadi. Yer osti esa Erib, Aid va Tartardan tashkil topgan, bunda Eribga Okean ortidagi joydan kiriladi.

Sosioantropomorfizm Gomer eposiga xos xususiyatdir. Bu eposda tabiiy va ijtimoiy hodisalar g'ayritaabiiy antropomorf qobig'iga ega. Xususan, g'ayritabiiy kuchlar o'zaro qon-qarindoshlik munosabatlarida bo'lishadi. Masalan, uyqu xudosi-Gippos, o'lim xudosi Tanatos, ukasi- egizagi dahshatlar xudosi, Fobos-urush xudosi Aresning o'g'li. Yer, suv va osmon aka-ukalar Aid, Poseydon va Zevslarni gavdalantiradi. Tibbiyot-Pean, aqlsizlik-Ata, qasos-Eriniya, janjal-Erida xudolari bilan bog'lanadi. Ko'rib turibmizki, xudolar Qadimgi Misrdagidek yarim hayvon-yarim odam qiyofasida emas, balki sof odamlar timsolida namoyon bo'lishadi.

Xudolarning odamlarga o'xshashligi ularning xulq atvoridan ham ko'rinadi. Xususan, xudolar tanali, ularni jarohatlash mumkin, bundan ular iztirob chekadilar. Lekin xudolar, odamlardan farqli o'laroq, abadiy navqiron va mangudir. Ularning qoni alohida tuzilishga va ko'rinishga ega.

Olimpiya dini-bu Qadimgi Gresiya polislarining rasmiy dinidir. Uning nomi Olimp tog'idan (Fessaliyada) kelib chiqqan bo'lib, qadimgi greklar tasavvurida unda xudolar yashagan. Olimpiyaning bosh xudolari o'n ikkita: Zevs, uning ukasi Poseydon, Zevsning singillari-Gestiyning istiqomat qiladigan joyi

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.14-15

xudosi, yer hosildorligi xudosi Demetra, Zevsning singlisi-xotini Gera, Zevsning farzandlari: Afina, Afrodita, Gefest, Germes, Ares, Geba, Apollon.

Gomer mifologiyasida antropologik tasavvurlar ham mavjuddir. Xususan, unda odamlarning kelib chiqishi, hayot mazmuni xudolar bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Insonlarning burchi-xudolarga qurbonlik qilish, ulardan shavqat, ko'mak so'rash. Lekin xudolar insonlar iltimoslarini qabul qilishi ham, qabul qilmasligi ham mumkin.

Insonda tana va uch turdagi ruh mavjuddir. Ulardan biri-psyuxe. Bu—oddiy jon, u tanaga o'hshaydi, uning boshqa ko'rinishi. "Psyuxe"—hayotning ibtidosi va tana harakatining manbai. Inson o'limidan keyin u tanani tark etadi, Aidga ko'chib o'tadi. Ruhning boshqa ko'rinishi - "Tyumos". U ruhning affekt-iroda qismi. Uchinchi turi—"Noos", ya'ni aqlidir. Ruh, psyuxe butun tana bo'ylab tarqalgan, tyumos-ko'krakda, noos esa-diafragmada joylashgan. Xudolar va insonlarga ruhning barcha turlari, hayvonlarga esa, dastlabki ikkisi xosdir.

Gomer eposida taqdir qadimgi grek so'zlari "Moyra", "Moros", "Ananke" va "Aysa" orqali ifodalanadi. Taqdirni hyech bir kuch bo'ysindira olmaydi, u xudolardan ham kuchli. Odamlar va xudolar taqdirga bog'liq.

Gomer eposida xudolarga qarshi kurash ham tasvirlanadi. Xususan, Dnomed Afroditni yarador qiladi. U xudolar bilan tenglashishga tayyor. Xudolar va odamlar oralig'ini qahramonlar, yarim odam – yarim xudolar to'ldirishadi. Masalan, Axill-Shox Peleya va ona xudo Fetidalarning o'g'li. Qahramonlar-o'ladigan shaxslar. Ular odamlar orasida odamlar kabi yashashadi.

Gomer eposida falsafiy fikr elementlari ham yo'q emas. Buni Okean va Taqdirning deantromorflashtirilishida, xudolarning shaxssiz taqdirga bo'sundirilishida, xudolarga qarshi kurashlarida, aqlni ulug'lashda ko'rish mumkin. Narigi dunyo bu dunyoga nisbatan yomonroq deb baholanadi. Aidda "psyuxe" sharpa singari mavjud, unda faqat o'lgan, ondan judo bo'lgan kishilar soyasida o'tiradi. Axill yer ostida shox bo'lishdan ko'ra, yer ustida xizmatkor bo'lishni afzal ko'radi.

Gesiod. Gomer yarim afsonaviy shaxs bo'lsa, Gesiod tarixiy shaxsdir. U Beotiyning Askra shahri yaqinida yashagan. Gesiod ijodi davomida miflarni sistemaga solgan. Uning nomi bilan ikkita poema: "ishlar va kunlar" va "Teogoniya" bog'liq. Birinchisida asosiy e'tibor inson va uning ehtiyojlariga qaratiladi, xudolar xaqidagi afsonalar yordamchi rol o'ynaydi. Bu asarda Gesiod ukasi bilan bo'lgan nizo to'g'risida gapiradi. Merosdan o'z ulushini olgan ukasi Pers keyinchalik beandishalik qilib, Gesiod ulushini ham sud orqali olib ko'yadi. Gesiod ijtimoiy adolatsizlikni ko'radi. U ochlikda qoladi. Biroq, uni haqgo'yiligi va mexnatsevarligi qutqaradi. O'z ukasini halollikka chaqiradi. Ikkinchi poema—"Teogoniya"da xudolarning kelib chiqishi to'g'risida so'z boradi. Xudolarning

tabiiy va ijtimoiy hodisalarni o'zida namoyon qilishini hisobga olsak, bu poemaning olamning paydo bo'lishi, unda odamning tutgan o'rni to'g'risida ekanligini, ya'ni dunyoqarash mazmunga egaligini payqash qiyin emas.

Gomer eposida ko'proq aristokratlar ideallari aks etgan bo'lsa, Gesiod eposida dehqonlar manfaati tavsifi o'z ifodasini topgan. Poemada mavjud bo'lgan tovar-pul munosabatlari, boylarning jamiyat hayotida hukmron mavqeyi, boylar va kambag'allar o'rtasidagi farqning kundalik turmushda namoyon bo'lishi aks etgan. Gesiod fikricha, dehqon oldida ikkita yo'l bor: inqirozga uchrab, yeridan ajralish va batrakka aylanish yoki boyib ketib, boshqalarning yerini sotib olish. Gesiod boylikni orttirishning adolatli, toza yo'lini yoqlaydi; aldash, kuch ishlatish yo'li bilan orttirilgan boylikni qoralaydi. Uning ta'kidlashicha, "Oltin davr" ortda qolgan.

Besh avlod konsepsiyasi Gesiod ijodida muhim o'rin tutadi. Gesiod fikricha, oltin, kumush, bronza qahramonlar, temir avlodlar mavjud. Dastlabki ikkitasi Zevsning otasi Kronning hukmronligi davriga to'g'ri keladi, keyingi uchta Zevs davriga oiddir. Birinchi avlod "mangu xudolar" tomonidan oltindan yaratilgan. Bu odamlar xudolar singari umr kechirishgan. Keyin avlodlar tobora yomonlashib borgan. Temir davriga kelib yerni temir odamlar egallashadi. Kunu tun mehnat qilishadi va azob uqubatda bo'lishadi. Buni ularga xudo ravo ko'rgan. Gesiod oltin davrga qaytib, qayta tug'ilishni istamaydi. Aksincha, temir davrining tugab, "oq chaqaloqlar" tug'ilishini orzu qiladi. Bunda temir davri (asri)ga xos ijtimoiy munosabatlar aks etgan.

Prometey va Pandora. Prometey-titan (ulkan) Iapetning o'g'li odamlarga olovni sovg'a qiladi. Uni Prometey Zevsdan o'g'irlab olgan. Zevs Prometeyni jazolagan, lekin odamlardan olovni tortib ola olmagan. Bu yerda taraqqiyot, progressning orqaga qaytmasligi to'g'risida fikr bor. Zevs faqat muvozanatni saqlash uchungina yovuzlikni keltirishi mumkin. U odamlardan nafratlanadi. Zevs boshqa xudolarga ayolni yaratishni buyuradi. Bu birinchi ayolning ismi Pandora (ya'ni barcha tomondan iqtidorli). U-go'zal, ammo ikkiyuzlamachi, qalbi aldoqchi. Undan ashaddiy ayollar tarqagan. Qiziqqon bo'lgan Pandora azob-uqubatlari solingan idishning qopqog'ini ochganda, ular chiqib keta boshlaydi. Qopqog'ini yopishga urinib, arang bittasi-"umid"ni ushlab qolishga muvaffaq bo'ladi. Ana shuning uchun ham yaxshi kelajakka bo'lgan umid insonlarga sonsanoqsiz kulfatlar, azob-uqubatlarni yengishga yordam beradi, bu ishda ularni qo'llab-quvvatlaydi.

Antik davr etikasini Gesiodning "Asarlar va kunlar" poemasidan boshlanadi, deb aytsa bo'ladi. Gomer qahramoni axloqsiz, unda faqat bitta fazilat-qahramonlik va bitta illat-qo'rqqoqlik bor. Odissey vosita tanlashda qiynalmaydi. Vijdon ta'nalarini u tushunmaydi. U-ayyor. Bu ayyorlikni Odissey bobosi Avtolik-

aldoqchi va o'g'ridan meros qilib olgan. Qeyinchalik, er. avv. V asrda Odissey Sofoklning "Filoktet" pyesasida—"tugal yaramas" ko'rinishida tasvirlanadi. Bu mazkur davrga kelib, ellinlarda axloqiy ongning rivojlana borganligidan dalolat beradi. Xususan, u Gesioddan boshlanadi. Ayni o'sha Gesiod: "Inson yaxshi nima-yu, yomon nima ekanligini biladi, ana shunisi bilan u hayvondan farq qiladi", degan tezisni ilgari suradi. Uning fikricha, mavjud olamda sodir bo'layotgan voqyealar inson tabiatiga ham, Zevs qonuniga ham ziddir. Lekin u mazkur ziddiyatni hal etish yo'lini ko'rsata olmaydi.

Gesiod adolatli davlat obrazini yaratadi. Uning yaratgan axloq kodeksini quyidagicha ifodalash mumkin: "barcha hollarda me'yorni saqla va ishlaringni o'z vaqtida qil, musofirlarni, yetimlarni, qarigan chog'ida otangni xafa qilma, ukangning xotini bilan ishq mojarosida bo'lma".

"*Teogoniya*"- mifologik poema. Bu poema Gesiod "Eng avval nima vujudga kelgan?", degan savol qo'yib, unga xudolarning genologik daraxti yordamida olamning kosmogonik manzarasini chizish orqali javob beradi. Bu savol-javobning dunyoqarash xarakteriga e'tibor qaratish zarur, unda olamning ibtidosi, boshlang'ich asosi, ya'ni substansiyasi haqida mulohaza yuritiladi. Gesiod savoliga "Birinci bo'lib olamda xaos vujudga kelgan",- degan javob berishgan. Biroq bu tartibsizlik ma'nosidagi xaos emas, shu'lalanish ma'nosidagi xaosdir. Qadimgi grek so'zi hisoblangan "xaos"—"xayno" fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, "ochilish" ma'nosini beradi. Bu olamning dastlabki shaklsiz holati, osmon va yer oralig'idagi shu'ladir¹. Gesiod bu yerda substasiya g'oyasiga yaqin keladi. Uning fikricha, olam paydo bo'lgandan keyin, ya'ni shaklga, ko'rinishga ega bo'lgandan keyin xaos uning asosiga aylanadi.

Bunday fikr-mulohazalar, albatta, Gesiodning ko'proq mifologiya doirasida qolganidan dalolat beradi. Zero, kosmogonik jarayon – bu xaosdan keyin qator xudolarning izchil tarzda paydo bo'lishidan iborat. Bunda xaos teogoniyaning birinchi bosqichini tashkil etadi.

Teogoniyaning ikkinchi bosqichida "keng yag'rinli Geya", "g'ira-shirali Tartar", "ajoyib Eros", "qora Nyukta-tun", "xo'mraygan Ereke-qorog'ulik, zimistonlik" tushunchalari orqali ifoda qilinadigan kuchlar gavdalanadi.

Uchinchi bosqichida Geya–yer, Uran–osmonni, Nilef va Pont shovqinli va hosilsiz dengizni yaratadi.

To'rtinchi bosqichida Geya eros qonuniga muvofiq Uran bilan birlashib, titanlarni, kiklonlarni, gekatonxeyrlarni yaratadi. Ularning barchasi daxshatli mavjudotlardir: gekatonxeyrlar (yuz qo'lli va ellik boshli), kiklonlar–bir ko'zlilar, titanlar va titanidlar–stixiyalarni gavdalandiruvchilar. Yer–Geya azob-uqubat

¹ Qarang: Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии.-М.: Высшшая школа, 1988. –С.110

chekadi, o'n sakkiz bolasi bilan ovora, erini (Uranni) ko'rarga ko'zi yo'q. Shu tariqa dastlabki kosmik konflikt kelib chiqadi. Geya bolalarni otasiga qarshi qo'yadi, Uran – osmonni qo'rqinchli fikrlarga egalikda ayblaydi.

Mana shu kosmik xiyonat ta'sirida Nyukta-tun bir o'zi aldanchilik, qarilik, o'lim, qayg'u, toliqtiradigan, tinkani quritadigan mehnat, ochlik, unutish, ayovsiz jajalllar, og'ir kechuvchi sudlar, qonunbuzarlik va boshqalarni dunyoga keltiradi.

Beshinchi avlod xudolari to'rtinchilar bilan urishadilar. Bu urushda hal qiluvchi rolni Zevs o'ynaydi. Gekatonxeyrlarni ozod qiladi. Ular Zevsga o'z kurollari–chaqmoq va momaqaldiroqni berishadi. Shundan boshlab Zevs-momaqaldiroq xudosi. Faqatgina shu Zevs g'alabasidan keyingina olam Gomer eposida tasvirlangan ko'rinishga ega bo'ladi.

Xudolarning oltinchi avlodi. Zevsning birinchi avlodi nikohida uning o'gay singlisi bo'lgan, ikkinchi nikohi titanida Femida-qonun, huquq timsoli. Undan olti qiz ko'rgan. Uchinchi xotini-okeanida Yevrinoma, undan uchta farzand bo'lgan. To'rtinchi xotini-singlisi Demetra, undan Persefona tug'ilgan, uni Aid o'g'irlagan. Beshinchi xotini-titanida singlisi Miyemosina to'qqiztasini dunyoga keltirgan. Oltinchi xotini o'gay singlisi Yoz. Gesiod mulohozalari falsafiy mushohadaga yaqin turadi¹.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Gomerda ham, Gesiodda ham dunyoqarashning asosiy masalasi–olam va inson munosabati masalasi mifologik ko'rinishda–inson va borliq hodisalarini gavdalantiruvchi xudolar munosabati masalasi tarzida muhokama etilgan.

Orfey-antik mifologiyaning uchinchi (avvalgilari Gomer va Gesiod mifologiyalari) turidan iborat. Orfey-san'at timsoli. U musiqa she'r kashfiyotchisi–Appolonga (Quyosh xudosi) yon bosgan. Appolon va Dionis-demos xudosi antipodlar bo'lishgan. Birinchisi–me'yorni, ikkinchisi-me'yorsizlikni gavdalantiradi; Appolon tarafdori bo'lgan, ba'zi farazlarga qaraganda, uchinchi o'g'li Orfey Dionis qurboni bo'lgan. Orfikaga oid adabiyotlar, shu jumladan “orfik genlar” antik zamondayoq yo'q bo'lib ketgan.

Orfiklar–Orfey asos solgan diniy ta'limot tarafdorlaridir. Din sifatida orfizm olimpiya diniga qarshi turgan. U mifologik dunyoqarash tizimi sifatida katta dunyoqarash asosiga ega. Orfiklar boshlang'ich asos deb nimani bilganlar, degan savolga qadimgi faylasuflar turlicha javob berishgan. Xususan, ba'zilar tunni, boshqalari Yerni, uchinchilari osmonni va hokazo. Lekin ehtimollik darajasi yuqoriroq bo'lgan fikr shuki, orfiklar boshlang'ich asos deb suvni hisoblaganlar.

Kosmoteogoniyasi 12 ta bosqichni o'z ichiga oladi:

¹ Qarang: o'sha manba-B.110-113

1) boshlang'ich suv; 2) Gerakl (bu qahramon Gerakl Zevs o'g'li emas); 3) efir, ereb va kaos; 4) "tuxum"; 5) xudo Fanes; 6) xudo Nyukta; 7) Uran, Geya va Pont xudolari; 8) kiklonlar, gekatonxeyrlar va titanlar; 9) Zevs; 10) Kora-Persefona; 11) Dionis Zevs o'g'li; 12) inson. Bular orfiklarda teogoniyaning kosmogoniya bilan tartibsiz aralashib ketganligidan dalolat beradi.

Antropologiya masalalari. Insonda ikki xil boshlang'ich asos bor: quyi-moddiy, titanik va yuqori-ma'naviy, dionisiylik. Orfizmda dionisizm appolonlashtirilgan. Gomerda yerli hayot narigi dunyodagi hayotga nisbatan ustunroq deb hisoblansa, orfiklarda, aksincha, hayot azob-uqubatlardan iborat deb tushuntiriladi. Jon tanada to'la qadr-qimmatga ega emas. Hayotdan maqsad-jonni tanadan qutqarish. Bu oson emas, chunki jon bir tanadan ikkinchi tanaga ko'chib yurishga mahkum etilgan (matempsixoz), bunda tanalar turli jonivorlarniki ham bo'lishi mumkin. Ozod bo'lgach, jon "huzur-halovat oroli"ga tushadi. Orfiklar tirik mavjudotlarni o'ldirmaganlar.

Orfizmning ijtimoiy ildizlari to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Xususan, ingliz olimi Tomson orfizmda qul ongi namoyon bo'ladi, degan farazni ilgari surgan. Qul tanasi-qul egasi mulki. Joni qul egasini qiziqitirmaydi. Shuning uchun ham qul beixtiyor o'z "men"ini joni bilan bog'laydi.

Ba'zi farazlarga ko'ra (orfizmdagi) Geya va Uran Yer va Osmon sifatida kosmik tuxumdan paydo bo'lgan. Orfizmda Zevs butun dunyoni qamrab oladi va o'zida joylashtiradi. Monopanteizm–monozevsizm–orfizmgacha xos xususiyat¹.

Ferekid. U yo VII asr o'rtasi, yo VI asr boshida yashagan (Siros orolida). Ferekid boshlang'ich asos sifatida Zevsni qabul qiladi. U ba'zi xudolarni aynanlashtirish yo'li bilan olamning mifologik manzarasini soddalashtirishga uringan. Xususan, Zevsni yerga (ya'ni Geyaga) olib borib taqaydi, ularni Kronos (Xronos), ya'ni vaqt bilan bog'laydi. U uchta boshlang'iya asos: olov (efir), yer (passiv element) va vaqtni (barcha narsalar vaqtda paydo bo'ladi) alohida ajratib ko'rsatadi.

Kosmoteogoniya masalalari muhokamasida Zevs Geyaga Yerni to'y sovg'asi sifatida taqdim etadi. Zevs Yer va Okeanni to'y choyshabga to'qigan (u davrlarda shunday odat bor edi: kelin va kuyov to'y choyshablarini almashishgan) holda yaratgan. Keyin Xronos havo, olov va suvni vujudga keltirgan.

Yer, suv, havo va olov o'z navbatida, besh qismga ajralib ketadi, ulardan tabiiy narsalar emas, balki g'ayritabiiy mavjudotlar vujudga keladi (masalan, yarim xudo–qaxramonlar, ruh-demonlar). Ferekid boshlang'ich asosni mangu mavjud deb biladi.

¹Qarang: o'sha manba-B.114-117

Orfizmda falsafaning ayrim elementlarining mavjudligi, xususan unda olamning genetik manzarasi tasvirlanishi mifologiyadan falsafaga o'tish jarayonining boshlanganligidan dalolat beradi.

Antik falsafaning shakllanishida “*yetti donishmand*” muhim rol o'ynadi. Yetti sonining muqaddaslashtirilishi falsafagacha bo'lgan davrga xos xususiyat. Turli xil manbalarda “yetti donishmand” ro'yxati turli xil. Platonning “Protagor” dialogida quyidagilarni o'qiyimiz: “Bunday kishilar qatoriga Fales, Pittak, Biant, Solon, Kleobul, Mison, Xilonlar kiradi”¹.

“*Yetti donishmand*” fanga ham, mifologiyaga ham tegishli emas. Bu yerda falsafaning uchinchi manbai–kundalik ong mavjudligini taxmin qilish mumkin. “*Yetti donishmand*” hayot, turmush dolnishmandligidan iborat.

“*Yetti donishmand*”da ko'proq axloq-odobga tegishli fikrlarni uchratamiz, ular aforizmlar (gnomlar) shaklida bayon qilingan. Gnom–turmush donishmandligi. Gnomlarning ikkinchi turi–axloqiy ko'rsatmalardan balandroq turadigan, dunyoqarash mazmunga ega fikrlar. Masalan, “O'z-o'zingni bil” ana shunday gnomlardan. Gnomning uchinchi turi–Fales gnomlari. Unga, ya'ni Falesga quyidagi fikrlar tegishli deb aytiladi: “Barcha narsalardan kattasi–fazo, chunki u barchasini o'zida qamrab oladi”. “Barchadan kuchliroq narsa–zaruriyat, chunki u barcha narsalar ustidan hukmronlik qiladi”. “Barcha narsadan donorog'i–vaqt, chunki u barcha narsalarni kashf qiladi”.

“*Yetti donishmand*” aforizmlaridan yana ba'zi namunalar:

Fales: o'zingni bil.

Solon :hyech bir narsani me'yoridan oshirma.

Kleobul: me'yor–eng yaxshi narsa.

Biant: o'z o'rnida gapir.

Xilon: tilingning aqldan oldinga o'tib ketishiga yo'l qo'yma.

Pittak: o'z vaqtingni bil.

Dunyoqarash mazmuniga ega mazkur aforizmlar Qadimgi grek falsafasining fundamental masalalari va tamoyillarining shakllanishida muayyan ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi grek mifologiyasi va old falsafasi tahlilini yakunlar ekanmiz, shuni alohida qayd etish kerakki, mifologik poemalarning dunyoqarash mazmuniga egaligi, xususan ularning olam va shu davr greklarining turmush tarzi to'g'risidagi qarashlari haqida ma'lumot berishi bilan ahamiyatlidir. Buni dastlabki epos-Gomer poemalaridayoq payqash mumkin. Lekin, shu narsa ham ma'lumki, Gomer poemalarda uchraydigan ayrim falsafiy g'oyalar mifologik tasavvurlar bilan qorishib ketgan. Ana shunisi bilan ular Gresiyaning materik qismida

¹ Platon. Sobr. Soch. V4-x tt.T.1-M.:Mysl, 1990-S.455

yashagan epik yozuvchi Gesiod poemalaridan farq qiladi. Bu haqida F.Koplstonning bildirgan mulohazalari e'tiborlidir. Xususan, uning ta'kidlashicha, Gesiod o'z poemalarida tarixga nisbatan pessimistik qarashlarni bayon qilgan va hayvonot olamida qonun hukmronligiga ishonchini hamda kelajakda insonlar orasida adolat qaror topishiga bo'lgan umidini ifodalagan. Uningcha, Gresiyaning buyuk shoiri va ilk falsafiy sistemalaarning aynan Ioniya paydo bo'lishi katta ahaiyatga ega. Ammo Ioniya dahosining bu ikki buyuk ijodi natijasi-Gomer poemalari va Ioniya kosmologiyasi biri ikkinchisiga ergashib kelgan emas.

Gomer poemalarining muallifi, kompozitsiyasi va yaratilgan vaqti to'g'risida qanday o'y-fikrlar bo'lishidan qat'iy nazar, shu narsa aniqki, ularda tasvirlangan jamiyat Ioniya kosmologiyasi yaratilgandagi jamiyat emas: u jo'n, oddiy jamiyatdir. Gomerdan keyinroq yashagan Gesiod tasvirlagan jamiyat grek polisi jamiyatidan ancha uzoqda turadi, chunki bu davrda grek aristokratiyasi hokimtdan mahrum bo'lgan edi va bu Gresiyaning materik qismida shaharlarning erkin rivojlanishi va o'sishiga olib kelgandi.

“Iliadada” kuylangan qahramonlar jasorati ham, Gesiod she'rlarida aks etgan yer aristokratiyasining hukmronligi ham grek falsafasining rivojiga qulaylik tug'dirgan deb aytib bo'lmaydi. Aksincha, ilk grek falsafasi, garchi u ayrim shaxslar tomonidan yaratilgan bo'lsada, muayyan darajada polislar, ya'ni shahar-davlatlar taraqqiyoti natijasi bo'lib, u Sokratgacha bo'lgan mutafakkirlarning kosmologik ta'lmutlarida butun olamga xos qonun hukmronligi va qonunlar konsepsiyasini ifodalardi. Shuning uchun ham ma'lum bir ma'noda Gomerining xudolar va odamlarni boshqaradigan oliy qonuni, Gesiod tasvirlagan olamlar va uning axloqiy qadriyatlarini bilan ilk Ioniya kosmologiyasi o'rtasida vorisiylik mavjud deb aytish uchun asos bor. Ijtimoiy hayot muqimlashgan, barqarorlashganda odamlar rasional tarzda olamni va o'z-o'zini anglash bilan mashg'ul bo'lishga imkon topishi va endi shakllanayotgan davrida falsafaning asosiy obyektini yaxlit ko'rinishdagi tabiat bo'lishi psixologik nuqtai nazardan tabiiy holdir ¹.

Ellada falsafasining vujudga kelishida qadimgi Sharq madaniyati, xususan qadimgi Misr va Bobilda yaratilgan ilmlar sezilarli rol o'ynadi. Masalan, dastlabki grek faylasuflari Yaqin Sharqdagi ilm kurtaklarini o'zlashtirgan holda ijod qilganlar. Ular Afro-Osiyo hisoblash matematikasini deduktiv fanga aylantirishgan. Mana shu asosda greklar rasionalistik dunyoqarash hosil qilganlar.

¹ Bu masala bo'yicha to'laroq ma'lumot olish uchun qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.13-16

Endi vujudga kelayotgan antik falsafa quyidagi ijtimoiy hodisalarni o'zida aks ettiradi: qulchilikni asoslash, ma'naviy aristokratizm, deduktiv fanlarning unchalik yuqori bo'lmagan darajasi, eksperimental tadqiqotlarning yo'qligi, aksariyat falsafiy doktrinalarning kuzatuvchanlik mushohadaga asoslanganligi, ularning amaliy hayot bilan bog'liqligining zaif bo'lishi va boshqalar. Bular antik falsafa imkoniyatlarini chegaralagan.

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, ioniya fani va falsafasini bir-biridan aniq chegaralangan deb ayta olmaymiz. Ilk ioniyalik mutafakkirlar turli xil tadqiqotlarni, masalan, astronomik kuzatishlarni amalga oshirar ekanlar, uni falsafadan ajratmaganlar. Ular dengizda suzish ehtiyojlari uchun astronomik izlanishlar olib borishgan, borliq substansiyasini topishga urinishgan, injenerlik loyihalarini va hokozalarni yaratishgan donishmandlar bo'lib, bularning barchasini o'z mashg'ulot turlarini farqlamasdan qilishgan. Faqat bu davrda tarix va geografiyaning qorishmasi sifatidagi tarix alohida fan tarzida ajratilgan, bu ham barcha hollarda emas. Shunga qaramasdan, ioniya faylasuflari haqiqiy falsafiy tushunchalarni shakllantirishdi va real spekulyativ qobiliyatga egaligini namoyon qilishdi, ularning bu faoliyatlari grek mumtoz falsafasining shakllanishidagi bir bosqich bo'ldi; shuning uchun ham ularni hatti-harakatlari e'tiborni jalb qilmaydigan begunoh go'daklardek falsafa tarixidan chiqarib tashlab bo'lmaydi.

Shunday qilib, grek tafakkurining buyuk yutug'i Ioniya yaraldi; agar Ioniya butun grek falsafasining beshigi bo'lsa, Milet Ioniyaning beshigi bo'ldi¹.

Qadimgi grek falsafasining, shu jumladan, Ioniya falsafasining muhim yutug'i—olamning yaxlit manzarasini, ontologik-kosmologik modelini yaratishga intilishidir. Qadimgi grek faylasuflari olamdagi turli-tuman predmet va hodisalarni yagona asosga keltirish, ya'ni ularning substansiyasini topish yo'li bilan dunyoning yaxlit nazariy manzarasini hosil qilganlar.

Bu holat ilk grek falsafasining asosiy hususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Ular quyidagilar:

Ontologizmning, ya'ni borliq to'g'risidagi ta'limotning ustuvorligi;

Naturfalsafiy shaklda bo'lishi. Bu fan va falsafaning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli ularning bir-biridan aniq chegaralanmaganligi natijasidir. Mana shu sabablarga ko'ra ilk grek falsafasining asosiy tushunchalaridan biri tabiat (Kosmos), karakterli xususiyati—kosmosentrizm deb ataladi.

Qadimgi grek falsafasini o'rganish uchun manbalar: Diogen Laersiy, Platon, Aristotel va boshqalar asarlari.

Ioniya falsafasi grek naturfalsafasining boshlanishi hamdir. Uning uchun stixiyali materializm, sodda dialektika, dastlabki idealizm elementlari, mifologik

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.20-21

obrazlarning ko'pligi, antropomorfizm, panteizm elementlari mavjudligi, sof falsafiy terminlarning yo'qligi, fizikaviy jarayonlarni axloqiy masalalar kontekstida hal etish kabilar xosdir.

Lekin shunga qaramasdan Ioniya falsafasini asl ma'nodagi falsafa deb aytish mumkin, chunki dastlabki mutaffakkirlar olamning boshlang'ich asosini substansiya tarzida tushunishga urinishgan, u rasional ko'rinishda bo'lgan va sistemaga solingan. Suv, yer, havo, olov, logos, zaruriyat—bular mifologiyadan tozalangan, tushunchalar darajasiga yetay deb qolgan obrazlardir.

Shunday qilib, grek falsafasi sivilizasiyasi ildizlari tarixi uzoq davrlarga borib taqaladigan xalq tomonidan yaratilgani va biz ilk grek falsafasi deb ataydigan falsafaning faqat keyinchalik Gresiyaning materik qismida yunon tafakkuri va madaniyati gullab-yashnagan, rivojlangan falsafasiga nisbatangina “ilk” ekanligini ta'kidlash joiz¹

Milet maktabi falsafiy ta'limoti

Fales

Milet maktabi Ioniyada shakllangan ilk falsafiy maktabdir. U Kichik Osiyoda paydo bo'lsa-da, ruhi bo'yicha Yevropa falsafiy maktabidir. Asoschisi—Fales Yaqin Sharq madaniyati bilan yaxshi tanish bo'lgan. Fales kelib chiqishiga ko'ra finikiyalik, lekin Milet fuqaroligini olgan degan rivoyatlar mavjud. U er.avv VII asr oxiri—VI asrning birinchi yarmida yashagan. Falesni Qadimgi Gresiyadagi “yetti donishmand”lardan birinchisi deb e'lon qilishgan. U siyosiy masalalar bilan ham qiziqqan: ioniyaliklarni Lidiya va forsiylar hujumi xavfi tug'ilganda, birlashishga chaqirgan. . Diogen Laertskiy Falesning hayotiy faoliyatini tasvirlar ekan, uning bilan bog'liq bir qancha anekdotlarni, xususan, yulduzlarga qarayman deb chuqurga tushib ketishi yoki oliviya yog'ini sotishdagi ishlari to'g'risidagi gap-so'zlarni keltiradi. Lekin bular donishmandlar to'g'risida to'qiladigan paxmoqli, bo'rttirilgan, yarim hazil-yarim chin hikoyatlar bo'lsa kerak.

Asarlari: “Boshlang'ich asos to'g'risida”, “Quyoshning tutilishi to'g'risida”, “Kun va tunning tenglashishi to'g'risida”, “Dengiz astrologiyasi” va boshqalar uning qalamiga mansub deb hisoblanadi.

Olim sifatidagi faoliyati. Fales Ioniyadagi birinchi matematik va fizikdir. Uni Misrdan Elladaga geometriyani olib kelgan deyishadi. Fales Quyoshning yillik harakatini aniqlagan. Osmon sferasini beshta qismga bo'lgan. Yilning 365 kundan tashkil topishini aniqlab, uni 12ta 30kunlik oyga bo'lib, kalendar tuzgan (Misrdagi singari 5 kun tushib qolgan). Aytishlariga qaraganda, u Gerodot eslatib o'tgan va lidiyaliklar va midiyaliklar urushi tugagan vaqtda sodir bo'lgan Quyosh tutilishini

¹ Карафт: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.21

oldindan aytgan. Hozirgi astronomlar hisob-kitobiga ko'ra, Kichik Osiyoda kuzatilishi mumkin bo'lgan bu hodisa miloddan ilgari 585 yil 28 mayda ro'y bergan. Agar bu fakt haqiqat bo'lsa, rostdan ham Fales bashorat qilgan tutilish 585 yiddagi bo'lsa, olim VI-asr boshida yashagan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Falesning boshqa ilmiy yutuqlari qatoriga kalendarni ixtiro qilishi va Kichik Ayiqqa qarab korabl kursini belgilashning finikiyalik usulini amaliyotga joriy etishini qo'shishadi.

Geometriya sohasida qator tengliklarni aniqlagan: teng tomonli uchburchak, doira ichiga uchburchak chizgan.

Fizik sifatida Nil daryosining yozda toshishi sabablarini izlagan va uni qarama-qarshi yo'nalgan shamolda deb bilgan. Bu shamol, uning fikricha, Nil daryosi suvining harakatini qiyinlashtirgan va natijada uning sathini ko'targan. Albatta bu faraz shaklidagi fikr, lekin xato. Uning asl sababi yozda qorlarning erib, yomg'irlar yog'ib, suv miqdorining ko'paytirishida.

Miletlik Fales bir shaxsda faylasuf va amaliyotchi olim qo'shilishining namunasi. Falesning faylasuf sifatidagi faoliyatiga dastlab baho bergan mutafakkir Aristotel bo'ldi. U "Metafizika" asarida quyidagilarni yozadi: "Falsafa bilan ilk bor shug'ullanganlarning ko'pchiligi barcha narsalarning ibtidosini, boshlang'ich asosini materiyada deb bilishgan. Undan barcha narsalar tashkil topadi, undan barcha narsa kelib chiqadi va unga oxir-oqibatda qaytadi. Bunda asos saqlanib qoladi, narsalarning xossalari o'zgaradi, xolos. Buni narsaning boshlang'ich asosi va elementi deb hisoblashgan. Shuning uchun ham ular hech narsa paydo bo'lmaydi va yo'qolmaydi, chunki asosiy tabiat saqlanib qoladi degan fikrda bo'lganlar. Bunday boshlang'ich asos uchun miqdor va shaklni barcha ham bir xil qilib ko'rsatmagan. Fales shu turdagi faylasuflarning boshlovchisi. U boshlang'ich asosni suv deb hisoblagan"¹.

Suv-Okean, Nun, Abzu (Apsu)ning falsafiy qayta anglanishi natijasi, Fales kitobining "Asos haqida" deb atalishi uning birinchi asosni tushuncha darajasida anglaganidan dalolat beradi, aks holda u faylasuf bo'la olmasdi, degan hulosaga kelishga imkon beradi. Suvni boshlang'ich asos deb hisoblar ekan, u barcha mavjudotni unda suzib yurishga majbur qiladi. U substansiyani shu shaklda tasavvur qiladi. Bu haqida "Metafizika" asarida Aristotel Falesning Yerni suvning ustida qallqib turgan narsa deb hisoblashini ta'kidlaydi (uni suzib turgan silliq disk sifatida olib qaragan). Biroq, eng muhimi shundaki, olamning boshlang'ich asosini suvda deb bilgan. Uning xizmati Borliqning yagonaligi, yaxlitligi masalasini qo'yishidir. Aristotel Falesning bu fikrini kuzatishlarining natijasi deb taxmin qiladi. "Ehtimol, u barcha narsalarning namlikni tortishi, issiqning ham shundan

¹ Iqtibos quyidagi manba bo'yicha: Antologiya mirovoviy filosofii.T.1,Ch.1-S.268

paydo bo'lishi va saqlanib turishini ko'rgandan keyin shu xulosaga kelgandir (barcha narsalar suvdan kelib chiqqan deyishi muhim prinsip). U mazkur faktdan barcha narsalarning urug'i ho'llik tabiatiga ega, suv esa-ho'l narsalar tabiatining asosi, degan xulosaga keldi"¹. Aristotel yana ehtiyotkorlik bilan Fales qarashlariga qadimgi teologiyadagi, suv shoirlar nazdida xudolar qasam ichgan predmetdir, degan fikr ta'sir etganini taxmin qiladi. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bug'lanish hodisasi suvning tumanga yoki havoga, muzlash hodisasi oxiriga yetkazilsa-suvning tuproqqa aylanishini yaqqol namoyish qiladi. Umuman olganda Falesning xizmati shundaki, u birinchi bo'lib barcha narsalarning asosi masalasini qo'ydi, uni qanday hal etishi boshqa masala².

Demak, Fales bu tushuncha mazmunida oddiy suvni emas, "aqli", ilohiy suvni tushunadi. Diogen Laertskiy so'zi bilan aytganda, "Fales barcha narsaning asosini suvda deb bildi, dunyoni esa jonli, xudolarga to'la deb hisobladi"³. Fales faqat moddiy borliqningina emas, balki bilimlarni ham yagona asosga keltirish zarur deb hisobladi. U aytadi: "Ko'pso'zlik aqli fikr ko'rsatkichi emas", "Qandaydir bir yolg'iz fikrni izla, bitta yaxshi narsani tanla, ana shunda maxmadonalarning quruq so'zli ekanligini anglaysan"⁴.

Aristotel Falesga tegishli deb hisoblaydigan boshqa fikr shundan iboratki, tabiat xudolarga to'la, magnit jonga ega va u temirni o'ziga tortadi; buni, albatta, talqin etish oson emas. Fales dunyoviy jon mavjudligiga ishongan va uni Xudo yoki Platon bilan aynanlashtirgan, go'yoki u olamni suvdan yaratgan, degan fikrni bildirish juda katta dadillik bo'lur edi. Biz faqat bitta narsani ishonch bilan aytishimiz mumkin – Fales "narsalarni" bitta boshlang'ich elementning turli shakllari deb hisoblagan va bu eng muhimi. Suvni ana shunday boshlang'ich element deb bilishi uni boshqa mutafakkirlardan ajratib turadi, biroq uning birinchi grek faylasufi deb shuhrat qozonishining boisi shundaki, u birinchi bo'lib Tafovutdagi Birlik g'oyasini ilgari surdi (garchi buni mantiqiy nihoyasiga yetkazmagan bo'lsada) va birlik g'oyasiga tayanishi bilan birga xilma-xillikni hisobga olishga urindi. Tabiiyki, falsafa tajribada kuzatiladigan turli xil hodisalarning sabablari va mohiyatini bilishga intiladi. Faylasufning tushunishi xilma-xillikda yashirinib yotgan birlikni anglashni bildiradi. Materiya va ruhning tub farqini bilmasdan turib, mazkur muammoning murakkabligini baholash qiyin: borliq yo moddiy birlik (Falesdagi singari), yo G'oya tarzida (hozigi ayrim faylasuflar ta'kidlaganidek) olib qaraladi. Yagonalik va ko'plik masalasining murakkabligini faqat borliqning mohiyatli darajalari konsepsiyasi va borliq

¹O'sha joyda

² Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.22

³ Diogen Laertskiy.O jizni, ucheniyax i izrecheniyax znamenitых filosofov.-M.,1979-S.71

⁴ O'sha joyda

analogiyasi doktrinasini aniq shakllantirilganda haqqoniy baholash mumkin; aks holda xilma-xillikning butun boyligi birlik to'g'risidagi xato yoki ma'lum bir darajadagi ixtiyoriy tasavvurga qurbon qilingan bo'ladi.

Ehtimol, Aristotelning magnitning jonga egaligi to'g'risidagi fikrni Falesga tegishli deb hisoblashi animizmga xos hayvon jonining (insonning tushida voqif bo'ladigan) butun organik dunyoga va hatto, noorganik dunyo obyektlari va kuchlariga yoyishdan iborat g'oyaning aks sadosidir. Shunday bo'lgan taqdirda ham bu g'oya o'tmish sarqiti bo'ladi, chunki Fales misolida mifdan fan va falsafaga o'ta borish yaxshi kuzatiladi, Fales esa haqli ravishda grek falsafasi asoschisi sifatida hurmat qilinadi¹.

Anaksimandr

Anaksimandr—Falesning shogirdi va ishining davomchisi. U proza shaklida yozilgan ilk falsafiy asar: “Tabiat haqida” muallifi. Bu asarni er.avv. VI asrda yozgan, undan ayrim parchalargina saqlanib qolgan. Boshqa asarlari: “Yer xaritasi” va “Globus”.

Fales singari Anaksimandr ham amaliy ilmiy tadqiqotlar bilan mashg'ul bo'ladi; u Qora dengizda suzuvchi miltik dengizchilar ehtiyojini hisobga olib dastlabki geografik xaritani yaratgan deyishadi.

Olim sifatida Anaksimandr “gnomon”—Sharqda avval elementar quyosh soatlari deb atalgan narsani kiritdi. Bu gorizont maydonda qo'yilgan belgilar ustida vertikal tarzda turgan sterjen bo'lib, vaqt soyaning yo'nalishiga qarab belgilangan. Eng qisqa soya-yozdagi kun o'rtasida Quyoshning turish vaqtini bildiradi. Eng uzun soya qishdagi kun o'rtasida Quyoshning turishiga mos keladi. Anaksimandr osmon sferasining modelini – globusni yaratgan, geografik xaritani chizgan. Matematika bilan shug'ullangan, “Geometriyaning umumiy ocherki”ni yaratgan.

Boshqa ko'p faylasuflar singari, jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etgan – Apollonda mustamlakaga asos solgan. Anaksimandr o'zining prozada bitgan falsafiy mushohadalarini bitta kitobga yiqqan. Teofrast zamonida u hali “yonib ketmagan” edi va Anaksimandr g'oyalarining ayrim fragmentlari saqlangani uchun biz undan qarz dormiz. U ham Falesga o'xshab barcha narsalarning boshlang'ichi, birlamchi elementini qidirdi. Biroq u xulosaga keldiki, materiyaning hech bir konkret shakli (masalan, suv) qidirilayotgan boshlang'ich element bo'la olmaydi, chunki, suv yoki namlik o'z holicha qarama-qarshiliklardan biri bo'lib, ularning konfliktini tushuntirish lozim bo'ladi. Agar o'zgarish tug'ilish va o'lim, o'sish va

¹ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.22-23

so'lish mavjudligi tufayli ekan, bitta elementning kengayishi boshqasi hisobiga bo'lar ekan, unda – agar olamdagi barcha narsaning asosini suvda degan fikrdan kelib chiqsak – uning boshqa elementlarni allaqachon yutib yubormaganini tushunish qiyin.

Shunday qilib, Anaksimandr boshlang'i elementni ajratib bo'lmaydi degan xulosaga keldi. U qarama-qarshiliklardan avvalroq keladi, chunki undan barcha mavjudot kelib chiqadi va zaruriy ravishda barchasi unda yo'q bo'lib ketadi. Anaksimandr boshlang'ich elementga (arxe) nom berdi va, Teofrast fikricha, u ilk bor uni moddiy sabab deb atadi.

“Bu suv emas, qandaydir elemnt deb ataluvchi narsa emas, balki ulardan farq qiluvchi cheksizlik bo'lib, undan barsa samolar va ular orasidagi dunyolar kelib chiqadi”. Bu - apeyron, Chegarasiga ega bo'lmagan substansiya. “Mangu va azoblanmaydi”, u “barcha dunyolarni qamrab oladi”¹.

Bundan ma'lum bo'ladiki, Anaksimandr barcha mavjudotning ibtidosi, boshlang'ich asosi “arxe” tushunchasini birlamchi asos, substansiya darajasigacha kengaytirdi. Bunday substansiyani Anaksimandr apeyron deb atadi. Apeyros– “chegasiz, cheksiz, nihoyasiz” demakdir. Ba'zi qadimgi grek olimlari apeyronni Anaksimandr moddiy deb hisoblagan deyishadi, ba'zilar to'rt element–yer, suv, havo, olov aralashmasi deb talqin qilishadi. Aristotel fikricha, Anaksimandr ana shu to'rtta stixiyadan qaysidir bittasi cheksiz, nihoyasiz bo'lishi mumkin deb hisoblab, qolgan uchtagiga nisbatan uni afzal deb bilgan holda apeyron g'oyasini ilgari surgan.

Substansial asos sifatida apeyron cheksiz bo'lishi zarur, aks holda u turli stixiyalarning almashib turishi asosini tashkil eta olmaydi. To'rtta element bir-biriga o'tib tursa, unda ular uchun umumiy bo'lgan suv ham, havo ham, yer ham, olov ham emas narsa bo'lishi kerak. Aynan shu narsa apeyrondir. U fazoda cheksiz bo'libgina qolmay, balki ichki tabiati bo'yicha ham cheksizdir, ya'ni noaniqdir. Demak, *apeyron*–cheksiz, chegarasiz, nihoyasiz, noaniq substansial asosdir.

Anaksimandrning saqlanib qolgan matnlari bo'yicha “apeyron – qarish nimaligini bilmaydi, u o'lmas va yo'q bo'lmasdir”², abadiy faollikda, harakatda. Harakat–apeyronning muhim xossasi.

Anaksimandr kosmogoniyasi. Apeyron, uningcha, substansial asosgina bo'lib qolmasdan, balki Kosmosning genetik asosi hamdir. U narsalarning asosini tashkil qilibgina qolmay, ularni yaratadi ham. Bir vaqtning o'zida borliqda son-sanoqsiz dunyolar mavjud. Ularning hiech biri mangu emas, lekin mangu harakat

¹ Iqtibos quyidagi manba bo'yicha: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.24

² Диоген Лаэртский.О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов.-М.,1979-С.71

tufayli bir vaqtning o'zida bu dunyolarning cheksiz to'plami mavjud. Bularning barchasiga qo'shimcha ravishda mangu harakat mavjud bo'lib, unda samolar paydo bo'ladi. Bu mangu harakat Platonning "Timeyida" tasvirlangandek, Pifagor doktrinasiga muvofiq, o'zi orqali barcha narsalarni o'tkazadigan hodisa ko'rinishida amal qiladi. Bundan keyin uyurmali harakat sababli og'irroq elementlar hisoblangan yer va suv uning markazida qolishadi, olov aylana bo'ylab joylashadi, havo esa ular oraligidagi fazoda o'rin egallaydi. Yer- disk emas, u "kolonna stvoliga o'xshash" qisqa silindr¹.

Anaksimandr kosmogoniyasi mifologiyadagi teologiyadan farq qiladi. Apeyron barcha narsani o'zidan (xudodan emas) keltirib chiqaradi. Aylanma harakatda bo'lib, u xo'l va quruq, sovuq va issiqni ajratib turadi. Ularning juft kombinasiyalari yerni (quruq va sovuq), suvni (xo'l va sovuq), havoni (ho'l va issiq), olovni (quruq va issiq) hosil qiladi. Undan keyin markazda eng og'ir narsa sifatida yer, uning atrofida suv, havo va olov ta'sirida mavjuddir. Osmondagi havo ta'sirida suvning bir qismi bug'lanadi va yer qisman okeandan yuqoriga chiqib qoladi. Shu tariqa quruqlik paydo bo'ladi. Osmon sferasi uchta halqaga ajralib ketadi, ular havo bilan o'raladi. Bu halqalarni g'ildirakning chamberagiga, jiyagiga o'xshatish mumkin (yoki olov bilan to'ldirilgan shinaga o'xshatsa bo'ladi). Quyi jiyakda, xoshiyada ko'plab teshiklar bor bo'lib, ular orqali ichidagi olovni ko'rish mumkin – bular yulduzlardir. O'rta jiyakda bitta teshik bor – bu Oydir. Yuqori teshikda ham bitta teshik bor–u Quyoshdir. Teshiklar to'la yoki qisman yopilishi mumkin, uning natijasida Quyosh yoki Oy tutilishi sodir bo'ladi. Mazkur jiyaklar Yer atrofida aylanadi. Ular bilan birga teshiklar ham aylanadi. Yulduzlar, Oy va Quyosh harakatini ana shunday tushuntiradi. Anaksimandr kosmogoniyasining ijobiy tomonlari nimada degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

- 1) Kosmos elementlari, tabiat hosil bo'lishida xudolar ishtirok etmaydi;
- 2) unda olamning hissiy manzarasidan voz kechiladi. Olamning ichki mohiyati va uning bizga namoyon bo'lishi farqlanadi. Biz yulduz, Oy va Quyoshni ko'ramiz, lekin ularning xoshiyasi, jiyagini ko'ra olmaymiz.

Hayotning kelib chiqishini Anaksimandr quyidagicha tushuntiradi: tirik mavjudot dengiz va quruqlik orasida osmon olovi ta'siri ostida paydo bo'lgan. Dastlabki tirik organizmlar dengizda yashagan. Keyin ularning bir qismi quruqlikka chiqishgan. Dengiz hayvonidan inson kelib chiqqan. Xususan, inson birorta ulkan baliq ichida paydo bo'lib, u yerda ulg'ayganicha yashagan va keyin quruqlikka chiqqan (chaqaloq holida chiqqanida yashab keta olmas edi).

¹ Qarang : Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.25

Dialektik va materialistik qarashlari. Anaksimandrning materialistik monizmi qadimgi greklarning o'zini lol qoldirgan. Plutarx ta'kidcha, Anaksimandr aytadiki, apeyron – tug'ilish va o'lishning yagona sababi. Xristian teologi Avgustin fikricha, Anaksimandr “ilohiy aqlga hech qanday o'rin qoldirmadi”. Dialektik ta'limoti apeyronning abadiy harakati, undan qarama-qarshi kuchlarning ajralib chiqishi (issiq-sovuq, ho'l-quruq), to'rtta stixiyaning ulardan hosil bo'lishi, tirik tabiatning notirik tabiatdan kelib chiqishi to'g'risidagi evolyusion qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Esxatologiya(esxatos–chekkadagisi.oxiri)–dunyoning oxiri to'g'risidagi ta'limot. Anaksimandrning saqlanib qolgan fragmentida aytilishicha, barcha narsalarning tug'ilishi nimadan bo'lsa, yo'qolishi ham zaruriy ravishda shunga borib taqaladi. Adolatsizlik uchun narsalar bir-biridan vaqt belgilagan tartib bo'yicha qasos oladilar.

Anaksimien

Anaksimien–Anaksimandrning shogirdi va ishining davomchisi. U ham olim bo'lgan. Uni biologiya va matematika masalalari qiziqmagan, ko'proq astronomiya va meteorologiya sohasiga e'tibor qaratgan, “Tabiat haqida” nomli asar yozib qoldirgan. Anaksimien apeyron nazariyasidan qaytgan holda Fales izidan borib, barcha narsaning asosi bo'lib xizmat qiladigan stixiyani izladi. Lekin uning uchun bu suv emas edi. Ustozidan farqli o'laroq, butun mavjudotning birlamchi asosini to'rtta stixiyaning eng sifatsizi bo'lgan havoda deb bildi. Uningcha, cheksiz apeyron ham –havo xossasi.

F.Koplston fikricha, bu g'oyaga turtki bergan hodisa nafas olish bo'lsa kerak, chunki inson nafas olib tursagina hayot bo'ladi, shundan kelib chiqib havohayotning zaruriy elementi degan xulosa chiqarish oson. Anaksimien inson bilan umuman tabiat orasida parallel o'tkazadi: jonimiz havodan iborat bo'lib, bizni boshqargani kabi, nafas olish va havo butun dunyoni o'rab olgan. Havo, shunday qilib, Urstoff (birlamchi element) bo'lib, “ilgari mavjud bo'lgan, hozirda mavjud va kelajakda mavjud bo'ladigan narsalar, barcha xudolar va ilohiy elementlar paydo bo'lgan, boshqa narsalar ulardan vujudga kelgan”¹.

Biroq bunda muammo paydo bo'ladi: havodan barcha narsalar paydo bo'lishini qanday tushuntirsa bo'ladi? Aynan mana shu muammoni hal etishda Anaksimienning daholigi namoyon bo'lgan. Oddiy elementdan konkret obyektlarning paydo bo'lishini tushuntirish uchun u kondensasiya va siyraklashish tushunchalarini kiritadi. Havoni o'z holida ko'ra olmaymiz, lekin mazkur jarayonlar tufayli u ko'rinadigan bo'ladi – siyraklashganda yoki kengayganda, u

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.25

olovga aylanadi, quyuqlashganda esa, shamol, bulut, suv, tuproq va ,oxir-oqibatda, toshlarga aylanadi.

Kondensasiya va siyraklashish tushunchalari nima uchun Anaksimening havoni birlamchi element sifatida olib qaraganiga yana bir bor tushuntirish beradi. U siyraklashganda havo qizadi va olovga aylanishga intiladi. Kondensasiyalashganda esa soviydi va qandaydir qattiq narsaga aylanishga intiladi. Havo, shunday qilib, atrof-olamni o'rab turgan olov bilan markazdagi sovuq, ho'l massa oraligida joylashgan.

Anaksimening havoni o'ziga xos oraliq instansiya deb biladi. Lekin uning doktrinasida eng muhim narsa miqdorning sifatga qanday o'tishini tushuntirishga urinishdir – zamonaviy terminologiyada uning kondensasiya va siyraklashish nazariyasi aynan shunday ifodalanadi. (Anaksimening uqtirishicha, ochiq og'iz bilan nafas olganimizda havo qiziydi, og'izni yopib, burun bilan nafas olganimizda esa-soviydi va hayotdan olingan bu misol uning egallagan pozitsiyasining isbotidir)¹.

Kosmogoniyasi. Barcha narsalar havoning zichlashishi va siyraklashishi asosida paydo bo'ladi. Xususan siyraklasha borib, havo avval olovga, keyin efirga aylanadi. Zichlasha, quyuqlash borib, shamolni, bulutni, suvni, yerni va toshlarni paydo qiladi. Havoning siyraklashishini qizishi, quyuqlashishini sovushi bilan bog'lagan. Bu, albatta, xato. Anaksimening fikricha, Quyosh – bu o'zining tez harakati tufayli yerdan bo'lingan parcha. Yer va osmon yoritgichlari havoda bug'lanadi. Yer harakatsiz, yoritgichlar havoning uyirma harakati tufayli harakatda bo'ladilar.

Anaksimening havoning va olamning cheksizligi, o'zgaruvchanligini; olamlarning paydo bo'lishi va yemirilishi, vaqti-vaqti bilan almashinib turishini ta'kidlaydi².

Fales singari, Anaksimening Yerni tekis, yassi deb hisoblagan. U suvda taxta singari suzadi. Professor Bernet gapiga ko'ra, "ioniyaliklar Yer to'g'risida ilmiy qarashni ilgar sura olishmadi, hatto Demokrit ham uning yassi ekanligiga ishongan". Anaksimening kamalakning qiziq talqinini taklif qilgan. U quyosh nuri o'z yo'lida quyuq bulutga duch kelib, uning orasidan o'ta olmaganida paydo bo'ladi³.

Anaksimening jon to'g'risidagi masalani qo'yishi ham o'ziga xosdir. Undan oldingi faylasuflar deyarli jon to'g'risida gapirishmagan. Fales jonni o'z-

¹ Qarang: o'sha joyda

² Qarang: Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.-T.: "Sharq", 2003- B.9

³ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.25

o'zidan harakatdagi narsa deb tushuntirgan. Magnit jonga ega, shuning uchun ham u temirni o'ziga tortadi degan. Anaksimenes esa havoda ham moddiy jismlarning, ham jonning ibtidosini ko'rgan. Xudolarni ham u havodan keltirib chiqargan. Demak, Xudo–moddiy substansiyaning modifikasiyasi.

Ilmiy farazlariga kelsak, ularning ba'zilar haqiqatga yaqin. Masalan, do'lni bulutdan tushib kelayotgan suvning muzlashi natijasida hosil bo'ladi degan. Agar unga havo aralashsa, qor hosil bo'ladi. Uning fikricha, yulduzlar Oy va Quyoshdan uzoqroqda joylashgan (bu bilan u Anaksimandr xatosini tuzatgan). Ob-havoning holatini Quyosh faolligi bilan bog'lagan.

Anaksimenes Milet falsafiy maktabining so'nggi yorqin vakili edi. “Er. avv. 494 yilda Milet qulashidan keyin Milet maktabi o'z faoliyatini tugalladi. Hozirda Milet doktrinalari Anaksimenesning falsafiy sistemasi sifatida ma'lum; ehtimol qadimgilar nazdida u maktabning bosh vakilidir. Bu uning Milet maktabining so'nggi vakili bo'lgani uchun emas, albatta; bunda konkret obyektlar miqdorining sifatga o'tishini tushuntirishga urinish yo'lida yaratilgan kondensasiya va siyraklashish nazariyasining rol o'ynagani haqiqatga yaqinroq.

Umuman olganda, ioniyaliklarning asosiy xizmati barcha narsalarning boshlang'ichi masalasiga bergan javoblarida emas, balki shu masalaning o'zini qo'yishidir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ularning barchasi materiyani mangu deb hisoblashgan – olam kimningdir irodasi bo'yicha yaratilgan, degan fikr ularning miyasiga kelmagan. Ular uchun bu dunyo – yagona dunyo. Biroq ioniyalik faylasuflarni dogmatik materialistlar deyish to'g'ri bo'lmaydi. Materiya va ruh o'rtasidagi tafovut u paytda hali o'rnatilgan emas edi, buni qilmasdan turib materialistlar to'g'risida uning hozirgi ma'nosida gapira olmaymiz. Ular shuning uchun ham materialistlar ediki, barcha narsalarning kelib chiqishini qandaydir bir moddiy element asosida tushuntirdilar. Biroq ular materiya va ruhning farqi aniq chegaralanmagani va shu sababli rad etadigan narsaning o'zi bo'lmagani uchun qasddan uni inkor etadigan faylasuflar emasdilar.

Va, nihoyat, ta'kidlash joizki, ioniyaliklar shu ma'noda “dogmatiklar” ediki, ular “muammolarni tanqid qilish” bilan mashg'ul bo'lishgani yo'q. Ular narsalar qanday bo'lsa, ularni shunday bilish mumkin degan fikrda bo'lganlar: ular g'aroyibotga soddalarcha ishonganlar va kashfiyotlar quvonchiga to'lib-toshganlar”¹.

Geraklit falsafasi

Geraklit (er.avv. 504-501-yillar oralig'ida tug'ilgan) Milet bilan qo'shni bo'lgan polis–Efesda dunyoga kelgan. U shoh-askar urug'iga mansub. Uning

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.25-26

asarining nomi ham – “Tabiat haqida”, biroq mavzusi kengroq va mazmuni boyroq bo’lib, uch qismdan tashkil topgan: olam, davlat, xudo haqida. Uning asaridan 130 parcha saqlangan. Ularda mutafakkir mulohazalari tushunarsiz tarzda bayon qilinganligini ta’kidlab, Soqrat quyidagilarni yozadi: “Men tushungan narsalarim ko’p. O’ylaymanki, tushunmagan narsalarim ham xuddi shunday. Aytib qo’yish kerakki, buni tushunish uchun deloslik g’avvos (suv tegigaga tushuvchi) talab qilinadi”¹. Geraklit asarida metafora, qiyoslashdan keng foydalanilgan.

Geraklit hayoti to’g’risida F.Koplston bergan ma’lumotlar qiziqarlidir. Uning aytishicha, Geraklit zodagon bo’lgan. Agar Diogen so’zlariga ishonadigan bo’lsak, 69-Olimpiada yillari, ya’ni er.avv.504-501 yillarda uning faoliyati eng gullagan payti bo’lgan; biroq uning hayotining aniq sanalarini hech kim bilmaydi. Jarchilik lavozimi uning oilasiga meros bo’yicha o’tgan; lekin Geraklit undan ukasining foydasiga voz kechgan. U jamoani yomon ko’rgan va undan begonalashgan. Geraklit zamondoshlarini ham, o’tmishdagi buyuk kishilarni ham nafrat ila tilga olgan. Muallif mutafakkirning o’zi tug’ilib o’sgan shahri aholisi to’g’risida nimalarni aytganini keltiradi: “Agar katta yoshdagi erkaklarning birortasi ham qolmay bo’g’ilib o’lsa va shahar soqolsiz o’smirlarga qolsa, efesliklar yaxshi ish qilgan bo’lishardi, chunki ular oralaridagi eng yaxshi Germodorni “Oramizda bizdan barcha narsada ustun bo’lgan odamning yashashiga toqatimiz yo’q, agar shunaqalari bo’lsa, boshqa joyga o’tib, begona kishilar bilan yashasinlar”, deya quvib yubordilar”. Va yana aytgan: “Priyenda Bianing o’g’li Tevtam yashagan bo’lib, u boshqalarga nisbatan aqlliroq bo’lgan”. U aytgan: “Odamlarning orasida ko’pchiligi yomon”.

Gomer to’g’risidagi fikrini quyidagi so’zlarda ifodalagan: “Gomerni shoirlar qatoridan chiqarib yuborish kerak edi, Arxiloxni ham”. Shunga o’xshash u ta’kidlagan: “Ko’p narsani bilish aqlni peshlamaydi, agar shunday bo’lganda Gesiod va Pifagorni hamda Ksenofan va Gekateyani aqlli bo’lshga o’rgatardi”. Pifagorga kelsak, u “boshqalarning ilmiy ijodiga tegishli bo’lganlarni yig’ib, o’ziga keraklilarini tanlab oldi, amalda mavjud ko’p narsalar haqidagi bilimni o’zining donishmandligi natijasi deb aytdi va bu bilan aldamlilik qildi”.

Geraklitning ko’p gaplari lo’nda va zaxarxandalidir, ba’zan – serfahmlidir. Masalan: “Kasallarni kesadigan, kuydiradigan, sanchitadigan va azoblaydigan shifokorlar mehnatiga loyiq bo’lmagan haqni talab qiladilar”, “Biz o’z bolalarimizni bolamiz deganimizdek, Xudo insonni o’zining go’dagi deb aytadi”, “Eshaklar somonni oltindan afzal ko’radilar”, “Insonning xarakteri – bu uning taqdiri”.

¹Iqtibos quyidagi manba bo’yicha: Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии – М.: Высшая школа, 1981-С.133

Geraklitning dinga bo'lgan munosabatiga kelsak, u "diniy aqidalar, urf-odatlarni odamlar o'yini – shuhrat keltirmaydigan amallar" deb hisoblagan. Uning Xudoga munosabati, din tilidan foydalanishiga qaramay, panteistik bo'lgan. mulohazalari noaniq, tushunarsiz, shu sababli u Qorong'i(Nodon) degan laqab olgan. Aftidan, buni u ataylab qilgan; Uning asarlarida mana bunday mulohazalarni uchratamiz: "Tabiat yashrinishni yaxshi ko'radi", "Orakuli Delfada turgan Xudo hych qachon to'ppadan-to'g'ri ifodalamaydi, lekin uni yashirib o'tirmaydi ham, buni u belglar bilan qiladi". O'zining insonlarga yo'llagan maktubida aytadi: "Odamlar uni ilk bor eshitganda, xuddi uni umuman eshitmaganday, tushunmaydilar"¹.

Birlamchi substansiya–genetik asosni Geraklit olovda deb biladi. Qadimgi greklar olovni modda deb tushunishgan, uning issiqlik va yorug'lik ajratib chiqaruvchi zanglash jarayonidan iborat ekanligini tushunishmagan. Biroq uning to'rtta stixiya ichida eng harakatchani va o'zgaruvchani ekanligini yaxshi bilishgan. Olovning substansionalligini Geraklit oltin bilan qiyos qilgan holda tushuntiradi: "Xuddi oltin barcha tovarga, tovarlar oltinga almashingani kabi, barcha narsalar olovga, olov barcha narsalarga almashinadi"². Kosmik olovni Geraklit alanga bilan solishtiradiki, bu alanga barcha keraksiz narsalarni kuydirib yuboradi. Alanga barcha joyda bir xil, biroq chiqaradigan hidi turlicha. Olov abadiy va ilohiydir.

Geraklitni ko'pchilik unga tegshli deb hioblaydigan, aslida unga tegishli bo'lmagani aniqroq mulohaza bo'yicha bilishadi: "Barcha narsa oqib turadi".Ko'pchilik odamlar Geraklitda faqat ana shuni bilishadi. F.Koplstonning ta'kidlashicha,bu fikr, garchi falsafiy sistemasining muhim jihatini tashkil etsada, uning asl mohiyatini aks ettirmaydi. U mana bu fikrni aytmaganmi axir: "Bir daryoning o'ziga ikki marta tushib bo'lmaydi, chunki uning suvi uzluksiz yoningdan oqib o'tib turadi"? Boz ustiga, Platon ta'kilaganidek, "Geraklit qayerdadir barcha obyektlar o'tkinchi va hych bir narsa mangu emas; hayotni daryo oqimi bilan qiyoslab, u, bir oqinga ikki marta tushib bo'lmaydi, deb aytgan". Aristotelning yozishicha esa, Geraklit o'z doktrinasini quyidagi so'zlar ifoda etadi: "Barcha narsalar harakatda, hych bir narsa bir joyda turmaydi". Shu munosabatda, Geraklit – bu doimiy, o'zgarmas hych narsa yo'q deb qichqirayotgan, reallikni noreallik deb e'lon qilgan antik dunyo Pirandollasidir deyishimiz mumkin.

Geraklit fikricha, hych bir narsa mavjud emas, chunki bu uning falsafasiga ziddir, deb aytishimiz xato bo'ladi. O'zgarish g'oyasi hycham uning sistemasining yetaki g'oyasi emas. Geraklit "So'z"ga, ya'ni o'zining insoniyatga

¹ Qarang : Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.25

² Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.275

maktubida alohida e'tibor qaratgan va dunyoda barcha narsa o'zgarib turadi degan fikr maktubida bo'lganda, uni insoniyatga yo'llashi dargumon edi. Bu haqiqatni ioniyalik boshqa faylasuflar yaxshi tushunishgan, va Geraklit bu bilan hych qanday yangi narsa aytmagan bo'lardi.

Geraklit ko'pxillikdagi birlik, birlikdagi ko'pxillik konsepsiyasini ilgari surishi bilan falsafaga takrorlanmas hissasini qo'shdi. Anaksimandr falsafiy sistemasida, ko'rib o'tganimizdek, qarama-qarshiliklar bir-birini siqishadi, keyin esa navbati bilan adolatsizlik uchun jazolanadilar. Anaksimandr qarama-qarshiliklar kurashini tartibning buzilishi, Yagonaning sofligiga dog' tushiruvchi sifatida bo'lishi mumkin emas hodisa deb hisoblagan. Geraklit bunday fikrga qo'shilmaydi. Uning uchun qarama-qarshiliklar konflikti – bu hycham Yagonaning darz ketishi bo'lmay, balki uning mavjudligining zarur shartidir. Amalda Yagona qarama-qarshiliklarning to'qnashishi tufayli mavjud: bu qarama-qarshi turish uning yaxlitligi uchun zarur.

Geraklit uchun reallik - bu Yagona ekanligi uning quyidagi mulohazasida yaxshi ko'rinadi: “Donishmandlik quloq solishda, menga emas, “So'z”ga, va barcha obyektlar – bu Yagona ekanligini e'tirof etishda”. Boshqa tomondan qarasak, qarama-qarshiliklar – Yagonaning mavjudligi sharti, degan g'oya uning quyidagi mulohazalarida aniq namoyon bo'ladi: “Urush barcha uchun odatiy hol, kurash adolatli va barcha obyektlar kurash orqali vujudga keladi va yo'q bo'ladi, degan haqiqatni bilishimiz kerak” va “Kurash xudolar va odamlar hayotidan yo'q bo'lsin!”, deya hayqirganida, u nohaq edi. Geraklit Borliqni yo'qotishga chaqirayotganini bilmas edi, chunki uning chaqirig'i eshitilganda, olam mavjud bo'lmay qolar edi.

Geraklit yana kurashning zarurligiga haqida gapiradi: “Odamlar tafovutlarning o'zaro kelishuvini tushunmaydilar. Bu yoydagi singari qarama-qarshi kuchlanishlarning muvozanatlashuvidan iborat”.

Demak, Geraklit uchun reallik – bu Yagona. Biroq, ayni paytda, u ko'plik hamdir – va bu tasodif emas, uning mavjudligining zaruriy shartidir. Yagona Tafovutdagi Aynanlik bo'lishi uchun bir vaqtda yakka va ko'plik bo'lish zarur. Gegel shakllanmoq kategoriyasining kashf qilinishini Geraklit nomi bilan bog'laydi; lekin bu fakt Gegelning Geraklitni noto'g'ri tushinishi va, bundan tashqari, Parmenid o'z sistmasini Geraklitda ilgari yaratgan deb hisoblashining xatoligiga asoslangan. Parmenid Geraklit zamondoshi va uning sistemasi tanqidchisi bo'lgan, bu esa uning o'z asarlarini keyinroq yaratgan deganidir. Geraklit falsafiy sistemasi ko'proq eng umumiyning konkretligi, Ko'plikdagi Birlik, Tafovutdagi Aynanlik g'oyasiga ko'proq mos keladi.

Xo'sh, Ko'plikdagi birlik nima? Geraklit hamda bu g'oyani keyinchalik undan qabul qilib olgan stoiklar uchun olov olamdagi barcha narsalarning asosidir.

Bir qarashda Geraklit ioniyaliklar g'oyasini ishlatib, unga original ko'rinish bergandek bo'lib ko'rinishi mumkin. Fales reallik asosiga suvni, Anaksimenes havoni qo'ygani uchun, Geraklit ulardan qandaydir ajralib turishi uchun havoni tanlagan degan fikr xayolga keladi. Tabiiyki, Geraklitda boshqa boshlang'ich asosni topish hohishi bo'lgan, lekin uning tanlovi mustahkam bazaga ega. Uning tanlovining olovda to'xtashining asosli sababi - sistemasining asosiy g'oyasi bilan bog'liq sabab bor edi.

Hissiy tajriba shundan dalolat beradiki, olov turli jinsli moddalardan oziqlanishi, iste'mol qilishi va o'ziga transformasiya qilishi hisobiga mavjud. Turli obyektlar tomonidan yaralgani holda, ularning barchasini o'ziga singdiradi; bunday materiallar bilan oziqlanib turmasa, u tez orada o'chadi va mavjud bo'lmay qoladi. Olovning o'zining mavjudligi bu "kurash", va "zo'riqish"ga bog'liq. Bu, albatta, falsafiy tushunchaning sof ifodasi, lekin masalaning mohiyatini yaxshi ko'rsatadi, suv va havoda esa unday emas.

Geraklitning olovni reallik asosi qilib olishini uning kaprizi, originallikka intilishi, boshqa faylasuflar orasida ajralib turishga urinishi bilan tushuntirib bo'lmaydi. "Olov, - deydi Geraklit, - bu tashnalik va tashnalikni qondirish" – boshqa so'zlar bilan aytganda, bu olamda mavjud barcha obyektlar, xususan, doimiy zo'riqish, kurash, iste'mol, alanganlash va o'chish holatlarida bo'lgan obyektlar. Yonish jarayonida Geraklit ikki yo'lni – yuqorilash va pastlashni ajratadi. "O'zgarish jarayonida u yuqoriga ko'tarilish va pastlikka ketishni ko'rdi va kosmos ana shular tufayli paydo bo'ldi, deb ta'kidladi. Kondensasiya qilinganida olov namlikka aylanadi, qisilganda suv bo'ladi; suv sovugach, tuproqqa aylanadi, - bu jarayonni u pastlikka ketish yo'li deb atadi. Va yana tuproq yonib, suvni keltirib chiqaradi, undan esa boshqa barcha narsalar paydo bo'ladi; chunki Geraklit tabiatning deyarli barcha obyektlari va hodisalari dengiz yuzasidagi bug'lanishdan vujudga keladi deb hisoblagan. Bu – yuqoriga ko'tarilish yo'li".

Biroq barcha obyektlar – bu olov va ular doimiy ravishda o'zgarib turishadi degan fikrga qo'shilsak, unda, o'z-o'zidan ravshanki, barqarorlik holatiga tushuntirish berish kerak.

Geraklit "me'yori" tushunchasini taklif qiladi. Butun dunyo – "bu me'yori bilan alanganadigan va me'yori bilan o'chadigan mangu tirik olovdir. Agar olov yonar ekan, obyektlardan nimanidir olib, o'z-o'ziga transformasiya qilsa, olganiga teng shuncha narsani qaytarib beradi". "Tovar oltinga, oltin tovarga almashtirilgani kabi, barcha narsa olovga, olov-barcha narsaga almashadi". Shunday qilib, materiyani har xil turlari holatlari o'zgargani holda, uning yig'indisi miqdori o'zgarmasdan qoladi.

Materiyaning bir xil turlarining boshqalaridan ustunligini Geraklit nafaqat narsalarning barqarorligi bilan, balki tabiatning turli hodisalari, masalan, kun va tun, yoz va qishning almashishlari bilan ham tushuntirishga urinadi. Diogen bergan ma'lumotdan bilamizki, Geraklit bir elementlarning boshqalardan ustunligini "bug'lanishdagi farqlari" bilan tushuntirgan. Xususan, "Quyosh Xalqasidan otash oladigan tiniq bug'lanish kunni keltirib chiqaradi; unga qarama-qarshi bug'lanishning ustunligi tunni paydo qiladi. Tiniq, shaffof bug'lanish sabab bo'lgan issiqlik miqdorining ko'payishi yozning boshlanishiga olib keladi; qoramtir tUSDagi bug'lanish keltirib chiqaradigan bug'lanish ustunligi qishni chaqiradi".

Borliqda, biz ishonch hosil qilganimizdek, turli me'yordagi olov, yonish va o'chishning nisbatan bir xil proporsiyada bo'lishi bilan bog'liq narsalarning doimiy kurashi va ayni paytda nisbiy o'zgarmasligi mavjud. Aynan mana shu me'yorlarga ko'ra, yuqoriga ko'tariluvchi va pastga tushuvchi yo'llar tufayli Geraklit "Borliqning yashirin sozlanishi" deb atagan, lekin aslida, uning fikricha, "ochiq sozlanish" fakti kuzatiladi. "Odamlar, deb ta'kidlaydi Geraklit, biz keltirgan parchada, - tafovutlarning o'zaro kelishuvi, moslashuvini tushunishmaydi. Bu yoy yoki liradagi singari qarama-qarshi kuchlanish, zo'riqishlarning muvozanatda bo'lishidir". Yakkalik o'zining tafovutlarida mavjud, tafovutlar mohiyatan Yagonaning turli jihatlari bo'lganlari uchungina bordirlar. Na bu jihatlari, na ko'tariluvchi va pastlovchi yo'llar yo'q bo'la olmaydi – agar ular yo'qolsa, Yagona mavjud bo'lmay qoladi. Qarama-qarshiliklarning bunday ajralmasligi, Yagonaning turli jihatlarning zaruriyligi quyidagi mulohazalarda o'z ifodasini topgan: "Yuqoriga yo'l va pastga yo'l butunlay bir xil", "O'la borar ekan, jon suvga aylanadi, suv o'la borar ekan, tuproqqa aylanadi. Ammo tuproq suvni yaratadi, suv esa - jonni". Albatta, bu quyidagi ta'kiddagidek muayyan relyativizmga olib keladi: "Ezgulik va yovuzlik – bir narsa", "Dengiz nihoyatda toza va nihoyatda ifloslangan suvga to'lgan. Uni ichadigan baliqlar uchun u yaroqli va foydali, lekin uni icha olmaydigan odamlar uchun u iflos va zararli", "cho'chqalar balchiqda cho'milishadi, uy parrandalari - changda"

Ammo Yagonada barcha kuchlanish, zo'riqishlar muvozanatda, barcha tafovutlar uyg'unlikka keltirilgan.: "Xudo uchun barcha narsalar adolatli, yaxshi va to'g'ri, ba'zi narsalar noto'g'ri, boshqalari – to'g'ri deb odamlar aytishadi". Albatta, panteistik falsafaning muqarrar xulosasi ana shunday – mangulik nuqtai nazaridan barchasi vaj.

Geraklit Yagonani Xudo sifatida ham, donishmand sifatida ham tafsiflaydi: "Donishmand faqat bitta. U Zevs nomi bilan atalishni hohlaydi ham, hohlamaydi ham". Xudo – bu eng umumiy Aql (Logos), eng umumiy qonun, u barchani bittaga birlashtirgani va Borliqda doimiy o'zgarishlarni belgilagani holda,

barcha narsalarga xos. Inson aqli – bu eng umumiy Aqlning bir bo’lagi, uning muayyan nuqtadagi konsentrsiyasi, jamlanishi. Shuning uchun inson barcha narsalar birligini va qonun hukmronligini o’zgartirib bo’lmasligini tushungani holda, narsalarga nisbatan aqlli qarashni ishlab chiqishi va aql ila yashashi zarur; u Borliqning zaruriy jarayonlariga moslashib yashashi va ularga qarshi bormasligi zarur, chunki bu barcha bo’ysunadigan, barchani qamrab oladigan Logos yoki Qonunning ifodasidir. Aql va ong – olov elementlari – yuksak qadriyatlaridir, chunki tanani sof olov tark etganda, unda qolgan suv va tuproq hiech narsaga yaroqsiz bo’lib qoladi. Bu g’oyani Geraklit quydagi mulohazasida ifodalaydi: “Go’ngni tashlab yuborishdan ko’ra, jasadni tashlab yuborish afzal”. Shu bilan bog’liq ravishda inson o’z jonini quruq holda saqlashga intilishi lozim: “Quruq narsa – eng dono va eng yaxshi”. Jonga namlik yoqimli bo’lishi mumkin, ammo, “agar jon suvga aylansa, u halok bo’ladi”. “Uxlab yotgan” xususiy olamlardan yuqoriga ko’tarilib, jon umumolamda bo’lishi lozim¹.

Kosmogoniyaga oid qarashlarida Geraklit barcha narsalarnin, shu jumladan, xudolarning ham olovdan paydo bo’lganligini asoslashga urinadi. Kosmosning olovdan paydo bo’lishini uning “pastga qarab harakati”, olovning “yaratilmasligi” bilan ifodalaydi. Geraklit kosmogoniyasi uch xil variantda talqin etiladi:

1) Kliment fikri bo’yicha, olovdan dengiz (suv), undan olamni hosil qiluvchi urug’, undan yer ham, osmon ham, ular orasida joylashgan barcha narsalar ham paydo bo’ladi.

2) Plutarxga ko’ra, olov havoga, havo suvga, suv yerga, yer olovga aylanadi.

Mark Antoniy (er.avv II asr) esa aytadi: “Yerning o’limi–suvning tug’ilishi, suvning o’limi – havoning tug’ilishi, havoning o’limi–olovning tug’ilishi va aksinchadan iborat”².

Esxatologiya masalalarida ham uning pozisiyasi aniq: Kosmos abadiy emas. “Pastga yo’l” davriy ravishda “yuqoriga yo’l” bilan o’rin almashib turadi. Kosmos yonib ketadi. Bu davriy yong’in faqat fizik jarayongina emas, balki aqliy jarayon hamdir. “Olov hiech narsani chetlab o’tmaydi, barchani sud qiladi”³. Dunyoviy yong’in dunyoviy sud bo’ladi.

Geraklit–gilozoist. Uning olovi tirik bo’libgina qolmay, aqlli kuch hamdir. Xristian teologi Kliment Aleksandriyskiy Geraklit asarlaridan bir parchani keltiradi: “Barcha narsalardan tarkib topgan bu yaxlitlik, Kosmos hiech bir Xudo, hiech bir odam tomonidan yaratilgan emas. U to’la kuch bilan alanganadigan va

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003, r.25-29

² O’sha joyda, r.26

³ O’sha joyda, r.27

to'la kuch bilan o'chadigan, doimo bo'lgan, bo'ladigan va mangu tirik bo'lib qoladigan olovdir"¹.

Geraklit talqinida *Logos* (ma'noli, aqlli so'z)–dunyoning obyektiv qonuni. Bu- tartib va me'yorning prinsipi. U olovning o'zidir: hissiyotimiz olov tarzida namoyon bo'lsa, aqlda logos ko'rinishida bo'ladi. Logos tarzidagi olov aqlga ega va ilohiy. Logos bu-Olimp xudolari va insonlarni boshqaruvchi Zevs. Logos – borliqning ichki o'zarishlari, mohiyati hamda ular haqidagi haqiqat. Demak, Geraklit Logos terminini ko'p ma'noda qo'llagan va tavsiflagan. U.Kerimov Geraklitning logos tushunchasini besh xil ma'noda ishlatganini ta'kidlaydi va ularning talqinini beradi². Lekin. logosning bu ma'nolari, bizningcha, Geraklit falsafasida “Logos – obyektiv qonuniyat” ma'nosi asosida o'zaro bog'liqlikda bo'lib, uning konsepsiyasiga yaxlitlik baxsh etadi.

Jon haqida gapirib, Geraklit, uni qarama-qarshiliklar: ho'llik va olov birligidan iborat, deydi. Unda olovning ulushi qanchalik ko'p bo'lsa, jon shunchalik yengil. Shuning uchun ham “quruq bo'lgan jon”–dono va eng yaxshi. Jonning quruq komponenti – bu uning logosi.

Geraklit–stixiyali materialist va sodda dialektik. Uning fikricha, logos borliqning dialektik qonuni. U “barcha narsa oqib, o'zgarib turadi. Olamda hych bir narsa takrorlanmaydi. Abadiylik– shashkani tasavvur qiluvchi go'dak, yosh bola xoqonligi”. Bir narsa turlicha: dengiz suvi ham toza, ham ifloslangan: baliqlar uchun hayot manbai, ichimlik suvi. Odamlar uchun–zaxarli va halokatli. Muhim o'zgarish–bu qarama-qarshisiga aylanish, qarama-qarshilarning mohiyati birining ikkinchisi orqali aniqlanishida. Masalan, sog'liqning qadr-qimmatini kasalga chalinganda bilinadi. Geraklit yozadi: “Kurash (qarama-qarshilar kurashi) barcha narsaning otasi, barcha narsalar ustidan hukmron kurash zaruriyat tufayli paydo bo'ladi”³.

Bilish masalalariga murojat qilib, Geraklit hissiy va rasional bilishni ajratadi. Hissiyot, uning fikricha, foydadan holi emas, ayniqsa ko'rish va eshitish juda ahamiyatlidir. Lekin bilishning oliy maqsadi – logosni anglash va shu tariqa dunyoning oliy birligini bilish hamda oliy donishmandlikka erishish. “Donishmandlik belgisi menga emas, balki barcha bir narsa (birlikda) deb biladigan logosdadir”⁴. Biroq logosni bilish oson emas, buning sabablari ko'p, xususan tabiat yashirinishni yaxshi ko'radi. Bundan tashqari, “ko'pchilik odamlar hayvonlar singari keragidan ortiqcha to'yib ketgan”. Shuningdek, ana shu ko'pchilikning ustozlari: Gomer ham, Gesiod ham, boshqa xalq kuychilari ham

¹ O'sha joyda, r.29

² Qarang: Kerimov U.L. Teoriya logosa:Germenevtika rragmentov Geraklita.- Tashkent: “SAN/ AT”, 2013 –B.8-12

³ O'sha joyda Antologiya mirovov filosofii. T.1. Filosofiya drevnosti i srednevekovya.Ch.1 – M.Мысл,1969 –B.276

⁴ O'sha joyda, B.279

logosni bilishga xalaqit berishadi. Ko'pchilik odamlar nimaga to'qnash kelishayotganlarini ham bilishmaydi. Ko'p narsani bilish aqlli bo'lishga o'rgatmaydi. U olamning yaxlit manzarasini o'rnatishga olib kelmaydi, unga faqat logosni (barcha bir narsa ekanligini) bilish orqaligina erishish mumkin. Demak, Geraklit fikricha, logosni, donishmandlikni dunyoning birligini bilish hammaga ham nasib etavermaydi. Xususan, joni dag'al, olov elementi kam kishilarning tashqi hislari chin bilim bera olmaydi¹. Lekin, odamlar tabiatan aqllidir. "Fikrlash barchaga xos", "Barchaga o'zini bilish va mulohaza yuritish qobiliyati berilgan", "Logos barchada mavjud"².

Axloqiy qarashlarida Geraklit odamlarni tabiatan bir-biriga teng deb hisoblashga moyil. Biroq ularning amalda teng emasligi aniq. Buni ular manfaatlarining teng emasligi oqibati deb biladi. Ko'pchilik logos bo'yicha emas, xoxishlari bo'yicha yashaydilar. Bunday kishilar hayoti – "bolalar o'yini". Ular o'z hohishlari hukmronligi ostidadir. Odamlar eshaklar singari somonni oltindan afzal ko'radilar. Vaxolanki, baxt tana ehtiyojini qondirishda emas, balki o'y-fikr yuritishda, "haqiqatni aytish va tabiat qonunlariga quloq solgan holda, ularga mos ravishda xatti-harakat qilishdadir"³.

Siyosiy qarashlarida Geraklit faqat nasli bo'yichagina emas, balki ruhi bo'yicha ham aristokratdir. Uningcha, eng munosib odamlar bir narsani – o'luvchi narsalarni shon-shuhratga ega deb biladilar. Bunday odamlar logosga muvofiq tarzda hayot kechiradilar va ular ozchilikni tashkil qiladilar. Unday odamlar bebaho, ular "logos bo'yicha emas, o'z hohishlari bo'yicha yashayotgan o'n minglab odamlar o'rnini bosadi"⁴.

Geraklit - bitilgan qonunlar tarafdori (u davrdagi aristokratiya mavjud urf-odatlariga tayanib ish tutgan). "Xalq qonun uchun, xuddi o'z uyini himoya qilganidek, kurashishi kerak"⁵. Uning ta'kidlashicha, insoniyatga tegishli qonunlar ilohiyotdan oziqlanadi.

Geraklitning jon to'g'risidagi ta'limotida mifologiya elementlari ayniqsa ko'p. Geraklit aytadi: "O'lim–biz uyg'ongandan keyin ko'radigan narsadir", "inson o'layotganda tunda o'zi uchun olov yoqadi. Uning ko'zi o'chgan bo'lsa-da, o'zi tirikdir"⁶. Geraklitning ta'kidlashicha, Quyosh–tirik jon, unga adolat xudosi

¹ Qarang: Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.-T.: "Sharq", 2003- B.14

² Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии.,М.:Высшая школа,1981.-S.137

³ Антология мировоз философии.Т.1,Ch.1-S.280

⁴ Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии.,М.:Высшая школа,1981.-S.138

⁵ Антология мировоз философии.Т.1,Ch.1-S.280

⁶ Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии.,М.:Высшая школа,1981.-S.138

Dikl va uning xizmatkori Erina qarab turadi. Ular Quyoshning me'yordan chiqib ketmasligini nazorat qilib turadilar.

Geraklit ta'limoti ioniyadagi falsafiy fikr rivojining dastlabki natijalari yakuni deb baholanishi mumkin. Uning muhim natijalari qatoriga borliqni Yagona va Ko'plik birligida olib tushuntirishi, harakatning qonuniyligi va universalligi g'oyasini asoslashi, garchi sodda ko'rinishda bo'lsa-da dialektikani naturalizm, stixiyali materializm bog'lashga bo'lgan urinishlarini kiritish mumkin. Falsafiy fikrning Qadimgi Gresiyadagi keyingi rivojida mazkur g'oyalar va yondashuvlar mukammallashib bordi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi Gresiyadagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat va madaniyat rivojiganday edi?
2. Gomer mifologiyasi va kosmologiyasini nima uchun sosioantropomormik dunyokarash namunasi deb hisoblaymiz?
3. Gesioddagi besh avlod konsepsiyasining mohiyati nimada?
4. Ferekid ijodi haqida nimalarni bilasiz?
5. Orfizm nima?
6. "Yetti donishmand" Qadimgi grek falsafasining shshakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
7. Fales dunyoqarashining o'ziga xosligi nimada?
8. Anaksimend borliq substansiyasi va strukturasi to'g'risidagi qarashlarini qanday asoslaydi?
9. Anaksimandr apeyronni qanday tavsiflaydi?
10. Geraklit logosni qanday tavsiflaydi?
11. Geraklit dialektikasining mohiyati nimada?
12. Geraklitning inson ruhiyati va bilish to'g'risidagi qarashlarining o'ziga xosligi nimada?
13. Geraklitning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida qanday masalalar o'z ifodasini topgan?
14. Geraklit falsafasining muhim natijalari nimalardan iborat?

6-MAVZU: ITALIYA FALSAFASI

Pifagorchilar falsafiy ta'limoti. Eley falsafiy maktabi

Eramizdan avvvalgi VI - asr oxiridan boshlab shakllanib kelayotgan Yevropa falsafasi markazi Egey olamining Uzoq Sharqidan uning Uzoq G'arbiga – Ioniya “Buyuk Gresiya”ga (Rimliklar grek dunyosining bu qismini ana shunday ataganlar) yoki “Buyuk ellada” (ellinlar uni shunday atashgan) ko'chdi. U Janubiy Italiya va Sisiliya qirg'og'idagi Buyuk koloniyalashtirish davrida turli grek shaharlari tomonidan hosil qilingan polis – koloniyalar yig'indisidan iborat. Ular Kuma, Neapol, Posidoniya, Eley, Regiy, Lokra, Kraton, Siboris, Metanoit, Sirakuza va boshqa shahar – davlatlardir. To'xtovsiz urushlar elladani charchatadi. Er.avv. 327-211 yillarda “Buyuk Ellada”ni asta-sekin rimliklar bosib oldilar va, shu tariqa, Italiya madaniyat markazi, xususan, falsafiy fikrning keyingi rivoji maskaniga aylandi

“Italiyaliklar falsafasi” (Aristotel so'zi) Ioniya falsafasidan keyin antik falsafa rivojida keyingi tashlangan muhim qadam bo'ldi. Italiya falsafasiga Pifagor Ittifoqi, eley falsafa maktabi va Empedokl ijodi taalluqli. Pifagorchilar falsafani matematika bilan bog'ladilar va dunyoning sonli strukturasi masalasini qo'ydilar; eleychilar substansiya tushunchasini borliq tushunchasi darajasigacha rivojlantirdilar. Ular fazo, vaqt va harakatning dialektik tabiati to'g'risida mulohaza yuritdilar.

Pifagoreizm manbalari haqida gap ketganda, shuni aytish kerakki, bizgacha pifagorchilarning asarlaridan hatto uzuq- yuluq parchalar ham yetib kelmagan. Asosiy manba – eshitganlardan iborat.

Pifagorni Samos oroli, ya'ni Ioniya tug'ilgan deb aytishadi. Polikrat tiraniyasi uni o'z vatanidan ketishga majbur qilgan. Fales maslahati bilan u bilim olish maqsadida Misrga boradi va u yerda 22 yil tahsil oladi. Er.avv. 525 yilda Misr forslarga qaram bo'lib qoladi. Bunday vaziyatda misrliklar ko'plab asarlarni Sharqqa jo'natishgan. Olimlar ham ko'chishga majbur bo'lishgan. Ma'lumotlarga qaraganda, ular orasida Pifagor ham bo'lgan. Misr, Bobil, ehtimol Xindistonda jami 34 yillik tahsildan keyin Pifagor “Buyuk Gresiya”ga–Kraton shahriga keladi va u yerda Pifagor Ittifoqini–maktabini tashkil etadi.

Pifagor Ittifoqi hamfikrlarning ilmiy falsafiy va axloqiy-siyosiy “umumiy birodorligi”, jamoasidan iborat. Hikoyatlarga ko'ra, pifagorchilar avval Kratonda, keyinchalik “Buyuk Ellada”ning boshqa shaharlarida hokimiyatni qo'lga olishgan. Ularga allaqanday Kilon qarshi turgan. Uning tarafdorlari pifagorchilar Kratonda syezdga to'planishganda binoni qurshab olib, yoqib yuborishgan.

Pifagorchilar siyosiy qarashlari tahlili ularning anarxiyaga qarshi ekanligini ko'rsatadi.

Pifagor Ittifoqi ichida ham nizolar bo'lgani to'g'risida gapirishadi. Ular aristokratiya va demokratiya tarafdorlari orasida bo'lib, oxir oqibatda bu Ittifoqning tarqalishiga olib kelgan.

Pifagorchilar turmush tarzi qadriyatlar iyerarxiyasiga tayangan. Ular birinchi o'ringa go'zallik va ezgulikni, ikkinchi o'ringa foyda, uchinchi o'ringa yoqimlilikni qo'yadi. Go'zallik va ezgulikka Pifagorchilar fanni ham qo'shadilar.

Pifagor Ittifoqiga har ikkin jins vakillaridan (faqat erkinlari) ko'p yillik axloqiy sinovdan o'tganlarini qabul qilishgan. Mulk umumiy bo'lgan, Ittifoqqa kirishayotganda mulklarini maxsus iqtisodchilarga topshirgan. Ittifoq ikki bosqichli bo'lgan. Akusmatiklar (quloq soluvchilar, eshituvchilar) bilimlarni dogmatik tarzda o'zlashtirishgan, matematiklar (olimlar) bilimlarni asoslash bilan shug'ullanishgan. Pifagor Ittifoqi yopiq tashkilot, umumiy ta'limot yashirin bo'lgan.

Pifagorchilar quyosh chiqquncha o'rinlaridan turishgan, gimnastika mashqlarini bajarishgan, keyin dengiz bo'yiga borib, quyosh chiqishini kuzatishgan. Kechqurun birgalikda cho'milishgan, birga ovqatlanishgan va xudolarga sig'inishgan, uxlashdan avval o'zlariga hisobot berishgan: uch marta o'zlaridlan quyidagilarni so'rashgan: bugungi kunim qanday o'tdi?, Bugun nima qildim?, Qanday burchim bajarilmay qoldi?

Pifagorchilar etikasi asosida ehtiroslar ustidan g'alaba qozonish, kichiklarning kattalarni xurmatlashi, do'stlik va birodorlikni ulug'lash, Pifagorga sodiqlik, xurmat bilan qarash yotadi.

Pifagorchilar medisina, psixoterapiya, bola tug'ish masalalariga extibor berishgan. Ular aqliy qobiliyatni kuchaytiradigan usullarni yaratishgan, tinglash va kuzatish ko'nikmalarini hosil qilishgan. Ular xotirani (mexanikasi va ma'nosini) rivojlantirganlar, ma'noni faqat boshlang'ich asosni topganda tushunishi mumkin, deb hisoblashgan.

Pifagorchilar mushohadalik, donolik turmush tarzini, siyosiy faollikni yuqori baholashgan. Ularning turmush tarzi kosmosdagi tartib va olamdagi simmetriya to'g'risidagi tasavvurlardan kelib chiqqan. Kosmos chiroyi hammaga ham ochila bermaydi. Unga faqat to'g'ri turmush tarzini kechirayotgan odamgina musharraf bo'ladi.

Pifagoreizm davrlari: 3 ta cho'qqisi mavjud: siyosiy (er.avv. 5- asrning birinchi yarmi), falsafiy (er.avv. 5- asrning ikkinchi yarmi), ilmiy (er.avv. 4 asrning birinchi yarmi) davrlar.

Pifagor Ittifoqi tarixini 6 qismga bo'lish mumkin:

1. Pifagor Ittifoqini tashkil etish—er.avv. VI-asr oxiri. Bu Pifagorchilar fanining Pifagorchilar “biradorligi” doirasida shakllanishi. Uning ildizi orfik jamoaga borib taqaladi. Mazkur davrda pifagorchilar “Buyuk Ellada”da hokimiyat tepasida bo’lganlar.

2. Pifagorchilarning siyosiy hukmronlikka egaligi (er.avv. V asr birinchi yarmi);

3. Ittifoqning quvg’in qilinishi, tarqatib yuborilishi (er.avv. V asr o’rtalari);

4. Pifagor diasporasi (egilishi), Liziz va Filolay. Bu Filolay ta’limotida falsafiy cho’qqiga erishilgan davr (er.avv.V asrning ikkinchi yarmi);

5. Arxit Tarentskiy va uning guruhi—pifagoreizmning fanga aylanishi, uning nafaqat mirologiyani, balki falsafiy asarlarni ham yo’qotishi (er.avv. IV asr birinchi yarmi);

6. Pifagorchilar fluntada—oxirgi pifagorchilar (er.avv. 4 asr o’rtalari).

Ilk pifagoreizm, Pifagor ta’limoti to’g’risidagi dastlabki ma’lumotni Geraklitdan olamiz: “Ko’p narsani bilish aqlli bo’lishga o’rgatmaydi, aksi bo’lganda Gesiod, Ksenofan va Pifagor aqllilikka o’rganishgan bo’lardir”¹. Boshqa bir joyda Geraklit aytadiki, Pifagor donishmandligi ko’p bilimlilik emas, balki aldashedir.

Gerodot Pifagorni “buyuk ellin donishmandi” deb ataydi.

Aytishlaricha, Pifagor Germes xudosining o’g’li Efiialtni o’zida gavdalandirgan. Xudoni qahramon avlodlaridan deb bilgan Pifagor o’zini boshqa odamlardan yuqori qo’ygan.

Pifagor jonning ko’chib yurishini ta’kidlaydi: uningcha, aqlli mavjudotlarning 3 turi mavjud: Xudo, inson va Pifagorga o’xshashlar (insonlarning yaxshiroq urug’dan paydo bo’lganlar).

Pifagorning asosiy tezisi- “eng yaxshi dono - son”, son barcha narsalarga, shu jumladan, axloqiy, ma’naviy sifatlarga ega.

Aristotelning yozishicha, Pifagor shogirdlariga, “Adolat - o’z – o’ziga ko’paytilgan son”², deb uqtirgan. Shuningdek, u, “Jon garmoniyadan iborat”, deb aytgan. Yamvlix (4-asr) va Boesiy (5-asr oxiri – 6-asr)ning aytishlaricha, temirchilar ishlayotgan joydan o’tayotganda Pifagor ularning og’irligi bir xil bo’lmagan bolg’alar bilan urayotganlarini payqagan va ular chiqarayotgan tovushning turli xil tovushlar garmoniyasini hosil qilayogani tushungan. Bolg’alar og’irligini o’lchash, tovushlar uyg’unligi, hamohangligini ularning miqdori orqali aniq belgilash, bilish mumkinligini tushungan va bundan Pifagor,

¹ Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.288

² Чапышев А.Н. Курс лекций по древней философии.,М.:Высшая школа,1981.-S.143

“son hodisalarni boshqaradi”, degan xulosaga kelgan. Uningcha, shu yo'l bilan sifatga ega barcha hodisalarni o'lchash va tabiatini bilish mumkin.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Pifagor yirik matematik bo'lgan. “Pifagor teoremasi” va solishtirib bo'lmaslik hodisasining kashf etilishini uning nomi bilan bog'lashadi. U matematikani empirik fandan (savdogarlarga xizmat qiladigan) nazariy fanga aylantirishga katta hissa qo'shgan. Neoplatonik Prokl (5-asr)ning yozishicha “Pifagor geometriyaga erkin fan shaklini berdi, uning prinsiplarini sof abstrakt holda olib qaradi, teoremlarni nomoddiy, intellektual nuqtai nazardan o'rgandi”. Teofrastning ta'kidlashicha, Pifagor 5 ta fizikaviy elementni 5ta to'g'ri ko'pburchaklar bilan bog'lagan: Yer–kub, olov-to'rt qirrali piramida (tetraedr), havo-sakkiz qirrali (oktaedr), suv–yigirma qirrali (ikosaedr), efir–o'n ikkin qirrali (dodekaedr) shaklga ega deb hisoblagan. Aristotel fikricha, Pifagor ellinlardan birinchi bo'lib tarozi va o'lchovlarni kiritgan.

F.Koplstonning pifagorchilar matematik-metafizik falsafasi tahlili, shu munrsabat bilan Aristotel va boshqa mutafakkirlarning pifagorchilar to'g'risidagi fikr-mulohazalariga murojat qilishi, bizningcha, masalaning ko'p qirralari va mohiyatini tushunishga yordam beradi. U Aristotelning “Metafizika”sida yozgan quyidagi so'zlariga e'tiborini qaratadi: “Pifagorchilar o'zlarini matematikaga bag'ishlaganlar, ular birinchi bo'lib bu fanni ilgari surdilar va shu asosda tarbiya topgani holda o'ylashganki, borliqdagi barcha narsalar uning prinsiplariga bo'ysunishadi...”. Pifagorchilar muayyan fan ibtidosida turgan barcha olimlar singari entuziazm bilan to'lib-toshganlar, ularni sonlarning hayotimizda o'ynaydigan roli hayratga solgan. Haqiqatan ham barcha narsalarni hisoblasa bo'ladi va ularning ko'pisi matematik ifodalanishi mumkin. Xususan, ikki o'zaro bog'liq nasalar munosabati son proporsiyalari yordamida ifodalanishi mumkin; muayyan miqdordagi tartiblangan predmetlar tartibi matematik ifodalanishi mumkin va hokazo. Pifagorchilarni eng ko'p hayratga solgan kashfiyot cholg'u asbobi simlari oraligidagi musiqiy intervallarni sonlar bilan ifodalash mumkinligi. Tovushning yuqoriligini songa bog'liq deb aytish mumkin, boshqacha aytganda, u sim uzunligiga bog'liq, notalar oralig'idagi intervallarni esa sonlarning o'zaro munosabatida ifodalasa bo'ladi. Xuddi musiqiy garmoniya sonlarga bog'liq bo'lishi singari, borliqdagi garmoniya ham, pifagorchilar fikricha, sonlarga bog'liq. Miletlik kosmologlar borliqdagi qarama-qarshiliklar to'g'risida gapirishdi; pifagorilarning musiqa bo'yicha tadqiqotlari ularga “kurash” muammosini osongina yechish g'oyasini son konsepsiyasi orqali sekingina aytib berishi mumkin edi. Aristotel aytadi: “Musiqiy atributlar va qatorlarning o'zaro nisbatini sonlar bilan ifodalash mumkinligini ko'rgani uchun ular tabiatdagi barcha narsalarni sonlar yordamida modellashtirish mumkin degan xulosaga kelganlar va sonlar, ular fikricha, butun tabiatdagi birinchi narsalar bo'lgan, borliq esa musiqiy qator va

sondan iborat". Anaksimandr barcha narsani Chegarasizlik va Noaniqlikdan keltirib chiqardi, Pifagor unga Chegarasizlikka shakl beradigan chegara konsepsiyasini qo'shdi. Bunga proporsiya va garmoniyasi arifmetik ifodalanadigan musiqa (hamda sog'liq bo'lib, unda "mo'tadillik" garmoniyaga, ya'ni sog'liqqa eltuvchi chegara bo'lib xizmat qiladi.) misol bo'ladi. Bu xulosani butun olamga nisbatan qo'llab, pifagorchilar kosmik garmoniya to'g'risida gap yuritganlar. Aytmoqchi, sonning borliqda muhim rol o'ynashini shunchaki ta'kidlash pifagorchilarni qanoatlantirmagan va ular fikrlashda ilgari lab borib, barcha narsalar o'z holicha *sondir* deb aytishga qaror qildilar.

Tushunarli, bu juda dadil bildirilgan mulohaza, uni tushunish oson emas. Pifagorchilar aslida nimani nazarda tutganlar? Birinchidan, ular son deganda nimani tushunishgan yoki son to'g'risida nimalarni o'ylashgan? Bu juda muhim masala, chunki unga beriladigan javob pifagorchilarning barcha narsalar son deb aytishining birlamchi sababini tushuntiradi. Aristotel bergan ma'lumotga ko'ra, pifagorchilar "son elementlari deb juft va toq sonlarni tushunishgan bo'lib, ulardan birinchisi chegarasiz, ikkinchisi-chegarasizdir; birlik har ikkalasidan tashkil topadi, u ham juft, ham toqdir, son yaxlitlikdan tashkil topadi, turli sonlar esa, yuqorida aytib o'tilganidek, - bu butun borliq". Aristotelning so'zlari pifagorchilik taraqqiyotining qaysi konkret davriga taalluqli bo'lishidan va uning juft va toq to'g'risidagi mulohazalarining qanday talqin qilinishidan qat'iy nazar, shu narsa ravshanki, pifagorchilar sonlarni makon(fazo) nuqtai nazaridan olib qarashgan. 1-bu nuqta, 2-chiziq, 3-yuza, 4-jism. Demak, barcha narsalar-bu son degan mulohaza "barcha narsalar nuqtalardan yoki makon birliklaridan tashkil topib, birgalikda sonni hosil qiladi" deganidir. Pifagorchilarning sonlarni aynan shu ma'noda tushunganini "tetraktos"(to'rtlik) isbotlaydi, buni ular muqaddas figura deb hisoblashgan.

Bu figura yordamida o'ning bir, ikki, uch va to'rt yig'indisi ekanligini ko'rsa bo'ladi. Aristotelning aytishicha, Evrit sonlar o'rnida toshlardan foydalangan bo'lib, mazkur usul tufayli "kvadratli" va "to'g'ri chiziqli" sonlar hosil qilgan. Agar biz birdan boshlasak, toq sonlar qo'shib, ularni "gnomonlar" shaklida joylashtirgan holda, "kvadratli" sonlarga ega bo'lamiz, agar ikkidan boshlasak va juft sonlar qo'shib borsak, "to'g'ri chiziqli sonlar hosil qilamiz".

Sonlardan figuralar ko'rinishida yoki sonlarni geometriya bilan bog'liq holda foydalanish pifagorchilarning nima uchun obyektlarni sonlarning o'zi deb olishganini, predmetlarni hisoblash deb olishmaganini tushunishga yordam beradi. Ular matematik konsepsiyalarini tartibga ko'chirib, unga narsalar borlig'ini bo'ysundirishgan. Xususan, ustiga bir qancha nuqtalarni qo'yish bilan chiziq hosil bo'ladi va bu nafaqat xayoldagi matematikada, balki tashqi reallikda hamdir; xuddi shunga o'xshash bir qancha chiziqlarni ustma-ust qo'yish bilan yuza paydo

bo'ladi, jism esa-bir qancha yuzalarni birlashtirishdan vujudga keladi. Nuqta, chiziq va yuza, shunday qilib, tabiatdagi barcha jismlarni hosil qiladigan real elementlardir, va shu ma'noda barcha jismlarga son deb qarash kerak. Haqiqatan ham, har qanday moddiy jism 4 sonining (tetraktosning) ifodasi bo'lib xizmat qiladi, chunki u to'rtinchi bosqi sifatida uch elementdan (nuqta, chiziq, yuzadan) tashkil topadi. Biroq qanchalik predmetlarni sonlar bilan aynanlashtirishni sonlarni geometrik figuralar tarzida ko'rsatishni odatga yo'yish mumkinligini va musiqa sohasidagi pifagorchilar kashfiyotlari butun olamga qanchalik yoyilgan bo'lishini aytish juda murakkab. Bernet buyumlarni dastlab sonlar bilan almashtirish, sonlarni geometrik figuralar bilan aynanlashtirishga emas, balki barcha musiqali tovushlarni sonlarga keltirish mumkinligiga asoslangan, deb hisoblaydi. Biroq, obyektlarni pifagorchilar singari moddiy nuqtalarning muayyan miqdori yig'indisi sifatida olib qarajak, va ayni vaqtda, sonlarni geometrik nuqtai nazardan nuqtalar yig'indisi deb qabul qilsak, undan keyin qo'yilgan qadamni, ya'ni obyektlarni sonlar bilan aynanlashtirishni tasavvur qilish oson. Aristotel yuqorida keltirilgan nutqida pifagorchilar sonning elementlari "juft va toq bo'lib, ulardan birinchisi chegarasiz, ikkinchisi -chegarali" deb ta'kidlashganlarini aytib o'tadi. Sonlarning chegarasizligi va chegaraligi to'g'risidagi fikr qayoqdan keldi? Pifagorilar uchun bu miqdoriy va sifatiy o'lchamlari cheklangan predmetlar va chegarasi yo'q Kosmos¹.

Kosmologiyada Pifagor–birinchilar qatorida geosentrizm tarafdori.

Pifagor ijodiga yakun yasab, quyidagi xolatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: Pifagor–ziddiyatli shaxs. U falsafa targ'ibotchisi. Sonni dunyo tuzilmasi asosi deb bildi.

Pifagor ta'limotini uning izdoshlari aniqlashtirishdi va ma'lum bir jihatlarini rivojlantirishdi. Dastlabki pifagorchilar safida Parmeniks, Perkons, Brontin, Petron, Alkmeon, Gippas hamda Deynono (teano)–Brontinning xotini va boshqalar bor.

Gippas - ilk pifagorchilarning buyuk vakili. Aristotel fikricha, u barcha narsaning boshlang'ich asosini olovda deb bilgan. Ana shunisi bilan u boshqa pifagorchilardan farq qilgan. Gippasda son Geraklitning logosiga to'g'ri keladi. Gippas fikricha, son–olam yaratilishining birinsi namunasi.

Pifagor Ittifoqida Gippas demokrat sifatida aristokrat Pifagorga qarshi turgan. Gippas fikricha, barcha ozod, erkin odamlar boshqaruvda ishtirok etishi kerak. U fanning elitar bo'lishiga qarshi chiqqan (Sharqda bu paytda ilm elitar

¹ Bu masala bo'yicha to'laroq ma'lumot olish uchun qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.29-38

edi). Gippas “munosib emaslarga” tabiatni o’lcham va proporsiyaga ega sifatida ham, ega emas sifatida ham ochib bergan.

Sonlar, pifagorchilar fikricha, olamdagi tashkillashish va aqllilikning manbaidir. Sonlar esa bir xil birlikdan tashkil topadi. Demak, dunyoning asosida bir soni yotadi. Keyinchalik shu narsa ma’lum bo’ldiki, dunyoni asosida kam deganda bir -biriga o’tadigan ikkita turli xil bir mavjud. Demak, aqlsiz, irrasional omillar olamning yuragida mavjud ekan. Pifagorchilar bunday sonlar bilan qanday ish ko’rishni bilmaganlar. Nomuvofiqlik hodisasi ular dunyoqarashining negizini parchalagan. Shuning uchun ham ular bu hodisaning mavjudligini yashirishgan. Gippas esa, nomuvofiqlikni akusmatiklarga xos deb aytgan. Buning uchun Gippasni Ittifoqdan xaydashgan. Ketayotib, ehtimol, u akusmatiklarning bir qismini o’ziga ergashtirgan, aks xolda Pifagor matematiklar sardori, Gippas akusmatiklar boshchisi deb aytilmas edi. Pifagorchilar Gippasni la’natlashgan, unga nisbatan magiyani qo’llashgan, go’r qazishgan. Haqiqatan ham ko’p o’tmay Gippas suvda cho’kib o’lgan.

Pifagorchilar medisinasi. Pifagorlar tanani gimnastika va tana sirti dorilari bilan, qalbni - muzika bilan davolashgan. Ular salbiy emosiyalardan o’zlarini ehtiyot qilishgan (nafrat, qayg’urish, umidsizlanish, jonning vahimaga tushishi va boshqalardan). Buning uchun ular psixoterapiyani qo’llashgan. Ular kasallikning oldini olishga urinishgan. Pifagor shogirdi Kallifon medicina maktabining asoschisi bo’lib hisoblanadi. O’g’li Demoked otasi bilan konfliktda bo’lgan. U Persiyada asirda bo’lganda, fors shohini davolagan va katta shon – shuxratga ega bo’lgan. Oxir-oqibatda o’z vataniga qaytgan.

Alkmeon–Kroton medicina maktabining boshqa bir yirik vakili. Falsafiy mushohada yurituvchi shifokor bo’lgani uchun u kasallikning umumiy sabablarini qidirgan va ana shulardan birini tana muvozanatining, sifatining buzilishida deb bilgan. Anatomiyaga asos solgan. Jonni o’lmas deb hisoblagan.

Pifagor va pifagorchilar jamiyat boshqaruvining yaxshi shaklini aristokratiyada ko’rishgan va shuning uchun ular “yunon aristokratik hokimiyatini tuzish tarafdori bo’lib kelganlar”¹.

Pifagor va pifagorchilar falsafiy qarashlari tahlili shuni ko’rsatadiki, ular ta’limotlarining muhim natijalaridan biri borliq yaxlitligi asosini tashkil etuvchi substansiyani konkret predmetlar, masalan, suv yoki havoda emas, abstrakt obyektsonda deb bilishi bo’ldi. Bu substansiyani nazariy tushuncha sifatida yaratish sari tashlangan muhim qadam bo’ldi. Shuningdek, borliqdagi umumiy aloqadorlikni

¹ Yo’ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o’rta asr G’arbiy Yevropa falsafasi.-T.:”Sharq”, 2003- B.17

garmoniya tarzida talqin etish uning muayyan ko'rinishda tartiblanganligi, qonuniy xarakterga egaligini tushunish uchun muhim edi.

ELEY FALSAFIY MAKTABI

Eley falsafa maktabi ham Pifagorchilar Ittifoqi singari "Buyuk ellada"da paydo bo'lgan. Bu maktab vakillari Ksenofan, Parmenid, Zenon va Melisslardir. Eley maktabi vakillari falsafa kategoriyalarini, xususan borliq, substansiya tushunchalarini yanada rivojlantirdilar. Aynan eleychilar falsafaning muhim masalalaridan biri-borliq va tafakkurning o'zaro munosabati masalasini qo'yishgan. Shuning uchun ham, aytish mumkinki, antik falsafaning shakllanishi eley maktabi bilan tugallanadi.

Ksenofan

Ksenofan Ioniya'dagi Kolofon polisidan chiqqan. Uni eley maktabiga asos solgan deb hisoblashadi. Lekin uning Janubiy Italiya'dagi Eley shahrida bo'lganligi to'g'risida hech qanday ma'lumot yo'q. Mazkur maktab faylasuflarining uni o'z og'ushiga olishganini tushunsa bo'ladi, chunki ular Ksenofanning harakatsiz Yagona g'oyasini qabul qilishgan. Buni Ksenofanga tegishli deb hisoblashlari tasdiqlaydi. U greklarning inson sifatida yaratilgan xudolariga hujum qiladi: "Agar ho'kizlar, otlar yoki arslonlar insonlardagidek qo'llarga ega bo'lib, ular bilan odamlarga o'xshab chizgan va san'at asarlarini yaratishganda, otlar o'z xudolarini otlarga o'xshatib, ho'kizlar ho'kiz obrazida tasvirlashgan bo'lardi, xudolar jismi esa otlar va ho'kizlar tanasiga o'xshab qolgan bo'lardi". Bunday jinsdagi xudolar o'rniga Ksenofan "Yagona -Xudoni, jismi bilan ham, fikrlashi bilan ham oddiy insonlarga o'xshamagan, xudolar va odamlar orasida buyuk bo'lganni" qo'yadi. Bu Xudo "doimo harakatsiz holatda bo'ladi, chunki unga o'rnini o'zgartirish xos emas". Aristotel o'zining "Metafizika"ida, Ksenofan "olam to'g'risida gapirar ekan, Yagona bu- Xudo deb ta'kidlagan", deydi. Biroq uning monoteist bo'lishiga qaraganda monist bo'lishi ehtimoli ko'proq va uning "teologiyasi" talqini teistik talqinga qaraganda eleychilarning unga bo'lgan munosabatiga yaxshiroq muvofiq keladi. Aslida biz uchun monoteistik teologiya - odatdagi narsa, lekin Qadimgi Gresiyada uni nazarga ilishmagan¹.

Ksenofan ilk bor xudolarni inson ijodi deb aytgan. Uning ta'kidlashicha, greklar xudodan adolatni so'rashi zarur. Xudolar insonlar tomonidan o'zlariga o'xshatib ijod qilinadi. Xususan, efiopiyaliklarda xudo qora va jingalak sochli, frakiyaliklarda esa ko'k ko'zli va malla sochli deb tasvirlanadi. Demak, dinlar antropomorf ildizga ega.

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.41

Kosmogoniya va kosmologiya masalalarini muhokama etishda Ksenofan faylasuf-fizik sifatida ioniya an'alariga tayanadi. Dengiz xayvonlari va o'simliklarining toshdagi izlarini o'rganib va umumlashtirib, dunyoning kelib chiqishini tushuntiradi. Uningcha, qachonlardir yer dengizlar bilan qoplangan. Keyinchalik, yerning bir qismi ko'tarilib, quruqlik paydo bo'lgan. Qachonlardir dengiz tubi bo'lgan joy keyinchalik tog' bo'lib qolgan. Yer ildizlari cheksizlikka borib taqaladi: "Yer va suv barcha narsalarni yaratadi va o'stiradi"¹. Oy–qulab tushgan bulut, Quyosh–jimirlab turuvchi moddalardan paydo bo'ladi, bu jimirlab turuvchi moddalar suvning bug'lanishi natijasida hosil bo'ladi. Quyosh har kuni yangidan yaraladi. Ksenofan olamni yaratuvchi to'rt stixiyadan birini–suvni substansiya sifatida asoslashga urinadi.

Ksenofan onotologiyasi o'ziga xoslikka ega. Aristotel fikricha, yaxlit olamda Ksenofan hech narsani ajratmaydi. Osmonning yaxlitligini kuzatib, u yakkalik - aynan ana shu Xudo, deydi.

Ksenofan xudosi–antropomorf mavjudot. Xudo o'limi haq bo'lgan odamlarga tanasi bilan ham, fikri bilan ham o'xshamaydi. Biroq u barcha narsani ko'rib, eshitib, o'ylab turadi.

Bilish masalalari to'g'risida gapirar ekan, Ksenofan sezgilarni to'g'ri ma'lumot bermaydi deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u olamning fizikaviy manzarasining ishonchliligini qat'iy tarzda yoqlashga urinmaydi. Aql ham, uning uqtirishicha, ba'zan aldab qo'yadi. Shuning uchun ham haqiqat tasodifiydir. U sistemali fikr yuritish natijasi emas, balki tasodif oqibatidir. Ksenofan olamni bilish mumkinligini inkor etadi. U yozadi: "Agar kimdir tasodifan haqiqatni aytsa ham, o'zi buni bilmagan bo'lardi". Haqiqat faraz qilinadi, xolos. Haqiqatga erishish-bu jarayon. Insonlar "xudolarni asta-sekin kashf qilganlar"².

Parmenid

Parmenid miloddan avvalgi VI-asrda (504-501 yillar oralig'ida deb taxmin qilinadi) tug'ilgan bo'lishi kerak, chunki eramizdan avvalgi 451-449-yillarda, 65 yoshida u Afinada yosh Sokrat bilan suhbatda bo'lgan. Geraklit zamondoshi. Platondan 30 yoshga kichik. Ksenofan–Parmenid ustoz. Parmenidni o'zining tug'ilib o'sgan shahri Eley uchun qonunlar yaratgan deyishadi. Pifagor esa Sotionning, Parmenid pifagorchi sifatida faoliyat boshlagan, keyinchalik ulardan uzoqlashib, o'z falsafiy sistemasini yaratgan, degan fikrini yodida saqlab qolgan. Asosiy falsafiy asari–"Tabiat haqida" bo'lib, she'rlarda bitilgan; u "Prolog" va

¹ Antologiya mirovovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.293

² Чапышев А.Н. Курс лексий по древней философии.,М.:Высшшая shkola,1981.-S.150

yana boshqa ikkita qismdan tashkil topgan. Bizgacha yetib kelgan parchalarining katta qismi Simplisiy sharhlarida saqlangan. “Axilles” prozaik asarini yo’qolgan deyishadi. Ksenofan haqida qanday o’y-fikrga kelmaylik, falsafiy jihatdan ham, tarixiy jihatdan ham olib qaraganimizda, shubhasiz, Eleylik Parmenid Eley maktabining haqiqiy asoschisidir.¹

“Prolog”–badiiy–mifologik dunyoqarash mahsuli. Uningcha, dunyoni harakatlantiruvchi kuch-logos. Xaqiqatning mezonini –aql. Uning 2 ta choragi bor”: biri-mukammal haqiqat choragi, ikkinchisi-oddiy odamlarning ishonchli bo’lmagan fikrlari. Shunga muvofiq holda falsafaning ikki turi mavjud: haqiqatgq mos falsafa va o’y-fikrga mos falsafa. Shuning bilan bog’liq holda u Prolog poemasiining 2 ta qismini “Haqiqat yo’li”, “O’y- fikr yo’li” deb ataydi.

“Xaqiqat yo’li”da 2 ta masala: borliq va noborliq, borliq va tafakkur munosabati masalalari muhokama etiladi. Har ikkala masala, Dine (adolat xudosi) ning ta’kidlashicha, faqat aql bilan hal etilishi mumkin. Aql xatolashishdan xoli emas. Haqiqat yo’lida u turli tuzoqlarga tushib qolishi mumkin. Agar shunday bo’lsa, u noto’g’ri yo’ldan ketib qoladi va haqiqatga erisha olmaydi. Ana shu yo’llardan biri noborliqni tan olishga yetaklaydi: agar noborlik bor desak, u zaruriy tarzda mavjud bo’ladi. Ikkinchi xato–borliq va noborliqni aynan bir xil narsa deb bilishda. Tafakkurning bosh qonuni- bu unda ziddiyatning taqiqlanishi. Parmenid o’z asarida noborliqning yo’qligini isbotlashga urinadi. Uningcha, noborliq mavjud emas, chunki noborliqni bilish ham, uni tilda so’zlar orqali ifodalash ham mumkin emas. Parmenid fikrlash va so’zda ifodalash mumkin bo’lgan narsani tan oladi. U yozadi: “tafakkur va borliq bir narsadir”². Fikr faqat o’z predmetiga ega bo’lsagina fikr, predmet faqat fikrlansagina predmet bo’la oladi. Noborliq, yuqorida aytilganidek, shuning uchun ham mavjud emaski, uni fikrlab bo’lmaydi. Parmenid, noborliq mavjud emas ekan, demak, borliq yagona va harakatsiz, degan xulosaga keladi.

O’y-fikr yo’li oddiy odamlar fikr – mulohazalaridan iborat bo’lib, u ko’rinmaydigan dunyolarni farqlaydi, ular borliq va noborliq emas. U mavjudligi taxmin qilinadigan dunyolarning paydo bo’lishini ikkita boshlang’ich asos: yer va olov orqali tushuntiradi; ulardan biri materiya, ikkinchisi ta’sir etuvchi sababdan iborat³

Parmenid borliqning tabiati qanday ekanligini tushuntirishga urinadi. Uning borliqni moddiy deb hisoblashi, borliq yoki Yagona cheklidir, degan fikridan ma’lum. Cheksizlik, uningcha, allaqanday noaniqlikni va aniqlanmaydiganni anglatgan bo’lard; borliq esa reallik sifatida noaniq va aniqlanmaydigan bo’lishi

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.43

² Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.295

³ Qarang: o’sha asar-B.294

mumkin emas; u bo'sh fazoda o'zgarishi, kengayishi mumkin emas: u aniq, aniqlanadigan va tugallangan bo'lishi lozim. U vaqtda cheksiz, chunki boshi va oxiri yo'q, fazoda chegarasiga ega. Boz ustiga, u barcha yo'nalishlarda birdek real, va shuning uchun ham shar shaklida, markazdan barcha yo'nalishlarda bir xil muvozanatda, chunki bir joyda katta, boshqa joyda-kichik bo'lishi mumkin emas.

Parmenidning g'oyalarini to'ldirgan shogirdi Meliss haqida bir og'iz so'z aytamiz. Parmenid borliq, Yagona fazoda chegaralariga ega degan bo'lsa, Meliss boshqacha fikrda bo'lgan: agar borliq chegarasiga ega bo'lsa, uning tashqarisida "hyech nima" bo'lishi lozim; borliq ana shu hyech nima bilan o'ralgan. Unday bo'lsa, u cheksiz. Borliq bo'shliq bilan o'ralgan emas, zero bo'shliq-hyech nima. Hyech nima esa mavjud bo'la olmaydi¹.

Zenon

Zenon er.avv. V-asrning oltmishinchi yillarida tug'ilgan, Parmenid shogirdi. Zenon tiraniya bilan kurashda "buyuk odamning qo'rqqoq bo'lishi uyat" degan fikrni asoslashga urinib, halok bo'lgan (Plutarx fikri). Uning ko'p sonli asarlaridan ("Bahslar", "Faylasuflarga qarshi", "Tabiat haqida") bir qancha fragmentlar saqlangan, xolos.

Aristotel Zenonni dialektika ixtirochisi deb ataydi. Bu subyektiv dialektika–dialektik tarzda bahs yuritish va mulohazalar bildirish san'ati, raqibning fikrini rad etish va e'tiroz bildirish orqali uni qiyin ahvolga solib qo'yish san'atidir (Plutarx so'zlari). Antik demokratiya sharoitida bahs yuritish va ishontirish san'ati muhim hayotiy ehtiyoj bo'lgan. Shuning uchun ham Zenon bahs yuritish, eristika san'atiga o'rgatib, katta pul ishlash imkoniga ega bo'lgan va bu bilan sofistlarga namuna bo'lgan. Bu dilektika uning aporiyalarida o'z aksini topgan. Zenon aporiyalari bizgacha Aristotel "Fizika"si orqali yetib kelgan. Keyinchalik ular "Dixotomiya", "Axilles va toshboqa", "Yoy" va "Stadion" degan nom olgan. Zenon bu "aqli boshqotirmalari" yordamida turli misollarda harakatning mumkin emasligini asoslashga uringan.

"Dixotomiya" aporiyasi: harakat boshlanishi mumkin emas, chunki harakatlanuvchi predmet yo'lning oxiriga yetib borishidan avval, uning yarmini bosib o'tishi kerak; yarmini bosib o'tishi uchun, o'z navbatida, uning ham yarmini bosib o'tishi zarur va shu tariqa cheksiz harakatlanishi kerak; ya'ni bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga o'tishi uchun cheksiz nuqtalarni bosib o'tishi zarur, bu esa mumkin emas. Boshqacha aytganda, cheklangan vaqt davomida cheksiz masofani bosib o'tib bo'lmaydi. Bu fazo atomar ko'rinishiga ega degani emasmi?

¹ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.50

Axilles: bu aporiyaga ko'ra vaqt cheksiz davomiylikka ega bo'lsa, unda jism cheklangan masofani bosib o'ta olmaydi va harakat hych qachon tugamaydi. Vaqt tugamas ekan, Axilles toshbaqaning orqasidan yuguraveradi. Vaqt tugashi bilan Axilles ham, toshbaqa ham harakatdan to'xtaydi.

Yoy aporiyasi: makon va vaqt birlikda olinganda ham harakat mavjud bo'lmaydi. Harakatlanuvchi yoy sukunatda yoki harakatda bo'lsa-yu, jism o'z ko'lamiga teng makonni egallamasa, unda harakatlanuvchi yoy sokinlikda bo'ladi. Harakatdagi yoy har daqiqadagi harakat chog'ida o'z hajmiga teng ko'lamda ega bo'lgan holda ham harakat qilmaydi, chunki yoyning harakati sokinlikdagi daqiqalardan iborat.

Stadion: ichki jism bir biriga qarama qarshi nuqtadan harakat qila turib, harakatsiz jism yonidan o'tib uchrashishi kerak. Bu bir biriga qarama-qarshi jismlar bir xil tezlikda-biri musobaqa boshlanadigan joyning boshidan boshlansa, ikkinchisi o'rtasidan, uchinchisining harakati stadionning oxiridan boshlanadi. Uchta jism bir biri bilan uchrashganda ma'lum bo'ladiki, bu harakatdagi ikki jismning tezligi ikki hil bo'ladi va ular ikkinchi masofaning yarmisini bosib o'tadi¹.

Zenon Parmenidning shogirdi sifatida falsafiy masalalar bo'yicha muhokama yuritishida ustozini mulohazalaridan kelib chiqib o'z fikrlarini bildirgan. Parmenidning ko'plikni inkor qilgani holda, o'zgarish va harakatni illyuziya deb hisoblagani ma'lum. Zenon ustozining haq ekanligiga ishongan va uni namoyish qilishga intilgan. Xususan, u pifagorchilarning ko'plik to'g'risida aytganlarini e'tirof etuvchi faylasuf hal etib bo'lmaydigan qiyinchiliklarga duch keladi, zero o'zgarish va harakat hatto plyuralistik faraz pozitsiyasidan olib qaralganda ham mumkin emas, deydi. Demak, Zenonning argumentlari pifagorchilar – Parmenid opponentlari keltirgan asoslarni puchga chiqarishga qaratilgan. Quyida Zenon argumentlarini F.Koplston talqinida taqdim etamiz.

Ko'plik g'oyasiga qarshi dalillar

1.Keling, pifagorchilar bilan birga reallikni uni tashkil etuvchi qismlardan tashkil topgan deb faraz qilaylik. Bu qismlar yo o'lchanishi mumkin yoki o'lchanishi mumkin emas. Agar birinchi fikrni chin deb olsak, unda chiziqni o'lchanadigan zarrachalardan tashkil topgan obyekt sifatida cheksiz bo'lish mumkin, qancha bo'lmaylik, baribir o'lchanadigan qismlar qoladi, ular ham bo'linadilar va h. U holda biz chiziq o'lchamlariga ega cheksiz qismlardan tashkil topgan deb

¹ Zenon aporiyalarining Aristotel talqiniga qarang: Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.299

aytishimiz mumkin. Unda chiziq cheksiz katta bo'lishi lozim, chunki u cheksiz sonli qismlardan tashkil topgan. Boshqa tomondan yondashib, qismlar o'lchamga ega emas, deb faraz qilaylik. Bu holda butun Borliq cheksiz kichik bo'lib qoladi, chunki biz qancha qismlarni qo'shmaylik, agar ular o'lchamga ega bo'lmasa, unda ularning yig'indisi ham o'lchamsiz bo'ladi. Lekin, Borliq o'lchamga ega emas deganimiz, u cheksiz kichik, unda barchasi cheksiz kichik deyshimiz bo'ladi.

Pifagorchilar, shunday qilib, dilemma oldida qolishgan. Yo butun Borliq buyuk cheksiz, yo cheksiz kichik. Zenon shunday xulosaga keltirmoqchiki, mazkur dilemmanni yaratgan faraz, chunonchi, Borliqning qismlardan tashkil topishi - puchdir. Agar pifagorchilar Yagona mavjudligi to'g'risidagi faraz axmoqona xulosaga olib keladi, deb o'ylagan bo'lsalar, Zenon unga zid farazni, ko'plik mavjudligi to'g'risidagi farazning xuddi shunday axmoqona xulosalarga olib kelishini ko'satgan.

2. Agar ko'plik mavjud bo'lsa, uni hisoblay bilishimiz lozim. Hyech bo'lmaganda, obyektlar soni hisoblanishi zarur, zero, agar u hisoblanishi mumkin bo'lmasa, qanday qilib mavjud bo'lishi mumkin? Boshqa tomondan olganda, obyektlar hisobga tortilmasligi mumkin, lekin ular soni cheksiz bo'lishi lozim. Nima uchun? Shuning uchunki, har qanday ikki qism o'rtasida, xuddi chiziq chekiz bo'lingani kabi, boshqa qismlar bo'lishi kerak. Biroq ko'plik bir vaqtda ham chekli, ham cheksiz deyish – to'laligicha puch.

3. Don solingan qop qulayotganda biz uning shovqinini eshitamizmi? Albatta. Bir dona don yoki uning mingdan bir qismi tushayotgandachi? Hyech narsani eshitmaymie. Lekin qop donlar yoki ularning bo'laklari bilan to'ldirilgan. U holda, agar qismlari shovqinsiz tushsa, unda qismlardan tashkil topgan yaxlit tarzdagi qop qanday qilib shovqin chiqarishi mumkin?

Pifagorchilarning fazo doktrinasiga qarshi dalillar

Parmenid bo'shliq yoki fazo mavjudligini inkor etgan va Zenon ustozining pozitsiyasini mustahkamlashga harakat qilib, qarama-qarshi tomon dalillarini puchga chiqarish darajasigacha olib kelgan. Bir lahzaga ichida turli obyektlar bor fazo mavjudligini ko'z oldimizga keltiraylik. Agar u bo'shliq, hyech nima bo'lsa, u

holda unda hech qanday obyektning bo'lishi mumkin emas. Agar u qandaydir moddiy narsa bo'lsa, unda uning o'zi fazoda joylashgan bo'lishi kerak, bu fazo esa boshqa fazoda joylashgan bo'lishi va bu holat cheksiz davom etishi kerak. Lekkin bu puch gap. Shunday qilib, obyektlar fazoda ham, bo'shliqda ham bo'lmaydi va Parmenid bo'shliq mavjudligini inkor etganda haqdir.

Harakatga oid dalillar

Zenonning harakatga oid aporiyalari mashhurdir. Zenonning quyidagilarni isbotlashga urinishini esga olish lozim: mavjudligini Parmenid inkor etgan harakat pifagorchilar ko'plik nazariyasi nuqtai nazaridan olinib qaralganda ham, birdek mumkin emas.




1. Faraz qilaylik, siz stadionni yoki yugurish yo'lakchasini kesib o'tmoqchisiz. Buni qilish uchun pifagorchilar faraziga muvofiq cheksiz sonli nuqtalarni bosib o'tishingiz lozim. Boz ustiga, agar siz stadionning qarama-qarshi tomoniga yetib bormoqchi bo'lsangiz, uni cheklangan vaqt davomida amalga oshirishingiz zarur. Lekin siz cheksiz sonli nuqtalarni, boshqa so'z bilan aytganda, cheksiz masofani vaqtning cheklangan kesmasida bosib o'ta olmaysiz. Stadionni kesib o'ta olmasligingiz haqidagi xulosa o'z-o'zidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, hech bir obyekt hech qanday masofani bosib o'ta olmaydi (chunki u shu singari muammoga to'qnash keladi) va, demak, hech qanday harakat mavjud emas.

2. Faraz qilaylik, Axill va toshboqa yugurish bo'yicha musobaqalashmoqchi. Axill sportchi bo'lgani uchun toshboqani oldinga o'tkazadi. Axill harakatining boshlanish joyiga yetguncha toshboqa boshqa nuqtaga ko'chgan bo'ladi, Axill bu nuqtaga ham yetganda toshboqa yana ozgina masofaga bo'lsa-da siljiydi. Shunday qilib, Axill doimo toshboqaga yaqinlasha boradi, biroq unga tenglasha olmaydi – va agar chiziq cheksiz sonli nuqtalardan tashkil topgan, deb faraz qilsak, Axill hech qachon toshboqani quvib yeta olmaydi, chunki, bunday holda Axill cheksiz masofani bosib o'tishiga to'g'ri keladi. Agar pifagorchilar farazini qabul qilsak, Axill hech qachon toshboqani quvib yeta olmaydi; va, garchi ular harakat mavjudligini e'tirof etishsada, ularning o'z doktrinasi bunday emasligini namoyish etadi. Zero, undan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, sekin yuruvchi, chaqqon qanday tezkor bo'lsa, u ham shunday tezkordir.

3. Uchib borayotgan o'qni ko'z oldimizga keltiraylik. Pifagorchilar nazariyasi bo'yicha, o'q fazoda ma'lum bir holatga ega bo'lishi kerak. Biroq, fazoda muayyan holatga ega bo'lish degani sukunatda qolishlikni bildiradi. Bundan uchayotgan o'q o'z joyida turibdi degan hulosasi chiqadi, bu esa puch gapdir.

4. Aristotel xabar berganidek, Zenonning to'rtinchi dalilini, ser Devid Ross so'zlariga ko'ra, "tushunish juda qiyin, qisman buning sababi Aristotelning noaniq bayon qilishi bilan bog'liq bo'lsa, qisman bitikni turlicha talqin qilish mumkinligidadir". Stadionda yoki yugurish yo'lakchasida turishgan uch guruh sportilarni ko'z oldimizga keltiraylik. Guruhlardan biri harakatda emas, qolgan ikkitasi bir-biriga qarshi birdek tezlikda harakatlanmoqda.

Muayyan holatni egallashi uchun V guruhinig dastlabki sportchilari A guruhining to'rtta sportchisi yonidan yugurib o'tib ketishdi, bu paytda S guruhining birinchi sportchilari V guruhining barcha sportchilari yonidan yugurib o'tishdi. Agar bir uzunlik birligini bosib o'tish uchun bir vaqt birligi talab etiladigan bo'lsa, unda quyidagi chizmadagi holatga erishish uchun V guruhining birinchi sportchilari uchun S guruhi sportchilariga ketadigan vaqtning roppa-rosa yarmi kerak bo'ladi. Boshqa tomondan olganda, V guruhining birinchi sportchilari S guruhining barcha sportchilari yonidan o'tgani singari, bu guruhning birinchi birinchi sportchilari V guruhi sportchilari yonidan o'tib ketishdi. Demak, ular bunday harakatni vaqtning bir xil kesmasida amalga oshirishi zarur edi. Biz vaqtning butun holati uning yarmiga teng degan puch xulosaga keldik.



Zenonning bu dalillarini qanday talqin qilish kerak? Buni chiziq nuqtalardan, vaqt esa-alohida lahzalardan tashkil topadi, degan xato mulohazaga asoslangan oddiy sofistika yoki intellektual o'yin deb o'ylasak, xatolashgan bo'lamiz. Ehtimol, chiziq va vaqt diskret emas, uzluksiz ekanligini ko'rsatib, boshqotirmanini yechish mumkindir, lekin Zenon ularni uzluksiz deb hisoblagan emas. Aksincha, u chiziq va vaqt – diskretdir, degan mulohazadan kelib chiqadigan xulosaning puch

ekanligini isbotlashga intilgan. Parmenidning shogirdi sifatida Zenon harakatning illyuziya ekanligi, uning bo'lishi mumkin emasligiga ishongan. Uning keltirgan dalillarining maqsadi, hatto ko'plik farazi nuqtai nazaridan ham, harakatning bo'lishi mumkin emasligini isbotlash bo'lgan, uning mavjudligi to'g'risidagi taxmin ziddiyatli va puch xulosalarga olib kelishiga ishongan. Zenon pozitsiyasi quyidagidan iborat: "Reallik- bu to'ldirilganlik, yaxlit massa, va harakat unda mumkin emas. Bizning opponentlarimiz harakat mavjudligini e'tirof etadilar va uni ko'plik farazi orqali tushuntirishga harakat qiladilar. Men bu gipotezaning harakatni tushuntirishga qodir emasligini, uning puchligini ko'rsatmoqchiman". Shunday qilib, Zenon opponentlari nazariyasini puch deb hisoblaydi va uning dialektikasining real natijasi Parmenid monizmini qaror toptirish emas (u hal etib bo'lmaydigan ziddiyatlarga to'la), balki uzluksiz miqdor konsepsiyasini qabul qilish zarurligini namoyish etishdan iborat.

Shunday qilib, eleychilar ko'plikni va harakatni rad etdilar. Faqat bir prinsip bor – moddiy va harakatsiz Borliq. Albatta, ular bizning harakat va ko'plikni idrok etishimizni inkor qilmaganlar, lekin biz his etadigan narsa - sof ko'rinish. Haqiqiy borliq hissiyot bilan emas, fikrlash bilan anglanadi, tafakkur esa ko'plik ham, harakat ham, o'zgarish ham bo'lishi mumkin emasligini aytadi.

Shunday qilib, , ilk grek faylasuflari singari, eleyliklar olamning yagona prinsipini topishga urindilar. Biroq, biz qabul qiladigan olam – ko'plik, turli-tumanlik olamidir. Ana shuning uchun ham asosiy vazifa yagona prinsipni ko'plik bilan muvofiqlashtirishdan iborat, boshqacha aytganda, Yagonalik va Ko'plik muammosini hal etishdan iborat. Geraklit mazkur masalani turli-tumanlik Birligi, Tafovutdagi aynanlik doktrinasi orqali har ikkala elementga yetarlicha baho berish bilan hal etishga urindi. Pifagorchilar Yagonalikni ustuvor deb hisobladilar. Eleychilar esa, aksincha, Yagonalikni ko'plik, turli-tumanlikdan afzal ko'rdilar¹.

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.54-61

EMPEDOKL FALSAFASI

Empedokl Akragasda, yoki Sisiliya orolidagi Agrigentda yashab o'tgan. Uning tavallud topgan kuni va sanasini hech kim aniq bilmaydi, biroq ma'lumki, Empedokl eramizdan avvalgi 443-444 yillarda Furiya shahriga asos solinganidan so'ng u yerga tashrif buyurgan. Empedokl - "Buyuk grek" fizikasining vakili, pifagorchi Filolay va Eleychi Zenon zamondoshi. Empedokl pifagorchilar mashg'ulotlariga qatnashgan (a'zo sifatida emas), biroq eshitgan narsalarini tarqatgani uchun, uning mashg'ulotlarga qatnashishini taqiqlaydigan qonun qabul qilishgan. Empedokl mag'rur bo'lgan, maqto'vni suygan, o'zini xudo deb his qilgan. Xudolar uni Olimpda tiriklayin qo'lga olgan deb o'ylasin deb, o'limi yaqinlashgan paytda Etna krateriga o'zini tashlagan, biroq vulqon uning bir oyoq kiyimini chetga irg'itib yuborgan va shu tariqa Empedokl o'ylagan narsa yuzaga oshmagan. U tug'ilgan shahridagi siyosiy hayotda ishtirok etgan va ehtimol demokratik partiyaning yetakchisi ham bo'lgan.

Empedokl ikkita falsafiy poema: "Tabiat haqida" va "Tozalanish" asarlari muallifi. U Parmenid kabi boshqa faylasuflarga zid ravishda o'z g'oyalarini she'riy shaklda bayon qiladi. Bizga qadar uning asarlarining lavhalari ozmi-ko'pmi yetib kelgan.

Empedokl o'z tizimini yaratmagan bo'lsa-da, u o'z o'tmishdoshlari g'oyalarini yaxlit, bir butun qilib birlashtirib qo'yishga urindi. U Parmenid-ning borliq mavjud va u moddiy, borliq hech qayerdan paydo bo'lmaydi va hech qayerga yo'qolmaydi, ya'ni u yo'qlikdan paydo bo'lishi mumkin emas va yana yo'qlikka keta olmaydi, degan g'oyasini qabul qilgan. Zero, modda ibtido'ga ham, intihoga ham ega emas, uni yo'qotib bo'lmaydi. "Kimki avval yo'q bo'lgan narsani keyin yuzaga keladi, yoki o'lishi va batamom yakson bo'lishi kerak, deb hisoblaydigan bo'lsa, ular axmoqlar yoki ular o'z tumshuqlari ostidagidan boshqasini ko'rmaydilar. Yoxud yo'q narsadan nimadir paydo bo'lishi mumkin emas va mumkin bo'lmagan va eshitilmagan narsadan nimadir paydo bo'lishi uchun, mavjud bo'lgan, o'lgan, ya'ni u qayerga qo'yilmasin, hamisha bo'lgan". Va yana: "Va barcha narsada bo'sh narsaning ham, va nihoyatda to'la narsaning ham o'zi yo'q", "Barcha narsada hech qanday bo'sh narsaning o'zi yo'q. U holda ular qaydan paydo bo'lgan bo'lar edi?"¹.

Empedokl dunyoning boshlang'ich asosi sifatida to'rtta tabiiy stixiya: yer, suv, olov, havoni qabul qiladi, barchasini bir biriga teng deb biladi, ularni bir biriga aylanmaydi, deb hisoblaydi. Mifologiya ta'sirida ularning ildizini 4ta xudo: Zevs, Gera, Aid, Nestis bilan bog'laydi. Olamdagi barcha narsalar-ana shu

¹ Iqtiboslar quyidagi manbadan olindi: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.61

4 ta ildizni turli ulushda qo'shilishi natijasi. Masalan, suyak suvning ikki qismidan, yerning ikki qismidan va olovning to'rt qismidan tashkil topgan.

Empedokl Parmenidning borliqning o'zgarmasligi to'g'risidagi tamoyilini o'zicha talqin qilgan ekan, materiyaning bir shakli boshqasiga aylana olmaydi, biroq tuproq, havo, olov va suv kabi materiyaning yoki elementlarning fundamental va abadiy shakllari mavjud, deydi. Tuproq suvga aylana olmaydi, suv esa tuproqqa; materiyadagi to'rt unsur o'zgarmaydi, ular boshlang'ich zarrachalar sanaladi. Ularni uyg'unlashishi orqali bu olamdagi turli obyektlar hosil bo'ladi. Shunday ekan, obyektlar unsurlarning uyg'unlashuvi orqali yuzaga keladi, ajralib ketishi hisobiga esa yo'qolib ketadi; biroq unsurlarning o'zi esa hech qayerdan hosil bo'lmaydi va hech qayerga yo'qolib ketmaydi va abadiy o'zgarmay qoladi. Empedokl shu tariqa birmuncha boshlang'ich moddiy zarralarning mavjudligini tan olish uchun, o'zgarishlarning tabiiy mavjudligi daliliga tayanib, Parmenidning moddiyunchilik nuqtai-nazarini murosaga keltirish mumkin deb hisoblaydi.

Ioniya falsafani an'analarini italiya falsafasi yutuqlari bilan qo'shgan Empedokl olamning o'zgarishi va o'zgarmasligi to'g'risida bir hil gapirgan: olam o'z ildizlariga ko'ra "vaqt aylanasi" chegarasida o'zgarmas, biroq narsalar darajasida va "vaqt aylanasi" ichchida o'zgaruvchan. Empedokl eleychilarning borliqning saqlanishi qonunini e'tirof etadi.

Muhabbat va nafrat kurashi, Empedokl fikricha, borliqdagi o'zgarishlarning asosiy sababidir. Boshlang'ich elementlar, ya'ni, "narsalar ildizlari", hatto, ular orasidagi olov ham passiv. Dunyodagi barcha jarayonlar ikkita o'zaro bir-birini istisno qiluvchi ruhiy asoslar kurashi natijasida mavjud. Birinchisi Filiya- muhabbat (boshqa nomlari Garmoniya, Quvonch, Afrodita), ikkinchisi – Neykos-nafrat yoki qahr-g'azab. Muhabbat-birlik va ezgulikning kosmik sababi. Nafrat – ko'plik va yomonlikning sababi. Muhabbat turli jinslilarni birlashtiradi, bir jinslilarni ajratadi.

Empedoklning ta'kidlashicha, filil va neykos o'zaro kurashlarida navbat bilan goh unisi, goh bunisit g'olib chiqadi, oxir-oqibatda bu kurash muhabbatning g'alabasi va nafratning olamdan tashqariga chiqarib yuborilishi bilan yakunlanadi. Bu holatda barcha 4 ta stixiya tekis bir hil qatnashadi. Xususan uchinchi fazada nafrat g'alaba qozonadi, u bilan hech narsa raqobatlasha olmaydi. 1 va 3 fazalar akosmik (ya'ni, nokosmik) holatdir. Ikkinchi faza (muhabbat va nafratning muvozanatda bo'lishi) va to'rtinchi faza (nafrat va muhabbat muvozanati) kosmik holatlaridan iborat. Mazkur muvozanatlar turg'un emas, dinamik holatda. Ular umumiy yo'nalishga ega: birlik va egilishdan, ko'plik va yovuzlikka (ikkinchi faza) hamda ko'plik va yovuzlikdan birlik va ezgulikka (to'rtinchi faza) qarab harakatlanadi.

Insoniyat to'rtinchi fazada yashaydi. To'rtta faza uyirmali harakat davomida muntazam ravishda almashib turadi, bu "taqdir irodasi" bo'yicha amalga oshmaydi. Ana shu sikl bo'yicha Kosmos mangu takrorlanib turadi¹. Biroq Empedokl mazkur tashkillashuv butun mavjudotga xosmi yoki Kosmos materiyaning abadiy xaotik (tartibsiz) holatidan iboratmi, degan savolga aniq javob bermaydi.

Empedoklning Kosmik siklning to'rt fazasini ajratgan holda borliq va uning sferalarining shakllanishi to'g'risidagi mulohazalari ham e'tiborga loyiqdir. Uni F.Koplston quyidagicha tushuntiradi. Empedokl fikricha, biz yashayotgan bu olam davr (sikl)ning boshlanishi va unsurlarning to'la ajralish bosqichi oraliq'idagi o'rta bosqichda joylashgan: Nafrat asta-sekin muhitga kirib boradi va Muhabbatni surib chiqaradi. Borliqda Yer kurrasi shakllana boshlagach, birinchi havo, so'ng olov va undan keyin quruqlik ajralib chiqqan. Suv olamning aylanishida yuzaga kelgan markazdan qochirma kuch bilan chiqarib tashlanadi. Dastlabki sfera (davriy jarayondagi *dastlabki*, mutloq ma'noda emas) Empedokl tomonidan bir nechta g'ayri-oddiy iboralar orqali tavsiflanadi. "Bu yerda (ya'ni, sferada) na quyoshning tezkor a'zolari, na o'z qudrati bilan to'zg'igan yer, na dengiz ajratilmaydi, ular xudo tomonidan shu qadar mustahkam bog'langanki, o'zining doira bo'ylab yagonaligiga quvongan holda, o'z ortidagi sferik va doira uyg'unligini mustahkam to'shaydi"².

Empedokl jonning ko'chishi to'g'risidagi Pifagor ta'limotini qabul qiladi va tirik tabiat birlikda, chunki har bir narsada aqllilik va fikrlash elementi bor, deydi. Uningcha, fikrlashning moddiy asosi – qon bo'lib, unda to'rt element turli miqdorda qo'shilgan. Empedokl kundalik bilish va dunyoqarashni farq qiladi. Dunyoqarash predmeti yaxlitlik bo'lib, uni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, quloq bilan eshitib, tushunib bo'lmaydi, aql bilan qamrab olib bo'lmaydi.

Empedokl biologiya masalalari bilan ham shug'ullangan. Xususan, u organik maqsadga muvofiqlikni tushuntirishga uringan. Empedokl butun tirik organizmlarning kelib chiqishi bilan emas, balki qismlari, a'zolarining kelib chiqishi bilan qiziqqan. Tabiat haqidagi poemasida yozadi: ko'p boshlar "o'sib chiqqan, ularning yelkasi bo'lmagan, qo'llar yelkasiz sarson bo'lib yurgan, ko'zi peshonasiz dunyoni ko'rib turgan ..."³.

Empedokl yorug'lik katta, lekin chekli tezlikda tarqaladi degan gipotezani ham ilgari surgan.

ANAKSAGOR FALSAFASI

¹ Qarang: Semushkin A.V. Empedokl-M.: MБisI, 1994-S.22-23

² Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.63-64

³ Semushkin A.V. Empedokl-M.: MБisI, 1994-S.31

Anaksagor (er.avv. 500-428 yy.) Ioniyaning Klazomen shahrida tavalud topgan. Uni Afinaning birinchi taniqli faylasufi deyishadi. Afina quldorlik demokratiyasining dohiysi Periklni Anaksagorning o'quvchisi bo'lgan deyishadi. Keyinchalik ushbu munosabat faylasufga ko'plab ko'ngilsizliklar keltirgan, chunki eramizdan avvalgi 450 yilda u Periklning siyosiy raqiblari tomonidan sudga beriladi. Uni xudolarga bo'lgan hurmatsizlikda ayblashadi. Ushbu ayblov, shubhasiz, Anaksagor orqali Periklga zarba berish uchun to'qib chiqarilgan edi. Faqat Periklning aralashuvi tufayli u qamoq jazosidan qutulib qoladi. Diogen fikricha, Anaksagorga ayb Fukidid tomonidan qo'yilgan, uni forsiylarga hamdard bo'lganligida ayblashgan. Suddan so'ng u Ioniyaga ko'chib ketadi va bu yerda u Milet koloniyasining Lampsak shahrida joylashdi. Ehtimol aynan shu yerda u maktab tashkil qilgan. Vafotidan so'ng Lampsak shahari aholisi uning xotirasiga bag'ishlab bozor yaqinidagi maydonga haykal o'rnatdilar. Anaksagorning o'zi tomonidan vasiyat qilingan holda uning o'lgan kuni ko'p yillar davomida maktab o'quvchilari uchun bayram sifatida nishonlangan.

Anaksagorning faqat "Tabiat haqida" asarining ayrim parchalarigina bizgacha yetib kelgan..

"Endem etikasi"da Aristotel yozadi: "Hikoya qilishlaricha, qiyin ahvolga tushib qolgan bir odam tug'ilmaslikdan ko'ra tug'ilishni yaxshi deb hisoblashi kerakmi, deb so'raganda, u osmonni va butun kosmosning tuzilishini idrok etish uchun, deb javob bergan"¹.

Anaksagor, xuddi Empedokl kabi, Parmenidning borliq hyech qayerdan paydo bo'lmaydi va hyech qayerga yo'qolmaydi, chunki u o'zgarasdir, degan fikrini ma'qullagan. Biroq u Empedoklning dastlabki zarralar to'rt unsur – yer, suv, havo va olovga mos keladi, degan fikriga qo'shgilmagan.

Anaksagor sifatiga ko'ra yaxlit holdagi mavjudligi bilan o'xshash bo'lgan qismlar (zarralar)ni hyech nimadan chiqib kelmaydigan dastlabki moddalar, deb tushungan. Ular o'rtasidagi farq oddiy misol yordamida ifodalab berilsa, anglash qiyin emas. Masalan, oltinning bir bo'lagini ikki qismga bo'lsak, ularning har ikki qismi ham oltin bo'lib qolaveradi (ya'ni qismlar ham sifat jihatidan bir butun bilan bir xil holda saqlanib qoladi), shu sababli bu kabi yaxlitlikni o'xshash deb aytish mumkin².

Anaksagorda, Aristotel fikricha, bir-biriga o'xshash elementlar shunday jismlarki, ular bir-biriga va yaxlit holdagi jismga o'xshash. Aesiy Anaksagorning fikrini quyidagicha tushuntiradi: biz bir jinsli ovqatni tanovul qilamiz – non va suvni, ular sochni ham, chandirni ham, arteriyani ham, muskullarni, mushaklarni ham, suyak va tananing boshqa a'zolarini oziqlantiradi ham oziqlantiradi

¹ Antologiya mirovoy filosofii. T.1, Ch.1-S.301

² Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.

ovqatimizda zarrachalar mavjud, ular qonni, mushakni, suyak va boshqa narsalarni ishlab chiqaradi. Bu zarrachalarni faqat aql bilan ko'rish mumkin. Ovqatdagi ana shu zarrachalarni ular yaratadigan narsalarga o'xshatadi va gomeomeriyalar (o'xshash qismlar) deb ataydi. Hamda ularni mavjudotning boshlang'ich asosi deb hisoblaydi¹.

Anaksagor g'oyasining umumiy ma'nosi tushunarli. U ana shu o'xshashik hodisasidan kelib chiqib, "barcha narsada barcha narsaning bir qismi mavjud" degan fikrni ilgari surgan va asoslashga uringan. Aynan mana shu tezisda ifodalangan g'oya Anaksagorning gomeomeriyalar haqidagi ta'limoti asosida yotadi. Anaksagor, Empedokl singari, eyleliklar metafizikasiga qarshi chiqadi. U ko'plik (to'plam)ning ham, harakatning ham mavjudligini isbotlaydi. Lekin to'rtta fizikaviy element va ikkita harakatlantiruvchi kuchni tan olgan Empedokldan farqli o'laroq, Anaksagor moddiy elementlarni son sanoqsiz, cheksiz, harakatlantiruvchi kuchni esa, bitta deydi. Anaksagor elementlari—bu moddaning son sanoqsiz zararchalari. Aristotel "Metafizika" asarining 1- kitobi 3 bobida yozadi: "Klazomelik Anaksagor aytadiki, boshlang'ich asos son jixatidan cheklanmagan: uning so'zlariga qaraganda deyarli barcha predmetlar birlashishi va ajralishi yo'li bilan vujudga keladilar va yo'q bo'ladilar; aks holda vujudga kelmaydilar ham, yo'q bo'lmaydilar ham, faqat abadiy mavjud bo'ladi"².

Anaksagor ta'limotining originalligi shundaki, u o'zidan avvalgi faylasuflarning boshlang'ich asos substansiya to'g'risidagi fikrlarini yuqori bosqichga ko'tardi. Xususan, Milet maktabi vakillari bitta asosni: Fales-suvni, Anaksimen—havoni boshlang'ich asos degan bo'lsalar, Empedokl to'rttasini yer, suv, havo, olovni substansial asos deb hisoblagan; bunda substansiya soni chekli. Anaksagor esa, ilk bor elementlar "moddiy" zarrachalarining cheksizligi tushunchasini kiritdi.

Anaksagor elementlari – bu narsalar urug'lari (Empodakl ularni "barcha narsalarning ildizlari" deb atagan). Mazkur urug'lardan tashqari Anaksagor ularni harakatlantiruvchi kuchning- "aql"ning mavjudligini ta'kidlaydi. Simplisiy Anaksagorning bu fikrini yuqori baholab aytadiki, u Anaksimen falsafasi bilan tanishgani holda , ilk bor boshlang'ich asos to'g'risidagi tasavvurni tubdan o'zgartirdi, ya'ni u yetishmayotgan sababni (harakatlantiruvchi kuchni) to'ldirdi va jismlarni cheksiz deb bildi.

¹ Qarang:Antologiya mirovovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.310

² Iqtibos quyidagi manba bo'yicha: Чанышев А.Н. Курс лексий по древней философии.,М.:Высшая школа,1981.- S.174

“Aql”ning harakatga keltiruvchi kuchi xaotik tarzda harakatlanadigan zarrachalarni–“urug’larni” tartibga soladi; avval borliqning muayyan qismlari, keyin butun borliq ana shu asosda vujudga keladi. Ya’ni “Aql” hosil qiladigan borliq cheksiz kengayib boradi; o’z navbatida boshlang’is asos–“urug’lar” ham cheksiz bo’linadi. Ko’rib turibmizki, Anaksagor “urug’lari”-bu Levkipp, Demokrit va Epikurlarning bo’linmas zarrachalari.

Gomeomeriyalar to’g’risidagi ta’limotning mohiyatini Anaksagorning quyidagi mulohazalari ifodalaydi: “Barcha narsalar barchada bor”, “Barchada butunning qismi bor”, nima ko’p bo’lsa, u alohida predmet sifatida aynan ana shunday bo’lib ko’rinadi”¹.

Anaksagor “Aql”ning harakatlantiruvchi faoliyati sababiyatlimi yoki maqsadlimi? deb savol qo’yadi va unga “aql o’z holicha mavjud, u hiech narsa bilan aralashib ketmagan, deb javob beradi. U yozadi: “Har bir narsada barcha narsalarning bir qismi mujassamdir. Faqat Aqlgina bundan mustasno. Aql har qanday bo’lak va qismlardan xoli, o’ziga-o’zi hukmron hamda o’z holicha mavjuddir. Bordi-yu Aqlga biron narsa qorishib ketganda, u hiech narsaga hokimlik qilolmasdi. Aql mavjud narsalarning eng yengil va musaffosi bo’lib, jamiki bilimlarni o’zida jo etgan va shuning uchun ham u benihoya qudratlidir. Ana shu qudrati ila barcha tirik jonlarni bog’lab turg’usidir”² “Aql”, bir tomondan mexanik harakatlantiruvchi kuch, (Anaksagor: “Dastlab barcha narsalar birga bo’lgan, keyin aql kelib, ularni tartibga solgan”), ikkinchi tomondan, ongli, maqsadga muvofiq ta’sir etuvchi ruhiy kuch- quvvat. Demak, Anaksagor olamni maqsadga muvofiq tuzilishga ega degan xulosaga kelgan.

“Aql, - deya ta’kidlaydi Anaksagor, - hayotdagi barcha, katta va kichik narsalar ustidan ham hukmronlikka ega. Va Aql harakat (aylanish)ning ustidan ham hukmron bo’lgan, va dunyo dastlab boshdanoq alanishni boshlagan... Va Aql paydo bo’lishi mumkin bo’lgan, avval mavjud bo’lgan, bugungi kundagi mavjud va kelajakda mavjud bo’ladigan narsalarning tartibini belgilab berdi, va o’zaro bir-biridan ajratilgan yulduzlar va quyosh, oy, havo va efir ishtirok etuvchi ushbu aylanish demakdir. Va aynan shu aylanishning o’ziyoq ajralish(bo’linish)ni keltirib chiqardi, va zichlik siyraklikdan, issiq sovuqdan, yorug’ zulmatdan va quruq xo’ldan ajratilgan. Va ko’plab narsalarning ko’plab qismlari mavjud. Biroq faqat Aqldan tashqari hiech bir narsa boshqa narsalardan to’liq ajratilmagan. Va Aqlning barcha ko’rinishlari o’xshash, oliylari ham, quyilari ham; hiech bir narsa boshqa bir narsaga o’xshamaydi, biroq har bir alohida ajratilgan narsa mavjud va u

¹ Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.312

² Haqiqat manzaralari. !00 mumtoz faylasuf/ Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar.-T.:Yangi asr avlodi, 2013.-B.46

o'zidagi mavjud eng ko'p bo'lgan zarralarning namoyon bo'lishi bilan belgilanadi"¹.

Anaksagorning Aql tabiati to'g'risidagi mulohazalarini F.Koplstonning izohlashiga e'tibor qarataylik. Anaksagorda Nus "cheksiz va o'z-o'zini boshqaradi va hech nima bilan aralashmagan, u bir o'zi va o'zi bilan o'zi". U holda Anaksagor Aqlni qanday belgilaydi? U Aqlni "barcha narsalarning eng sofi va nozigi, barcha narsalar haqidagi bilimlarga ega bo'lgani va ulkan hukmronlikka ega bo'lgani", deb ataydi. U shuningdek uning haqida "atrofdagi omma orasidagi barcha narsalarga kirib bora oluvchi" sifatida gapiradi. Shunday qilib, faylasuf Aql haqida "barcha narsalarning eng nozigi bo'lgan" hamda kenglikni egallab turadigan moddiy predmet sifatida gapiradi. Uning shu fikrlari asosida Bernet Anaksagor hech qachon Aqlning moddiy mohiyati konsepsiyasidan tashqari(yuqori)ga chiqmaganligi haqida gapiradi. U Nus boshqa jamiki moddiy narsalardan toza, deb hisoblagan, biroq uning nomoddiy yoki tansiz narsa bo'lishi mumkinligi uning hattoki xayoliga ham kelmagan. Sellar ham bu haqda o'ylab ko'rmagan, Steys esa "falsafa o'zining butun tarixi davomida o'z tabiatiga ko'ra his etib bo'lmaydigan narsani his etib bo'ladigan g'oyalarni ifodalash uchun mavjud bo'lgan til yordamida qayday ifodalsh mumkinligi muammosini hal etishga intilganligi"ni alohida ta'kidlaydi.

Agar biz Aqlni "sof" desak, yoki bir kishi ikkinchisidan aqlliroq desak, bu bizni materialistlar deb atash mumkin degani emas. Anaksagor Aql kenglikda o'z o'rniga ega deb aytgani, u Aqlni hattoki u Ong va Moddiyat o'rtasidagi aniq chegara tushunchasi sifatida nazarda tutgan bo'lsa-da Aqlni moddiy deb hisoblagan, deya ta'kidlash noo'rin. Aqlning boshqalarga tarqalmasligi nisbatan so'ngi qarashlari sirasiga kiradi. Ehtimol, bunga eng qoniqarli izoh Anaksagorning ma'naviyatga bo'lgan o'z qarashlarida moddiyat va ma'naviyat o'rtasidagi radikal farqlarni aniq tasavvur qila olmaganligidir. Biroq bundan u dogmatik materialist bo'lgan, deagn fikr kelib chiqmaydi. Aksincha, garchi u ushbu prinsip va u yuzaga keltiruvchi va harakatlantiruvchi materiya o'rtasidagi mohiyatga oid farqni to'liq tushunib yetmagan bo'lsa-da, u birinchi bo'lib ma'naviy va intellektual qarashlarni kiritadi.

Nus jamiki tirik mavjudotlarda, insonlarda, hayvon va o'simliklarda mavjud va barcha yerda yubir xil ko'rinishga ega. Demak, ushbu obyektlar o'rtasidagi farqlar ularning ruhlaridagi emas, balki tanalardagi Aqlning to'liq namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi farqlar tufayli vujudga keladi. Nusni yaratuvchi materiya deb hisoblash kerak emas. Materiya abadiy, va Aqlning vazifasi shundan iboratki, u o'zaro aralashib ketgan zarralar aralashmasida

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.68

aylanma harakatlar yoki o'ramani harakatga keltiradi, so'ngra o'ramaning kattalashishi darajasiga qarab uning yo'nalishini belgilab beradi, buning natijasida esa keyingi harakat vujudga keladi. Shu sababli o'zining "Metafizika"sida Anaksagorni "undan avval o'tgan safsatabozlar olomoni orasida yagona sog'lom fikr yurituvchi inson" sifatida ta'riflagan Aristotel shuningdek, "Anaksagor Aqlni dunyo qanday paydo bo'lganligini ifodalovchi mexanizm sifatida qo'llagan; va u yoki bu hodima nima sababdan mavjud bo'lishini izohlashga qiynalganda o'zining Nusini yuzaga chiqargan", deb ta'kidlaydi. Biroq boshqa holatlarda u dastlabki sabab sifatida Aqlni emas, balki boshqa biror narsani ilgari suradi. Aynan shu sababli biz o'zi uchun Anaksagorni kashf etgandan so'ng o'zining umuman yangicha yondashuvini topgan Sokratning hafsalasi pir bo'lganligini tushunishimiz mumkin: "Men o'qishda davom etgan jarayonimda ushbu odam o'zining Nusini qay tariqa qo'llashini bilmasligini tushunib yetganimda mening eng ulkan umidlarim ham puchga chiqdi. U mavjud tartib Aql ta'sirida emas, balki har xil narsalarning – havo, efir, suv va ko'plab boshqa tasodifiy narsalar ta'siri ostida vujudga kelgan, deya ta'kidlaydi"¹.

Va, baribir, garchi Anaksagor o'zi tomonidan kashf qilingan Nusni to'laqonli ravishda qo'llay olmagan bo'lsa-da, uning ulkan xizmati shundaki, u grek falsafasini kelajakda yaxshi samaralar beruvchi o'ta muhim qarashlar bilan boyitdi.

Kosmologiyasida Anaksagor borliqning boshlang'ichi–aql va materiya; aql yaratuvchi asos, materiya- azob chekuvchi asos, degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, Quyosh, Oy va barcha yulduzlar yonib turuvchi toshlardir. Yulduzlardan pastda Quyosh va Oy bilan birga harakatlanadigan, lekin bizga ko'rinmaydigan jismlar bor. Yulduzlarning haroratini yerdan uzoq bo'lganligi uchun sezmaymiz. Bu yerda yulduzlar yorug'lik va issiqlik tarqatadi, degan fikr yangilikdir.

Anaksagor fikricha, Quyosh tutilishi yangi Oy chiqqanda uning to'sib qo'yilishi natijasida sodir bo'ladi; Oyning tutilishi esa, Yerning uning Quyoshdan to'sib qo'yilishi sababli yoki ba'zi hollarda Oydan pastda turadigan jismlarning to'sishi natijasida kelib chiqadi.

Anaksagor birinchi bo'lib Oy va Yerning o'xshashligi, xususan Oyda tekisliklar va chuqurliklar (yerdagi singari) borligi to'g'risida fikrlarni bildirdi.

Bilish haqidagi mulohazalarida Anaksagor yuksak darajadagi hayvonlar va odamlarda sezgilarning vujudga kelishi to'g'risidagi mohiyatan mexanistik tasavvurni ilgari suradi. U bilish qarama- qarshiliklar tufayli kelib chiqadi,

¹ Iqtiboslar va izohlar manbasi: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.69-72

masalan, biz predmetni unga qarama- qarshi rangda bo'lgan predmet orqali ko'ramiz, deb ta'kidlaydi.

Anaksagor bilishda aql faoliyatiga yuqori baho beradi. Moddiy zarrchalarni (gomeomeriyalarni) biz bevosita, ya'ni sezgilar orqali emas, balki aql yordamida mavjud deb faraz qilamiz, deydi. Unigcha, sezgilar aqlga bo'ysunishadi, unga qaram¹.

Anaksagor hissiyatlarni bilishdagi azoblanuvchi boshlang'ich asos deb biladi. Shuning uchun ham aqlga ega bo'lmagan hayvonlar azob-uqubatdadir. Hissiyotga asoslanib, haqiqat to'g'risida muhokama yuritib bo'lmaydi. Buni u quyidagi misolda tushuntiradi. Sekst Empirik bergan ma'lumot bo'yicha, agar biz ikkita: oq va qora rangli bo'yoyaqlarni olib, ularning biridan ikkinchisiga tomchilar qo'shib tursak, unda sodir bo'layotgan arzimagan o'zgarishlarni, xolatni sezmaymiz. Bu haqiqatni hissiyot orqali aniqlab bo'lmaslikni ko'rsatadi. Anaksagor sezgilarni kuchsizlikda ayblaydi².

Anaksagor ta'limotini falsafiy fikrning tobora nazariy ko'rinish kasb eta borishiga qo'shilgan muhim hissa deb baholashsh mumkin. Aristotel o'zining "Nikomax etikasi" kitobida "Anaksagor, Fales va ularga o'xshashlarni amaliyotchilar emas, donishmandlar deb atashgan", degandi

Takrorlash uchun savollar

1. Italiya falsafasining shakllanish shart- sharoitlari qanday edi?
2. Pifagor dunyoqarashining shakllanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Pifagor sonni dunyo tuzilmasining asosi sifatida qanday talqin qiladi?
4. Pifagorchilar Ittifoqi qanday shakllangan?
5. Pifagorchilar turmush tarzi qanday edi?
6. Pifagorchilar guruhlarini to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. Alkmeon dunyoqarashining mohiyati nimada?
8. Gippas o'z ta'limotida nimalarga e'tibor qaratgan?
9. Ksenofan Yagonani qanday talqin qiladi?
10. Ksenofan kosmologiyasining o'ziga xosligi nimada?
11. Parmenid borliq va noborliq tushunchalarini qanday talqin qiladi?
12. Nima uchun Aristotel Zenonni dialektika ixtirochisi deb atagan?
13. Zenon aporiyalarining mohiyati nimada?
14. Empedokl borliq ildizlarini qanday talqin qiladi?
15. Empedokl kosmologiyasi mohiyati nimada?

¹ Qarang: Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.-T.: "Sharq", 2003- B.29

² Qarang: Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.315

16. Anaksagor falsafasida muhabbat va yovuzlik qanday kuchlar sifatida talqin etiladi?
17. Anaksagor urug'lari mohiyati nimada?
18. Anaksagor gomepmeriyalari nima?
19. Anaksagor dunyodagi maqsadga muvofiqlikni qanday tushuntiradi?
20. Anaksagorning birlik va ko'plik to'g'risidagi qarashlarining mohiyati nimada?

7-mavzu: SOFISTIKA. SOKRAT FALSAFASI



Er.avv. V asrda Gresiyaning ko'p shaharlarida ko'xna aristokratiya hokimiyati va tiraniya o'rniga quldorlik demokratiyasi keldi. Afinada demokratiya siyosiy institutlarining shakllanishi o'ziga xos tarzda kechdi. Grek polisi aholisining soniga ko'ra va hududining hajmi bo'yicha unchalik katta jamiyat emas. Bunday o'ziga xos xususiyatlar, milodlan avvalgi 4-asrda Afinada demokratiya paydo bo'lishi uchun shart-sharoitlarni yaratdi. Barcha, erkin afinalik fuqarolar (taxminan 300ming aholidan 40mingga yaqini) shahar yig'ilishida qatnashish huquqiga ega edilar. Ularning 15-20% har xil qo'mitalar yoki kengashlarda bir nechta lavozimlarni egallagan. Afinaliklarning ko'pchiligi siyosiy faoliyatda faol ishtirok etgani uchun, xalq o'z-o'zini boshqarishga qodir deb hisoblashgan. Shuning uchun maxsus tayyorlangan siyosatchilar va ekspertlarga ehtiyoj yo'q edi. Siyosat kundalik turmushning tarkibiy qismi hisoblanardi.

Yig'ilish –yoshi 20dan oshgan hamma Afinalik erkin erkak fuqarolar ishtirok etishi mumkin bo'lgan siyosiy institut. Yig'ilish bir yilda o'n marta tashkil etilar, Kengash, xalq qonun sudi (maslahatchilar sudi-geliey) va harbiy hay'at a'zolarini saylar va nazorat qilar edi. Ular asosiy siyosiy organlar hisoblanardi. Bundan tashqari, kichik etnik guruhlar muayyan darajada o'zini-o'zi boshqarishi huquqiga ega edilar. Harbiy ishlar uchun ma'sul bo'lgan o'nta mohir lashkarboshi qur'a bo'yicha saylanmas, Kengash a'zolari esa qur'a bo'yicha saylanar edi. Yetarli bilimga ega bo'lmaganlar qur'a tashlashgacha yetib bormaganlar.

Kengash 500 kishidan iborat bo'lgan. Agar Kengash kongress yoki parlament bilan qiyos qilinsa, unda Kengash hukumat rolini bajaradi. Yig'ilish Kengash kiritgan takliflarni o'zgartirish va man qilish huquqiga ega bo'lgan. Yig'ilishning o'zi qonun chiqaruvchilik tashabbusiga ega bo'lmagan, biroq Kengashdan qonun chiqaruvchilik taklifini ishlab chiqishni so'rash mumkin bo'lgan.

Kengashning 500 a'zosi Afinadagi o'nta hududiy okrugdan teng-baravar ravishda saylangan, ya'ni ularning har biridan 50 vakil qatnashgan.

Qo'mitalar 59 nafar a'zodan (50+9) iborat bo'lib, o'z vakolatlarining o'ndan bir qismi o'tgach, almashinib turishgan. Qo'mitaning rahbari qayta saylanish huquqisiz bir kunlik muddatga saylangan.



Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan tartibda hokimiyatning tashkil etilishi, ayniqsa yangi, saylanadigan muassasalar va sudlarning (ular ozod, erkin aholi partiyalari va tabaqalarining kurashida muhim rol o'ynagan) yaratilishi sud va siyosiy notiqlik san'atini yaxshi egallagan, so'z kuchi va isbot bilan ishontira oladigan, huquq, siyosiy hayot va diplomatiya amaliyotining turli masalalarini erkin tushuna oladigan va hal etadigan kishilarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bu sohada ancha ko'zga ko'ringan kishilar – so'z san'ati ustalari, huquqshunoslar, diplomatlar siyosiy bilim va notiqlik san'ati bo'yicha

o'qituvchilik qila boshladilar. Bilimlarning falsafiy va xususiy ilmiy sohalarga ajralmagani, ammo falsafiy bilimlarga bo'lgan qiziqishining kuchliligi, bu bilimlarning savodxonlik, o'qimishlilik mezoni sifatida yuqori baholanishi sababli, yangi paydo bo'lgan o'qituvchilar faqat siyosiy va xuquqiy faoliyat texnikasini o'rgatish bilan cheklanmay, uni falsafa va dunyoqarashning umumiy masalalari bilan bog'lashga urinishgan. Shu tariqa Qadimgi Yunonistonda sofistlar (grekcha sophistes-donolar) maktabi shakllangan. Uning o'zagini o'qituvchilar, shoirlar, musiqachilar, qonunshunoslar, faylasuflar tashkil etishgan.

Konservativ va reaksiyon tarzda fikrlovchi yozuvchilar, ayniqsa ularning demokratiyani tanqid qiluvchi qismining keyinchalik yoshlarni bahs- munozara chog'ida qanday bo'lsa-da yutib chiqish, haqiqatga erishish uchun nopok usullardan foydalanishga o'rgatishga intilishi, xususan yolg'onni haqiqat, mantiqan kuchsiz argumentni kuchli argument, bildirilgan fikrni ishonchli haqiqat, yuzaki qarashni – ishonchli bilim qilib ko'rsatishga urinishlari sababli ular nafratga loyiq bo'ldilar. Sofizmning mohiyatini “*Shox*” sofizmi misolida tushuntirsak, unda muhokamaning quyidagicha sxemada qurilishini ko'ramiz:

Yo'qotmagan narsang o'zingda bor

Sen shoxingni yo'qotgan emassan

Demak, sening shoxing bor

Bu kabi sofizmlarning paydo bo'lish sabablari hozirgi mantiqda quyidagilardan iborat deb tushuntiriladi:

- 1) tezisni almashtirish;
- 2) xulosa chiqarish qoidalarini buzish;
- 3) xato fikrlarni to'g'ri deb qabul qilish;
- 4) turli xil ma'noli tushunchalarni qo'llash.

Masalan, yer deganda, tuproq, quruqlik, maydon kabi 8ta narsa tushuniladi. Yuqoridagi misolda muhokama shakliga ko'ra sillogizmning birinchi figurasi ko'rinishida qurilgan, u shaklan to'g'riga o'xshab ko'rinadi, lekin uning qoidalaridan biri: kichik asos tasdiq hukm bo'lishi kerak, degan qoida buzilgan, mulohaza inkor hukm bo'lib qolgan (Sen shoxingni yo'qotgan emassan).

Ko'rib turibmizki, sofizm - suhbatdoshni aldash usuli. Seneka uni fokuschilarning san'atiga qiyos qiladi. Aristotel esa, sofistlarni “qalbaki donishmandlar” deb atagan. U yozadi: “Sofistika chinakkam donishmandlik emas, qalbaki donishmandlikdir, va, sofist – bu chinakkam donishmandlikdan emas, qalbaki donishmandlikdan pul undirishni uddalay oladigan (odamdir)”¹.

Lekin sofistlarni faqat salbiy jihatdan ko'rish ham noto'g'ridir. “Gorgiy” dialogida Platon Gorgiyning Sokrat bilan bo'lgan suhbatida sofistika muallimlarini

¹ Aristotel. Soch. v 4-x tt.T.2 – M.:”MБisI”, 1978 – S.555

himoya qilganini bayon qiladi. Gorgiy bahs yuritishga o'rgatuvchi muallimlarni musobaqalarda kurashning turli usullari, qurollarini ishlatishga o'rgatadigan murabbiylar, ustozlarga qiyos qiladi: ular shogirdlarini egallagan malakalaridan birovga nohaq ravishda qasddan yomonlik qilish maqsadida hujum qilish uchun emas, balki adolatli tarzda - dushmanlari va jinoyatchilardan o'zlarini himoya qilishda foydalanish uchun o'rgatishgan. "Shunday ekan, mazkur sababga ko'ra muallimlarni (sofistlarni-M.Sh.) ablahlikda ayblash, ular san'atini yaroqsiz deb hisoblash noto'g'ridir; ablahlar, menimcha, bu san'atni suiste'mol qiluvchilardir"¹

Ba'zan sofistlarni nigilistik dialektikani yaratishda ayblashadi². Bu, bizningcha, unchalik to'g'ri emas. Sofistlarning taqakkurga xos mantiqiy ziddiyatlar mavjudligini ko'rsatishi mantiqning muhim muammolaridan birini qo'yishga olib kelgan, bilishning dialektik tabiatga egaligini namoyish etishgan. Sofistlar siyosiy faol fuqoralar bo'lib, bilim va madaniyatni ommalashtirishga muhim hissa qo'shishgan. Xususan, ularning notiqlik san'ati nazariyotchilari sifatida nutq mahotati qonun-qoidalarini ishlab chiqishdagi xizmatlari kattadir. Ularning diqqat markazida so'z bo'lgan va so'z haqida fan yaratishgan. Mantiq rivojida ham ularning alohida xizmatlari bor. Xususan, hali o'rnatilmagan mantiq qonun-qoidalarini buzgani holda, ularni ochishga turtki berganlar.

Ilk sofistlar maktabi Sisiliyada paydo bo'ldi. Afinada demokratiyaning rivojlanishi, halqaro aloqalarning kuchayishi natijasida qator sofistlar – Abderlik Protagor, Elidalik Gitiy, Kesosdan Prodik, Leontindan Gorgiy va boshqalar yetishib chiqdilar.

Sofistlar faoliyatida ifodalangan ma'naviy harakatga bir vaqtning o'zida ham an'analarning davom etishi, ham uning uzilishi deb qarash kerak. An'analarning davom etishi shunda ko'rinadiki, sofistlar Parmenid, Eleylik Zenon, Meliss kabilarning argumentlash metodidan foydalanishgan; ularga o'xshab avvallari to'plangan barcha ilmiy va boshqa bilimlarni bir tizimga keltirishga urinishgan. An'analarning uzilishi shunda namoyon bo'ladiki, sofistlar, birinchidan, mavjud bilimlarni tanqid ostiga olishgani holda har biri tabiat va insonni to'qnashtirishga urinishadi; ikkinchidan, sofistlar faoliyatining bosh maqsadi – yoshlarga jamiyat siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur bilimlarnigina berish bo'lgan xolos³

Afinada hukmdorlar sofistlarni yoqtirishmagan. Protagorni xudolar mavjudligiga shubha bilan qaragani uchun qamab qo'yishgan.

¹ Platon. *Sobr. soch.* V 4-x tt. T.-M.: Mysl, 1990-S.489

² Masalan, qarang: Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.- T.: "Sharq", 2003- B.33

³ Pyer Ado. *Chto takoye antichnaya filosofiya?* / Perevod s fransuzkogo V.P.Gaydamaka - M.: Izdatelstvo gumanitarnoy literatury, 1999- S.28

Falsafiy oqim sifatida sofistika turli xil qarashlarga ega vakillardan tashkil topgan. Ular uchun umumiy narsa tushunchalar, axloq va baholash normalari bo'yicha yakdilligi bo'lib, uni Protagor o'zining mashhur fikrida ifoda etgan: "Inson barcha narsalarning mezoni: mavjudlarini mavjud, mavjud emaslarini mavjud emas deb farqlaydi"¹.

Falsafada sofistlar inson, jamiyat, bilish masalalariga e'tibor qaratishgan. Gnoseologiyada ongli ravishda bir qancha muhim masalalarni savol tarzida qo'yishgan: 1) Borliq to'g'risidagi fikr borliqqa qanday munosabatda? 2) Bizning tafakkurimiz borliqni bilishga qodirmi? Bu savollarga ular salbiy javob berishgan. Lekin, ular *agnostisizmi* pozitiv relyativizm bilan chegaralangan: haqiqatning nisbiyligini ta'kidlashgan.

Sofistlar fikricha, *haqiqat* har bir odam uchun alohida, o'ziga xos tarzda mavjud. Haqiqat makon, zamon, vaziyatga hamda insonga bog'liq. Demak, sofistlar obyektiv haqiqatni inkor qilganlar, uni subyektiv haqiqatdan iborat, deb hisoblashgan.

Sofistlar fizika bilan ham shug'ullanishgan. Ular tabiatan mavjud narsalarni paydo bo'ladigan narsalardan, tabiat qonunlarini jamiyat qonunlaridan farq qilishgan. Ilk bor ular insonni dunyoqarash borasidagi izlanishlar markaziga qo'yishgan.

Ular relyativizmni diniy dogmalar tahliliga ham yoyishgan. Dogmatizm avtoritetlarga murojaat qilishni taqoz etadi. Sofistlar esa isbot qilishni talab etishadi. Shu sababli sofistlarda "haqiqat o'zi qayerda?" degan savol paydo bo'lgan.

Sofistlarni kichik va katta guruhlariga bo'lish qabul qilingan. Protagar, Gorgiy, Gippiy, Prodik, Antifont katta guruhga, Alkidam, Kritiy, Kallikl kichik guruhga mansub.

Sofistlar katta guruhi vakillari yaxshi siyosatdon, xuquqshunos bo'lganlar. Masalan, Protagor Janubiy Italiyaning Fursh Koloniyasida boshqaruvning demokratik obrazini belgilab bergan qonunlarni yozgan.

Sofistlarning kichik guruhi vakillari Likafron, Alkidamant ijtimoiy tabaqalanish, demokratiya masalalari bilan ko'proq shug'ullanishgan. Quyida ularning ba'zilarining qarashlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Protagor

Protagor(er.avv.481-413) Frakiyadagi Abder shahrida tug'ilgan va asr o'rtalarida Afinaga kelgan. Otasi boy odam bo'lgan. Yoshligida yog'och tashuvchi bo'lishni orzu qilgan. Rivoyatlarga qaraganda, Protagorning katta yog'och o'tinlar o'ramini qisqa arqonda o'rab, muvozanat saqlagani holda, belida ko'tarib

¹ Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.316

ketayotganini ko'rib Demokrit qoyil qolgan. Protagordan 10 yosh kichik bo'lgan Demokrit bu ishda geometrik hisob-kitob borligini kuzatib, Protagorning aql-idroki va epchilligiga qoyil qolgan va quyidagilarni aytgan: "Aziz yigit, sen barcha narsani yaxshi bajarish qobiliyatiga ega ekansan, menga qo'shilsang, bundan ham yaxshiroq ishlarni amalga oshirasan". Demokrit Protagorni falsafa olamiga olib kiradi.

Protagor professional ritorika va eristika o'qituvchisi, so'z san'ati va bahs yuritish san'ati ustasi bo'lgan. U birinchilar qatorida falsafadan saboq bergani uchun haq olgan. Unga Perikl yaxshi munosabatda bo'lgani uchun bu davlat arbobi Protagorga er.avv.444-yili asos solingan Furiyadagi panellistik koloniya uchun konstitusiya tuzishni topshirgan. Er.avv.431–yili Peloponnes urushi boshlanganda Protagor Afinaga qaytadi va u yerda Periklning ikki o'g'lining vabo kasali tufayli hayotdan ko'z yumganining guvohi bo'ladi. Diogen Laertskiyning aytishicha, Protagor xudolar to'g'risida yozgan kitobida xudolarni haqoratlaganlikda ayblanadi, lekin u sud bo'lgunga qadar qochishga ulguradi; biroq Sisiliyaga ketayotganida yo'lda suvga cho'kib o'ladi, kitoblari esa bozor maydonida yoqib yuboriladi. Platon "Menon"da bergan ma'lumotga ko'ra esa, Protagor hurmatga loyiq inson sifatida o'z o'limi bilan hayotni tark etgan.

Protagor qalamiga 10tadan ko'proq asarlar mansub: "Mavjudot haqida", "Fanlar to'g'risida", "Davlat haqida", "Xudolar haqida", "Haqiqat yoxud rad etuvchi nutqlar" va shu kabilar. Ulardan faqat ayrim parchalargina bizgacha yetib kelgan. Protagor haqidagi ma'lumotlarni Platonning "Protagor" va "Tetet", Sekst-Empirikning "Olimlarga qarshi" va "Pirron fikrlarining uchta kitobi"dan olamiz.

Protagor falsafiy ta'limotini Demokrit, Geraklit, Parmenid va Empedokl ta'limotlarining relyativizm ruhida qayta ishlanishi natijasi desa bo'ladi.

Ontologiyasida Protagor materiyaning o'zgaruvchanligi va idrokning nisbiyligini ta'kidlagan. Atomistlarning borliq va noborliqning birday realligi to'g'risidagi fikrini rivojlantirib, har bir fikrga unga zid bo'lgan fikrni topish va qarama-qarshi qo'yish mumkinligini asoslagan va shu tariqa relyativizmga yon bosgan.

Protagor relyativizmi asosida muayyan ontologik tasavvurlar yotadi. Xususan, u "barcha narsalarning sababini materiyada deb biladi"(Sekst-Empirik fikri). Uningcha, materiyaning asosiy xususiyati uning obyektiv tarzda mavjudligi hamda boshlang'ich asos ekanligida emas, balki o'zgaruvchanligi, oquvchanligidadir. Protagor materiyaning mutloq o'zgaruvchanligini subyektga ham xos deb hisoblaydi: nafaqat tashqi dunyo, balki uni idrok etuvchi jonli tana ham o'zgarib turadi. Buning isbotlari quyidagicha:

Birinchi isbot: *subyekt ham, obyekt ham to'xtovsiz o'zgarib turadi.*

Ikkinchi isbot: hych bir narsa o'z holicha mavjud emas, har bir narsa boshqa narsaga nisbatangina vujudga keladi va mavjud bo'ladi.

Uchinchi isbot: barcha narsalar o'zgarish jarayonida o'zining qarama-qarshisiga aylanadi.

Bundan Protagor quyidagi gnoseologik xulosalarga keladi: Barcha narsalar o'zgarishda ekan va o'zining qarama-qarshisiga o'zgarar ekan, har bir narsa haqida o'zaro qarama-qarshi fikr mavjud. To'g'ri, bunday holatning mavjudligi avvaldan ma'lum edi, hozirda ham ta'kidlanadi. Lekin bu qarama-qarshi fikrlardan qaysi birining asosliroq ekanligini aniqlash zarur bo'ladi. Aks holda relyativizm va dogmatizmga yon bosgan bo'lamiz. Protagor aynan mana shunday mushohadaga tayanib, haqiqatning nisbiyligini mutloqlashtiradi, *barcha fikr haqiqatdir*, degan xulosa chiqaradi. Demokrit, Platon, Aristotellar bunga e'tiroz bildirishgan. Ular fikricha, agar muhokamaning har bir natijasi chin bo'lsa, unda muhokamaning hych bir natijasi chin emas, degan fikr ham haqiqat bo'ladi, ya'ni har qanday haqiqat yolg'on bo'lib qoladi: bu fikr ham muhokama yuritish mahsulidir. Protagor bunday xulosalashni rad etmagan. Uningcha, "bir narsa to'g'risida qarama-qarshi fikr bildirish mumkin" degan tezis "bir narsa to'g'risida qarama-qarshi fikr bildirish mumkin emas", degan tezisga qaraganda ortiqcha chin emas.

Protagorning bosh tezisi: "Inson-barcha narsalarning mezoni", mavjud bo'lgan narsalarning ham, mavjud bo'lmagan narsalarning ham". Bu tezisning mohiyatini tushunish uchun yuqorida qayd etilgan relyativizm isbotiga yana bir marta murojaat qilish lozim bo'ladi. Xususan, Platon Protagor tezisini quyidagicha tavsiflaydi: narsalarning mohiyati har bir kishi uchun alohidadir, demak narsani men qanday tasavvur qilsam, u men uchun shunday bo'ladi; sen qanday tasavvur qilsang, sen uchun u shunday bo'ladi. Platon buni shunday misol orqali tushuntiradi: Ba'zi hollarda esayotgan bitta shamoldan kimdir sovqatadi, kimdir sovqatmaydi. Ya'ni, bitta kishi uchun shamol sovuq, boshqasi uchun unday emas. Qanday tuyulsa, shunday seziladi. Shu asosda, shamol o'z holicha sovuqmi yoki kimgadir nisbatan sovuqmi, degan savol tug'iladi. Bu relyativizmning *birinchi isboti*.

Ikkinchi isbot: hych bir narsa o'z holicha vujudga kelmaydi va mavjud bo'lmaydi, u faqat boshqa narsaga nisbatangina vujudga keladi va mavjud. Ana shuning uchun ham shamol o'z holicha sovuqmi yoki yo'qmi degan savol, xuddi shamol mavjudmi, degan savol singari, ma'nosizdir. Chunki u bir kishi uchun shamol, boshqasi uchun shamol emas, bittasini chayqaltiradi, boshqasi uni sezmaydi.

Platon "Teetet" dialogida Protagorning alohida olingan kishining hissiy idroki to'g'risidagi fikri talqinini ma'qullaydi. Sokrat ning ta'kidlashicha, esayotgan shamol bittamizga sovuq, boshqaga iliq bo'lib tuyuladi va so'raydi:

Protagorning shamol kimningdir sovg'otishi uchun sovuq, kimgadir unday emasligi uchun – iliqdir. Bunda Protagor fikrining umuman inson uchun emas, konkret shaxs uchun bildirilayotgani, shubhasiz. Protagor fikricha, sovuq kunda yomg'irdan uyga kirgan kishi yomg'ir-iliq, issiq xonadan tashqariga chiqqan kishi shu yomg'irni sovuq desa, har ikkala mulohazani to'g'ri deb qabul qilish zarur. Uningcha, yomg'ir mening sezgi a'zolarim uchun iliq, boshqa kishiniki uchun-sovuq. (Bir kuni sofistga geometriya qonunlari barcha uchun birdek emas, deganlarida, Protagor konkret sharoitda geometrik chiziqlar ham, aylanalarda ham yo'q, shuning uchun hech qanday qiyinchiliklar kelib chiqmaydi, deb javob beradi)¹.

Platon fikricha, Protagor sezgilarning subyektivligi to'g'risidagi mulohazasida haq. Biroq ularning barchasi chindir degan fikrida haq emas. Haqiqatan ham, sezgilar hamma vaqt ham chin bo'lavermaydi.

Mezon haqidagi Protagor fikriga munosabat turlichadir. Ba'zan Protagorda haqiqat mezoni to'g'risida fikr bormi, degan savol qo'yiladi. Xususan, bu savolga Sekst-Empirik yo'q deb javob beradi. Platon fikricha esa, Protagor hech bir kishi yolg'on fikr bildirmaydi, biroq muayyan fikr chin bo'lmagan taqdirda ham, yaxshi deb qabul qilinishi mumkin, degan. Dono kishining fikri oddiy kishilarning fikriga qaraganda yaxshiroq. Protagor bu yerda Demokrit pozitsiyasiga o'tadi. Ma'lumki, Demokrit "barcha narsaning mezoni-donishmand", degan.

Lekin masalaning mohiyati bunda emas. Protagor fikricha, "*bosh mezon-foйда ko'rish*". Bu yerda biz Protagorning gnoselogik relyativizmdan axloqiy relyativizmga o'tishini kuzatamiz. Protagor fikricha, ezgulik va yovuzlikni farqlashning qat'iy mezoni yo'q. Xuddi obyektiv tarzda issiq yoki sovuq bo'lmagani kabi, obyektiv tarzda ezgulik va yovuzlik ham yo'q. Ular nisbiydir. Nimaning yaxshi yoki yomonligini aniqlashda, o'zingiz uchun yoki ba'zan davlat uchun foydaliligi nuqtai nazaridan kelib chiqishingiz zarur.

Protagor fikricha, yaxshi axloqiy fazilatlarini, masalan, adolatlilik, mardlik, mulohazalilik, mehribonlikni ta'lim-tarbiya, yaxshilikka intilish yo'li bilan egallash mumkin. "Protagor" dialogida Platon faylasufning o'z mulohazasini axloqiy qadriyatlar sohasiga qo'llamaganini ko'rsatadi. Biroq Protagor o'z-o'ziga zid kelgan deb hisoblaganimizda ham obyektlarni hissiy idrok qilishga nisbatan chin bo'lgan narsa, axloqiy qarashlar nuqtai nazaridan ham haqiqatdir deb taxmin qilishimizga zaruriyat yo'q. Protagor, barcha narsalarning mezoni – inson deydi, agar uning obyektlarni hissiy idrok etishga nisbatan individualistik talqinini qabul qilsak, uni axloqiy qadriyatlar va mulohazalarga nisbatan ham taalluqli deb

¹ Қапанг: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003, p.87

hisoblashimiz zarur. Agar ,aksincha, bunday talqinni axloqiy qadriyatlarga nisbatan kuchga ega emas desak, unda uni obyektlarni hissiy idrok etishga nisbatan ham qabul qilib bo'lmaydi; boshqacha aytganda, "Teetet" va "Protagor"dan birini tanlash, boshqasini rad etishga majburmiz. Lekin birinchi navbatda "barcha narsalar" o'zida axloqiy normalarni mujassamlantirgan degan fikr hych qayerdan kelib chiqmaydi, ikkinchidan, spesifik hissiyot obyektlari haqiqiy va universal bilim predmeti bo'lmagani holda, axloqiy normalar ana shunday bilim predmeti bo'lishi mumkin. Platonning o'zi bunday qarash tarfdori bo'lgan.

Haqiqatda Protagor axloqiy mulohazalar va qadriyatlar to'g'risida nima degan? "Teetet"da axloqiy mulohazalarning nisbiyligini ta'kidlagan (Zero, muayyan konkret davlatda to'g'ri va maqtovga sazovorga o'xshab ko'ringan amallar shu davlatning mavjud bulishiga yordam berguniga qadar to'g'ri va maqtovga sazovor deb hisoblanadi degan fikrdaman") va dono kishi to'g'ri harakat foydasiga noto'g'ri hatti-harakatlardan voz kechishi kerak degan firmi aytgan. Boshqacha aytganda, masala bir axloqiy baholash –to'g'ri, boshqasi-yolg'on ekanligida emas, balki bittasi boshqasiga nisbatan "to'g'riroq" ekanligidadir."Shu ma'noda bir xil odamlar boshqalaridan aqlliyoq va hych qachon noto'g'ri o'ylamaydilar dgan fikrlar birdek chindir". (Mutlaq haqiqat mavjud emas, deb hisoblaydigan kishi "hych kim hych qachon noto'g'ri o'ylamaydi", deb aytishga haqli emas). Platonning "Protagor"da yozishicha, sofistlar vijdon va adolat tuyg'usi barcha insonlarga xudo tomonidan inom etilgan, "chunki, garchi faqat ozgin odamlargina san'atga qobiliyatli bo'lganida, shaharlar mavjud bo'la olmasdi". Bu "Teetet"da aytilganidan farq qiladimi? Ehtimol, Protagor quyidagini nazarda tutgandir: Qonun umuman olganda muayyan axloqiy moyillikka ega bo'lib, barcha kishilar uchun tug'madir, lekin Qonunning ayrim turlari konkret shahar-davlat misolidan ma'lum bo'lishicha, nisbiydir. Bir davlatning qonuni boshqa davlat qonuniga nisbatan "to'g'riroq" bo'lmagani holda, u davlat uchun "to'g'ri keladigan" bo'lishi va shu ma'noda qulayroq va maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. An'analarni saqlash va ijtimoiy shartlanganlik tarafdori sifatida Protagor davlatning axloqiy an'alarining shakllanishi va o'zlashtirish tarafdori va ayni paytda dono kishilarning davlatni "yaxshi" konunlarga olib kelishini e'tirof etadi. Ayrim, alohida olingan shaxslarga kelsak, ular jamiyatda qabul qilingan normalar, an'analarga sodiq bo'lishi kerak¹.

Protagor u bilan muloqotda bo'lgan yoshlarning e'tiborini davlatni boshqaruv masalasiga qaratadi. Sokratning, yoshlar sendan nimani o'rganishi mumkin, degan savoliga: aytaylik, agar Gippokrat oldimga kelsa, men yoshlar hohish-irodasini hisobga olmasdan hisoblash, astronomiya, geometriya, musiqani

¹ Protagor axloqiy ta'limoti to'g'risida qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.87-89

o'rgatadigan boshqa sofistlardan farqli o'laroq, unga o'zi o'rganmoqchi bo'lgan narsani beraman. Platonning "Protagor" dialogida "Bu ilm – uy xo'jaligini o'ylab yuritish, o'z uyini hamda jamoat ishlarini yaxshi boshqara olish to'g'risida bo'lib, uni egallagan kishi boshqalardan davlat xizmati bilan bog'liq hatti-harakatlari, nutqlarida kuchliroq bo'ladi"¹, - deydi Protagor.

Protagor fikricha, fazilatli bo'lish qobiliyati barchaga xos, lekin, u tug'ilishda berilgan emas. Uning aytishicha, jinoyatchini jazolash faqat unda yaxshi fazilatlarini tarbiyalash uchun amalga oshirilgandagina ma'noga ega bo'ladi. Chunki bunda yovuzlikning oldini olish uchun jazolanadi.

Din haqida gapirar ekan, Protagor xudolarning borligini ham, yo'qligini ham, qanday ko'rinishga ega ekanligini ham bilmaymiz, buni bilish uchun inson umri yetmaydi, deydi. Lekin, uningcha, xudoga ishonmagandan ko'ra, ishongan yaxshiroq.

"Xudolar to'g'risida" kitobida Protagor yozadi: "Xudolar masalasiga kelsak, ularning haqiqatan mavjudmi yoki yo'qmi ekanligiga ishonchim yo'q, ularning qanday ko'rinishda ekanligini ham bilmayman, chunki bilishimizga xalaqit beradigan ko'p narsalar bor, ular qatorida inson hayotining uzoq emasligi masalasining noaniqligi ham bor"². Bu mazkur asardan hozirgi kunga qadar saqlangan yagona parchadir.

Har bir masala bo'yicha turli xil fikrlar mavjudligi relyativistik nazariyadan kelib chiqadi, Protagor bu fikrni rivojlantirib, dialektik va ritorik xilma-xil fikrlarni ishlab chiqish va dalillarni qidirish san'atida mashq qilishadi va agar "kuchsiz nutqni kuchli qil" degan qoidaga amal qilishsa, ko'proq muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Sofistlar dushmanlari buni quyidagicha talqin qilishdi: axloqiy jihatdan boshqalaridan yomon bo'lgan ishda g'alabaga erish, bunda qoidaning modal tusga ega bo'lishi shart emas. Masalan, o'zini himoya qilishga ojiz mijozning adolatli ishini yoki juda muakkab ishni yutib chiqishga yordam bergan huquqiy maslahatchi to'g'risida, u "zaif" odamga g'alaba qozonishga yordam berdi, bunda u axloqqa zid ish qilmadi, deyish mumkin. Prinsipsiz notiqlar va eristika muxlislari tufayli bu qoida tez orada yomon shuhrat kasb etdi, lekin bunda Protagorni qalloblarga yordam berdi deb bo'lmaydi. Lekin, shunga qaramasdan, dialektika va eristika amaliyoti bilan bog'liq relyativistik doktrinaning tabiiy ravishda insonda haqiqat va adolatni chekkaga surib qo'yib, muvaffaqiyat qozonishga hohishi borligini inkor etib bo'lmaydi³.

Protagor birinchilar qatorida grammatikani o'rganishga kirishgan va bu fan o'zining paydo bo'lishi bilan Protagorga qarzdor. Uni gaplar tasnifini amalga

¹ Platon. Sobr. soch. V 4-x tt. T.-M.:MБisI,1990-S.428

² Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.89

³ Qarang: o'sha joyda

oshirgan, otlar jinsini aniqlash uchun zarur terminologiyani ishlab chiqqan deyishadi.

Gorgiy

Sofistlar katta maktabining yana bir yorqin vakili Gorgiy (er.avv.483-374y.) bo'lib, u 100 yildan ortiq umr ko'rgan, buning sababini lazzatlardan o'zini tiyishda, deb tushuntirgan.

Asarlari: “Yelenaga shon-sharaflar”, “Polemed”, “Tabiat haqida yoxud noborliq haqida”. Keyingisi asosiy asari bo'lib, unda Gorgiy tafakkur, nutq va borliqni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qiladi.

Uni ko'proq Zenon dialektikasi skeptisizmi qiziqtirgan va u mazkur masalaga bag'ishlangan “Noborliq yoxud Tabiat haqida” kitobini yozgan. Unda “Gorgiy eleyliklar dialektikasidan boshqacha xulosa chiqargan. Uningcha, 1)hyech bir narsa mavjud emas, chunki mavjud bo'lganda yo mangu bo'lardi, yo nimadandir paydo bo'lgan bo'lardi. Biroq u hyech nimadan paydo bo'lmagan bo'lardi, na Borliqdan, na Noborliqdan hyech narsa paydo bo'lmaydi. U mangu ham bo'la olmaydi, chunki mangu bo'lganda cheksiz bo'lishi kerak. Cheksizlikning bo'lishi quyidagi sababga ko'ra mumkin emas: u boshqa narsada ham, o'zida ham bo'la olmaydi, ana shuning uchun ham hyech qayerda bo'lishi mumkin emas; 2) agar nimadir mavjud bo'lganda, uni odamlar bilgan bo'lardi. Zero, agar borliq to'g'risida bilim bo'lsa, unda o'ylagan narsasi mavjud, noborliq to'g'risida esa o'ylash mumkin emas. U holda xato bo'lishi mumkin emas, bu esa puch; 3) agar odamlar borliq to'g'risida bilganlarida ham, bu bilimni boshqalarga berib bo'lmas edi, axir belgilar o'zlari ifoda qilayotgan predmetlardan farq qiladi-ku. Boshqa kishilarga bu dunyoning rang-barangligi haqida gapirishimiz mumkin, axir bizning qulog'imiz rangni emas, tovushni eshitadi-ku. Va ikki kishi, agar ular bir-biriga butunlay o'xshamasa, qanday qilib borliq to'g'risida bir xil tasavvurga ega bo'lishi mumkin? Ba'zilar mazkur g'aroyib g'oyalarni Gorgiyning falsafiy nigilizmi ifodasi deb jiddiy hisoblashgan, boshqalari uni hazil deb o'ylashgan, aniqrog'i, ular fikricha, buyuk notiq ritorika yoxud so'z o'yinining qanday qilib hatto puch farazni odamlarga to'g'riga o'xshash qilib jaranglashini ko'rsatmoqchi bo'lgan.

Gorgiy ritorikani ishontirish san'ati deb hisoblaydi. O'zining nutqlarida ishontirish usullaridan ataylab ezgu maqsadlar yo'lida ham, yovuzlik yo'lida ham foydalangan, bu usullarni o'z o'yinlarini yaxshilashi uchun aktyorlarga ham o'rgatgan. Shu munosabat bilan Gorgiy qutqaruvchi aldoq usullarini ishlab chiqqan va ularni “zarariga qaraganda, ko'proq foyda keltiradigan aldoq fojiasidir; unga

berilish- befarq qolishdan ko'ra, artistlik idrokiga bo'lgan qobiliyatni namoyish etish demakdir"¹, degan.

Bu yerda aytish mumkinki, Protagor ioniyaliklar an'anasini davom ettirib, relyativizmni asoslagan bo'lsa (hissiyotdan kelib chiqib bilishni tushuntirsa), Gorgiy relyativizmni italyancha an'anaga tayanib rivojlantirgan. Xususan, u bilimlar chinligini, nisbiyligini aqliy mushohada jarayonida inson duch keladigan muammolar, ziddiyatlar bilan bog'lab tushuntirgan. Bunday holat, uningcha, falsafiy kategoriyalar darajasida (borliq va noborliq, borliq va tafakkur, birlik va ko'plik, tafakkur va so'z va sh.k.) sodir bo'ladi. Protagor barcha narsa haqiqat(chunki har bir kishi uchun haqiqat alohida) degan bo'lsa, Gorgiy „barchasi xato“, deydi. Gorgiy eleychilarning noborliq, harakat va ko'plik (to'plam) tushunchalarini tanqid qilar ekan, quyidagilarni isbotlashga urinadi: 1) hech bir narsa mavjud emas; 2) mavjud narsa bo'lgan taqdirda ham uni bilib bo'lmaydi; 3) bilish mumkin bo'lgan taqdirda ham uni ifodalab va tushuntirib bo'lmaydi.

Gorgiy falsafani aniq fanlardan yuqori qo'ygan. Faylasuf fikricha, axloqiy qadriyatlar va huquqiy normalar shartlidir, ular insonlar yaratgan sun'iy qurilmalar bo'lib, hamma vaqt ham tabiiy holatga mos kelavermaydi.

Gippiy

Elislik *Gippiy* Protagorning kichik zamondoshi bo'lgan, u o'zining qiziqishining turli qirraligi bilan ajralib turgan. Uning olimpiada g'olibliklari ro'yxati Olimpiadalar bo'yicha vaqtning keyingi grek sanoq sistemasi asosini qurgan (U ilk bor tarixchi Timey tomonidan kiritilgan). Platonning „Protagor“ida Gippiyning , qonun – bu insonlar uchun tiran, chunki insonlarni o'z naturasiga zid ishlarni qilishga majbur etadi, degan fikri keltiriladi. Bu fikrning ma'nosi shundaki, shahar-davlat qonuni ko'pincha odamlarga cheklashlar qo'yadi va ularni juda tor ramkada harakat qilishga ruxsat beradi , bu esa tabiiy qonunlarga ziddir. ²

Gippiy tabiatshunoslik masalalari bilan ko'proq qiziqqan. Astronomimiya, geometriya, musiqa bilan shug'ullangan. Egri chiziqning geometrik ta'rifini bergan. Ketma-ket aytilgan 50 so'zni yodda saqlab qola olgan. U tabiat qonunlarini jamiyat qonunlariga qarama-qarshi qo'ygani holda aytadi: „Qonun insonlar ustidan hukmronlik qilgani holda, ko'p narsaga majbur qiladi, bu esa tabiatga ziddir“ (Platon dialogi bo'yicha). Ota-onalarni hurmat qilish zarur deb hisoblagan. Uningcha, yashashdan asosiy maqsad avtorikiya-o'zidan qoniqish hosil qilish. Gippiyning asosiy axloqiy ideali ana shu.

Prodik til masalasi bo'yicha ko'proq shug'ullangan. U falsafa bilan shug'ullanishidan avval so'zlarni to'g'ri ishlatishni o'rganish kerak, so'z

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.90

² Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.91

san'atining mohiyatini esa faqat o'zim topganman, ochganman deb aytadi, va buni o'zining buyuk xizmatlaridan biri deb hisoblaydi.

Prodik nutq uzun ham, qisqa ham bo'lishi kerak emas, u meyerida bo'lishi lozim, deb hisoblagan.

Faylasuf fikricha, insonlarda yaxshi yashashga intilish, nozu-ne'matlar mavjudligi xudolar to'g'risidagi tasavvurlarni yaratishga olib kelgan. Prodik, garchi pulning, lazzatlanishning quli bo'lsa-da, axloqdan so'z yuritishdan charchamagan. Uningcha, ehtiroslar hohish va aqlsizlik o'rtasida mavjud, chunki *ehtiros*- ikkilangan hohish, *aqlsizlik* esa, ikkilangan ehtiros.

Prodik yozadi: "Narsalardan foydalanayotgan kishilar qanday bo'lsa, narsalarning o'zi ham xuddi shunday"¹.

Prodik dinning kelib chiqishi nazariyasini yaratishi bilan qiziqish uyg'otadi. Dastlab odamlar Quyoshni, Oyni, daryo, ko'l, meva-chevalarni va boshqalarni – bir so'z bilan aytganda o'zlari uchun foydali bo'lgan, ozuqa bo'ladigan narsalarni ilohiylashtirishgan. Bunga misol qilib Misrdagi Nil daryosini keltiradi. Protogor singari, Prodik ham lingvistik tadqiqotlar olib borgan, sinonimlar to'g'risida risola yozgan. Platonning "Teetet"da yozishicha, Sokrat o'qib, fikrlashga "homilador" bo'la olmagan yoshlarni Prodik oldiga jo'natgan va ularni Prodik "naslsizlikdan" xalos etgan.²

Antifont. Asarlari: "Haqiqat", "Kelishuv haqida". Uningcha, tabiat qonunlari va yaratilgan qonun talablari qarama-qarshi. Barcha azob-uqubatlar manbai qonunlarning inson tabiatiga zid amallarni bajarishiga majbur qilishidadir. Bundan u quyidagicha xulosaga keladi: inson ikkiyuzlamachi bo'lishi kerak, u o'zini tabiat qonuniga ham, jamiyat qonuniga ham bo'ysunayotgandek qilib ko'rsatishi kerak.

Antifont davlatning shartnoma asosida kelib chiqishi nazariyasining boshida turadi. Qulchilikning kelib chiqish sababini jamiyatda o'rnatilgan tartibning natijasida deb biladi. Aslida esa, uning fikricha, insonlar tabiatan teng bo'lib tug'ilgan, ehtiyojlari ham bir xil. Aytishlariga qaraganda, Antifont o'z qullarini ozodlikka chiqarib yuborgan, o'zi esa qul ayol bilan nikohga kirgan. Buning uchun uni telbalikda ayblashib, fuqarolik huquqidan mahrum qilishgan.

Kichik sofistlar Vasr oxiri-IVasr boshlarida faoliyat ko'rsatgan.

Alkidam–Gorgiy shogirdi, Antifontning insonlar tengligi to'g'risidagi qarashlarni rivojlantirgan, qulchilikning tabiiylikka zidligini ta'kidlagan. Agar Antifont ellinlar va varvarlarni tabiatan teng degan bo'lsa, Alkidam qullar umuman bo'lishi kerak emas, degan. Buni asoslashda u nafaqat tabiatga, balki xudoga ham

¹ Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.319

² Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1 - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.92

murojat qiladi va xudo barchani ozod, erkin qilib yaratgan, tabiat hyech kimni qul qilib yaratmagan, deb ta'kidlaydi.

Transimax. U, Siseron fikricha, prozaik nutqni to'g'ri tuzishni ixtiro qilgan. U tarixga aniq, nozik fikrlovchi, topqir, hohlagan narsasini gapira oladigan, o'z fikrini ham qisqa, ham uzun qilib qura oladigan notiq sifatida kirgan.

Kritiy.(460-403) 30ta tiranlarning ichida eng zo'ri bo'lgan. Afinaning Peloponnes urushidagi mag'lubiyatidan keyin spartakliklar Afinada demokratiyani bekor qilishni talab qilganlar. Shu sababli, 13 kishidan iborat komissiya tuziladi va u yangi antidemokratik Konstitutsiya tuzishga jalb qilinadi. Unga Kritiy boshchilik qiladi. Lekin xalq tiranlarga qarshi chiqadi, Afinada demokratiyani tiklashadi.

Kritiy dinni ijtimoiy foydali o'y-fikr deb hisoblaydi. "Sizif" tragediyasida ta'kidlashicha, dastlab qonunlar bo'lmagan va shu sababli insonlar bir-birini ezishgan. Keyin qonunlar o'rnatilgan bo'lib, ular qonunbuzarlarni jazolashni nazarda tutgan. Buning natijasida, odamlar yashirin tarzda yovuzlik qilishga o'tgan. Ana shunday bir vaziyatda allaqanday *dono* yomonlikni jilovlash uchun xudoni o'ylab topgan. Xudoni barcha narsani ko'rib, bilib turadi, aybiga binoan har bir kishini jazolaydi.

Sokrat falsafasi

Platonning aytishiga qaraganda, Sokrat er. avv. Z99-yilda vafot etgan, bu paytda faylasuf 70 yoki undan sal kattaroq yoshda bo'lgan, demak u er. avv. 470-yil atrogfida tug'ilgan. Otasini tosh o'ymakori bo'lgan deyishadi. Sokrat o'ziga to'q oilada tug'ilgan, chunki u armiyada goplit (og'ir qurolli piyoda askari) bo'lib xizmat qilgan, harbiy qurollarning to'la komplektini olish uchun yaxshigina merosga ega bo'lishi kerak edi. Sokrat hayotining birinchi qismi Afinaning gullab-yashnagan davriga to'g'ri kelgan. Yoshligidan boshlab butun hayoti davomida Sokrat unga nimanidir qilishni ta'qiqalaydigan yoki nimadandir ogohlantiradigan sirli "ovozni" eshitib turgan va buni unga belgi beradigan deymon (demon) deb atagan. "Bazm"da Platon Sokratning uzoq vaqt dunyodan "uzilib", mushohadaga berilishi to'g'risida gapiradi. Professor Teylor Sokratning bu holatini ekstaz yoki trans deb ataydi.

Sokrat o'ttiz yoshga qarab ketganda u ioniyaliklar kosmologiyasidan hafsalasi pir bo'lib, insonni o'rganishga kirishadi. U o'zini qiynagan savolga javobni bexosdan Anaksagorning, tabiat qonunlarining va olamdagi tartibotning birlamchi sababi Aqldir, degan fikridan topadi. Bundan quvonib ketgan Sokrat qanday qilib Aql borliqdagi tartiblanganlikni yaratganligini bilish umidida Anaksagor ta'limotini o'rganishga kirishadi. Lekin u Anaksagorning Aql tushunchasini uyurmali harakatni tushuntirish uchun kiritganini bilgach, unga munosabati o'zgaradi va turli qarashlar va ixtiloflar tufayli naturfalsafaning boshi

berk ko'chaga kirib qolganini payqaydi; undan yuz o'girib, boshqa tadqiqot predmetiga murojaat qiladi.¹

Sokratning falsafiy ta'limoti. Sokrat faoliyatining yetuk davrida falsafa shu davrgacha shug'ullanib kelgan masalalarni, xususan, boshlang'ich asos, ularning soni va tabiati, olam strukturasi paydo bo'lishi va mavjudligi va shu kabilarni rad etadi. Sokrat fikricha, bu masalalarni yechishda vujudga keladigan ziddiyatlar ularni bilib bo'lmaslikni tasdiqlaydi.

Falsafa, Sokrat fikricha, tabiat to'g'risida aqliy mushohada yuritish bilan cheklanmaydi, u qanday yashash zarurligi to'g'risidagi ta'limotdan iborat. Ne'matga intilish insonlarga xos tug'ma xislat, ana shuning uchun faylasufning asosiy vazifasi suhbatdoshini axloqiy ne'mat va haqiqiy qadriyatni aniq tushunish va "joriy qilishga" yetaklab keltirishdan iborat². Uning hayot san'at bo'lgani, san'atni takomillashtirish uchun esa uni bilish zarurligi sababli fundamental falsafiy muammolarni muhokama qilishdan avval bilimning mohiyati masalasini hal etish zarur. Bilim, mohiyatiga ko'ra, qator predmetlardagi *umumiyni* (umumiy belgilarini) ko'ra bilish demakdir. Yanayam aniqrog'i, bilim predmet haqidagi tushuncha bo'lib, uning mazmunini aniqlashga ta'riflash orqali erishiladi.

Tushunchalarni aniqlash, ya'ni, ta'riflash uchun Sokrat foydalangan metod dialektika yoki dialektik metod deb nom olgan.

Dialektika – Sokrat falsafasining buyuk yutug'idir. Sokrat falsafa muallimi sifatida shogirdlariga o'z fikrlarini faqat og'zaki tarzda- suhbat yoki bahs shaklida, maxsus metod (dialektika) asosida o'tgan.

Sokrat, bir tomondan, sofistika xos ommaviy o'qitish, savol mohiyatini tushunib yetish uchun bahs, suhbat shakllaridan foydalanish, skeptisizmning ba'zi usullarini qo'llash zarurligini uqtirgan, ayni paytda, ulardan yomon maqsadda foydalanishni qoralagan.

Sokrat faoliyati to'g'risida Ksenofont va ayniqsa Platon dialoglaridan qimmatli ma'lumotlarni olamiz. Sokrat nutqlari va suhbatlarining asosiy predmeti etika masalalari: qanday yashash kerak, isbot va raddiyani qanday amalga oshirish kerak, degan savollardan iborat. Sokratning maqsadi dialoglar vositasida muhokama etilayotgan masalalar bo'yicha fikr bildiruvchi shogirdlarini faylasuf qilib tayyorlash bo'lgan.

Sokrat metodining shakllanishi uning etika kategoriyalarini ta'riflash, ularning mohiyatini aniqlash bilan bog'liqdir. Predmetni dialektik tarzda tadqiq

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.96-97

² Qarang: Pyer Ado. Chto takoye antichnaya filosofiya? / Perevod s fransuzkogo V.P.Gaydamaka - M.:Izdatelstvo gumanitarnoy literatury, 1999- S.50

etish, Sokrat fikricha, avvalambor, uni aks ettiruvchi tushunchani ta'riflashdan iborat. "Lixes"da – qahramonlik haqidagi dialogda (Platon dialogi) dialektika tushunchani ta'riflash ko'rinishiga ega bo'ladi, masalan, qahramonlik tushunchasini ta'riflashda aynan ana shunday holat kuzatiladi. Sokrat ta'kidicha, qahramonlik fozillikning xususiy ko'rinishi, shuning uchun ham qahramonlikni ta'riflashdan avval fozillikni ta'riflash zarur bo'ladi. O'z navbatida, qahramonlikni ta'riflashda uning barcha xususiy ko'rinishlarini hisobga olish, ular uchun umumiy bo'lganini ifoda etish kerak.

Demak, Sokrat dialektikasi tafovut qiladigan narsalarda umumiy, ko'plikda yakkani, mohiyatni uning ko'rinishlarida aniqlash, o'rnatishdan iborat.

Sokrat biror narsa to'g'risida muhokama yuritishda uning qarama – qarshisidan, uni istisno qiluvchi fikrdan kelib chiqish zarur deb hisoblaydi.

Sokratning muhim yutuqlaridan yana biri bilish jarayonida analiz va sintezning tutgan o'rnini tushunishga yaqinlab borganidir (bu vazifani keyinchalik Platon va Aristotellar hal etishgan).

Yaxlitni fikran ko'plikka ajratishni (analizni) Sokrat yaxshi tushuntiradi. Lekin u ko'plikni yakkalikka keltirish (sintez) to'g'risida kam o'ylagan. Bu haqida Aristotel yozadi: "Sokrat xizmatlarini ikkita narsada: induktiv mulohaza yuritish va tushunchalarni hosil qilishda deb aytishi mumkin"¹.

Sokrat ilgari surgan muhim tezislardan biri: "Haqiqatga erishish uchun ziddiyatlar darvozasidan o'tish kerak". Lekin uning dialektikasida bu jarayon muhokamadan ziddiyatni siqib chiqarish, ziddiyatni inkor etish tarzida talqin etiladi.

Inson o'zining joniga bo'ysungani uchun, Sokrat bilishning asosiy vazifasini o'z-o'zini bilishda deb hisoblaydi. Uning, "o'z-o'zingni bil", degan mashhur tezisi ana shundan kelib chiqadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, Sokratning bilishni tushunchalarni ta'riflashdan iborat deb tushunishi, etika kategoriyalarini induktiv yo'l bilan tushuntirishi mantiq ilmi rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Sokrat fikricha, inson faoliyati mardlik, ne'mat va ulardan kelib chiqadigan maqsad tushunchalari bilan belgilanadi. U barcha yomon hatti- harakatni jaholatda, donolikni bilimda, deb hisoblagan.

Aristotelning ta'kidlashicha, fan Sokratdan uning ikki yangiligi : "induktiv argumentlar va universal tushunchalarni kiritishi" uchun qazdor. Buning ma'nosini, F.Koplston fikricha, quyidagi mulohazalar ochib beradi: "Sokratda universalialar yoki tushunchalar buyumlardan alohida tazda mavjud emas; tadqiqotchisi unga alohida holda mavjudlikni baxsh etib, G'oya deb nom berdi"².

¹ Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.327-328

² Copleston F. History of philosophy. Vol.1 - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.101

Keling, yaxshisi, Sokratning falsafa rivojiga qo'shgan ulushi mohiyatini davrimizning ana shu taniqli falsafa tarixchisi talqinida tushunishga urinib ko'raylik.

Shunday qilib, Sokrat o'z oldiga universal tushunchalarni ta'riflashni, ya'ni u yoki bu g'oyani aniq ma'noli so'z shaklida ifodalash vazifasini qo'ydi. Sofistlar barcha tushunchalar nisbiy, universal haqiqatlar yo'q, deyishgan bo'lsa, Sokrat esa aksincha, universal tushunchalar mavjud va o'zgarishga uchramaydilar: xususiy narsalar bir-biridan farq qilishi mumkin, lekin tushunchalar qanday bo'lsa, shundayligicha qoladi, deb ta'kidlaydi. Bu g'oyani quyidagi misolda tushuntirsa bo'ladi. Aristotel insonni "aqlga ega hayvon" sifatida ta'riflaydi. Barcha odamlar o'z qobiliyatlari bilan ajralib turishadi: ba'zilar kattaroq intellekt, boshqalari – kichikroq intellektga ega. Bir xil odamlar o'z hayotida aqlga tayanib ish qilsalar, boshqalari o'ylab o'tirmasdan, instinktga yoki impulsiga bo'ysunadilar. Ba'zi odamlar umuman aqlni ishlatmaydilar – bu yo uxlayotgani uchun, yo "aqli pastligi" uchun. Lekin, shunga qaramasdan, "aqlga ega hayvonlar" – bunda aqldan erkin foydalana olishi yoki organik defektga chalinishi muhim emas – insonlar hisoblanadi: ularda insonlik belgisi gavdalangan bo'lib, uni o'zgartirib bo'lmaydi, u barcha odamlarga nisbatan o'z kukchini saqlab qoladi. Agar odam - "aqlga ega hayvon" bo'lsa, "aqlga ega hayvon" – bu inson. Biz bu joyda umumiy va xususiy tushunchalarning aniq maqomi yoki obyektiv referentini hamda tushunchalarning doimiy xarakterini muhokama eta olmaymiz. Ba'zi mutafakkirlar universal tushunchalarni sof subyektiv hodisa deb hisoblashadilar, lekin, agar ular real faktlarga tayanmaganda, biz ularni qanday shakllantirishimizni, qanday keltirib chiqarishimizni tasavvur etishimiz qiyin. Keyinchalik universaliylarning obyektiv referensiyasi va metafizik maqomi masalasiga qaytamiz: hozircha universal tushunchalar yoki ta'riflar qandaydir doimiy va o'zgarmas bo'lib, shu xususiyatlari tufayli turli xil juz'iyliklar orasida alohida ajralib turishini ta'kidlash bilan cheklanib turamiz. Axir odamlar daf'atan yo'qolib qolsa ham, insonning "aqlga ega hayvon" sifatidagi ta'rifi saqlanib qoladi-ku. Yana biz "sof oltin" tashkil topgan oltin bo'lagi to'g'risida mazkur bo'lakda gavdalangan etalon yoki universal mezon borligini nazarda tutgan holda gapirishimiz mumkin. Xuddi shunday, chiroylilik etaloniga ba'zi buyumlarning yaqin, boshqalarining – uzoqroq turishini nazarda tutib, bir xil buyumlar ko'proq chiroyli, boshqalari kamroq chiroyli deyishimiz mumkin. Bunda etalon tajribamizdagi chiroyli predmetlarga o'xshab o'zgarmasdan qoladi, doimiy bo'lgani holda, barcha konkret chiroyli predmetlarni o'ziga "bo'ysundiradi". Albatta, bie etalon mohiyati to'risida bilamiz deganimizda,

xatolashishimiz mumkin, lekin ko'proq chiroyli va kamroq chiroyli obyektlar bor deb aytganimizda, shunday etalon mavjudligini nazarda tutamiz.

Yana birmisolni keltiraylik. Matematiklar chiziq, aylana va boshqa narsalar to'g'risida gapirishadi va bu tushunchalar ta'riflarini berishadi. Biroq bizning tajribamizda na ideal chiziq, na ideal aylana bor – mavjud chiziqlar va aylanalar yaxshi holda faqat ularga yaqinlashishdan iborat.

Shunday qilib, bizning kundalik tajribamizdagi nomukammal, o'zgaruvchan obyektlar bilan universal tushunchalar yoki ta'riflar orasida kontrast mavjud. Shuning uchun ham Sokrat universal tushunchalarga katta ahamiyat berganligini tushunish oson. Hayotning axloqiy tarafiga diqqatini jamlagan holda, u tushunchalarning sofistlar relyativistik konsepsiyalari dengizi to'fonida mustahkam turishini yaxshi tushungan. Sofistlar relyativistik axloqiga muvofiq, adolat haqidagi tushunchalar, masalan, shahardan shaharga, jamiyatdan jamiyatga o'zgarib turadi: biz adolat mana bu, ana shu, va bu ta'rif barcha davlatlar uchun haqiqat, deb ayta olmaymiz; Afinada adolat bir xilda, Frakiyada butunlay boshqacha. Lekin biz barcha kishilar uchun umumiy baholash etaloniga egamiz va undan kelib chiqib, nafaqat ayrim kishilarning hatti-harakatining adolatli ekani to'g'risida hukm chiqarishimiz, balki turli davlatlarning axloq kodekslarining adolatning umumiy tushunchasiga mos yoki mos emasligi to'g'risida mulohaza bildirishimiz mumkin.

Aristotel Sokratni “induktiv argumentlar” ixtirochisi deb hisoblash mumkin, deb ta'kidlaydi. Biroq, “universal tushunchalarni” Sokrat ularning metafizik maqomini aniqlash maqsadida tadqiq etgan deyish xato bo'ladi; Sokrat qarashlarini Aristotel mantiqiy terminlarda ifodalagan, lekin bundan Sokrat induksiya nazariyasini mantiq nuqtai nazaridan ishlab chiqqan degan xulosa kelib chiqmaydi.

Sokrat metodining mohiyati nimada? U “dialektika” yoki suhbat shakliga ega. Sokrat birorta kishi bilan muayyan mavzuda, masalan botirlik (jasurlik) haqida suhbatlashar ekan, uning fikrini savollar berish orqali bilishga urinadi, misollar bilan tushuntirishni talab qiladi. Suhbatdoshi yangi fikr bildirishi yoki mavjud ta'rifni mukammallashtirib, barchani qanoatlantiradigan universal tushuncha shakllantirilishiga qadar yoki hych qanday natijaga erisha olmaganligi ma'lum bo'lguncha suhbat davom etgan.

Demak, Sokrat dialektikasining mohiyati noadekvat ta'rifdan adekvat ta'rifga yoki konkret misollarni karab chiqishdan universal tushunchani shakllantirishga o'tishdan iborat. Masalan, suhbatlardan birida adolatsizlik tabiati muhokama qilinadi. Uning misollari keltiriladi: aldash, zarar yetkazish, qulga aylantirishva boshqalar. Yana ta'kidlanadiki, bunday harakatlar fvqat do'stlarga nisbatan qilingandagina adolatsizlik deb hisoblanadi. Shunda Sokrat bunday misol

keltiradi: faraz qilaylik, umidsizlanib, o'zini o'ldirmoqchi bo'lganning qilichini do'sti o'g'irlyadi. Buni adolatsizlik deb ayta olamizmi? Yo'q, ayta olmaymiz. Kasal o'g'lini tuzatadigan dorini o'g'liga aldab ichirishga majbur qilgan otaning qilmishi ham adolatsizlik bo'lmaydi. Shunday qilib, faqat do'stiga ziyon yetkaziladigan harakatnigina adolatsizlik deb aytish mumkinligi ma'lum bo'ladi.

Bunday dialektika, albatta, Sokrat jaholatda ayblagan yoki manmanligiga sezilarli zarba bergan kishilarni ranjitgan, ular ustimizdan kulayapti deb qabul qilishgan. Sokrat atrofida yig'ilgan yoshlarni mutafakkirning "qariyalarni burchakka siqib qo'ya olishi" qoyil qoldirgan. Sokrat o'z metodini nafaqat onasining kasbiga qiyos qilib "doyalik san'ati" deb atagan, balki bu bilan boshqalarga to'g'ri harakat qilish uchun zarur haqiqatga mustaqil ravishda erishishga intilishiga yordam berish uchun ham shunday qilgan. Shuning uchun Sokratning tushunchalar ta'rifiga katta ahamiyat berganligini tushunish qiyin emas. Bu pedantizm emas, balki nimaning chin, nimaning xato ekanligini aniq bilish insonga o'z hayotini rostakamiga boshqarishga yordam berishiga chin dildan ishonishidir. Sokrat chin g'oyalarning aniq ifodalar tarzida shakllanishini mavhum mushohada yuritish maqsadida emas, balki kundalik turmushda ulardan foydalanish uchun hohlagan. Uning etika bilan qiziqishi mana shundandir.

Sokratning qiziqishlari etika sferasida yotishini aytib o'tgan edik. Aristotel hyecham ikkilanmasdan "Sokrat axloqiy muammolar bilan shug'ullangan", degan edi. Aristotelning yana bir gapi bor: "Sokrat fozillik nima ekanligini o'rgandi va birinchi bo'lib universal tushunchalar masalasini qo'ydi". Aristotelning bu mulohazasi, shubhasiz, Sokratning Ksenofont yaratgan obraziga tayanadi.

Aristofanning "Bulut" komedisida yaratgan Sokrat obrazi bizni g'ulg'ulaga solmasligi kerak. Sokrat kekxa faylasuflardan ta'lim olgan va Anaksagor ta'limoti ta'sirida bo'lgan. "Bulut"da unga sofistlik belgilarining to'ng'alishi shundan bo'lsa kerakki, u boshqa sofistlar singari diqqat-e'tiborini subyektga, boshqacha aytganda, insonga qaratdi.¹

Sokratning sudlanishi va o'limi

Er. avv. 406-yilda Sokrat sakkizta qo'mondonni Arginus yonidagi jang paytida o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan qaragani uchun ularni qattiqroq jazolsh maqsadida yakkama-yakka emas, birgalikda sud qilishga, bu esa qonunga zid edi, rozilik bildirmay, fuqarolik jasoratini namoyish etdi. Bu paytda Sokrat senat qo'mitasi a'zosi edi. Er. avv. 403-yili Leon Salaminskiyni oligarxlar o'ldirib, mol-mulkini musodara qilish payida bo'lganda, uni qamoqqa olishda ishtirok etishdan voz kechib, yana bir bor jasorat ko'rsatadi. Vaqti kelib bir kuni jinoyatlari uchun Afina aholisi oldida javob berishini bilgan oligarxlar, o'z qilmishlariga iloji

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.101-104

boricha taniqli kishilarni sherik qilishga intilishardi. Lekin Sokrat bunday voqyealarda ishtirok etishdan voz kechdi va, ehtimol, agarda o'ttizta oligarx hokimiyatdan chetlashtirilmaganda, qatnashmagani uchun hayoti bilan javob berardi. Er. avv. 399-yilda yangidan yaralgan demokratiya yetakchilari Sokratni sudga berishadi. Siyosatda panada yurgan Anit Meletni Sokratga davo bildirib, sudga berishga gij-gijlaydi. Arxonta sudida qo'yilgan ayb quyidagicha tuzilgan edi: "Bu aybni Sofroniks o'g'li Sokratga qarshi Pittos o'g'li Melet tuzdi va qasam ichib tasdiqladi: Sokrat shahar-davlatda e'tirof etilgan xudolarni rad etishda; va yang xudosifat mavjudotlarni kiritishida aybdor; u yoshlarni buzishda ham (Sokrat ta'sirida yoshlar afina demokratiyasiga tanqdiy munosabatda bo'la boshlagan edilar) aybdor. O'lim jazosi taklif qilinadi". Ayblovchilar Sokratni sud bo'lishini kutib o'tirmay, o'z ixtiyori bilan surgunga jo'naydi deb o'ylashgan edilar, lekin ular adashishdi. U er..avv. 399-yilda bo'lgan sudga u keladi va o'z- o'zini himoya qiladi. Sudda u sudyalardan harbiy xizmatlarini, oligarxlarning boshqaruvi davrida Kritiyga bo'ysunmaganini, qarshi turganini hisobga olishlarini talab qilishi mumkin edi, lekin ularni eslatish bilan cheklandi va qo'mondonlar ustidan sud bo'lganda demokratiyaga bo'ysunmaganini ham qo'shib qo'ydi. U sudyalarning umumiy soni 500 yoki 501 bo'lgani holda 60 ta kishiga ko'p ovoz bilan o'lim jazosiga hukm qilindi.

Sokrat umrinig oxirgi kuni Platonning "Fedon" dialogida tasvirlanadi. Bu kuni Sokrat do'stlari Kebet, Simmiy va Fedon bilan jon haqida suhbatlashib o'tkazadi.

Sikut zaharini ichib o'limni kutib yotganida oxirgi so'zini aytadi: "Kriton, Asklepiydan xo'roz qarzdormiz, shuni berib, qarzni uzib qo'yishni unutmanglar!" Zahar yuragiga yetganda, qaltiroq boshlanib, o'lganini bilgach, Kriton Sokratning og'zi va ko'zini yopib qo'yadi. Exekart, do'stimiz, biz bilgan insonlarning eng yaxshisi, boz ustiga, eng dono va adolatli inson o'limi shunday bo'ldi"¹.

Er.avv. IV asr boshida Sokratning ba'zi shogirdlari Sokrat maktabi deb nom olgan maktabni yaratishdi. Ular: 1) Megar, 2) Elido-eretriy, 3) Kiniklar, 4) Kiren maktablaridir. Birinchi uchtasi shaharlar nomi bilan, oxirgisi esa "pes" laqabini olgan Diogen Sinops (u Apollonlik Diogen emas) nomi bilan atalgan. Bu maktablarning har biri Sokratning qo'ygan masalalarini: ne'mat, bilish imkoniyatlari, umumiy tushunchalarning predmeti, ularning ishonchliligi, amaliy faoliyatning maqsadlari, ularning ne'matlarni yaratishga olib kelishi kabilarni hal etishgan.

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.113-115

1) Megar maktabi er.avv.III-asr o'rtalarigacha faoliyat ko'rsatgan. Unga Sokratning muxlisi va shogirdi megarlik Yevklid (mashhur matematik Yevklid emas) asos solgan. Mazkur maktabning undan boshqa vakillari Yevbulid, Diodor, Stilponlardir. Ular qarashlari bo'yicha, bilim predmeti faqat "jimsiz turlardan", yoki tushunchalar bilan bilib olinadigan umumiy bo'lishi mumkin. Umumiy yagona ne'mat bilan mos keladi, u tabiatiga ko'ra o'zgarmas. Na his qilinadigan dunyo, na hislar bilin tasdiqlanadigan paydo bo'lish, o'lim, harakat va o'zgarishlar kabi holatlarning bo'lishi mumkin emas. Ular to'g'risida fikr yuritish ziddiyatlarga olib keladi. Buni asoslash uchun megarliklar umumiylikni yakka qarama-qarshi qo'yishib, natijada umumiy tushunchaning yakka predmetlarga tegishli joyi yo'q (masalan, Stilpon shunday deydi), degan xulosaga kelishadi¹.

2) Elido-eretriy maktabiga Elidalik Fedon va Eretriylik Mendem aso solishgan. Bu maktab vakillari, xususan, Fedon va Mendem qizg'in bahs yuritish ustalari, notiqlik san'ati muallimlari bo'lishgan. Mendem tarafdorlari "ne'mat aqlda, o'tkir zehnda bo'ladi"², deb o'ylashgan. Megarliklar bilan shuhrat va ne'mat birligi masalasi bo'yicha bir xil qarashga ega bo'lishsa-da, ular ta'limotini yangi fikr-mulohazalar bilan boyitishga muvaffaq bo'lmaganlar.

3) Kiniklar maktabining asoschisi sofistlar ma'ruzalarini tinglagan, keyin esa Sokratga tarafiga o'tgan Antisfen (er.avv.V-asrning ikkinchi yarmi-er.avv.IV-asrning birinchi yarmi) bo'lib, u Platonning aql bilan bilib olinadigan jimsiz "turlar", yoki "g'oyalar" to'g'risidagi ta'limotini keskin rad etadi. Antisfen shogirdlari qatorida Sinoplik Diogen (er.avv.323-yilda vafot etgan) bor. U axloqiy idel konsepsiyasini ilgari surib, uni izchil tarzda himoya qilgani bilan mashhur. Sinoplik Diogen ta'limoti va amalga oshirgan ishlari Fivlik Krates va uning ayoli Gipparxiyallarni o'ziga rom qilgan. Kiniklar etikasi eramizgacha bo'lgan III-asrda ham o'z kuchini namoyish qilib turgan. Keyinchalik kiniklar maktabi stoicism bilan qo'shib ketgan va eramizning dastlabki ikki asrida o'zining bir qancha yorqin vakillarini yetishtirib chiqargan.

Antisfen va uning izdoshlari nazariy qarashlari asosini umumiyning realligini inkor etish tashkil etgan. Ular fikricha, faqat yakka predmetlar mavjud. Tushuncha predmetning nima ekanligini, qanday mavjudligini tushuntiradi, xolos. Ana shuning uchun ham umumiy tushunchalarni predmetlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Zero, turli tushunchalarni mulohaza takibida birlashtirib ham, tushunchalarning o'zini ta'riflab ham bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, ziddiyatni ham aniqlab bo'lmaydi, chunki, har bir narsa to'g'risida faqat ot otdir, stol stoldir qabilidagi aynanlik mulohazalarini bildirish mumkin. Platonning aql bilan bilib

¹ Bu haqida to'laroq ma'lumot olish uchun qarang: Чапышев А.Н. Курс лекций по древней и средневековой философии.-М.:Высшая школа,1991-S.62-70

² Xrestomatiya po ellinisticheskoy rimskoy filosofii.-Sverdlovsk,1987-S.8

olinadigan “turlar” haqidagi ta’limoti xato, chunki, umuman “tur”, yoki “g’oya”ni emas, faqat yakka predmetlarnigina idrok qilsa bo’ladi.

Kiniklar etikasiga muvofiq, donolik inson qudrati yetmaydigan *nazariy bilim*ga ega bo’lishda emas, balki *ne’mat*ni tushunishdadir. Haqiqiy ne’mat har bir yakka shaxs mulki bo’lishi mumkin, fazilatli, shavkatli hayotning maqsadi boylik ham, sog’liq ham, va hatto, hayotning o’zi ham bo’lishi mumkin emas (bu ne’matlar inson qo’li ostida emas); u insonni qaram qilib qo’yadigan narsalardan, xususan, mulk, lazzat, odamlar orasida qabul qilingan sun’iy va shartli tushunchalardan voz kechishga tayanadigan *osoyishtalik*dir. Kiniklar boylikdan nafratlanishgan. Ulaning ta’kidlashicha, kambag’allar o’z qashshoqligidan uyalmasligi kerak¹ Kiniklardagi axloq asketizm, haddan tashqari oddiylik, kamtarona hayot kechirish bilan bevosita bog’liq ehtiyojlardan boshqa har qanday talab va ehtiyojlarga nafrat bilan qarash, barcha shartlanganlik, taqozalanganliklar, diniy tasavvurlar ustidan kulish, erkinlikning tabiiyligi va shaxsiy ekanligini targ’ib qilish ne’mat haqidagi tasavvurga borib taqaladi.

4) Kiren maktabiga afrikadadagi Kirendan chiqqan Aristipp asmos solgan. Uning ishini Antipatr, Feodor, Gegesiy va Annikerid(er.avv. 320-280yy.)lar davom ettirishgan. Ular asoslagan fikr: bilim predmeti- amalda erishib bo’ladigan ne’mat. Aristipp fikricha, bilsh quroli faqat hissiyotimiz ekan va sezgilarimizda predmet xossalarini emas, balki o’zimizning sof individual holatimiz ifodalanar ekan, ne’mat mezoni qilib his-tuyg’ularimizda kechayotgan lazzatlanish yoki azoblanishni olish mumkin. Lazzat *befarq osoyishtalik* emas; u o’tmish yoki kelajakdagi emas, balki bugungi kun voqyealaridan qoniqish hosil qilishdan iborat. Faqat alohida olingan, hozirgi lahzani to’ldiradigan qoniqish hissigena intilishimiz lozim predmet bo’lishi kerak. Na o’tmish, na kelajak bizga tegishli bo’lmagani uchun, afsuslanish ham, kelajakka umid bog’lash ham, kelajakdan qo’rqish ham ma’noga ega emas. Hayotdan maqsad – bugungi kundan lazzatlanish. Mumkin bo’lgan lazzatlardan yaxshirog’i his-tuyg’ulardir, chunki ular eng kuchlisidir. Biroq baxt-saodatga erishish vositasi erkinlik bo’lib, faqat u erishib bo’lmaydigan yoki erishganda ham azob-uqubat sababi bo’lishi mumkin narsalardan voz kechishga imkon beradigan kuch hisoblanadi. Shuning uchun faylasuf, agar sharoit imkoniyat bersa, undan foydalanishga, imkoniyat bermasa, osongina, qayg’urmasdan undan voz kechishga tayyor turishi lozim. Aristipp ta’ldimotidan Feodor keltirib chiqargan xulosa xudolarni rad etish va donishmandlar uchun axloqiy normalar zarur emasligini ta’kidlash bo’ldi. Aristippdan farqli o’laroq, Feodor faoliyat yuritishning maqsadini yakka qoniqishlardan lazzatlanishda emas, balki alohida-alohida olingan ne’matlardan

¹ Qarang: Чанышев А.Н. Курс лекций по древней и средневековой философии.-М.: Высшшaya shkola, 1991-S.95

yuqori turadigan va unga intilgan kishidan talab qilinadigan oqillik, mulohazalilikda deb bildi. Uningcha, “Oliy darajadagi quvonch – bilish quvonchi”¹.

Feodorning donolik to’g’risidagi fikri ham o’ziga xos: “Haqiqiy donishmand do’stlikdan yuqori turadi (o’z-o’ziga yetarli), axmoqlar foyda ko’rishni nazarda tutib do’stlashadi (foйда ko’rishmasa – do’stlik ham yo’q)”; donolik qonunlardan ham yuqori turadi, chunki ular aqlsiz axmoqlarni, olomni kishanda ushlab turadi”²

Takrorlash uchun savollar

1. Sofistika shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari qanday edi?
2. Nima uchun sofimstlarni Aristotel qalbaki donishmandlar deb atagan?
3. Protagor relyativizmining mohiyati nimada?
4. Protagorning “Inson - barcha narsalarning mezoni” tezi mohiyati nimada?
5. Gorgiy relyativizmi Protagor relyativizmidan nimasi bilan farq qiladi?
6. Gippiy, “Qonunlar - inson uchun tiran”, degan fikrini qanday tushuntirgan?
7. Prodik falsafaning qanday masalalari bilan shug’ullangan?
8. Antifont qulchilikni qanday tushuntirgan?
9. Kichik sofistlar to’g’risida nimalarni bilasiz?
10. Sokratning hayoti haqida nimalarni bilasiz?
11. Aristotelning, “Sokrat xizmatlarini ikkita narsada: induktiv mulohaza yuritish va tushunchalarni hosil qilishda deb aytishi mumkin”, degan fikrini qanday talqin qilish mumkin?
12. Sokrat dialektikasining mohiyati nimada?
13. Nima uchun Sokrat o’z metodini Mayevtika deb atagan?
14. Sokrat ustidan bo’lgan sud to’g’risida nimalarni bilasiz?
15. Sokrat maktablari haqida nimalarni bilasiz?

¹ Chanshev A.N. Kurs leksiy po drevney i srednevekovoy filosofii.-M.:Vysshaya shkola,1991-S.71

² Chanshev A.N. Kurs leksiy po drevney i srednevekovoy filosofii.-M.:Vysshaya shkola,1991-S.71

8-MAVZU: MUMTOZ YUNON FALSAFASI. LEVKIPP –DEMOKRITNING ATOMISTIK TA'LIMOTI

Atomistik ta'limot antik falsafaning yetuk rivojlangan davrida vujudga kelgan. Uning asoschilari Levkipp va Demokritdir.

Levkipp (er.avv. 500-440) ning hayoti va asarlari to'g'risida ma'lumotlar kam. Tug'ilgan joyning Abder, Milet, Eley deb taxmin qilishadi. Ba'zilar Levkippning bor ekanligiga shubha qilishadi. Xususan, Epikur "hyech qanday faylasuf Levkipp bo'lgan emas", deb aytadi. Ana shunga asoslangan bo'lsa kerak, XIX asrda Ervin Rode "Levkipp masalasi" degan kitobida Levkippning mavjud bo'lganligini inkor etadi. A.O. Makovelskiy fikricha Epikur faylasuflar to'g'risida hazillar aytishni yaxshi ko'rgan, u Levkippni noborliqni tan olgani uchun, o'zini ham mavjud emas deb hisoblashgan¹. Diogenning "Levkipp hayoti" asaridan malumki, u Zenon shogirdi bo'lgan. Buni Abderalik Demokritga tegishli deb hisoblashgan "Buyuk Diakosmos" asari aslida Levkipp qalamiga mansubdir, Bernet bu traktatning ba'zi qismi Demokritga, ba'zi qismi Gippokritga tegishli ekanligini va ularni bir-birlaridan farq qilishing umuman iloji yo'q ekanligini qayd etib, ayni haqiqatni aytgan. Bu asar atomistik maktab vakillarining jamoaviy mehnati bo'lsa kerakki, aslida biz kim qaysi qismni yozganligin bila olmaymiz².

"Aql to'g'risida" ("Katta dunyo qurilishi") asarini ba'zilar Levkippga, boshqalar Demokritga tegishli deb aytishadi. Levkipp va Demokritning ta'limotlarini ajratishda ham tadqiqotchilar qiynalishadi. Aristotel "Levkipp va Demokrit bitta ta'limot yaratishgan"³, deb ta'kidlaydi.

A.N. Chanyshev fikricha, "Katta dunyo qurilishi" borliq masalalariga taalluqli bo'lib, u Levkipp va Demokrit qarashlarini aks ettiradi, "Kichik dunyo qurilishi" inson masalasiga bag'ishlangan bo'lib, u asosan Demokrit qarashlarini ifoda etadi degan fikrdan kelib chiqib, ularning ta'limotlarini bir – biridan chegaralashga harakat qiladi"⁴.

Ayni paytda ular yashagan davrlar va o'rgangan masalalari farqlanadi. Xususan, Levkipp Sokratgacha bo'lgan faylasuflar qatoriga kiradi. U atomlar, kosmologiya, kosmogoniya asoslari bilan qiziqqan, asosiy e'tiborini dunyoning tuzilishi masalasiga qaratgan. Demokrit esa Sokratdan katta, u Aristotel fikricha "barcha narsalar haqida mulohaza yuritgan" xususan bilish, axloq, siyosat, tarbiya va boshqa masalalari bilan shug'ullangan.

¹ Qarang: Chanyshev A.N. Kurs leksiy po derevney filosofii.,M.:Vysshaya shkola,1981.-S.180

² Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.72

³ Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.322

⁴ Chanshev A.N. Kurs leksiy po derevney filosofii.,M.:Vysshaya shkola,1981.-S.182

Shuning uchun biz atomistik falsafani ko'rib chiqqanimizda qaysi nazariya Levkippga yoki Demokritga tegishli ekanligini aniq ayta olmaymiz. Ammo Demokrit ancha keyinroq yashagan. Biz bunda uning Protagorga hissiy tasavvur qilish haqidagi masala bo'yicha bergan javobiga asoslangan doktrinasi va uning inson xulq-atvori to'g'risidagi nazariyasi mazmuniga asos sifatida tayanamiz. Demokrit atomistik nazariyasini o'rganayotgan olimlar, uning keyinroq yashab ijod etganligin hisobga olib, Bernet fikriga qo'shiladilar.

Lekin shu narsa aniqki, *Demokrit* (er.aa. 460-470 yillarda tug'ilgan deb taxmin qilinadi) Abder shahrida dunyoga kelgan. Bu davrda Abderda sofist Protagor, naturalist va shifokor Gippokratlar yashagan. Alloma Babil, Fors davlati, Hindiston va Misrga sayohat qilgan, olimlar, magiya bilan shug'ullanuvchilarga shogird bo'lib tushgan. Demokrit V asr oxiri IV asr boshida vafot etgan.

Demokrit hayoti to'g'risida bir qancha yarim afsonaviy rivoyatlar saqlangan. Xususan, taniqli zotdan bo'lib, katta merosga ega bo'lib qolgan Demokrit barcha boyligini ilmiy safarlarga sarflaydi. Bu davrda Abderda otadan qolgan merosni bemahsul ishlarga sarf qilish jinoyat hisoblanardi va shuning uchun ham Demokritning faoliyati bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atiladi. Lekin Demokrit ilmiy safarlarda yiqqan bilimlariga suyanib yozgan asarlarini o'qib beradi va jazodan qutilib qoladi.

Bu o'rinda ta'kidlash joizki, atomistik nazariya asoslarini yaratish ishi ko'proq Demokrit hissasiga to'g'ri keladi.

Atomistik ta'limot eyleliklar qo'ygan masala: borliq paydo bo'lishi ham yo'q bo'lishi ham mumkin emasmi? degan savolning o'ziga xos yechimi edi. Ayni paytda Levkipp va Demokritlar eyleliklarning ko'plik (to'plam)ni, harakatni fikralab bo'lmaydi, degan xulosasini inkor etadilar. Aniqroq aytadigan bo'lsak, atomistik falsafa o'zining ma'no-mazmuniga ko'ra Empedokl falsafasining davomi hisoblanadi. Empedokl Parmenid prinsipini muvofiqlashtirishga harakat qildi. Xususan, u olam to'rt xil elementning har xil miqdorda qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan deb hisoblaydi. Ammo u zarrachalar haqidagi nazariyani va miqdor o'zgarishdan sifat o'zgarishga o'tish haqidagi mantiqiy nazariyani oxirigacha izchil tarzda qo'llay olmadi. Empedokl falsafasi o'tish davrini tashkil etib, sifat o'zgarishlari moddiy narsalarining mexanik aralashuvidan yuzaga kelgan, degan qarashlar tizimiga yo'l ochib berdi. Undan tashqari, Empedoklda muhabbat va kurash haqidagi qarashlar metafora bo'lib, dunyoni mexanik tarzda tushunishga yaroqsiz edi. Olamni tushunish uchun yetishmayotgan oxirgi bo'g'inni atomistlar yaratishdi. Bu bo'g'in atomistik g'oyadan iborat edi.

Levkipp va Demokrit fikricha, borliqda bo'linmaydigan va cheksiz zarrachalar bor bo'lib, ular atomlardir. Biz ularni ko'rmaymiz, ular hissiy organlarimiz tamonidan idrok etilishi uchun juda ham kichiklik qiladi¹.

Levkipp va Demokritning fizikaviy va falsafiy qarashlarining asosini jismlarning bo'linmas zarrachalarining mavjudligi to'g'risidagi farazlari tashkil etadi. Bunday son-sanoqsiz zarrchalarni, ya'ni atomlarni (atomos- bo'linmas, qismlarga kesilmaydigan) mutloq zich va havosiz bo'lgani uchun bo'linmaydigan zarrachalar deb hisoblashgan. Havo atomlar hosil qiladigan jismlarda bo'ladi va ular ana shu havoda harakatlanishadi. Atomlar bir biridan 1) shakli, ya'ni tashqi ko'rinishi; 2) o'lchamlari; 3) holati va 4) tartibi bilan farq qilinadi². Bo'shliqdagi harakati jarayonida atomlarning ba'zilari bir-birining ustidan sakrab o'tib ketishadi, boshqa bir xillari tarqalishib, o'ralishib ketishadi, (shakli mos kelganda) va murakkab jismlarni paydo qilishadi. Levkipp va Demokritlar fikricha borliqda atomlarning faqat sonigina emas, balki ko'rinishlari, shakllari ham cheksizdir. Lekin ular (shakllar) ko'rinmaydi, his etilmaydi. Simplisiyning habar berishicha atom shakllari soni shuning uchun ham cheksizki, ular soni boshqasining sonidan hych qancha ko'p emas.

Levkipp va Demokritlar atomlar harakati sababi to'g'risidagi masalani qo'yishmagan. Buning sababi shundaki, ular harakat atomga avval boshidanoq hos bo'lgan xususiyat, deb hisoblashgan.

Atomistik ta'limot kundalik tajribadagi hodisaga tayanadi, va uni umumlashtirish asosida paydo bo'lgan. Bu hodisa qattiq jismning qisilishidan iborat. Teofrast bergan ma'lumot bo'yicha, Levkipp va Demokritlar shunday fikr yuritishgan: agar atomlar oraliq'ida havo bo'lmaganda, jismning hajmi qisqarmagan bo'lar edi. Demak, jismning qattiqligi yoki yumshoqligiga uning zichligi va siyraligi mos keladi, degan xulosaga kelganlar.

Atomlar barcha yo'nalishlarda harakat qilishadi. Ana shuning uchun har ular borliqda muayyan tartibni hosil qilishi ham, yoki tartibsiz, xatotik harakatda bo'lishi ham mumkin (masalan, quyosh nuri derazadan o'tganda mayda zarrachalar chang ichida harakatlanayotgandek bo'lib ko'rinadi).

Levkipp va Demokritning fikricha atomlar har xil kattalikda bo'lishi, ko'zga ko'rinmaydigan eng mayda zarracha va katta xajmdagi zarracha ko'rinishida bo'lishi mumkin. Aristotel fikricha, Demokrit cheksiz katta miqdordagi mohiyatni – bo'sh fazoni mavjud deb hisoblagan. Lekin bundan xuddi shunday kattalik, o'lchamdagi atom ham bo'ladi, degan xulosa chiqarmagan.

¹ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.73-76

² Qarang:Antologiya mirovoy filosofii.T.1.Ch.-S.324

Demokrita atomni “g’oya” ham deb atagan, lekin uni jisimli shakl, jisimli “g’oya”, deb hisoblagan (Platonda “g’oya”- jisimsiz shakl). Atom jisimli g’oya bo’lsa, u qanday moddiy sifatlarga ega, degan savol paydo bo’ladi. Bunga Demokrit atomlar his etiladigan sifatlarga - hid, rang, tovush, harorat kabilarga ega emas, ular faqat fazodagi shakli, o’lchami, holati, tartibi bo’yicha farqlanadi, bu sifatlarda esa his etilmaydi, deb javob beradi. Sekst Empirik Demokritning quyidagi so’zlarini keltiradi: “Shirin, achchiq, issiq, sovuq va boshqalar faqat fikrda mavjud, borliqda esa faqat atomlar va bo’shliq mavjud, xolos”¹.

Shuni ham etiborga olish kerakki, atomistik ta’limot vaqtining cheksizligi to’g’risidagi fikr bilan birga rivojlandi. Moddiy boshlang’ich asos va vaqtning abadiyligidan atomistlar tabiatdagi barcha predmetlar va hodisalarning zaruriyligini keltirib chiqarishadi. Aesiy bergan ma’lumotga ko’ra, Demokrit (balki Levkip) hech bir narsa sababsiz paydo bo’lmaydi, biroq barcha narsalar qandaydir asos va zaruriyatga ko’ra vujudga keladi, deb ta’kidlaydi. Demokrit fikriga ko’ra, zaruriyat fizikaviy ma’noga ega, u -“materiyaning qarshiligi, harakati va zarbasi”. U “girdob”ni barcha narsalarning sababi deb biladi. Dunyodagi hamma hodisalar zaruriyatga bo’yunadi. Olamda sababsiz paydo bo’ladigan hech narsa yo’q va demak, tasodif yo’q. Demokrit fikricha, odamlar o’zining mulohaza yurita bilmasliklarini yashirish uchun tasodifni o’ylab topishgan.

Simpleks Demokritning tasodif to’g’risidagi mulohazalarini quyidagi misolda tushuntiradi: kal bosh chol ekin maydoni bo’ylab yurib ketayotganda, uning boshiga toshbaqa tushib ketadi va kalla suyagini sindiradi. Sodir bo’lgan hol, go’yoki tasodifdek. Lekin aslida unday emas, u zaruriydir; chunki burgut uning boshini tosh deb o’ylab, toshbaqani tashlab yuboradi (toshbaqa toshga urilganda kosachalari sinib, go’shti ajraladi, burgut uni yeyish uchun shunday qiladi). Bu - zaruriyat.

Demokrit tasodifni maqsadga muvofiqlikka qarama- qarshi qo’yib tushuntiradi. Uning fikricha, har bir narsa to’g’risida u nima sababdan paydo bo’ldi, uning sababi nima, deb savol qo’yish kerak. Bunda qanday maqsadga ko’ra paydo bo’ldi, deb savol qo’yish o’rinli emas. Demak, Demokrit tasodifni sababsiz narsa deb emas, maqsadga muvofiqlikning inkori deb tushuntiradi. Demokrit yozadi : “Bo’shliq va atomlar – materiyadir, yoki narsalar sababidir”². Materiyaning tuzilishi manzarasini tavsiflar ekan, Demokrit avvalgi falsafada ilgari surilgan (Meliss shakllantirgan va Anaksagor takrorlagan) borliqning

¹ Antologiya mirovovoy filosofii.T.1.Ch.-S.330

² O’sha joyda-B.322

saqlanishi prinsipidan kelib chiqadi : “h hech bir narsa hech nimadan paydo bo’lmaydi”¹

Atomizmning yangiligi quyidagi ikki narsada: 1) borliqning cheksizligi va 2) cheksiz dunyoviy fazoda bir vaqtda yonma-yon yashayotgan dunyolarning ko’pligi haqidagi g’oyalarning asoslanishidadir. Levkipp va Demokritning dunyoning cheksizligi to’g’risidagi qarashlari bo’sh fazoning cheksizligi va atomlarning cheksiz miqdorda ekanligidan kelib chiqadi.

Dunyolar sonining cheksizligini ular quyidagicha tushuntirishadi: chegarasizlikdan ajralgan holda shakliga ko’ra turli xil jismlar “buyuk bo’shliqda” harakatlana borib, birgalikda yagona girdobni keltirib chiqaradi va jismlar unda bir-biriga urilib, parchalanib, aylanib, o’xshashlari o’zaro qo’shib, kattalashib, muqim aylanadigan jismlar shakliga kiradi. Bunda yupqa, nozik qismlar tepaga chiqishadi, og’irlari markazda bo’lgan sharsimon birikmalar hosil qilishadi. Shu tariqa, Yer paydo bo’ladi. Uyirmali harakat davomida Yer yuqori qobig’idan ajralgan zarrachalar muayyan ko’rinishga ega jismlarni - osmon yoritgichlarini keltirib chiqarishadi. Yerga eng yaqin aylana - Oy, eng uzoq turgan aylana – Quyosh. Bular faqat bir dunyoni paydo qilishadi, qolgan dunyolar ham shu tariqa yuzaga chiqishadi.

Atom to’g’risidagi ta’limotini Demokrit matematika sohasiga yoydi. U matematik jismlarni (shar, konus, piramida) xuddi atomlar bir- biridan bo’shliqda ajralib turgani kabi, bir-biriga yopishgan tekstilklardan tashkil topgan, deb tushuntiradi. Masalan, konus uning asosiga nisbatan ko’p miqdordagi parallel aylanalardan tashkil topib, ularning radiusi konus yuqori nuqtasi tomon kichrayib boradi. Ular shunchalik ingichkaki, sezgi organlari bilan his etib bo’lmaydi.

Atomistik nazariyaga ko’ra jismlarning bo’linishi cheksiz davom etmaydi, uning chegarasi bor, bu atomdir. Bu fikri bilan Demokrit Zenon aporiyasidagi ziddiyatni bartaraf etadi.

Stereometriyada asosiy atomar element deb Demokrit piramidani hisoblaydi. Barcha jismlar piramidalarga ajralishi mumkin.

Levkipp va Demokrit irrasional munosabatlarni inkor qilishadi. Barcha matematik predmetlar: jismlar, yuzalar, chiziqlar atomlardir, ya’ni bo’linmas butun elementlardir. Ana shuning uchun ham irrasional munosabatlarning bo’lishi mumkin emas.

Atomistlar hissiy va aqliy bilishni farq qiladilar. Atomlarni faqat hissiyot asosida bilib bo’lmaydi. Buning uchun hissiyot aql tomonidan chuqurlashtirilishi, to’ldirilishi zarur. Demak, xissiyot va aql qarama- qarshi emas, o’zaro aloqadadir.

¹ Qarang: Vis B.B. Demokrit.—M.:Mysl,1979-S.55

Aristotel fikricha, “Demokrit aqlni haqiqatni biladigan kuch deb hisoblamaydi; uni jon bilan almashtirib yuboradi”¹. Uningcha, Irrasional munosabatlar faqat hissiy bilishgagina xosdir.

Demokrit fikricha, bilishning ikki turi mavjud: xaqiqiy va qorong’i. Qorong’isi- bu ko’rish, eshitish, ta’m, badan va hid sezgilari.

Demokritning mantiqiy fikrlari “Kanon”larda (kanon – “mezon”, “qoida”) ifoda etilgan. Unda bilishning uch mezoni farqlanadi: 1) hisiy bilishga, 2) tafakkur, 3) hohlangan va hohlanmaganlar (uning yordamida predmetga yaqinlashamiz yoki uzoqlashamiz)ga oid mezonlar.

Jon va nafas mexanik muvozanatda bo’ladi, hayot ana shunga asoslanadi. Hayotning maqsadi- ruhning, jonning yaxshi o’rnashib olishi.

Demokrit, bir tomondan, xudolar to’g’risidagi tasavvurlaprga qarshi chiqadi, ikkinchi tomondan, ularning mavjudligini tan oladi. Uning fikricha, havo - barcha olovli atomlar makoni. Havo faqat joylashadigan o’rin emas, u hayot uchun nafas olish va nafas chiqarish uchun zarur. Havo olovli dumaloq atomlarning uyirmali harakatidan hosil bo’ladigan obrazlar bilan to’lib-toshgan. Ular xudolar bo’lib, mustaqil, uzoq vaqt yashaydigan, parchalanmaydigan xususiyatlarga ega. Ular odamga o’xshamaydi. Xudolarning ba’zilari yaxshilikni keltiradi, boshqalari yomonlikni. O’z ovozlari, ko’rinishlari bilan xudolar odamlarni ularning kelajagi to’g’risida ogohlantiradi.

Demokrit madaniyatga rivojlanish maqomini beradi. Madaniyat -tabiat rivojlanishi davomi. San’at–tabiatga taqlid qilish demakdir. Poetik (ijodiy) san’at uchun “ilhom”- “aqlsizlik” manbi.

Demokrit etikasining aksiomasi va asosini ozod grek jamiyatidan ajralgan individ emas, balki shahar–davlat fuqarosidir, degan fikr tashkil etadi. Yaxshi boshqariladigan davlat - bu yaxlit saqlanib turuvchi davlat, u buyuk tayanch. Shuning uchun ham davlat manfaatlari yakka kishilar manfaatlaridan yuqori turadi. Demokratik polisdagi kambag’allik monarxiyadagi boylikdan afzal. Bu haqida Demokrit yozadi: “Erkinlik qullikdan qanchalik yaxshi bo’lsa, demokratik davlatda kambag’allik monarxiyadagi baxtli hayotdan shunchalik afzal”². Lekin demokratiya hamma vaqt ham yaxshi hayotni kafolatlamaydi. Na sanatga, na donishmandlikka ularni o’rganmasdan turib, erishib bo’lmaydi. Donishmandlik uch narsani keltiradi: yaxshi fikrlash, yaxshi gapirish, yaxshi amallar qilish.

Xulq atvor- aql bilan bog’liq, u bilan belgilanadi. E’tiborga eng loyiq narsa – extirosga berilmaslik, vazminlikdir. Dono odam, agar u ana shunga loyiq ilmga ega bo’lsa, yovuzlikdan ham ezgulikni ajrata oladi. Misol: chuqur havza

¹ Antologiya mirovoy filosofii. T.1. Ch.-B..332

² Чапышев А.Н. Курс лекций по древней философии., М.: Высшая школа, 1991.-.B.5

ko'p munosabatda foydali, lekin unda cho'kib ketish xavfi bor, ya'ni u ziyon. Ayni paytda undan (zarardan) qutilish vositasi bor, bu - suzishga o'rganish.

Bilim – “ruhning yaxshi o'rnashishiga” xalaqit beradigan narsalarni bartaraf etuvchi vosita.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Levkipp, va ayniqsa Demokrit qarashlarining o'zagini atomistik g'oya tashkil etsa-da va u Qadimgi grek falsafasining buyuk yutug'i hamda atomizm rivojining poydevori bo'lsa-da, ularning falsafasi muammolari doirasi nihoyatda keng. Buni ularning jamiyat va inson, jon va bilish masalalarini muhokama qilishi ko'rsatadi. Ayniqsa Demokritning mantiq masalalarini muhokama etishi e'tiborga loyiqdir. Xususan, “Kanon”ni yaratishi bilan falsafa tarixida mantiq kanonmi yoki organonmi? ya'ni, mavjud bo'lgan bilimlarning chinligini aniqlaydigan mezonlarni ishlab chiqadigan fanmi yoki to'g'ri fikrlash, chin bilimlar hosil qilishning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalarini o'rganuvchi ilmdan iborat bo'lishi kerakmi, degan bahs-munozarani boshlab berdi. Buning ilmiy ahamiyatini mutafakkir atomizmi bilan qiyos qilish mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Levkipp hayoti va asarlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Demokrit hayoti qanday kechgan?
3. Levkipp va Demokritlar atomni qanday xususiyatlarga ega deyishgan?
4. Atomizmning borliqni tushuntirishdagi yangiligi nimada?
5. Demokrit atomni g'oya deyar ekan, uni qanday tushuntirgan?
6. Demokrit jonni qanday talqin qilgan?
7. Demokritning bilish to'g'risidagi qarashlari qanday?
8. Demokritning mantiq sohasidagi xizmatlari nimada?
9. Demokrit etikasining aksiomasi va asosini nima tashkil etadi?
10. Demokritning matematik atomizmi mohiyati nimada?

9-MAVZU: PLATON FALSAFASI

Dunyoning buyuk mutafakkirlaridan bo'lgan *Platon* er.avv. 427 yilda Afrikadan uncha uzoq bo'lmagan Yeginda Ariston oilasida tug'ilgan. Uni avval Aristokl deb atashgan, gavnali bo'lgani uchun keyinchalik Platon degan nom berishgan deyishadi (Diogen ma'lumoti bo'yicha). Otasi–Ariston avlodi bo'yicha taniqli qonunshunos Solon qarindoshlariga borib taqaladi. Ona urug'i bo'yicha afinaning siyosiy arbobi, keyinchalik “tiran” Kritiyga ham borib tutashadi. Aytishlariga qaraganda, aynan shu Kritiy Platoni Sokrat shogirdlari qatoriga qo'shgan. Platon dastlab badiiy adabiyot, tasviriy san'at, musiqaga qiziqqan. Keyinchalik shu sohada orttirgan tajribalari falsafiy ijodida yordam bergan. Rivoyatlarga qaraganda Platon falsafa bilan shug'ullanishini kech boshlagan. Falsafa bo'yicha dastlabki ustози Kratil bo'lgan (Sokratga qadar). Kratil Geraklit falsafasi davomchisi sifatida tanilgan bo'lib, u olamda abadiy harakat mavjudligini, to'xtovsiz o'zgarishlar sodir bo'lib turishini ta'kidlagan. Geraklitning daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi degan fikrini, hatto bir marta ham tushib bo'lmaydi, degan mulohaza bilan to'ldirgan. Ana shuning uchun ham predmetni aniq bir nom bilan aytib bo'lmaydi: predmet tez o'zgarib, boshqa predmetga aylanib qoladi va demak, avvalgi nomiga mos kelmay qoladi. Platon ustozining bu mulohazasi ustidan istezoli kulib, predmetni nomi bilan atash kerak emas, uni shunchaki qo'l bilan ko'rsatib qo'ya qolish kerak, degan.

Sokrat o'lgan yili (er.avv. 339) Platon Afinadan chiqib ketib, o'n ikki yil chetda yuradi. Bu davrda u Misr, Janubiy Italiya va Sisiliyada bo'ladi. U yerlarda Misr dinlari, grek matematiklari, astranomlari, Yevdoks bilan Fedr, pifagorchilar bilan tanishadi (Arxit so'zlari). Arxit davlat arbobi, olim- matematik, fizik, mexanik bo'lgan. Geometriyachi olim sifatida uni Fasoslik Modam va Afinalik Teetetlar hurmat qilishgan.

IV asr boshida Platon Sisiliyaga o'tadi. U yerda, Dionisiya saroyida “mim” san'ati rivoj topgan edi. Platon o'z dialoglari parsonajlarining individual mahoratini ana shundan o'rgangan bo'lishi mumkin deb taxmin qilinadi. 387 yili, 40 yoshida Platon Afinaga qaytadi. Qahramon Akadem chakalakzor (daraxtzor)ida o'z maktabini tashkil etadi, u Platon Akademiyasi deb nom oladi. Bu Akademiya o'quvchilarining bir qismi ilm bilan shug'ullansa, boshqa bir qismi siyosiy faoliyatga tayyorlanar edi. Akademiyada matematika, keyinchalik falsafa bilan shug'ullanish, ilmiy ishlar olib borish yaxshi yo'lga qo'yilgan edi.

Er.avv.367 yili Dionisiy II hokimiyat tepasiga kelgandan keyin uning maslahatchisi Dion Platoni Sisiliyaga taklif etadi. U yerda Platon o'zining ideal davlat loyahasini amalga oshirishga urinadi. Dion orzu qilgan davlat

monarxiya, aristokratiya, demokratiyaning qorishmasidan iborat edi. Dion Platonchi Kallin tomonidan Sirakuzada qisqa vaqt davomida hokimiyatni boshqarayotganida o'ldirilgan.

Platon tugallangan falsafiy sistemani bayon qiladigan kitob nashr etmagan, uning fikri yangi g'oyalar paydo bo'lishi va oldida turgan muammolarni hal etishi davomida rivojlanib borgan¹. Uning asarlari bizgacha to'la holda yetib kelgan. Ularni 4 guruhga bo'lishadi:

1. Sokratik guruh: "Sokrat analogiyasi", "Yevtifron", "Kriton", "Xormid", "Laxes", "Protagor", "Menon", "Yevtidem", "Gorgiy".
2. "Kratil", "Pir", "Fedon" va "Davlat"ning birinchi kitobi.
3. "Davlat"ning qolgan kitoblari, "Fedr", "Teetet", va "Parmenid"
4. "Sofist" "Siyosatchi", "Fileb", "Timey", "Kritiy" va "Qonunlar".

Ularda borliq, axloq, xuquq, bilish masalalari muhokama etiladi. Dialoglar shaklida yozilgan bu asarlarda diqqat markazida Sokrat, sofistlar, shoirlar, siyosiy arbolar turadi. Ular orqali bildirilgan fikrlarida Platonning falsafiy qarashlari evolyusiyasini, uning g'oyalar to'g'risidagi ta'limotini, dialektikaga oid mulohazalarini payqash qiyin emas.

Platonning "g'oyalar" ("turlar") to'g'risidagi ta'limoti. Platon eleychilar Parmenid va Zenondan haqiqatda mavjud bo'lgan va haqiqiy mavjudligiga ega emaslarini farqlashni o'zlashtiradi. "Timeyda" ta'kidlanishicha, avvalambor, doimo yashaydigan, lekin shakllanmaydigan narsalar bilan doimo shakllanadigan, lekin mavjud emas narsalarni farqlash lozim. Bu bor bo'lish, shakllanish bilan borliq, hodisa bilan mohiyat o'rtasidagi munosabatlardir. Platon bular orasida "go'zallik"ni tadqiq etishga ko'p ahamiyat beradi.

Platonning teleologiyasi—maqsadga muvofiqlik to'g'risidagi ta'limoti uning teologiyasi—ilohiyot haqidagi ta'limoti bilan uzviy bog'liq. "Bazm", "Parmenid", "Fedr" asarlarida g'oyalarni to'liq bila olmaymiz, xudolarni esa, aql bilan bilib bo'ladi degan fikrlar ilgari suriladi. Shuningdek, ilohiy aql ilohiy hayotning mavjudligini taqozo etadi, xudo nafaqat tirik, balki mukammal ne'mat hamdir, u ezgulikning, ne'matning o'zi, olamda barcha narsa yaxshi bo'lishi uchun xudo ularni o'ziga o'xshatib mukammal qilib yaratadi, degan mulohazalar bildiriladi.

Platon ne'matni, baxt-saodatni bilishni hohlab, inson xudoni bilishga intiladi: ne'matlarga ega bo'lish uchun u xudoning mohiyatiga daxldor bo'lishga harakat qiladi, deydi. Uningcha, xudo barcha narsalarning ibtidosi ham, o'rtasi ham, oxiri hamdir. U shuning uchun ham ibtidoki, undan barcha narsa kelib

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.127-128

chiqadi; u shuning uchun ham o'rtaki, barcha narsalarning mohiyatini tashkil etadi; u shuning uchun ham oxiri, nihoyasiki, barcha narsalar unga qarab intiladi.

Platon ma'lum ma'noda ne'matni aql bilan aynanlashtiradi. Aqllilik maqsadga muvofiqlikda zohir bo'lgani uchun, Platon uni maqsadga muvofiqlik bilan yaqinlashtiradi. Maqsadga muvofiqlik, Platon fikricha, buyumning o'z g'oyasiga muvofiq kelishidir, bundan buyumning "yaxshiligi"ning nima ekanligini bilish mumkin. Bu buyumning "g'oyasi"ni tushunib yetish demakdir. O'z navbatida, "g'oyani" bilish demak, barcha hissiy qabul qilinadigan va sababiy bog'lanishda bo'lgan narsalarni ularning g'ayri hissiy va maqsadi birligiga keltirishdan iborat. Masalan, nima uchun Yer sharsimon (yoki tekis), u olamning markazidami yoki undan sirtdami, kabi savollarga javob berish uchun, uning u yoki bu xossasining aqliy asosini ko'rsatish zarur. Dunyoni tushuntirish vazifasi, bu nuqtai nazardan qaraganda, barcha juz'iy, xususiy qonunlarni (dunyoda amal qiladigan qonunlarni) yagona umumiy asosga keltirish va undan keyin shu umumiy asosdan barcha xususiy qonunlarni keltirib chiqarishdan iborat.

Platon inson uchun ne'matlarning ichida eng oliysi deb baxtni tushunadi. "Yevtidem" dialogida Kliniy bilan bo'lgan suhbatida Sokrat ne'matlarni sanab chiqar ekan, eng asosiysini unutilganini eslatib, bu- "Baxt, do'stim Kliniy. Axir barcha odamlar, hatto nodonlar ham eng buyuk ne'mat – ana shu"¹, deydi. Baxtning tavsifini esa "Fileb" asarida beradi. Bu yerda oliy insoniy baxtning shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: 1) "G'oya"ning abadiy, mangu tabiatida ishtirok etish; 2) "G'oya"ning borliqda g'aydalinishi; 3) aqlning mavjudligi va bilimga egalik qilish, shuningdek, to'g'ri fikrga ega bo'lish; 4) Bazi fanlar, sanat turlarini egallash 5) sof hissiy lazzatning ba'zi turlaridan, masalan, kuyning toza toni (jarangi) dan yoki tasvirdagi rangdan baxramand bo'lish (Fileb). Go'zallik o'zgarmas, hissiy idrok etiladigan narsalar o'zgaruvchidir. Go'zallik yagona, hissiy idrok etiladigan jismlar ko'p. Go'zallik muqarrar va nisbatsiz, hissiy idrok etiladigan narsalar doimo u yoki bu shart bilan bog'langan.

"G'oya"lar va hissiz qabullanadigan dunyo. Mavjud xaqiqiy borliqqa noborliq qarama qarshi turadi. Lekin "g'oyalar" va materiya teng xuquqli va teng kuchli boshlang'ich asoslar emas. G'oyalar dunyosi birlamchi. Ayni paytda, Platon noborliqning ham zaruriy tarzda mavjudligini ta'kidlaydi. Noborliq kategoriyasi borliq kategoriyasidan keyin keladi. Materiya noborliq sifatida mavjud bo'lishi uchun (u predmet va hodisalarning fazoda mavjud bo'lish priksipi) fazosiz g'ayriy tabiiy "g'oya"larning (uning yaxlitligi, bo'linmasligi, birligi aql bilan anglanadi) bo'lishi zarur.

¹ Platon. *Sobr. soch.* V 4-x tt. T.-M.: Mysl, 1990-S1671

Hissiy idrok etiladigan dunyo borliq ham, noborliq ham emas, u ularning oralig'idagi narsa. G'oyalar sohasi bilan narsalar sohasi o'rtasida "dunyoning joni" bor. G'oyalar dunyosi faol asos, erkaklik bo'lsa, materiya, passiv asos, ayollik, hissiy idrok qilinadigan dunyo; ularning o'rtasida mavjud bo'lganlar bolalardir.

Har bir hissiy idrok qilinuvchi buyum ham g'oyaga, ham materiyaga daxldor. G'oyaga aloqadorligi shundaki, uning borlig'i bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlari—manguligi, o'zgarmasligi, aynanligi g'oya bilan belgilanadi. U materiyaga shuning uchun aloqadorki, bir qancha xususiyatlari: cheksiz bo'linuvchanligi, "oziqlantiruvchi"ligi va buyumlarning alohida mavjudligi noborliq tomonidan belgilanadi.

Hissiy idrok etiladigan narsalar dunyosi - bu shakllanish, kelib chiqish, bor bo'lish sohasidir. Bu dunyo - qarama-qarshiliklar bo'lmish borliq va noborliqning, o'zgaruvchanlik va o'zgarmaslikning, harakatsizlik va harakatning, yakkalik va ko'plikning birligi. Keyinchalik Gegel bu fikrni rivojlantirib, borliq va noborliq (hyech nima) dialektikasi shakllanishga olib keladi, deydi.

G'oyalarning turlari masalasi bo'yicha Platon fikrlari aniq bayon qilingan emas. Ba'zi tadqiqotchilar uning buyumlar, narsalar g'oyalari va xossalari va munosabatlar g'oyalari farq qilganini aytishadi. Uning turli asarlarida bildirgan fikrlari tahlili g'oyalarni quyidagicha turkumlash mumkinligini bildiradi. G'oyalar bir jinsli emas, ular muayyan iyererarxiyani, ya'ni yuqoridan quyiga qarab bo'lgan ketma-ketlikni hosil qilishadi. Ular quyidagi sohalarga oid:

Oliy ne'matlar, qadriyatlar g'oyalari (baxt- saodat, xaqiqat, go'zallik, adolat g'oyalari), ular mutloq sifatlar g'oyalari.

Fizikaviy hodisalar va jarayonlar g'oyalari (masalan, "olov", "sokinlik", "harakat", "rang", "tovush").

Mavjudotlar turlariga tegishli g'oyalar ("hayvon", "inson" g'oyalari);

Inson qo'li, uning hunari, san'ati bilan yaratiladigan narsalar g'oyalari (masalan, "stol", "krovat").

Munosabatlar g'oyalari (bu shuning uchun ham mavjudki, tenglik munosabatini aniqlash shu munosabat g'oyasining bo'lishini taqozo etadi).

G'oyalar tushunchalar sifatida. Platonda "g'oyani" g'oya qiladigan narsa - bu uning: 1) sabab, ya'ni borliqning, uning xususiyatlari va munosabatlarining manbai; 2) yaratuvchining unga qarab narsalar dunyosini yaratishi; 3) barcha mavjud narsalar unga qarab intiladigan oliy ne'mat, maqsad ekanligidir.

Platonning g'oyalar to'g'risidagi ta'limotining yana bir muhim jihati - g'oyaning borliqqa mos keladigan tushuncha, fikr sifatida mavjud bo'lishi to'g'risidagi mulohazasi bor. Bu ma'noda Platon "g'oyasi"- umumiy, jins

tushuncha, fikr qilinayotgan predmetning mohiyati to'g'risidagi tushuncha. Platon tushunchalarni jins va turlarga ajratilgan va jins tushunchalar xajmlarini tur tushunchalarga bo'lib aniqlash zarurligini uqtiradi. Bu usulni Platon *dialektika* deb ataydi. Platon dialektikasi- bu predmetlarni (predmetlar to'g'risidagi tushunchalarni) jinslarga, jins ichida esa, uning turlarga bo'linishini aniqlash san'ati ("Sofist" 953 D-Ye)¹.

Shuningdek, Platon dialektikani mavjudot haqidagi fan deb ham ataydi. Dialektika, Platon fikricha, faqat mohiyatlar soyasini emas, balki mohiyatlarning o'zini ham mushohada qilishdan iborat.

Platon dialektikasi ikki tomonlama metod: 1) gipoteza orqali g'oyaga, ya'ni boshlang'ich asosga ko'tarilish; 2) boshlang'ich asosdan quyiga qarab borish, ya'ni jinslarni turlarga bo'lish.

Platonning dialektika to'g'risidagi mulohazalariga, bizningcha, uning quyidagi fikri yakun yasaydi: "... dialektika fanlar mundarijasining eng yuqorisida turadi, boshqa hech bir fan, adolat nuqtai nazaridan, undan yuqorida bo'lishi mumkin emas, barcha fanlar u bilan yakunlanishi lozim" (Davlat, 534'E)².

Platonning kosmologik ta'limoti "Timey" dialogida bayon qilingan. Bu ta'limot Pifagorning kosmologik qarashlariga hamohang. Platon fikricha, olam shar shaklidagi tirik mavjudot. Shuning uchun ham u jonga ega. Jon olamning bo'lagi emas, u dunyoni o'rab olgan bo'lib, 3 ta boshlang'ich elementdan tashkil topgan: "ayniyat", "tafovut" va "mohiyat". Ular cheklangan va chegarasiz borliqning, ya'ni moddiy va ideal borliqning oliy asoslaridir. Ular musiqa oktavi qonunlari bo'yicha taqsimlangan yoritgichlarini ular harakatida o'ziga jalb etib turadigan aylanadan iborat. Barcha tomonidan dunyoviy jon bilan o'rab olingan olam tanasi (jismi) 4 ta elementdan: yer, suv, olov va havodan tashkil topgan. Bu elementlar, sonlar qonuniga muvofiq proporsional birikmalarni hosil qiladilar.

"Ayniyat" doirasi harakatsiz yulduzlar aylanasi, "o'zga"lar aylanasi planetalar aylanasi hosil qiladi.

Yer, suv, olov, havo elementlari moddiy bo'lgani uchun, geometrik jismlar singari, tekisliklar bilan chegaralangan. Yer shakllar bilan chegaralangan. Yer shakli - kub, suv - ikosaedr, olov- piramida, havo- oktaedr shaklida. Osmon dodekaedr singari bezangan. Dunyoviy jon hayotini son munosabatlari va garmoniyasi boshqaradi. Dunyoviy jon faqat hayot bo'libgina qolmay, balki harakat qobiliyatiga ham ega. O'zining aylana bo'ylab harakatida mohiyatga ega narsalar bilan bilan to'qnashar ekan, o'z so'zi bilan nimalarga o'xshash, nimalardan farq qilishi to'g'risida aytadi. Shuningdek, u qayerda, qachon, qanday qilib abadiy borliqqa va boshqa mavjudlikka nisbatan yashashi haqida guvohlik

¹ Karang: Antologiya mirovoy filosofii.T.1.Ch.1-B.412

² Antologiya mirovoy filosofii.T.1.Ch.1-B.387

beradi. Bu guvohlik so'zi "ayniyat"ga nisbatan ham, "o'zga"ga nisbatan ham birdek haqiqat. Ular hissiy idrok etiladigan narsalarga tegishli bo'lganda, qat'iy tarzda chin fikr va e'tiqod paydo bo'ladi. Ular aqlli narsalarga tegishli bo'lganda, fikr va bilim zaruriy tarzda o'zining takomiliga yetadi.

Inson joni olam joniga o'xshash – bir xil garmoniya, o'xshash girdoblar. Avval u (inson joni) yulduzda bo'lgan, biroq unda tanada bo'lgani uchun tartibga solinmagan; inson hayotining maqsadi–dastlabki tabiatini tiklash. Bu maqsadga osmonning aylanishi va garmoniyani o'rganish orqali erishiladi. Buning quroli bo'lib hislarimiz: ko'rish elementi va boshqalar xizmat qiladi. Shular maqsadni o'ziga erishiishiga xizmat qiladi va u orqali garmoniyaga eltadi. Unga nutq qobiliyati va muzikaviy ovoz ham xizmat qiladi.

Garmoniya harakatiga jonining aylanma harakati o'xshash. "Timey"da inson jonining qushlar va boshqa xayvonlar tanalariga ko'chib o'tishi haqidagi fantastik qarashlar bayon qilinadi. Jon kirgan xayvon turi insonning axloqiy sifatlariga ega bo'ladi. Tozalangach, jon o'zining yulduziga qaytadi.

Platonning bilish nazariyasi uning jon to'g'risidagi ta'limoti bilan uzviy bog'liq. Platonning tugal bilish nazariyasi bayonini ham hych bir dialogida uchratmaymiz. Bilish masalalari "Teetet" dialogida muhokama etiladi, ammo unda bilimning nima ekanligiga aniq ta'rif bermaydi, asosan xato nazariyalarga raddiya beriladi, xususan, bilish nazariyasi hissiy idrok sifatida tanqid qilinadi.¹

Platon ustozidan obyektiv va universal ishonchli bilim mavjudligiga bo'lgan ishonchni qabul qilib olib, uni nazriy asoslashni hohlagan va shu sababli bilim nima va u nima haqida, degan savollarga javob topishga urinib, bilish muammolari bilan shug'ullangan. Bunda Platon tanlagan metodning mohiyati shundan iborat ediki, u dialektika yordamida Geraklit ontologiyasi va Protagor epistemologiyasi asosida qurilgan bilim konsepsiyasini aniq ta'riflab, undan chiqadigan xulosani tadqiq etib, mazkur konsepsiyani chin bilim konsepsiyasi deb hisoblab bo'lmaslikni ko'rsatmoqchi bo'ladi².

Platon fikricha, predmetlar mohiyatini bilish hammaga ham tegishli bo'lmagan qobiliyat. "Falsafa" "dornishmandlikni sevish" bo'lib, u haqiqat maqomiga ega bilimlarni hosil qilgan kishilarga ham, hych narsani bilmaydigan kishilarga ham taalluqli emas. Chin bilimlarga ega faqat xudo bo'lib, unda bilimga intilishga ehtiyoj yo'q. Bilimsiz kishilar jaxolatda bo'lib, ular o'z nodonliklarini tushunib yetmaydilar va shuning uchun ham bilim olishga intilmaydilar.

Platon fikricha, faylasuf - bu bilimli va bilimsiz o'rtasida turgan, mukammal bo'lmagan bilimdan mukammal bilimga intiluvchi kishidir. Faylasuf

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1- New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.142-143

² Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.145-146

obrazini Platon yarim afsonaviy tarzda “Bazm” dialogida Eros obrazida tasvirlaydi. Bilim to’g’risidagi qarashlari esa “Teetet”, “Menon”, “Bazm”, “Davlat” dialoglarida aks etgan. Xususan, “Menon”da bilim olishni jonning o’z kechinmalarini eslashidan iborat deb tavsiflaydi va buni Sokrat nomidan quyidagi savolni qo’yishi orqali ifodalaydi: “Agar barcha mavjudot to’g’risida haqiqat jonimizda yashaydigan bo’lsa, jon esa o’lmaydigan bo’lsa, unda dadillik bilan hozir bilmagan, eslay olmayotgan narsamizni jondan qidirishga, ya’ni uni eslashga unnaganimiz ma’qul emasmi?”¹

Platon fikricha, bilim turlari borliq turlariga mos kelishi kerak. U borliqni to’g’ri tushunish uchun qadimgi grek falsafasida aniq ko’rinishga ega bo’lib borayotgan ikki qarama-qarshi konsepsiya o’rtasidagi ziddiyatni: eleychilarning borliqni o’zgarmas, harakatsiz deb bilishi bilan Geraklit ning olamni o’zgaruvchan, harakatda deb tushunishi (uni Protagor, Kratil davom ettirishgan) o’rtasidagi ziddiyatni hal etish zarur deb hisoblaydi. Bu masala bo’yicha mulohazalarini Platon “Kratil” dialogida Sokratning Kratil bilan suhbatini orqali bildiradi. Sokratning, agar predmet o’z holatidan chiqib, o’zgarib turadigan bo’lsa, uni avval bir narsa desagu, keyin boshqa narsa desak yoki biz mana shu gaplarni aytayotganda u boshqa narsaga aylana borsa va dastlabki holatidan chiqib keta borsa, uni avvalgi nomi bilan atasak, to’g’ri bo’ladimi? degan savolini Kratil o’rinli deb hisoblagach, Sokrat mulohazalarini davom ettiradi: hych qachon muqim bir holatda turmaydiganni biror narsa deb bo’ladimi? Axir u biror holatida muqim turib qoladigan bo’lsa, uning hych qanday o’zgarmaganligi ko’rinib turgan bo’lardi; boshqa tomondan qarajak, agar narsa o’z holicha qoladigan bo’lsa, u o’z g’oyasi chegarasidan chiqmay turib qanaqasiga o’zgaradi yoki harakatda lanadi? Kratil, unday bo’lishi mumkin emas, deydi. Sokrat mushohada yuritishda davom etadi: Birinchi holatida uni hych kim bila olmas edi. Biluvchi shaxs uni endi bila borganda, u shu lahzada avvalgi holatidan chiqib, boshqa narsa bo’lib qolardi va uning nima ekanini yoki qanday holatda turganini bilib bo’lmasdi; hych qanday bilish muayyan holatda emasligi ma’lum narsani o’rnatishga qodir emas. Kratil Sokrat fikrini tasdiqlaydi².

Bilim nima? deb savol qo’yib, unga javob berishda 3 ta fikrning xatoligini ko’rsatadi: 1) bilim–bu hissiy idrok; 2) bilim–bu to’g’ri fikr, 3) bilim–bu “ma’noga ega” to’g’ri fikr.

Platon fikricha, bilim: 1) ishonchli va 2) mavjud narsa to’g’risida bo’lishi kerak. Hissiy idrok bu mezonlarga javob bermaydi.

Protagor fikrini tanqid qilib, “barcha narsaning o’lchovi- bilimli inson”, degan fikrni ilgari suradi. Uningcha, hissiy bilim o’zgaruvchan bo’lib, undan oldin

¹ Platon. Sobr. soch. V 4-x tt. T.-M.:Mysl,1990-S.596

² Qarang: Platon. Sobr. soch. V 4-x tt. T.-M.:Mysl,1990-S.679-680

o'zgaras bilim bo'lishi kerak. "Teetet"da Platon buni quyidagicha asoslaydi: 1. Idrok – to'la bilim emas, chunki bilim deb hisoblanadigan narsaning katta qismi hissiy idrok obyekt bo'lmagan terminlarni o'z ichiga oladi.

2. Hatto o'z sferasida ham idrok bilim emas. Biz birorta obyekt to'g'risida haqiqatni bilmay turib – u mavjudmi yoki yo'qmi, boshqa predmetlarga o'xshashmi yoki yo'qmi ekanligini aniqlamay turib - uni bilamiz deb ayta olmaymiz¹.

Platon fikricha, bilim "to'g'ri (chin) fikr" bo'lishi ham mumkin emas, chunki bunday deyish xato fikrning ham mavjudligini tan olishni taqoza etadi. Xato fikrlovchi kishi o'z fikrida doimo qolmaydi, u xatosini tushunishi mumkin; bundan tashqari, xato fikrdan xato fikrni keltirib chiqarib bo'lmaydi. Demak, bilim to'g'ri fikrdan ham iborat bo'lishi mumkin emas.

Shuningdek, Platon chin fikrning o'z holicha bilim bera olmasligini, buning uchun unga muayyan ma'no qo'shilishi zarurligini ham asoslashga urinadi. "Teetet"da Platon bilim hissiyot va aqlning birikishi natijasida hosil bo'ladi, aql hissiy tajriba elementlarini anglaydi, degan xulosa qilishga yaqinlashib keladi.

Bilimning to'g'ri fikrdan yuqori turishini "Teetet"da Dedal haykali misolida tushuntiradi. Haykal bir butun, yaxlit holda yaxshi, go'zal bo'lib turadi. Vaqt o'tishi bilan uning qismlari ajralib, sochilib ketadi, inson jonidan uzoqlasha boshlaydi, o'z qadr-qimmatini yo'qota boradi. Uning sababi to'g'risida kimdir fikr yuritib, qayta bog'lab, avvalgi holatiga keltirganda, yana o'z qadr-qimmatiga ega bo'ladi. Bu - haykalni tiklagan kishining shu haykalni qadriyat sifatida eslashi natijasidir, deb ta'kidlaydi. Bundan bilish-bu jonga avval boshdanoq solib qo'yilgan g'oyani uning (jonning) eslashidan iborat degan mifologik xulosa kelib chiqadi.

Platon bilimning dialektik tabiatini ham tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, "ne'mat" g'oyasi borliq ham, bilim ham emas, u har ikkalasini yaratadigan boshlang'ich asosdir. Buni quyidagicha izohlaydi: hissiyot yaratuvchisi ko'rish kuchini (ko'rish sezgisini ham, ko'rinishga ega bo'lish kuchini ham) hosil qiladi. Biroq rangni ko'rish uchun bu ikkita kuchga uchinchi bir kuch - "jins", ya'ni yorug'liq qo'shilishi kerak. Yorug'lik esa, Quyoshdan tarqaladi. Quyosh, garchi ko'rish organi bo'lmasa-da, ko'rish sababidan iborat.

Platon bilishning 2 ta turini: intellektual va hissiy bilishlarni farqlaydi. Shuningdek, u tafakkurning ham ikki turini ajratadi: 1) intuitiv tafakkur, ya'ni hissiyotdan holi bo'lgan tafakkur (keyinchalik Aristotel uni tafakkur haqidagi tafakkur deb aytadi), 2) diskursiv tafakkur. Uning yordamida hissiy predmetlar,

¹Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1 - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.148

obrazlar bilib olinadi. Bu hozirgi falsafada sof aql va aql tushunchalariga mos keladi.

Platon fikrning ayrim mantiqiy shakllarini ham tadqiq etgan. U ustoz Sokratning, umumiy tushunchalar buyumlarning mohiyatini ifodalaydi, degan fikrini qabul qilib, uni yanada aniqlashtiradi. Xususan, jins va tur tushunchalarni farqlaydi, ularning dialektik aloqadorligini ko'rsatadi, jins tushunchalarni tur tushunchalarga bo'lish orqali uning to'la hajmini aniqlashni ta'kidlaydi. G'oyani borliqning boshlang'ichi, umumiy asosi va uni aks ettiruvchi oliy jins tushuncha tarzida asoslagani holda, dialektikani mavjudlik (borliq) haqidagi ilm deb biladi va uning mohiyatini predmet to'g'risidagi tushunchalarni jinslarga, jinslar ichida turlarga ajratish va, aksincha, tur tushunchalardan jins tushunchalarga o'tish, shu tariqa ko'plikning, turli-tumanlikning umumiy asosini bilishga erishish, g'oyani mushohada qilishgacha ko'tarilishda deb hisoblaydi, san'at sifatida tavsiflaydi.

Platon tushunchaning mazmunini aniqlash usuli, ya'ni definisiya masalasiga katta e'tibor bergan, yaqin jins va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash usulini tavsiflagan. Shuningdek, bo'lish orqali tushuncha hajmini aniqlash usulini tahlil qilgan, tushunchalarni dixotomik bo'lishning o'ziga xosligini ko'rsatgan.

Platon hukmni tafakkurning asosiy elementi deb hisoblab, uni tashkil etuvchi tushunchalarni piramida shaklida tasvirlaydi. Piramidaning uchiga ezgulik tushunchasini qo'yadi. Borliq, o'zgarish, sukunat, ayniyat, tafovut tushunchalarini eng universal tushunchalar, deb ta'riflaydi. Chin bilimga intuisiya orqali erishiladi deb ta'kidlaydi.

Platon davrida hali mantiqning asosiy qonunlari shakllantirilmagan edi. Bu vazifani Aristotel hal qilgan. Lekin Platon bu qonunlarni aniq ta'riflab bermagan bo'lsa ham, ularning mohiyatini tushungan. Masalan, u kontradiktor hukmlar, bir vaqtda bir xil munosabatda bir buyumga nisbatan chin bo'la olmasligini ta'kidlagan. «Yevtidem» dialogidagi «bir narsaning ham bo'lishi, ham bo'lmasligi mumkin emas», degan fikri uning nozidlik qonunini bilganligidan dalolat beradi.

Platon dialektikasi alohida e'tiborga liyiqdir. Buyuk mutafakkir dialektikani borliq jinslarini, g'oyalarni aql bilan bilish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Lekin unda dialektika mantiq, gnoseologiya, metodologiya bilan almashtirilmaydi. Dialektika Platon ta'limotida ontologik mazmuniga ega. Platon dialektikasi-bu, avvalambor, borliq, uning jinslari yoki g'oyalari xaqidagi ta'limotdir. Platon g'oyalari tushunchalargina emas, balki borliq jinslari hamdir. Parmenid izidan borib, Platon g'oyalarni abadiy, tug'ilmaydigan va o'lmaydigan, o'zgarmaydigan, o'z-o'ziga o'xshash, harakatsiz, borlig'i bo'yicha nisbatsiz, deb tushunadi. Bu aslida, sof metafizik qarash.

Lekin Platon "Sofist" va "Parmenid" dialoglarida bu qarashdan birmuncha chekinadi hamda barcha mavjudotlarning oliy jinslari-borliq, harakat, sokinlik, aynanlik, o'zgaruvchanlikni shunday fikrlash zarurki, ularning har biri ham bor, ham yo'q, ham o'z-o'ziga teng, ham o'z-o'ziga teng emas, ham o'zidan

“o’zgaga”, qarama qarshisiga o’zgaradigan bo’lsin, deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, kim bilish faoliyatini amalga oshirayotgan bo’lsa, u ta’sir etayapti, nima bilib olinayotgan bo’lsa, u ta’sirni sezayapti (ta’sirlanayapti). Ta’sir etish, azoblanishlar, o’z navbatida, o’zgarishni taqozo etadi; o’zgarish esa, harakatni taqozolaydi. Bundan tashqari, mavjudotni bilish aqlning bo’lishini taqozo etadi, aqlni esa jonsiz tasavvur qilib bo’lmaydi, jon tirik bo’lgani uchun harakatga aloqador. “Shuning uchun, - deb yozadi Platon – faylasuf va barcha boshqa kishilar, agar ular bilimni qadrlashsa, borliqni harakatsiz deb qabul qilmasligi zarur”. Bu masalani bolalar singari yechish kerak, ya’ni “barcha narsalar harakatsiz bo’ladi, ayni paytda harakatda hamdir” deb qabul qilish kerak (Sofist, 249 (S-D)). Xuddi shu dialogda Platon harakat va sokinlik bir-biriga sig’isha olmaydi, lekin ikkalasi ham mavjud, har ikkalasi borliq bilan sig’ishadi, demak 3 ta jins mavjud: borliq, harakat, sokinlik. Bularning xar biri o’ziga nisbatan olinganda aynan bir narsa, boshqasiga nisbatan olinganda – “o’zga”. Harakat ham o’ziga nisbatan aynan, sokinlikka nisbatan esa - “o’zga”.

Platon mavjudlikning 5 ta oliy jinsini yakkalik va ko’plik (to’plam) kategoriyalarining dialektik aloqadorligi orqali ham ko’rsatadi.

Xususan, borliq o’z holicha olinsa – yakka, abadiy, aynan, o’zgarmas, harakatsiz; agar u o’zining “o’zgasi” orqali olib qaralsa – ko’plik, harakatda, o’zida tavofutini mujassamlantiradi, azoblanadi. Har bir juftlikda (harakat-sokinlik, aynanlik-tafovut, yakkalik-ko’plik) ikkinchisi “o’zga” sifatida tavsiflanadi, ya’ni “o’zga”si borliqqa nisbatan o’zga, boshqacha borliq deb olib qaraladi. Demak, o’z tabiatiga ko’ra hamda tushunchasiga binoan borliq o’zida qarama-qarshi holatlarni mujassamlashtiradi. Bu xulosa, keyinchalik Gegel tomonidan qabul qilingan va rivojlantirilgan.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarni Platon “Davlat” va “Qonunlar” asarlarida ishlab chiqqan. “Siyosatchi” va qisman, “Kriton” dialoglarida ham jamiyat va davlat masalalari tadqiq etilgan. Xususan, “Siyosatchi”da Platon barcha fanlarni maqadni belgilovchi va nazariy fanlarga ajratadi. Birinchisiga davlat xizmatchisi to’g’risida ma’lumotlar ham kiritilgan bo’lib, uning predmetini davlatning oliy boshqaruvi tashkil etadi.

Davlatchilikning shu davrdagi mavjud nomukammal shakllaridan avval, Platon fikricha, jamiyatning mukammal shakllari mavjud bo’lgan. U davrlarda xudolar, xuddi ilohiy podachilar singari, ijtimoiy hayotning turli sohalarini boshqargan, turmush kechirishi uchun zarur barcha narsalar bo’lgan, urushlar, bosqinchiliklar, turli xil nizolar bo’lmagan. Odamlar bevosita yerda tug’ilishgan, bo’sh vaqtlarini falsafa ilmini o’rganishga bag’ishlaganlar. Bu bosqichda odamlar tabiat bilan kurashishdan xoli bo’lganlar, ularni do’stlik rishtalari bog’lab turgan. Biroq, Platon fikricha, bu tuzumni ijtimoiy tartib namunasi deb hisoblab

bo'lmaydi: bunga yashashning moddiy shart-sharoitlari imkon bermaydi: o'z – o'zini himoya qilish, tabiat va dushman xalqlarga qarshi turish zarur bo'ladi. O'tib ketgan oltin asrning qadr-qimmatini shundaki, unga namuna sifatida qarab, yovuzlikning nima ekanligini, oilaviy munosabatlar, xalqlar o'rtasidagi kurashlar, turli ehtiyojlarni keltirib chiqaradigan va jamiyat hayotini to'g'ri qurishga xalaqit beradigan omillarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Davlatning ideal tipiga Platon uning salbiy tipini qarama- qarshi qo'yadi. Keyingisida kishilar xulq-atvorini belgilovchi kuchlar deb moddiy ehtiyojlar va omillar qaraladi. Uning zamonidagi barcha davlatlar salbiy bo'lgan: “Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, davlatda bir-biriga dushman bo'lgan ikkita davlat mavjud. Biri-boylar davlati, ikkinchisi – kambag'allar davlati (Davlat, IV , 422Ye)”.

Davlatning salbiy tipi 4 ta shaklda mavjud: timokriya, oligarxiya, demokratiya, tiraniya. Bularning barchasida ideal davlat xususiyatlari u yoki bu darajada buzilgan. Davlatning salbiy tiplarida hamfikrlik o'rnida janjal, majburiyatlarni adolatli taqsimlashga intiladigan hokimlar va xarbiylar-qo'riqchilar o'rnida hech bir maqsadsiz xokimiyatga intilish, moddiy manfaatlardan voz kechish o'rnida mol dunyoga mukkasidan ketish mavjud.

Timokriya–takabburlikka, shon-shuxrat qozonishga asoslangan davlat.

Oligarxiya, undan keyin kelgan davlat tipi bo'lib, unda jamiyatni bir hovuch boylar boshqaradi. Bunda boylar davlati bilan kambag'allar davlatiga ajralish yaqqol sezilib turadi.

Demokratiya ko'pchilik boshqaruvchiga asoslangan, lekin unda boylar va kambag'allar o'rtasidagi qarama qarshilik yanada kuchayadi.

Tiraniyada bitta kishi barchaning ustidan hukmronlik qiladi.

Platon ideal davlat deganda oligarxiyadagi kabi ko'p bo'lmagan boshqaruvchilar tomonidan boshqariladigan davlatni tushunadi. Bu kishilar qator yaxshi fazilatlarga ega bo'ladi: 1) tabiiy ko'nikmalarga ega, iqtidorli; 2) ko'p yillik tayyorgarlikka ega.

Ideal davlat qurilishining asosiy prinsipi-adolat. U har bir fuqaroning jamiyatda o'z o'rnini topishiga, alohida maqomiga ega bo'lishiga imkon beradi. Adolat kishilarni birdamlikka chaqiradi, davlat yaxlit holatda, jamiyatdagi barcha hodisalar uyg'unlikda bo'ladi.

Ideal davlat: 1) o'z–o'zini qura oladi va himoyalani qobiliyatiga ega; 2) barcha fuqarolarning moddiy ehtiyojlarini qondira oladigan sistema shaklida mavjud. 3) ma'naviyat va ijodning rivojlanishiga imkon beradi.

Ideal davlatda mehnat taqsimoti bo'lishi kerak, u kishilarning har bir guruhining ijtimoiy hayotdagi o'rnini, burch va majburiyatlarini belgilab beradi.

Tug'ilgan chaqaloq jonida "mis" yoki "temir" bo'lsa, u dehqon yoki xunarmandlar qatoriga, jonida "oltin" yoki "kumush" bo'lsa, boshqaruvchilar va xarbiylar qatoriga yuborilishi kerak.

Platon qarashlariga yakun yasas ekanmiz, uning falsafiy fikr rivojida tutgan o'rnini falsafaning predmetini aniqlashtirishi, xususan uni eng umumiy ("g'oya" tushunchasi asosida) tadqiq etishda deb bilishi, borliq va bilish dialektikasini yuqori bosqichga ko'targanligi belgilashini aytish o'rinlidir.

Falsafaning Sokrat-Platon konsepsiyasining muhim ahamiyatga egaligi shundaki, u antik falsafa tarixi davomida faol muhokama etilgan falsafiy masalalarning ikki qutbini: bir tomondan, turmush kechirishning muayyan obrazini, ikkinchi tomondan – ana shu turmush tarzining ajralmas qismi bo'lgan falsafiy diskursni belgilab berdi¹.

Takrorlash uchun savollar

1. Platon hayotining asosiy qirralari nimalardan iborat?
2. Platonning qanday asarlarini bilasiz?
3. Platon "g'oya"si nima?
4. Platon g'oyani tushuncha sifatida qanday asoslagan?
5. Platon g'oyaning qanday turlarini farq qilgan?
6. Platonning kosmologik ta'limoti qanday?
7. Platonning jon haqidagi qarashlari qanday?
8. Platon bilish haqidagi qarashlarida qaysi faylasuflar ta'limotlaridan kelib chiqadi?
9. Platonning bilish to'g'risidagi talimotining o'ziga xosligi nimada?
10. Platon bilimni qanday talqin qilgan?
11. Platonning falsafa, falsafiy bilim to'g'risidagi mulohazalari qanday?
12. Platon ijtimoiy-siyosiy masalalarni qanday hal qilgan?
13. Platon ideal davlatni qanday tushungan?
14. Platon dialektikasining o'ziga xosligi nimada?

10-MAVZU: ARISTOTEL FALSAFASI

Aristotel (384-322) Stagirda (Makedoniyaning yaqinidagi Frakiya shahrida) tavallud topgan. Otasi Nikomax Makedoniya hukmdori Amintning saroyida shifokor bo'lgan. 367 yili Aristotel Afinadan ketib, Platon

¹ Pyer Ado. Chto takoye antichnaya filosofiya? / Perevod s fransuzkogo V.P. Gaydamaka - M.: Izdatelstvo gumanitarnoy literatury, 1999 - S.88

Akademiyasiga kiradi, u yerda Platon o'limigacha qoladi (347). 347 yili Platon Akademiyasiga Spevsipp rahbar bo'lib qoladi, Aristotel va Ksenokrat Akademiyani va umuman, Afinani tark etishadi, Atarneyaga ko'chib o'tishadi.

Er.avv. 343 yoki 342 yilda Aristotel Makedoniya saroyiga Aleksandrning (Makedoniya shohi Filipp o'g'lining) tarbiyachisi lavozimiga taklifni qabul qiladi. Bu lavozimda 3 yil faoliyat ko'rsatadi. Aleksandr Fors yurishlarini boshlab yuborgandan keyin Aristotelda Makedoniyada qolishga hojat qolmaydi va u Afinaga qaytadi. U yerda Apollon Likeyskiy haramida o'z maktabini ochadi (Likey so'zi haram nomidan kelib chiqqan). Ma'ruzalarni bog'da sayr etib yurib o'qigani uchun peripatetik (sayr etuvchi) laqabiga ega bo'lgan. Unda ta'lim ikki shaklda olib borilgan: 1) ekzoterik (yoki ritorikadan dars berish) shaklda (bu hamma uchun maqbul, barcha eplay oladigan shakl); 2) akroatik (yoki esoterik) shakl – bu maxsus tayyorgarligi bo'lgan o'quvchilar uchun.

Uning ta'lim strukturasi metafizika, fizika va dialektika kirgan. Esoteriklar ertalab, ekzoteriklar-kechqurun o'qishgan. Platon Akademiyasidagi singari, Likeyda nafaqat ta'lim berishgan, balki unda do'stlik ipi bilan bog'langan kishilar yig'ilishib turishgan, o'ziga xos davra mavjud bo'lgan. Yordamchi materiallar, kitoblar, boshqa manbalarga bo'lgan ehtiyoj ularni to'plashga, kutubxona tashkil etilishga imkon bergan. Aleksandr vafotidan keyin (er.avv.323 y.) Aristotelning Afinada qolishi xavfli bo'lgan. Afinada makedoniyaliklar xokimiyatiga qarshi kuchli muxolifat shakllangan edi. Makedoniyaliklar bilan hamkorlik qilgan Aristotelni yoqtirishmas edi. Oxir-oqibatda u ta'qibga olinib, ustidan jinoiy ish qo'zg'atiladi. Anaksagor va Sokratdagi singari, unga qo'yilgan ayb siyosiy emas, diniy xarakterga ega edi. Aristotel Afinadan chiqib ketishga majbur bo'ladi (sud bo'lgunga qadar). U Evbey orolidagi Xalkidaga o'rnashadi. Er.avv. 322 yilda shu yerda vafot etadi.

Asarlari: Aristotelga 146 asar tegishli degan fikr mavjud (o'zining kutubxonasidagi kitoblar asosida tuzilgan ro'yxat bo'yicha):

“Organon” - mantiqqa oid asarlari to'plami;

“Metafizika” - aql bilan bilib olinadigan borliq asoslari to'g'risida bir qancha risolalar majmuasi;

“Fizika”- mavjud tabiatni tajriba yordamida o'rganishga bag'ishlangan asar;

“Fizika to'g'risida darslar”;

“Hayvonlarning qismlari to'g'risida”;

“Nikomax etikasi”;

“Siyosat”;

“Ritorika”;

“Poetika”;

“Afina politiyasi” (1890 yilda Misrda uning qo’lyozmasi topilgan) va boshqalar.

Aristotel ustози Platonning falsafiy bilishning xususiyati, umumiyning, xususan, tushunchaning mohiyati, borliq va bilish dialektikasi bo’yicha ilgari surgan g’oyalari, bildirgan fikr-mulohazalari, keltirgan dalillariga murojat qiladi, ularga o’z munosabatini bildiradi. Ma’lumki, Platonning “g’oyalar” to’g’risidagi ta’limoti bo’yicha borliq tuzilmasining shakllanishi va uni bilish quyidagi sxemada sodir bo’lishi kerak: “g’oyalar” (eydoslar, borliqning boshlang’ich asoslari) - xususiy dunyo hodisalari (ular borliqning asl sabablari va xaqiqiy shakllarini buzib ko’rsatadi) - borliq to’g’risidagi tushunchalar. Lekin Platon doktrinasi bunga zid. U Sokrat ta’limotiga tayanib, tushuncha predmetning asosiy xususiyatlarini, mohiyatini aks ettirgani, bilishning maqsadi esa aynan ana shu o’zgarmas mohiyatni anglashga qaratilgani uchun tushuncha ham borliq to’g’risidagi fikr, ham shu borliqning o’zi, degan xulosaga keladi. Bunda Platon tushunchalarni mohiyat sifatida o’z holicha mavjud deb tushunadi.

Tushunchalar to’g’risidagi masala Aristotelning ham diqqat markazida bo’ladi. U Platonning “g’oyalar” to’g’risidagi ta’limotini aynan ana shu masala mohiyatini ochish davomida tanqid qiladi. Aristotel Platonning tushuncha predmetlar mohiyatini ifoda etadi, degan fikriga qo’shiladi, biroq u ustozining tushunchalar o’z holicha mavjud degan xulosasiga qarshi chiqadi. Uning e’tirozi Platonning “g’oyalarni” hissiy borliqning yolg’iz haqiqiy mohiyati sifatida talqin etishiga qaratilgan. Aristotel fikricha, bunga Platonning Geraklitning hissiy qabullanadigan predmet, hodisalarning uzliksiz o’zgarib turish to’g’risidagi fikriga asoslanishi sabab bo’lgan. Platon Geraklitning reallikda barcha hodisalar o’zgarib turadi, degan fikridan kelib chiqib, undan farq qiladigan boshqa – o’zgarmas mohiyatga ega reallik ham mavjud va bu reallik g’oyalardir, ya’ni borliqning o’zgarmas mohiyatidir, degan xulosaga kelgan.

Aristotel Platonning g’oyalarini o’z holicha mavjud mohiyatlar deb, ularni hissiy qabul qililnadigan predmetlar dunyosiga qarama-qarshi qo’yishini tanqid qilgan ekan, o’zining tushunchalar va his qililnadigan predmetlar dunyosining o’zaro munosabati to’g’risidagi pozitsiyasini shakllantiradi. Bunda Aristotel Platonning “g’oyalar” to’g’risidagi ta’limotiga 4 ta e’tiroz bildiradi.

1-e’tiroz: Platon “g’oyalari” predmetlar to’g’risida hech bir yangi bilim bermaydi, chunki “g’oyalar”- predematlar nusxalari, “g’oyalar” mazmunida ularga mos hissiy qabullanadigan predmetlar mazmunidan o’zga narsa yo’q. Masalan, inson “g’oyasi”ning mohiyatida har bir shaxsda o’z ifodasini topadigan insonning muhim belgilari yig’indisi to’g’risidagi ma’lumotdan boshqa hech narsa yo’q.

2-e’tiroz: Platon fikricha, hissiy qabullanadigan olam predmetlari “g’oyalar”da ishtirok etadi. Bu, Aristotel nazarida, Pifagorning hissiy

qabullanadigan predmetlar sonlarga taqlid qilib yashaydi, degan fikrini takrorlashdan boshqa narsa emas. Bunday fikr metaforadan farq qilmaydi. Xususan, “ishtirok etadi” degan fikr ikki dunyo: g’oyalar va hissiy qabullanadigan predmetlar dunyosi o’rtasidagi munosabatni tushuntirishga o’zlik qiladi, chunki Platon “g’oyalari” hissiy qabullanadigan predmetlarning bevosita mohiyatini tashkil etmaydi (ya’ni undan alohida, mustaqil mavjud dunyo hisoblanadi).

3-e’tiroz: Platonning “g’oyalar”ning o’zaro mantiqiy munosabatlari to’g’risidagi fikrlari noaniq. Xususan, bu, bir tomondan, “g’oyalar”ning o’zlari o’rtasidagi munosabatlar, boshqa tomondan, “g’oyalar” va hissiy idrok etiladigan predmetlar o’rtasidagi munosabatdan iborat.

“G’oyalar” o’rtasidagi munosabat – bu *umumiylar* munosabati. Bu munosabatda, Platon ta’limotiga ko’ra, umumiy juz’iyning mohiyati sifatida g’avdalanadi. Mazkur ikki fikr: umumiy g’oyalarning juz’iy g’oyalarga bo’lgan munosabati va g’oyalarning substansialligi to’g’risidagi fikrlar bir-biriga zid. Xususan, bir g’oya ham substansiya, ham substansiya emas bo’lib qoladi: umumiy g’oya o’ziga bo’ysunadigan juz’iy g’oyaga nisbatan substansiya hisoblanadi (ya’ni juz’iy g’oyada mohiyatan aks etadi), ayni paytda, u o’ziga nisbatan umumiyroq bo’lgan g’oyaga bo’lgan munosabatida substaksiya bo’lmay qoladi.

Platon, Aristotel fikricha, g’oyalar dunyosi bilan hissiy idrok etiladigan predmetlar sohasi o’rtasidagi munosabatni tushuntirishda ham adashadi, ziddiyatga yo’l qo’yadi. Platonga muvofiq, yakka hissiy qabullanadigan predmetlar ular uchun umumiy bo’lgan belgilarga ega. U umumiy alohida reallik sifatida talqin etishi bilan, uni ju’ziylikning tarkibiga kiritib qo’yadi. Bundan tashqari, g’oyalar va hissiy qabullanadigan predmetlar dunyosi alohida realliklar bo’lgani va birinchisi ikkinchisini aks ettirgani uchun, ya’ni har bir g’oyaga unga mos keluvchi hissiy idrok etiladigan predmet bo’lgani uchun, ularga umumiy asos bo’ladigan yangi “g’oyalar”, ya’ni “g’oyalar”ning ikkinchi dunyosi bo’lishi zarur. O’z navbatida, birinchi va ikkinchi “g’oyalar” dunyosi uchun umumiy bo’lgan uchinchi “g’oyalar”dunyosi bo’lishi shart va h. Shu tariqa hissiy qabullanadigan predmetlar ustida ko’tariladigan son-sanoqsiz g’oyalar dunyosi mavjudligi to’g’risida xulosaga kelish kerak bo’ladi, bu esa xato.

Aristotelning Platonga bo’lgan bu e’tirozi “uchinchi odam” degan nom olgan. Bunga sabab shuki, hissiy qabul qilinadigan inson va inson “g’oyasi”dan (ikkinchi inson) tashqari, ular ustida turadigan va ularni o’zida sintezlaydigan inson “g’oyasi” (uchinchi inson) yaratilishi zarur bo’ladi.

4-e’tiroz: “G’oyalar” nazariyasi hissiy qabullanadigan predmetlar dunyosini tushuntirishga qodir emas, chunki predmet xossalari o’zgarishda, harakatda, ular paydo bo’ladi va yo’qoladi. “G’oyalar” dunyosi alohida yopiq

olamni tashkil etgani uchun, hissiy idrok etiladigan predmetdagi o'zgarishlarni tushuntira olmaydi.

Shunday qilib, Aristotel Platonning "g'oyalar" to'g'risidagi ta'limotida mavjud asosiy qiyinchilikni umumiyini yakka, alohidalikdan ajratib qo'yish, ularning qarama-qarshiligini mutloqlashtirishda ko'radi. Buning sababini Sokrat ta'limotiga murojaat qilishida deb biladi. Aristotel fikricha, bir tomondan umumiy bilim olib bo'lmaydi, lekin, boshqa tomondan, umumiyini yakkadan ajratish g'oyalar talqini bilan bog'liq qiyinchiliklar sababi hamdir.

"Metafizika"ning 13-kitobida Aristotel Platonning "g'oyalar" to'g'risidagi ta'limoti tanqidining keyingi variantini beradi. Bu tanqid asosida sonlarga abstraksiya sifatida qarash, ya'ni uni tushuncha tarzida qabul qilib, predmetlarning ayrim belgilarini aks ettiruvchi abstraksiya deb tushuntirish yotadi. Bunday abstraksiyalarning mavjudligi Platon ta'limotining to'g'riligini tasdiqlamaydi. Umumiy fikrlar fazoviy miqdor va sonlardan alohida tarzda mavjud, ular ayrim predmetlarga nisbatan emas, balki aynan predmetlarning o'zlariga tegishlidir. Aristotel fikricha, hech bir son Platon talqinidagi g'oya bo'la olmaydi va, aksincha, hech bir "g'oya" son bo'la olmaydi.

Aristotel substansiya deganda o'z holicha mavjud bo'lgan, boshqalar tarkibida bo'lmagan narsani tushunadi. Ana shuning uchun ham u umumiyini substansiya deb hisoblamaydi. Chunki, u predmetlar sinfiga xos bo'lmaydi. Demak, substansiya yakka predmet borlig'idan iborat.

Aristotelning ta'kidlashicha, substansiya, ya'ni yakka borliq "shakl" va "materiya" birligidan iborat. Bilish nuqtai nazaridan olib qaralganda, "shakl" – bu predmet haqidagi tushuncha yoki predmet to'g'risidagi tushunchada ko'rsatilgan sifat.

Aristotel fikricha, bilim predmetning muhim belgilarini aks ettiruvchi tushunchalardan iborat. Agar tushunchalardan ongimiz soqit bo'lsa, unda bilim predmeti mavjud bo'lmagan narsa bo'lib qoladi. Bilim mavjud va chin bo'lishi uchun, uning faqat predmet to'g'risida tushuncha bo'lishi yetarli emas; bundan tashqari bilish predmeti o'zgarmas, saqlanib qoladigan borliq bo'lishi ham kerak. Garchi alohida mavjud predmetlar ularda o'zgarmas mohiyat mavjud bo'lgani holda, o'zgaruvchan bo'lsa-da, ularni bilish mumkin. Bunday bilish "shakl" to'g'risida tushuncha yoki tushunchani bilish demakdir. Demak, Aristotel "shakl"ida manguilik va umumiylik birlashadi. "Shakl"ning bunday tavsifi substansiyani, ya'ni o'zligiga ega yakka borliqni o'rganishni davom ettirish imkoniyatini beradi. Aristotelning aytishicha, bu "shakl" har bir predmet uchun bo'lib, u abadiydir: paydo bo'lmaydi ham, yo'qolmaydi ham. Masalan, biz mis massasidan haykal qurilayotganini, haykal "shakl"ini olayotganini kuzatayapmiz. Bu "shakl"ning ilk bor ko'rinish olayotganini bildirmaydi. Bu ko'rinishdagi

chizg'iga mis massasi ega bo'layapti, xolos; bunda "shakl" o'z holicha paydo bo'layotgani yo'q.

Aristotelning bu fikrlaridan shunday xulosa chiqadiki, "shakl"- umumiy, real tarzda mavjud narsa esa – yakka predmet. Shuning uchun ham "shakl" yakka predmet "shakl"idan iborat bo'lishi uchun, mazkur "shakl"ga yana nimadir qo'shilishi kerak. Biroq "shakl"ga muayyan tushuncha orqali ifodalangan narsa qo'shilganda ham, u yana "shakl"dan iborat bo'lganicha qoladi. Bundan Aristotel quyidagicha xulosa chiqradi: "Shakl"ga qo'shiladigan element faqat "noaniq substrat" yoki "noaniq materiya" bo'lsagina, substansiya elementi bo'la oladi. Bu shunday substratki (materiyaki), unda umumiy (shakl) ilk bor boshqa borliq sifati bo'lib qoladi. Aristotel hissiy dunyoning yakka predmetlarida yangi xususiyatlarning paydo bo'lishini yoki ularda "materiya"ning o'ziga "shakl"ni kasb etish mexanizmini ham tushuntiradi.

Yangi xususiyat kasb etgan har qanday predmet, ungacha mazkur xususiyatga ega emas edi. Shuning uchun ham "materiya" yoki substrat nima? degan savolga javob berish uchun, "materiya"ning kelajakda erishishi mumkin bo'lgan xususiyatga ega emasligini(ya'ni, uning hozirda yo'qligini) ko'rsatish lozim. Boshqacha aytganda, materiyaning "shakl"ga ega emasligini asoslash kerak.

Lekin, Aristotel fikricha, materiyaga bunday tavsif berish bilan cheklanib bo'lmaydi. "Materiya"da yangi sifat paydo bo'lgandan keyin, masalan, mis eritmasi mis shar yoki mis haykalga aylangandan keyin, bu yangi sifatning asosi endi shar shaklining yoki xaykal shaklining yo'qligi bo'la olmaydi. Boshqa tomondan olib qarajak, yangi shaklga ega "materiya"da avval bu "shakl" bo'lgan emas. Aristotel bundan, materiya "yo'qlik", "ega emaslik"dan kattaroq allaqanday narsa, degan xulosa chiqaradi.

Uningcha, "shakl" materiyada qanday paydo bo'ladi? degan savolga quyidagicha javob berish zarur: "shakl" borliqdan paydo bo'lmaydi, chunki undan paydo bo'lganda, avvaldanoq mavjud bo'lgan bo'lur edi. Ayni paytda, shakl noborliqdan ham paydo bo'lmaydi, sababi, yo'q narsadan u paydo bo'lmaydi. Demak, u yangi "shakl"ning "yo'qligi" ham, haqiqiy shakl ham emas, ikkalasining o'rtasidagi allaqanday bir narsa, ya'ni imkoniyat tarzidagi mavjud borliqdir.

Voqyelik aynan ana shu imkoniyat tarzidagi borliqqa binoan paydo bo'ladi. Uni Aristotel misol bilan tushuntiradi: ilgari savodga ega bo'lmagan kishi savodli bo'ldi, u bunday darajaga, sifatga savodi yo'qligi sababli erishgani yo'q; bunga u savod chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgani uchun erishdi. Shunday ekan, materiyaning ikki sifatga egaligini: 1) undan (materiyada) keyinchalik paydo bo'ladigan "shakl"ning yo'qligi va 2) bu shaklga ega bo'lish imkoniyatining haqiqiy borliq ekanligini tan olish zarur. Birinchi sifat ("yo'qlik", "ega emaslik")-

salbiy, ikkinchisi (imkoniyat tarzida mavjudligi)- ijobiydir. Ehtimol tarzida mavjud “materiya”dan farqli o’laroq, “shakl” voqyelikdan iborat, ya’ni imkoniyatning amalga oshirilishidir.

O’z navbatida, Aristotel materiya (substrat)ning ham ikki xil ma’nosini farq qiladi: 1) sof imkoniyat tarzidagi substrat; 2) voqyelik ko’rinishidagi substrat.

Bu tushunchalarning farqini mutafakkir ishlab chiqarish – xunarmandchilik va badiiy san’at misolida tushuntiradi. Misdan ishlangan shar yoki quyilgan xaykalning har ikkisi voqyelikdan iborat. Bu voqyelik nimada namoyon bo’ladi? Shar haqida ham, haykal haqida ham mos tushunchalar mavjud, ularning har biri o’zi ifodalayotgan borliqning muhim belgilarini aks ettiradi. Agar biz ularni (ya’ni, shar va haykalni) bor narsalar deb hisoblasak, ularga mos tushunchalarga ham borliq (voqyelik)ning xosligini ta’kidlagan bo’lamiz. Bu bilan esa, biz tushunchalarni voqyelikdan ajratgan, mavhumlashtirgan holda emas (Platon “g’oyalari” singari), balki voqyelikda amalga oshgan, ya’ni, muayyan “materiyada”, “substratda” gavdalangan tushuncha sifatida qabul qilamiz.

Hozirgacha mis eritmasi “shar” yoki xaykal uchun “materiya” sifatida olib qaralayapti. Bu misni talqin etishning yagona usuli emas. Misni o’z holicha, ya’ni sharga yoki xaykalga aylanguncha qanday bo’lgan? deb savol qo’yish mumkin. Unga beriladigan birinchi javob quyidagicha: “Bu -mis”. Bunda mis imkoniyat tarzidagi borliq deb emas, balki reallik (mavjudot) deb olib qaralayapti. Shu tariqa, mis tushunchasiga mavjudlik xos deb ta’kidlanayapti. Lekin, mis faqat tushunchagina emas, birorta modda tarkibida mavjud bo’lgan narsa hamdir. Demak, borliq sifatida olib qaralgan mis tushunchasi uchun u amalga oshadigan “materiya”ni ko’rsatish zarur. Buni ko’rsatish uchun, Aristotel yunon fizikasi an’anasiga murojaat etadi. Empedokldan boshlab bu fizika barcha predmetlarni abadiy mavjud bo’lgan 4 ta element: yer, suv, havo, olovning turlicha birlashuvi natijasida hosil bo’ladi, deb hisoblardi.

Aristotel fikricha, mis eritmasi – voqyelik (“shakl”) bo’lsa, bu voqyelik uchun “materiya” bo’lib 4 ta fizikaviy elementning birlashuvi xizmat qiladi. Mis “shakli” uchun materiya bo’lgan bu 4 ta element, birinchidan, misning “yo’qligi”dan iborat- ular hali mis emas; ikkinchidan, ular – mis bo’lish “imkoniyati”, chunki ular birikuvidan mis hosil bo’ladi. Shu munosabat bilan Aristotel birlamchi va ikkilamchi materialarni farqlaydi. Birlamchi materiya-voqyelikka aylanishi mumkin bo’lgan “materiya”. Ikkilamchi materiya – bu nafaqat muayyan “shakl” imkoniyati, balki, ayni paytda, alohida “voqyelik”dir. “Oxirgi” materiya faqat uning o’zigagina xos xususiyatlarga ega bo’lib, u haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Yuqorida aytib o’tilgan shar, mis, 4 ta fizikaviy elementlar – Aristotel talqinidagi “oxirgi” materiyadan iborat. Birlamchi materiya “voqyelik” sifatida olib qaralishi mumkin emas. Uni sezgi organari orqali his

etib bo'lmaydi, faqat aql bilan bilib olish mumkin va shuning uchun ham u "noaniq substrat"dir.

4 ta sabab to'g'risidagi ta'limot. Aristotel o'zidan avvalgi mutafakkirlar ta'limotlarini tahlil qilgani holda, ularda 4 ta sabab to'g'risidagi mulohazalarning mavjudligini qayd etadi. Ular:

1. "Materiya", ya'ni tushunchaning amalga oshishi.
2. "Shakl"- materiyaning "imkoniyat" holida mavjudligidan voqyelikka aylanayotganida qabul qiladigan tushunchasi.
3. Harakat sababi.
4. Maqsad – hatti-harakat bilan taqozalanadigan sabab.

Masalan, uy qurilayotganida materiya-g'ishtlar, shakl-uyning o'zi, harakat sababi-arxitektor faoliyati, maqsad-uyning biror narsaga mo'ljallab qurilishi.

Dastlabki harakatlantiruvchi kuch. Dunyo, Aristotel fikricha, abadiy mavjud, demak undagi harakat ham mangu. Bu holat harakatlantiruvchi kuch to'g'risida masalaning qo'yilishiga olib keladi. Bu kuch–Xudo. Birinchi dvigatelsiz hych qanday kuchning paydo bo'lishi mumkin emas.

Aristotelning borliq to'g'risidagi ta'limoti uning fizikaviy ta'limoti va kosmologiyasida aks etadi. Xususan, idealistik asos har ikkalasida namoyon bo'lgan. Olim sifatida Aristotel qadimgi grek fizikasi, shu jumladan, Empedokl fizikasi, ayniqsa uning 4 ta sabab to'g'risidagi ta'limotiga suyangani holda, o'z fizikasini yaratgan. Anaksagorning olamdagi maqsadga muvofiqlik to'g'risidagi tasavvurlariga qarshi chiqqan holda, uning tabiatdagi o'zgarishlarni mexanistik tarzda tushuntirishi, xususan Quyosh va Oyning tutilishi haqidagi fikr-mulohazalarini e'tirof etgan.

Harakat to'g'risidagi ta'limotida Aristotel moddiylik va harakatchanlikning birligini ta'kidlaydi. Uningcha, moddiy predmet harakatda bo'ladi va, o'z navbatida, harakatlanuvchi narsa moddiy predmetdan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas. Aristotel "harakatlanuvchi" tushunchasini maxsus tadqiq etadi. Uning fikricha, bu tushunchaning negizini 2 ta narsa tashkil etadi: 1) harakat to'g'risidagi tushuncha, 2) harakatda bo'lgan narsa haqidagi tushuncha.

Aristotel o'zigacha bo'lgan tasavvurlardan kelib chiqib, harakatning 4 ta turini farqlaydi: 1) kattalashish va kichrayish; 2) sifatiiy o'zgarish; 3) paydo bo'lish va yo'qolish; 4) fazoda o'rin almashish ko'rinishidagi harakat. Bularning orasida qaysi biri asosiy, degan savolga fazodagi harakat, unga hych bir harakat turini keltirib taqib bo'lmaydi, deb javob beradi. Uni quyidagicha tushuntiradi: predmet kattalashganda, kengayganda unga qandaydir bir boshqa modda yaqinlashib keladi va u bilan birlashib ketadi. Xuddi shuningdek, predmet kichrayganda undan qandaydir bir qismini tashkil etuvchi modda uzoqlashadi va boshqa bir predmet moddasiga aylanadi. Demak, kattalashish va kichrayish predmetining

fazoda harakatlanishini taqoza etadi. Xuddi shu hol, Aristotel ta'kidlashicha, sifatiy o'zgarishda ham, ya'ni boshqa narsaga aylanishda ham kuzatiladi. Agar predmetda sifat o'zgarishi sodir bo'lsa, buning sababi o'zgaruvchi predmetning boshqa predmet bilan birlashishi natijasidir, chunki o'zgarishni ana shu predmet keltirib chiqaradi. Birikishning sharti esa predmetlarning fazoda yaqinlashishi bo'lib hisoblanadi. Fazodagi harakat paydo bo'lish va yo'qolishning ham shartidir. Paydo bo'lish va yo'qolish "shakl"ning yo'q bo'lishini anglatmaydi, u abadiy mavjud. Sifatiy o'zgarishda predmetning tasodifiy xossalari o'zgaradi, paydo bo'lish va yo'qolishda esa jins va tur belgilari o'zgaradi. Fazodagi harakat mangu, uzluksiz bo'lgani uchun ham. boshqa turlarga qaraganda ustun turadi.

Jismning fazodagi harakati 3 turli bo'ladi: 1) aylanma harakat, 2) to'g'ri chiziqli harakat va 3) 1 va 2 harakatning qo'shilishi natijasidagi harakat.

Bunda to'g'ri chiziqli harakat uzluksiz bo'lishi mumkin emas. Olam shar shaklidir, uning radiusi esa chekli, oxiriga ega.

Aylanma harakat boshqa turlarga qaraganda ancha mukammal, chunki u mangu va uzluksizdir. Ikkinchidan, yaxlitlik aylanma harakatda harakatsizligicha qoladi. Olam aynan ana shundaydir: u o'z markazida abadiy harakat qiladi, lekin bunda olamning markazidan boshqa qismi harakatda bo'ladi. Uinchidan, aylanma harakat tekis harakat bo'lib hisoblanadi.

Aristotel fizikasi, asos e'tibori bilan miqdoriy asosga emas, sifatiy asosga tayanadi. U bir fizik hodisalarning boshqa hodisalarga o'zgarishini e'tirof etadi. Levkipp va Demokrit qarashlariga qaraganda bu ancha asosli. Ular sifat o'zgarishlarini tan olmaganlar.

Aristotelga ko'ra, nimaning harakatlanishi to'g'risidagi masala ham muhimdir. Uningcha, elementlar harakatidagi farqlar ularning shakllari o'rtasidagi farqlar bilan belgilanmaydi. Ularning harakati o'rtasidagi tafovutlar egallab turgan joylariga bog'liq. Aristotelning ta'kidlashicha, agar jism o'ziga xos bo'lgan joyda turgan bo'lsa, harakatsiz bo'ladi. Agar tabiatan egallashi kerak bo'lgan joyda turmasa, u harakatda bo'ladi, chunki o'zining tabiiy joyini egallashga intiladi. Misol keltiradi: Yer olamning markazida turgani uchun (o'z joyida turgani uchun) harakatda bo'lmaydi. Agar tuproq uyimini tepaga qarab otsak, u harakatda bo'ladi, ya'ni pastga, o'z joyiga intiladi.

Aristotel atomistlarning qator fikrlarini inkor etadi. Uningcha, atomistlarning atomlar shakllari sonsiz degan fikri xato, chunki unday bo'lsa, ularga xos xususiyatlarning ham soni cheksiz bo'lar edi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, harakatlar ko'p emas, demak jismlarda uchraydigan shakllar soni ham chekli.

Atomistlar atomlarni o'zgarmas deb hisoblaydilar. Bu xato. Chunki predmetlar o'zaro ta'sirda bo'lishi uchun atomlarda ham o'zgarishlar bo'lib turishi kerak.

Atomlar o'z-o'zidan harakatlanadi degan fikr ham xato, atom bunday tasavvur qilinsa, unda 2 ta element: harakatlantiruvchi va harakatlanuvchi farq qilinishi kerak. Bu esa, atom bo'linmaydi degan fikrga zid.

Atomistlar fikricha, atomlar og'irlikka ega, shuning uchun ular dastlab pastga qarab tusha boshlagan. Bunda atom tezligi uning og'irligiga, og'irlik esa miqdorga bog'liq bo'lgan. Tushayotganda og'irroq bo'lgan atomlar yengil atomlar bilan to'qnashib, ularni balandga ko'targan. Shu tariqa uyirmali harakat vujudga kelgan va u, o'z navbatida, dunyoni vujudga keltirgan. Bu gipoteza, Aristotel fikricha, bo'sh fazoning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bo'shliqning markazi bo'lmagani uchun, uning tepasi ham, pasti ham bo'lmaydi, demak atomlar pastga qarab harakatlana olmaydi.

Geosentrik sistema. Aristotelning borliq to'g'risidagi ta'limotining muhim qirrasini geosentrik konsepsiyasi tashkil etadi. U olamning markazida harakatsiz Yerning majudligini e'tirof etishni taqozolaydi. Bu qarash Aristotelgacha bo'lgan matematik va astronomlar tomonidan uzoq vaqt davomida shakllantirilgan. Ulardan biri Kichik Osiyodagi Knidalik Yevdoks hisoblanadi. U Pifagorchi Arxit hamda Platon shogirdi bo'lgan. Platon pifagorchilardan yoritgichlarning mukammal ekanligi, aylana bo'ylab tekis harakat qilishi to'g'risidagi tasavvurlarni o'zlashtirgan. Planetalar harakatiga notekislik xos. Bu Oyga, Quyoshga tegishli emas. Planetalar avval "to'g'ri" harakat bilan harakatlanadi, ya'ni Quyosh va Oy harakatlangan tarafga qarab harakatlanadi, lekin keyinchalik ma'lum bir paytda harakatdan to'xtaydi(ularni o'rab olgan yulduzlar orasida) va teskariga qarab aylana boshlashadi. Undan keyin yana "to'xtash" sodir bo'ladi va yana teskari yo'nalishda harakatlanadi. Buning natijasida yulduzlar osmonda turli o'lchamga ega bo'lishadi.

Bu anomoliyalarga o'xshab ko'rinadigan planetalar harakatidagi xolat pifagorchilarning yorigichlar harakatining mukammalligi to'g'risidagi tasavvuriga zid edi va uni tushuntirishni taqoza etardi. Buni tushuntirish vazifasini Platon qo'ygan edi: u planetalar harakatidagi "anomoliyalar"ni tekis aylanma harakatlarni qo'shish orqali chiqarib tashlashni taklif etgandi.

Platon qo'ygan savolga Yevdoks birinchi bo'lib javob berishga urinadi. U o'q atrofida biri ikkinchisiga muayyan burchak ostida engashgan holda aylanadigan konsentrik sferalar mavjudligi to'g'risida gipotezani ilgari suradi. Bu gipotezani Kalipp ancha mukammallashtiradi: u Quyosh, Oy, planetalarning har biri uchun biri ikkinchisini davom ettiradigan ko'p sferalar mavjudligini (masalan, Oy uchun turli xil o'q atrofida aylanadigan besh sferaning mavjudligini

ta'kidlaydi; ustozlari Yevdoks uni uchta deb bilgan edi) aytadi. Bu sferalarning borliqda real mavjudlik yoki yo'qlik ekanligini Yevdoks va Kalipplar o'ylab ko'rishmagan, ular buni matematik, geometrik metodlar yordamida keltirib chiqarishgan.

Aristotel ilk bor bu sferalarni real tarzda mavjud deb hisoblaydi. Ularni biri ikkinchisining ichiga joylashtirilgan sharlar tarzida tasavvur qilib, biri ikkinchisiga harakat bag'ishlaydi, deb hisoblaydi. Ularning hammasi real tarzda harakatlanadi, barchasi kristall singari tiniq. Ularning eng chetkisi – harakatsiz yulduzlar sferasi. Aynan ana shunga olamning harakatsiz dastlabki harakatlantiruvchi kuchi tegib turadi, buning oqibatida harakatsiz yulduzlar birinchi harakatlantiruvchi kuchga aylanib qolishadi. Chetki sfera bilan markazda joylashgan harakatsiz Yer o'rtasida konsentrik tartibda planetalar, Quyosh, Oy sferalari joylashadi. Yoritgichlar va planetalar bu sferalarga mahkamlangan va ular bilan birga har bir planetaga xos tezlikda harakatlanishadi. Aristotelning bu kosmologik sistemasini tez orada Eritosfen, Gipparx, Ptolomeylar qurishgan geosentrik sistema siqib chiqardi.

Ayni paytda, Aristotelning boshqa kosmologik qarashlarining ta'siri kuchli bo'ldi. Xususan, bu olamni ikkiga: Yerga (to'rt elementi bilan birga: tuproq, suv, havo, olov) va osmonga (beshinchi element- efirga) ajratdi. Efirdan osmon jismlari va osmonning o'zi paydo bo'ladi. Bu- abadiy mavjud va mukammal bo'lgan jismlar sohasi. Bunda osmon jismlarining eng mukammal bo'lib hisoblangan harakatsiz yulduzlari bor. Ular yasalgan modda – efir. Ular Yerdan shunchalik uzoqda joylashganki, 4 ta Yer elementi ularga ta'sir ko'rsata olmaydi. Quyosh va Oy ham efirdan tashkil topgan, biroq ular harakatsiz yoritgichlar, yulduzlardan farqli o'laroq, Yerning 4 ta elementi ta'sirida bo'ladi.

Yerda mavjud predmetlar 4 ta yer elementidan: tuproq, suv, havo, olovdan paydo bo'ladi. Ular Yerda joylashgan bo'lib, to'xtovsiz o'zgarish, almashish, paydo bo'lish va halokatga uchrash sohasini tashkil etishadi. Elementlarning orasida og'irroq'i hisoblangan Yer (tuproq) olamning markazini egallaydi. U sharsimon shaklga ega, buni Oy tutilganda Oy diskiga qarab siljiydigan Yer soyasining dumaloq shaklda bo'lishi tasdiqlaydi. Yer shari suv bilan o'ralgan, suv qatlami ustida havo qatlami joylashgan. Yengilroq bo'lgan element–olov bo'lib, u Yer va Oy oralig'idagi makonda o'rnashgan hamda beshinchi element efir chegarasi bilan kesishadi.

Aristotel fikricha, faqat olamdagi jismlargina emas, balki harakatlar ham 2 ta turga bo'linadi: mukammal (aylana bo'ylab tekis harakat) va nomukammal (ya'ni, to'g'ri chiziqli) harakatlar. Mukammal harakatning sof namunasi bu harakatsiz yulduzlar sferasining Yer atrofida aylanishi.

Unchalik mukammal bo'lmagan harakatlar namunasi - bu planetalarning notekis va qisman og'ishgan harakati. Planetar harakatning murakkabligi va chalkashligi ularga yer elementlarining ta'siri bilan taqozalangan.

Harakatning nomukammal shakli—bu yuqoridan pastga qarab, yoki Yer markaziga qarab bo'lgan harakat. Bundan Aristotel, Yer faqat olamning markazini egallabgina qolmay, undan tashqari yana unda harakatsiz bo'ladi ham, deb xulosa chiqaradi. Agar Yer harakatga kelgan taqdirda ham, qaytadan to'xtab qolgan bo'lar edi.

Aristotelning harakat to'g'risidagi qarashlarining maqsadga muvofiqlik kontekstida F. Koplston talqini e'tiborga loyiqdir. Aristotelning fikricha, har qanday tabiiy harakat maqsadga ega. Xo'sh, tabiatda qanday maqsad mavjud? Bu - imkoniyat holatidan borliq holatiga rivojlanish yoki materiyadagi shakllar uyg'unlashuvi. Garchi Aristotel' tabiatda qandaydir ongli maqsad mavjudligiga mantiqan izn bergan bo'lsa-da, Aflotundagi kabi, unda ham tabiatga nisbatan teologik qarashlar mexanistik qarashlardan ko'ra ustunroq. Biroq uning teleologiya-si (ilohiyoti) barcha narsani qamrab ololmaydi va barcha joyga singib keta olmaydi, binobarin materiya ba'zan teleologiyaga bo'ysunmaydi (jumladan, majruhlarning paydo bo'lgan holat materiyaning o'zidagi nuqsonlar bilan izohlanadi). Shu sababli, ba'zan hech qanday maqsadni ko'zlamaydigan hodisalar ham ro'y beradi, biroq yuzaga kelgan holatlardan zinhor qochib bo'lmaydi. Buning uchun, jumladan, garchi majruhlarning paydo bo'lishiga “norozi bo'lsa-da”, “tabiatga ko'ra” ro'y beruvchi hodisalarni chorlovchi τὸ αὐτόμα-τον yoki “g'ayriixtiyoriylik” javobgar. Bu kabi hodisalar noxush va ular, jumladan, xazina topib olingan holatdagi kabi quvonchli holatni o'zida aks ettiruvchi “baxtli tasodif”dan keskin farq qiladi.

Tabiatda hamma narsa ma'lum bir maqsadda yuz beradi, deya ta'kidlashga Aristotel' haqlimidi? Aflotun olamdagi rux va demiurg tamoyilini ilgari surgan va shu sababli u tabiatda barcha narsa nima uchundir qilinadi, deydi. U holda, Aristotelning so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, teologik (ilohiy) faollik - tabiatga xos xususiyat. Haqiqatan ham, ba'zan u Tangrini yodga oladi, biroq tabiat qay yo'sinda Tangri bilan bog'langanligini anik tushuntirib bera olmaydi. “Metafizika”dagi Tangriga bergan tavsifi esa uning tomonidan tabiatga nisbatan har qanday maqsadga yo'naltirilgan faolligiga barham beradi. Ehtimol, buni Aristotelning empirik fanga nisbatan yildan-yilga kuchayib borayotgan qiziqishining unga Tangri to'g'risidagi masala bo'yicha o'z nuqtai-nazarini aniq belgilab olishiga imkon bermagani, va boz ustiga, bu qiziqishning Aristotel' ilmiy qarashlarining uning metafizik fikrlariga to'g'ri kelmasligi to'g'risidagi o'rinli ayblovga sabab bo'lgani bilan izohlash mumkindir. Aristotelning tabiat teleologiyasiga (tabiatda hamma narsa oldindan belgilangan maqsadga muvofiq

qilib yaratilgan, deya talqin qiluvchi diniy talimot) oid qarashlarini inkor etish yoki unga shubha qilish fikridan mutlaqo yiroq bo'lgan holda, Aristotel' metafizik nazariyasining yoki uning ilohiyotining unga tabiat to'g'risida aqlan boshqariluvchi tizim sifatida so'z yuritishiga huquq bermasligini e'tirof etish joizdir; u buni ko'p bora takrorlagan. Shak-shubhasiz, Aristotelning ushbu mulohazalari sof mavhumlik alomatini kasb etadi.

Aristotelning fikriga ko'ra, borliq – Oy ostidagi (yorug' olamdagi) va Oy ustidagi (samovotdagi) kabi ikki turli olamdan iborat. Samovot olamida yo'q bo'lib ketishga, o'zgarishlarga yuz tutmaydigan yulduzlar joylashgan. Ular fazoga joylashib, to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki aylana bo'ylab harakatlanadi. Faqat to'rt unsurgina to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanadi. Aristotelning ta'kidlashicha, yulduzlar boshqa unsurdan – aylana bo'ylab joylashishdan boshqa hech qanday o'zgarishlarga yuz tutmaydigan beshinchi va eng oliy unsur bo'lgan e'firdan iborat. Aristotel' Yer doira shaklida bo'lib, borliqning markazida harakatsiz joylashgan, uning atrofida esa suv, havo va olov yoki kul qatlamlari joylashgan, deydi. Ulardan tashqarida samo gumbazi joylashgan, ulardan eng uzoqdagisi harakatsiz yulduzlar doirasi bo'lib, dastlabki dvigatel tomonidan harakatga keltiriladi.

Aristotel' Kalippning sferalar soni o'ttiz uchga (aynan shunday miqdor sayyoralar harakatini izohlashga imkon beradi) teng, degan g'oyasini o'zlashtirgani holda, yana teskari tomonga harakatlanuvchi yigirma ikki sferaning ham mavjud ekanligini e'tirof etadi. Bu sferalar boshqa sferalarning qo'shni sferadagi sayyoralar harakatini buzishga intilishiga qarama-qarshi turish maqsadida boshqalariga o'tib ketadi. Shu tariqa, unda eng uzoq sferani hisobga olmagan holda, ellik beshta sfera bo'lgan va bu shundan dalolat beradiki, nima uchun Aristotel' "Metafizika"da yulduzlar sferasini harakatlantiruvchi dastlabki dvigateldan tashqari, ellik beshta harakatlanmaydigan dvigatellar ham mavjudligini ta'kidlaydi (Uning e'tirofiga ko'ra, agar Kalippning emas, balki Yevdoksning hisoblashini haqiqiy deb oladigan bo'lsak, u holda ellik beshta emas, balki qirq to'qqizta sfera bo'ladi). Aristotelga ko'ra, bu olamda ayrim narsalar yuzaga keladi va yo'qoladi, turlar va navlar esa-abadiy.

Shunday qilib, Aristotel' ta'limotida biz zamonaviy mazmundagi tadrijiylik g'oyalarini topa olmaymiz. Biroq, garchi Aristotel' turlarning tarixiy tadriji nazariyasini yarata olmagan bo'lsa-da, "ideal" darajadagi tadrij deya ataluvchi tadrijni yoki Shaklning roli yanada baland darajaga ko'tarilib, barcha narsa yanada kuchayuvchi butun mavjudotning tuzilish naza-riyasini-borliq tuzilishini tavsiflovchi nazariyani yarata bildi. Ushbu tuzilish negizida noorganik materiya joylashgan bo'lib, undan so'ng organik materiya joylashgan, zero o'simliklar – kamroq takomillashgan va hayvon-lardan bir pog'ona pastda joylashgan. Biroq,

hatto hayot tamoyili sifatida o'simliklarning ham joni bor, Aristotel' buni "yashashga qodir tabiiy tana entelexiyasi" ("Ruh haqida" risolasida qo'llangan tushuncha) sifatida talqin qiladi. Ruh, tanadan ajralmagan holda bir paytning o'zida uning shakli shamoyili, harakatlanishi tamoyili va uning maqsadi ham bo'lib hisoblanadi. Tana ruh uchun mavjud va har bir a'zo – uning faolligini ta'minlash maqsadiga ega.

Tana va ruh munosabati. Aristotel' "Ruh haqida"gi risolasining boshida ruhni tadqiq qilish naqadar muhim ekanligi to'g'risida so'z yuritadi, zero "ruh - bu jonli mavjudotning go'yoki virtual ibtidosidir".

Biroq ushbu muammo birmuncha murakkab, shu sababli tadqiqotning to'g'ri usulini topish oson emas. Aristotelning ta'kidlashicha, faylasuf va naturalist-olim turli usullardan foydalanadi va shu sababli o'z talqini turlicha shakllantirishi g'oyat to'g'ri. Turli fanlar tadqiqotning turli usullarini qo'llashini barcha mutafakkirlar ham tan olavermagan, va, shundan kelib chiqqan holda, qandaydir fan sohasida kimyogarning yoki tabiatshunosning usullarini qo'llay olmasligi haqiqatni buzib ko'rsatishga olib kelmasligi kerak.

Murakkab substansiya – bu ibtidosi ruh deya atalmish, hayotga ega tabiiy tana. Tana ruh bo'lishi mumkin emas, zero tana – bu hayot emas, balki hayot kasb etadi. "Ruh haqida"gi risolaning birinchi kitobida Aristotel' turli faylasuflarning qarashlarini va psixologiya tarixini tavsiflar ekan, ibtido borasida ularni moddiy deb sanovchilar va nomoddiy deya tan oluvchilar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjudligini e'tirof etadi. Bu masalada Aristotel o'zini Levkipp va Demokritning emas, balki Aflotunning izdoshlari sirasiga qo'shadi

Shu tariqa, Aristotelda, tana ruh uchun materiya, ruh esa – tananing shakli yoki harakatidan iborat bo'ldi. Shu sababli Aristotel' ruhni izohlashda tana to'g'risida ruhdan mahrum bo'lgan narsa sifatida emas, balki ruhga ega narsa sifatida so'z yuritadi. Ruh, – bu tananing harakatlanishi sababi va undan ajralmaydi. Bunda, ehtimol tanadan ajralib chiquvchi qismlar mavjud bo'lishi mumkin, lekin ular tananing aniq harakatlanishi ko'rinishi hisoblanmaydi. Ruh – bu jonli tananing sababi va mohiyatidir: a) harakatlanish manbai sifatida; b) cheklovchi sabab sifatida va s) jonli tananing real substansiyasi (ya'ni rasmiy sabab) sifatida.

Turli xildagi ruhlar turli ko'rinishdagi jonli tanalarga taalluqlidir. Ruhning eng quyi (past) shakli o'simliklar ruhi (joni) hisoblanib, oziqlanuvchi moddalarni yutish va o'zi kabilarni aks ettirish bilan mashg'ul. Uni nafaqat o'simliklarda, balki hayvonlarda ham topish mumkin, garchi bunda u sof ko'rinishda, jumladan, o'simliklarda mavjud bo'lsa ham. Ushbu funksiyalar hayotni qo'llab-quvvatlash uchun muhim bo'lib, barcha jonli mavjudotlarda uchrasa-da, biroq o'simliklarda faqat ushbu funksilargina mavjud; ularning ruhi

(joni) bundan yuqori faollikni bilmaydi. O'simliklarga his qilishning keragi yo'q, binobarin ular harakatlanmaydi va mutlaqo avtomatik ravishda tuproqdan ozuqa modda-larini tortib oladilar. Bu narsa harakatlanmaydigan hayvonlarga ham taalluqlidir. Harakatlana oladigan hayvonlar esa, his qila olishi zarur, zotan ularning ozuqa izlashi behuda bo'lgan bo'lar edi; agar ular bu hoida ozuqa topganlarida ham, uni o'zlari uchun ozuqa ekanligini aniqlay olmagan bo'lardilar.

Hayvonlar birmuncha yuqori shakldagi ruhga – his qiluvchi ruhga, ya'ni hissiy qabul qilish, intilish va makonga oid harakatlanish kabi uchta qobiliyatga ega.

Aristotel' hayotni qo'llab-quvvatlash uchun oziqlanish zarurligi to'g'risida so'z yuritar ekan, hayvon o'z yemishini farqlay olishi uchun, hyech bo'lmaganida unga tekkan paytida uni paypaslab sezish zarurati ham muhim ekanligini va bu hayvonga yordam berishini e'tirof etadi. Hayvonni o'ziga chorlovchi yemishning ta'mi ham hayoti uchun nihoyatda muhim. Hayvon manfaati uchun boshqa, u qadar muhim bo'lmagan sezgilar ham mavjud.

Keyingi pog'onada inson ruhi joylashgan. Bu ruh o'zida quyi bosqichdagi ruhlar – o'simliklar, hayvonlar ruhi funksiyasini bajaradi, biroq– aql, fikrlash qobiliyati kabi boshqalarda mavjud bo'lmagan yana bir qobiliyatga ham ega. Aql ilmiy fikrlash ko'rinishida amaliy fikrlash ko'rinishidagi kabi ikki usulda faollikni namoyon qiladi. Birinchisining obykti haqiqat, o'zi uchun haqiqat sanaladi; ikkinchisining obykti ham haqiqat, biroq o'zi uchun bo'lmagan, balki amaliy maqsadlarga erishish va oqilona xatti-harakatlarni amalga oshirish kabi haqiqat sanaladi. Ruhning fikrlashdan bo'lak boshqa barcha qobiliyatlari tanadan ajralmas va o'tkinchidir; aql esa tug'ilishdan avval ham mavjud bo'lgan va o'lmasdir. Biroq tanadan makon topgan aql, ruhning o'z izlarini qoldirishi kerakligi imkoniyati tamoyiliga rioya qilishni talab qiladi.

Aristotel aqlni - serg'ayrat aql va bardosh beruvchi aql kabi ikki xil ko'rinishga ajratadi. Serg'ayrat aql bardosh beruvchi aqlni tushunchaga aylantiruvchi obrazlar yoki fantaziyalardan shakllarni tortib oladi (Aristotelning fikricha, fikrlashning barcha ko'rinishlari tasavvurga tayanadi). Faqat serg'ayrat aql o'lmasdir. Va bu aql alohida va hyech narsaga yuz tutmaydi, o'z mohiyatiga ko'ra faoliyatli bo'la turib, u hyech garsa bilan aralashmagan.

Aristotel jon to'g'risida ilgari surgan muhim g'oyalari, bildirgan jiddiy mulohazalari bilan psixologiyaning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shdi desak bo'ladi. Uning ilgari surgan muhim g'oyalaridan biriga muvofiq, yuqorida qayd etganimizdek, aqldan boshqa barcha narsalar (quyi pog'onadagilar), ya'ni jonning "o'simlik" va "hayvon"ga tegishli qismlari tana singari halok bo'ladi. Mazkur qarash jonning abadiyligi haqidagi an'anaviy ta'limotlardan bir oz farq qiladi. Keyinchalik sxolastikada Aristotelning jon haqidagi ta'limotiga xos bo'lgan

noaniqlik, yetishmovchilik, xususan uning jonning faol qismi bo'lgan aql mohiyati to'g'risidagi fikr-mulohazalarini qanday tushunish kerak, degan savol atrofida qizg'in bahslar bo'ldi.

Aristotelning idrok haqidagi qarashlari, ham xuddi shunday bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Idrok, uning fikricha, idrok etiladigan predmet xossa bilan idrok etadigan a'zo xossasi o'rtasida tafovut paydo bo'lganda yuzaga keladi. Masalan, agar predmet ham, organ ham bir xil haroratga ega bo'lsa, idrok yuzaga chiqmasligi mumkin. Aristotel idrok predmetining obyektivligi va mustaqilligini ta'kidlagani holda, uning mavjudligining passiv harakterga egaligini inkor etadi. Idrok etiladigan predmet xuddi idrokimizga qarab harakatlanayotgandek bo'lib ko'rinadi. Aristotel fikriga ko'ra, eng qisqa masofada turgan predmet teri sezgisi orqali idrok etiladi. Uzoqroq masofada joylashgan predmetlar esa insondan fazoviy muhit orqali ajralgan. Masalan, tovush eshitish a'zosiga yetib kelguncha, shu muhit orqali o'tadi; ana shuning uchun ham tovush bu a'zoga shu tovushni keltirib chiqargan zardobdan keyin yetib keladi. Bundan tashqari, bu tovush muhit bilan aralashib ketadi; agar masofa juda uzoq bo'lsa, uni ajratish qiyin bo'ladi. O'z tabiatiga ko'ra hissiy idrok-jism emas, u muhit orqali sodir bo'ladigan harakatdan iborat. Idroklar ichida ko'rish sezgisi alohida o'rin tutadi. Nur alohida tabiatga ega borliqdir. Uning harakati, keltirib chiqargan o'zgarishlari darrov idrok etiladi.

Xotira, eslash avval mavjud bo'lgan tasavvurlarni qayta tiklashdan iborat. Uni idrok etilgan predmetlar bilan bir tartibda bo'lgan o'xshash predmetlarni idrok etish vujudga keltiradi¹.

Aristotelning bilish nazariyasi uning ontologiyasi-borliq haqidagi ta'limotiga tayanadi.

Bilish, Aristotel fikricha, subyektning obyekt bilan muvofiqligi bo'lgani uchun, turli jinslarga mansub obyektlar uchun mos bo'lgan jon qismlari bo'lishi kerak. Aql shunda chin bo'ladiki, qachon axloqiy fazilat, niyat (orzu, maqsad) bilan birga keladigan odatdan tashkil topsa, niyat, hohish – motivlarini taroziga solishga intilsa. Intilish niyat yaxshi bo'lganda va intilish niyat bilan aynan bo'lganda to'g'ri bo'ladi. Mana shu holatlar mavjud bo'lganda tafakkur va uning yordamida erishilgan xaqiqat amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bilishning maqsadi, uningcha, haqiqatga erishishdan iborat. Haqiqatga erishish, xatoga yo'l qo'ymaslik, nimaning zaruriy va nimaning o'zgaruvchan ekanligini aniqlash vositalari, Aristotel fikricha, fan, amaliyot, donishmandlik va aqlidir. Biroq, bilimning oliy prinsipiga nisbatan hych qanday fan, yoki amaliyot, yoki san'atning bo'lishi mumkin emas: fan isbotlashni talab etadi, san'at va

¹ Aristotelning maqsadga muvofiqlik hamda tana va ruh munosabati masalalari bo'yicha mulohazalari to'g'risida qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003, p 322-326

amaliylik o'zgaruvchan narsalarga taalluqli. Donoga ham, xuddi olimdagi singari, ba'zi narsalarni isbotlashi kerak bo'lganligi sababli, uning ham oliy prinsiplarga aloqasi yo'q. Demak, uningcha, bu prinsiplarni aqlga tegishli deb aytish mumkin.

Aristotelga ko'ra, fan predmeti – mangu va zaruriy, faoliyat esa boshqa narsaga mansub, ya'ni u zaruriy narsa emas. Shuningdek, faoliyat ijod yoki san'atdan ham farqlanishi zarur. Ijodning maqsadi - undan tashqarida mavjud.

Demak, Aristotel ilmiy bilimni san'atdan ham, tajribadan ham, o'y-fikrdan ham farq qiladi. Bilimdan farqli o'laroq, san'at buyumlarni (yoki asarlarni) ishlab chiqaradi. Demak, u amaliyot va ishlab chiqarish sohasi; bilim sferasi predmetni mushohada qilish, his etish, nazariya, aql bilan ko'rishdan tashkil topadi. Ilmiy bilim predmetiga ko'ra borliq to'g'risidagi bilimdir. Shunga qaramay, baribir fanning san'at bilan umumiyliigi bor–har ikkalasi ta'lim orqali uzatiladi. Shuning uchun ham san'at tajribaga nisbatan ko'proq bilim hisoblanadi, u chin mulohazalar bilan birga keladi.

Bilimning oddiy tajribadan va san'atdan farqi shundaki, u har ikkalasi uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bilimdan farqli o'laroq, tajribaning predmeti faktlar bo'lib hisoblanadi (bunda yakka faktlar nazarda tutiladi). Tajribaning asosi – sezgilar, xotira va odatlarda. Biroq, bilim sezgilar bilan bir hil emas. To'g'ri, har qanday bilim sezgilardan boshlanadi. Bu tezisni Aristotel bilish nazariyasi uchun asosiy deb biladi. Agar predmetga mos keladigan sezgi bo'lmasa, unda unga mos keladigan ishonchli bilim ham yo'q. Tajriba sezgilar bilan taqozalanganligi uchun, aql bevosita sezish predmetini bilishga muvaffaq bo'ladi; u yakkada bevosita–umumiyni, jinsni, masalan, Kallinda (odam ismi)–“inson”ni topadi. Lekin, bu yakkada umumiyni topish bilimdan farq qiladi: sezgilar fazo va vaqtning o'zgarishiga bog'liq, ilmiy bilish esa – bog'liq emas. Bilim o'y-fikrdan ham farq qiladi. O'y-fikr ehtimoliy asoslarga suyanadi. To'g'ri bilim chinligi unga yetarli asos bo'lgandagina tasdiqlanadi. Chinligi asoslangandan keyin bilimni rad etib bo'lmaydi. O'y-fikrga qarshi boshqa o'y-fikr bildirilishi mumkin. O'y-fikr “tebranib” turadi, ilmiy bilim esa- mustahkam.

Platon singari, Aristotel uchun ham, chin bilim kuzatilayotgan faktlar, tushunchalar va metodlar bilan tanishishni taqoza etadi. Narsalarni o'rganish, tabiatning umumiy qonunlarini, tafakkurning mantiqiy asoslarini o'rnatish uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Mehnat qilmasdan falsafiy diskurs ko'nikmalarini o'zlashtirib bo'lmaydi. Lekin, shuni ham aytish kerakki, Aristotel fikricha, falsafiy mushohada o'z-o'zidan odamni fozil bo'lishiga olib kelmaydi. Ana shuning uchun

ham, hayotda nafaqat bilim egallashga, balki fozillikka ham intilib yashash lozim va buning uchun davlat fuqarolarga zarur sharoit yaratib berishi zarur¹.

Aristotel fikrcha, bilimdan oldin bilish predmeti mavjud. Bu tomondan olib qaralganda, bilim bilan sezgilar o'rtasida farq yo'q. Shu ma'noda ular o'rtasidagi munosabat qaytmas jarayon deb qabul qilinadi. Agar bilim paydo bo'lgan deb olinsa, unda predmet va bilim ajralmas yaxlitlikda deb hisoblanadi. Aristotelga ko'ra, predmet uni bilgunga qadar bilimning mumkinlik tarzidagi predmeti bo'lib hisoblanadi. Bilib olingandan keyin u haqiqiy predmetga aylanadi. Shu ma'noda bilish jins egallovchidir, ya'ni maxsus jinsning borliq usulidir.

Ilmiy bilimning asosiy xususiyatlari:

1. Isbotlanganlik (eng umumiylik va zaruriylikning);
2. Tushuntirish qobiliyati
3. Birlikning bo'ysunish bosqichlari bilan birligi.

Aristotel fikrcha, fan-isbotlay oladigan borliq turi. Isbot faqat umumiyga tegishli. Masalan, Oyning tutilishi takrorlanib turadi, u bir xil shart-sharoitda sodir bo'ladi. Har bir alohida olingan holat Oy tutilishining xususiy holi bo'lib hisoblanadi.

Ilmiy bilim mazmunining zaruriyligi va qo'llanilishining eng umumiyligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyati ilmiy bilimning tushuntirish qobiliyatiga ega bo'lishini taqozolaydi.

Ilmiy bilimlar vazifalari: 1) birorta holatni qayd etish; 2) uning sababini aniqlash; 3) faktning mohiyatini tadqiq etish; 4) fakt mavjud bo'ladigan yoki bo'lmaydigan holatlarni o'rganish.

Bilim olish jarayoni bizlarga ma'lum bir munosabatda bo'lgan narsalardan (ya'ni, subyekt–obyekt munosabatining o'rnatilishidan) boshlanadi, ya'ni bizlar uchun birinchi bo'lgan tushunchadan, o'z-o'zicha birinchi bo'lgan tushunchaga o'tishdan iborat bo'ladi.

Aristotel "Metafizika", "Topika" asarlarida fanlar tasnifi masalasiga murojat qilgan. U fanlarni nazariy va amaliy ilmlarga ajratadi. Nazariy fanlar, uningcha, boshlang'ich asos, predmetlar sabablari to'g'risida bilim beradi va shuning uchun ham ularning falsafa bilan "fikri" bir. Nazariy fanlar inson amaliy faoliyatini boshqarishga oid masalalar bilan shug'ullanuvchi amaliy fanlar bilan bog'liq bo'lib, ularni mushohada yuritish, kerakli natijalarga erishish, tadqiq etilayotgan masalalarning to'g'ri yechimini topish vositalari bilan ta'minlaydi va shu tariqa, ular uchun ishonchli nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu holat amaliy

¹ Qarang: Pyer Ado. Chto takoye antichnaya filosofiya? / Perevod s fransuzkogo V.P. Gaydamaka - M.: Izdatelstvo gumanitarnoy literatury, 1999 - S. 102

va poetik fanlarda aqliy mushohadaning oqibatdan sababga, ibtidoqarab yo'nalishini belgilaydi. "Amaliyot", ya'ni amaliy mushohada doirasida fikrning bunday harakati individdan oilaga va oiladan davlatga tomon, "ijod"doirasida esa, poetikadan (badiiy ijod nazariyasidan) ritorikaga (notiqliq san'atiga) va undan dialektikaga qarab yo'nalgan bo'ladi. Bunday "harakatda Arastu ilmiy abstraksiya, bilimlarni formallashtirish prinsipi bilan Afltotunning "g'oyalar dunyosi", ya'ni shakllar nazariyasini yengish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga majbur edi"¹. Bu holat Aristotelni tabiat hodisalarini o'rganuvchi fanlar, ayniqsa, fizika va u bilan uzviy bog'liq matematikani qiyosiy tahlil qilish, ularning metafizikaga munosabatini, borliqni o'rganishdagi tutgan o'rni, vazifalari va ahamiyatini aniqlashtirish masalasi bilan jiddiy shug'ullanishga undadi desak bo'ladi. Ana shuning uchun ham buyuk allomaning fanlar tasnifini borliqning "shakllari" pillapoyasiga qiyos qilishadi. Haqiqatda ham, "Bu tasnifda har bir fanning o'rni jismning sof shakliga yaqinligi bilan aniqlanadi"²

Mantiqiy ta'limoti. Aristotel ijodining muhim qirrasini uning mantiqqa oid qarashlari tashkil etadi. Mantiqning fan sifatida shakllanishini haqli ravishda uning nomi bilan bog'lashadi. Aristotel o'zigacha bo'lgan mantiqqa oid fikr-mulohazalarni umumlashtirgan, tizimga solgan holda ularni izchil tarzda yoritdi hamda tafakkurning mantiqiy shakl va qonuniyatlari, usullari haqida mukammal ta'limotni – mantiqni yaratdi. Mantiqning vazifasi, Aristotel talqinida, izoh manbalari bo'lib xizmat qilishga qodir bo'lgan elementlarga aylanuvchi usullarni o'rganish va ko'rsatishdan iborat. Aristotel o'zining asosiy maqsadini to'g'ri xulosa chiqarish san'ati haqida ma'lumot berishda deb tushunadi. Bu san'at haqidagi ta'limotni Aristotel «fan» deb ataydi. Lekin bu atamani Aristotel «ilmning maxsus sohasini emas, balki keng ma'noda isbotlash shartlari, uning ko'rinishlari, darajalari, umumiy qoidalarini aniqlashga imkon beradigan tadqiqot sifatida qo'llaydi»³.

Aristotel mantig'i asos-e'tibori bilan xulosa chiqarish va isbotlash nazariyasidir. Ana shuning uchun bo'lsa kerak, Aristotel tafakkurning mantiqiy shakl va qonunlari haqidagi ilmni «Analitika» (xulosa chiqarish haqidagi ta'limot) va «Apodiktika» (isbotlash haqidagi ta'limot)ga ajratdi. «Analitikalar» asari aynan ana shu nazariyaning asoslarini bayon qiladi. Xususan «Birinchi Analitika»da sillogizm fikrni qurish shakli, «Ikkinchi Analitika»da esa isbotlash usuli sifatida tadqiq qilinadi. Xulosa chiqarish va isbotlash ko'proq analitik tamoyillarga

¹ Yo'ldoshev S.Arastu.- Toshkent: O'qituvchi, 1998-B.33

² Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.-T.: "Sharq", 2003- B.90

³ Lukanin R. K. Organon Aristotelya. -M.: Nauka, 1980. -S. 6.

asoslanadi¹, va, bu jihatdan olganda, Aristotelning mantiqiy ta'limotini matematik kategoriyalar va usullarni falsafiy talqin etish natijasida vujudga kelgan, deb hisoblash mumkin bo'ladi.

Aristotel tafakkurning boshqa shakl, qonuniyatlari, usullari to'g'risida va, umuman, turli falsafiy-mantiqiy masalalarga oid ko'p asarlar yozib qoldirgan. Uning shogirdlari mutafakkirning mantiqqa oid asarlarini to'plab va tizimga solib, unga «Organon» (bilim, fikrlash quroli) nomini berdilar. «Organon» Aristotelning bevosita tafakkur shakllari va qonunlari to'g'risidagi olti asarini o'z ichiga oladi: 1) «Kategoriya»lar asarida tushunchalar, ularning turlari, eng umumiy ilmiy tushunchalar – kategoriyalar, ularning ilmiy qiymati, tushunchalar bilan bog'liq mantiqiy amallar bayon etiladi; 2) «Talqin haqida» deb nomlanuvchi asari hukmlar haqidagi ta'limotni, xususan, ularning tuzilishi, turlari, ahamiyati, fikrlash jarayonida tutgan o'rni kabi masalalar muhokamasini o'z ichiga oladi; 3) «Birinchi Analitika» asarida mantiqiy tafakkurning eng muhim shakli – xulosa chiqarish, ayniqsa deduktiv xulosa chiqarish (sillogizm), uning mantiqiy strukturasi va turlari masalalari tadqiq etiladi; 4) «Ikkinchi Analitika» asarida xulosa chiqarish bilan uzviy bog'liq bo'lgan isbotlash, xususan, isbotlashning asoslari, tuzilishi, turlari, isbotlash qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar kabi qator masalalar izchil yoritilgan; 5) «Topika» kitobi fikrlash jarayonida foydalaniladigan turli mantiqiy kategoriyalar, ayniqsa ehtimoliy bilimlarni tahlil etuvchi usullar, yo'l-yo'riqlarni, xususan, dialektik usullarni tahlil etishga bag'ishlangan; 6) «Sofistik raddiyalar haqida» asarida muhokama yuritish jarayonida vujudga keladigan turli noto'g'ri xulosalar, ularning sabablari, turlari, zarari va ularni aniqlash hamda to'g'rilash yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Aristotel «Organoni» mantiq muammolarini tizimli ravishda bayon qilgan, mantiqqa fan maqomini berishga olib kelgan fundamental asar bo'lib, uning o'zagini sillogizm nazariyasi tashkil etadi. Hozirgi formal mantiqning asosiy tushunchalari, qonunlari, prinsiplari ilk bor aynan Aristotel tomonidan shakllantirilgan, ta'riflangan va tavsiflangan.

Aristotelning «Organon»iga kirmagan boshqa asarlari ham, ayniqsa, uch kitobi: «Jon haqida», «Fizika», «Ritorika» mantiq ilmining turli masalalariga oid fikrlarga boy. Aristotelning eng muhim falsafiy asari - «Metafizika»da ham mantiqning asosiy elementlari, shu jumladan, tafakkur qonunlari xususida fikr yuritiladi. Aristotel kashf etgan va izohlab bergan tafakkurning uch mantiqiy qonuni: 1) ayniyat, 2) nozidlik 3) uchinchi istisno qonuni haqidagi mulohazalar aynan ana shu «Metafizika» asarida bayon etilgan. Yana shuni alohida ta'kidlash zarurki, Aristotel bu asarida «tafakkur shakllari va qonunlarini ularning tildagi (nutqiy) ifodalari»² bilan bog'lab tadqiq etgan. «Analitikalar»da esa tilni maxsus tadqiqot obyektiga aylantirdi va unda tilning ichki tuzilishi sifatida tahlil qilgan narsasi mantiqan to'g'ri xulosalash (sillogizmlar, dalil-isbotlar) bo'ldi³.

¹ Shuning uchun ham bo'lsa kerak, Aristotel bu termindan ham xulosa chiqarish to'g'risidagi ta'limotni, ham asosiy mantiqiy asarini nomlash uchun foydalangan.

² Axmanov A. S. Logicheskiye ucheniye Aristotelya. –M., 1960. –S. 74.

³ Qarang: Shirbe G., Gilje N. The history of philosophy. Polity press. -2002. -S. 131.

Aristotel mantig'i haqida ko'p yozilgan, uning turlicha talqinlari mavjud. Ana shulardan biri F.Koplstonga tegishli bo'lib, u e'tiborini Aristotelning tafakkur, fikrlash jarayonini fazilat sifatida olib qarashi, boshqa fazilatlar, xususan, axloqiy fazilatlar bilan bog'liqligida talqin qilishiga qaratadi. Keling, uning yondashuviga nazar solaylik. Fikrlash-mulohaza qilish topqirliksiz mavjud bo'la olmaydi, ammo birinchisini ikkinchisiga taqqoslab bo'lmaydi, chunki, fikr-mulohaza qilish - bu fazilat. Boshqacha aytganda, mulohaza qilish - maqsadga erishish yo'llaridagi topqirlik; ammo u har qanday maqsad uchun emas, faqat insonga haqiqiy yaxshilik olib keladigan maqsad yo'lidagi topqirlikdan iborat. Ayni paytda, u bizga to'g'ri maqsad qo'yishga yordam beradigan fazilat, shuning uchun ham mulohaza qilish ma'naviy fazilatlarisiz mumkin emas. Aristotel inson to'g'ri ishlar qila olishini yoki yaxshi fazilatlarga ega bo'lmay turib, qonunga muvofiq ishlar qilishi mumkin emasligini yaxshi tushunar edi. Bizlar, odatda, insonning yaxshi ekanligini uning ishlariga qarab baho beramiz, buning uchun fikr-mulohaza qilish talab qilinadi. Aristotel fikricha, "tabiiy" eziguliklar (masalan, bola mehribon bo'lmasdan turib, tabiatan jasur bo'lishi mumkin) bir-biridan alohida-alohida mavjud bo'lishi mumkin, lekin ma'naviy fazilat to'la ma'noda inson qalbi bilan birlikda bo'lishi kerak, buning uchun fikr-mulohaza qilish talab etiladi¹.

Aristotel dialektikasi. Aristotelning mantiqqa oid asarlari bilan tanishish ularda metod masalasining ustuvorligini ko'rsatadi va bu uning dialektika to'g'risidagi qarashlarini tushunishga yordam beradi. Xususan, mutafakkir metod bilan bog'liq uchta masalani alohida ajratadi:

- 1) *ehtimoliy* bilimni tadqiq etish metodi masalasi; buni o'rganuvchi mantiq qismini *dialektika* deb ataydi va unga yuqorida zikr etilgan "Topika" asarini bag'ishlaydi;
- 2) *ta'riflash* va *isbotlash* metodlari masalasi bo'lib, ular *ishonchli bilim* tavsifiga bag'ishlangan;
- 3) *induksi* – bilimning *asoslarini* topish metodi masalasi².

Yuqorida ta'kidlanganidek, Aristotel bilishning maqsadini mavjudot, predmetlar to'g'risida chin bilimga ega bo'lishda deb bilgan. Lekin bilishning tabiati shundaki, hamma vaqt ham, barcha hollarda ham inson ko'rilayotgan masala bo'yicha birdaniga chin, *ishonchli* bilimga ega bo'lavermaydi. Ba'zan hosil qilingan bilim *ehtimoliy* bo'ladi. Shu tariqa, bilishda, ayniqsa ilmiy bilishda ehtimoliy bilimdan chin bilimga o'tish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bu alohida metodni qo'llashni talab etadi. Aristotel uni "dialektika" deb ataydi hamda Sokrat va Platon

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.278-279

² Qarang: Asmus V.F Antichnaya filosofiya.- M.: Vysshaya shkola,1999-S.234

ishlatgan ma'nosidan chekinib, ehtimoliy bilimlardan chin bilimlarga o'tishni tayyorlovchi, ilmiy metodga yaqinlashib keluvchi metod sifatida talqin qiladi. Ma'lumki, Sokrat uchun dialektika predmet to'g'risida amaldagi qarashlar, falsafiy tasavvurlardagi ziddiyatlarni tahlil qilish orqali ishonchli bilimni qidirish usuli edi. Platon esa dialektikani hissiyotga tayanmaydigan, jimsiz "eydoslar", yoki "g'oyalar"ni idrok etish jarayonida aqlni mashq qildirish orqali haqiqiy mohiyatni bilishga erishish to'g'risidagi ta'limot deb tushungan. Har ikkalasida "dialektika"-ishonchli bilim metodi.

Aristotel , garchand dialektikaning predmetini ehtimoliy bilimlar ni o'rganish bilan cheklab qo'ygan bo'lsada, "biroq ana shu cheklanish orqali dialektikaning keyingi rivoji yo'lida katta qadam qo'ydi hamda ehtimol bilimlar bilan haqiqiy bilimlar o'rtasida aniq chegara qo'yishga muvaffaq bo'ldi"¹. Aristotelida "dialektika" talqinining o'ziga xosligi shunda namoyon bo'ladiki, u shubhaga o'rin qoldirmaydigan haqiqatlarni bayon qiluvchi bilim emas, u haqiqatga erishish yo'lidagi tadqiqotdan iborat. Uning fikricha, "dialektika" predmeti - haqiqatning o'zi, ya'ni predmetiga mos keluvchi bilim bo'lmay, faqat muhokama etilayotgan masala terminlari o'rtasida, bahs ishtirokchilari mulohazalarida formal ziddiyatlarning yo'qligi, xolos. Ana shunday ma'noda talqin qilingani uchun "dialektika" termini ba'zan Aristotel asarlarida va ularga bag'ishlangan adabiyotlarda qo'shtirnoq ichiga olib yoziladi².

Aristotel dialektikasining mohiyati, birinchidan, suhbat, bahs jarayonida savol qanday qo'yilishi va qanday tadqiq etilishi, xususan, xulosalashning qanday qurilishi va uning qanday qilib javobni topishga olib kelishi, ikkinchidan, javobda nimaning yolg'on bo'lishini tekshirish usulini taqdim etishida namoyon bo'ladi. "Dialektika yo'llovchi savollar qo'yish san'atidir"³, - deydi alloma. Savol qo'yib, javob qidirishda quriladigan xulosa chiqarish shakli sillogizmdan ibora bo'lgani uchun Aristotel "sillogistik dialektika" terminini ishlatadi. Shuning bilan birga , u bilimning asosini qidirishda induktiv metodning qo'llanilishini ham yoddan chiqarmaydi. Sillogizmدا, ya'ni deduksiyada mushohadaning umumiydan yakkaga, induksiyada esa, aksincha - yakadan umumiyga qarab yo'nalganidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu holatlar Aristotel dialektikasining falsafiy asosini yakkalik va umumiylik munosabati masalasi tashkil etishini bildiradi.

Aristotelga ko'ra, dialektika bilishning universal metodidir, u borliqning birorta sohasini bilish bilan cheklanmaydi. "Zero, hamma narsa ham borliqning

¹ Yo'ldoshev S.Arastu.- Toshkent: O'qituvchi, 1998-B.21.

² Masalan, karang: Asmus V.F Antichnaya filosofiya.- M.: Vysshaya shkola,1999-S.234-237.

³ Aristotel. Soch. v 4-x tt.T.2 – M.: "Mysl", 1978 – S.556

muayyan bir sohasiga tegishli bo'lavermaydi, agar shunday bo'lganda, ular borliqning yagona boshlang'ich asosi orqali tushuntirilib bo'lmas edi"¹.

Birinchi muallim fikricha, umumiylik va yakkalik metafizika va konkret fanlar, ya'ni falsafiy va xususiy-ilmiy bilimlar aloqadorligida o'zining aniq ifodasini topadi. U yozadi: "Barcha fanlar ular uchun umumiy bo'lgan asos orqali umumiylikka ega. Umumiy deganda men isbotning nima haqida bo'layotganini va isbotlanayotgan narsani emas, balki isbotni amalga oshirishda foydalanishadigan asosni tushunaman. Dialektika esa barcha fanlar bilan ish ko'radi. Barcha boshlang'ich asoslar uchun umumiy bo'lgan umumiylikni, masalan, barcha narsalar uchun chin hisoblangan tasdiq yoki inkor shakldagi fikrni, yoki teng bo'lgan narsadan teng narsani ayirsang, teng narsa qoladi, degan mulohazani va shu kabilarni isbotlashga urinadigan narsa ham fan bo'lgan bo'lardi. Biroq dialektika qandaydir juda aniq bo'lgan narsa yoki birgina jins bilan ish ko'rmaydi. Aks holda u savollarga murojat qilmagan bo'lardi. Isbotlovchi kishi savol qo'ymaydi, chunki o'zaro qarama-qarshi fikrlardan bir xil narsa isbotlanmaydi"².

Aristotel dialektikaning foydaliligi haqida gapirar ekan, uning uchta maqsad uchun alohida ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi: mashq qilish uchun, og'zaki suhbat uchun, falsafiy bilimlar uchun. Xususan, "falsafiy bilimlar uchun uning foydaliligi shundaki, birorta tomonning to'g'ri ekanligiga shubha uyg'onganda bizning har bir konkret vaziyatda chin yoki yolg'onni payqashimizni osonlashtiradi. Dialektikani tadqiq etish yana barcha fanlar uchun boshlang'ich asosni bilishda foydalidir. Chunki muayyan bir fanning boshlang'ich asosidan kelib chiqib barcha fanlar uchun umumiy boshlang'ich asos haqida gapirib bo'lmaydi, chunki u barcha fanlarga tegishlidir... Zero, tadqiqot usuli sifatida u (ya'ni dialektika – M.Sh.) barcha fanlarning boshlang'ich asoslariga yetib borishga yo'l ochib beradi"³.

Aristotel fikricha, "Dialektika sinash (suhbatdosh mushohadasini – M.Sh.) san'ati hamdir"⁴. Buni u quyidagicha tushuntiradi. Dialektik sillogizmning mantiqiy kuchi – uning ichki ziddiyatlardan xoli ekanligida. Biroq, uning bu ustunligi faqat ehtimoliy xulosa olishga imkon beradi, xolos. Bunday yo'sindagi tadqiqotni haqiqatni o'rnatish deb emas, sinash deb hisoblash zarur.

Shuni ham ta'kidlash joizki, sistemali tarzda ishlab chiqilgan "sinash"- bu faqat mantiqiy mashq emas. "Sinash" fikrni juz'iy holat, tasodif doirasidan *eng umumiylik* sferasiga olib chiqadi. Lekin bu eng umumiylik hali zaruriylik emas. Bunda "dialektika"ning maqsadi ta'riflash, yoki rad etishdan iborat.

¹ Shu asar.- B.351

² Shu asar.- B.277

³ Shu asar.- B.351

⁴ Shu asar.- B.556

Aristotelning ta'kidlashicha, savolga javob berayotgan kishidan fikrni tasdiqlash yoki inkor etishni talab qilish isbotlovchining emas, sinayotganning ishidir. "Zero, sinash san'ati muayyan turdagi dialektika bo'lib, u biladigan kishiga emas, balki bilmaydigan, lekin o'zini biladigan qilib ko'rsatuvchiga qaratilgan. Ana shuning uchun ham kim haqiqatda (barcha narsa uchun) umumiyini tadqiq etayotgan bo'lsa, u dialektikdir; buni ko'rinish uchun qilayotgan kishi esa – sofist. Eristik va sofist xulosa chiqarish – bu, birinchidan, sinash san'ati sifatida dialektika shug'ullanayotgan masalaga nisbatan olib qaralganda, qalbaki xulosa chiqarishdan iborat, hatto u chin bo'lsa ham shunday, chunki u sabab to'g'risidagi fikrda aldab qo'yadi"¹. Aristotel fikricha. "Bahsni yaxshi ko'radiganlar ham, sofistlar ham bir xil dalillardan foydalanishadi, lekin turli maqsadlarda. Bitta dalil ham eristik, ham sofist bo'ladi, lekin bitta narsa uchun emas: eristikada – qalbaki g'alaba uchun, sofistkada qalbaki donishmandlik uchun. Amalda sofistika haqiqiy donishmandlik emas, qalbaki donishmandlikdir. Eristikning dialektikka munosabatini ma'lum bir ma'noda chizmani xato bajarganning geometrga munosabatiga o'xshatsa bo'ladi"².

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Aristotel "dialektika"ni universal bilish metodi sifatida talqin qilar ekan, ayni paytda, uning mantiqiy mazmuniga, mantiqiy tavsifiga ko'proq e'tibor qaratadi.

Axloqiy qarashlari. Axloq masalalariga oid muhim savollarni qo'yib, ularni tadqiq etgan mutafakkirlardan biri ham Aristoteldir. U mazkur savollarni ko'proq etika doirasida muhokama qilgan va unga uchta asarini: "Nikomax etikasi" (otasi Nikomaxga bag'ishlangan) "Yevdem etikasi" (do'sti va shogirdi Yevdem yozmalari asosida tuzilgan), "Katta etika" (yuqoridagi ikkita asardan olingan parchalardan tashkil topgan) bag'ishlagan.

Aristotelning axloqiy faoliyat va axloqiy jasoratlar to'g'risidagi masalalarni qo'yishi, shu jumladan, axloq kategoriyalarini tadqiq etishi falsafiy yondashish asosiga qurilgan: u olam va unda insonning faoliyatini qamrab oladi.

Birinchi muallim fikricha, axloq masalasini tadqiq etishga kirishishdan avval quyidagi savollarni qo'yib, ularga javob topish kerak: 1) baxt-saodat nima? 2) inson baxt-saodatga erishishga qodirmi yoki yo'qmi? 3) baxt-saodatga erishish uchun qaysi yo'ldan borish kerak? 4) inson eng buyuk maqsad baxt-saodat ekanligini tushunib yetadimi?³ Mazkur savollar hozirda ham o'zining ilmiy qimmatini yo'qotgan emas.

Ularga javob qidirar ekan, Aristotel axloqiy fazilatlar va ularni aks ettiruvchi kategoriyalarga murojaat qiladi. Uning fikricha, barcha fanlardagi kabi axloqda

¹ Shu asar.- B.554-555

² Shu asar.- B.555

³ Qadimgi va O'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. – Toshkent, 2003. – B. 102.

ham biror narsaning mohiyatini bilmay turib, uni hosil qilishni tushunib bo'lmaydi. Ana shuning uchun ham, fazilat nimaligini birinchilar qatorida Pifagor tahlil qilgan, ammo u masalaga noto'g'ri yondashgan. Xususan, Pifagor fazilatlarini raqamlarga tenglashtirgan, ularni o'z-o'ziga ko'paytirilgan raqam deb hisoblagan.

Aristotel Sokrat fikrlariga ham qo'shilmaydi, chunki u fazilatlarini bilimlarga tenglashtirgan, aslida bu ham to'g'ri emas. Chunki barcha bilimlar fikr-mulohaza bilan bog'liqdir; fikr-mulohaza esa inson ruhining fikr yurituvchi qismida vujudga keladi. Sokrat ruhning aqliy quvvatdan boshqa quvvatlarini, jumladan, ehtiros va fe'l-atvorni yo'qqa chiqaradi: uning kamchiligi ana shundadir.

Platon, Aristotel fikricha, ruh quvvatlarini aqliy va noaqliy deb, ikkiga bo'ladi va bu bilan masalaga to'g'ri yondashadi. Shuningdek, u ruhning ikkala qismiga xos fazilatlarini ham aytib o'tadi, tavsiflaydi. Lekin, shundan so'ng yanglishadi: fazilatni o'zining oliy ne'mat haqidagi ta'limoti bilan bog'lab, noto'g'ri xulosaga keladi, xususan, oliy ne'matni fazilatlariga bog'liq emas, deb tushuntiradi.

Aristotel fikricha, axloqiy fazilatlarini muhokama etishda shunga e'tibor berish kerakki, har qanday ilmda va hunarda qandaydir maqsad bo'ladi; aynan ana shu maqsad ne'mat hosil qilishni ko'zda tutadi. Barcha fazilatlar, ne'matlar uchun umumiy bo'lgan, ularni birlashtiradigan umumiy asos, maqsad – oliy ne'mat mavjud¹. Mukammal maqsad baxt-saodatdir. Lekin “baxt-saodat juda ko'p, turli-tuman ne'matlardan tashkil topadi”². Ana shu ne'matlarga, fazilatlariga erishishga intilib yashash baxt-saodatga eltadi. Mana shu fikrlarga tayanib, Aristotel quyidagi xulosaga keladi: *“Demak, oliy ne'matga erishishdan maqsad fazilat va kamolot hosil qilishdir, buni hosil qilishdan maqsad esa - baxtli yashashdir. Mukammal maqsad mukammal fazilatlarda barkamollikka erishishdir. Go'zal fazilatlariga amal qilib yashaganimizda, biz baxt-saodatni va oliy ne'matni qo'lga kiritami.”*³.

Aristotelga ko'ra, insonga, boshqa barcha narsalardagi singari, ezgu maqsadga ichki intilish xos, lekin bu intilishlar to'siqlarga duch keladiki, ular ham inson tabiatiga tegishlidir. Aristotel masalaning bu tomonini juda yaxshi his qilganligi ko'rinib turibdi. Komillikka intilayotgan, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qilayotgan odam bugungi kunda ham ko'p mashaqqatlarga duch kuladi, hayotning og'ir sinovlaridan o'tishga majbur bo'ladi. Uning negizida hayotga qarama-qarshi yondashuvlarning mavjudligi, ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik kabilarning yonma-yon yashashi yotadi. Bunga e'tiborini qaratib,

¹ Qarang: Arastu. Poetika. Ahloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 96-97.

² Shu asar – B. 103.

³ Shu asar – B. 105.

birinchi Prezidentimiz ikki xil hayotiy qarash – ezgu va xolis ishlar bilan xalqqa naf yetkazishni o'ylaydigan insonlar hamda o'zining nafs qayg'usi, huzur-xalovatini o'ylab, yengil-yelpi umr kechiradigan odamlarga xos hayotiy qarashlarni ajratadi va bu ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo'ladigan og'ir savollar odamzodni qadimdan o'ylantirib kelayotgani, unga turli millat va e'tiqodga mansub mutafakkirlar, faylasuflar javob topish uchun izlangani, ko'plab asarlar yaratganini, bu savollarning hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolayotganini alohida ta'kidlaydi¹.

Biroq, oxir-oqibatda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qilishi ham – o'z tasdig'ini topgan haqiqat. Adolat ana shunda ham namoyon bo'ladi. Niyati pok kishining har qanday faoliyati muayyan ezgulikka, ne'matga qarab yo'naladi. Bunda ba'zi bir maqsadlar o'z holicha ahamiyatga ega bo'lmay, boshqa maqsadlarni amalga oshirishga bo'ysundirilgan bo'lishi mumkin. Lekin shunday bir maqsad borki, uni qo'yishni har bir kishi hohlaydi. U-oliy ne'mat.

Oliy ne'mat, o'z mazmuniga ko'ra, farog'at, to'kin-sochinlik, yaxshi hayot va faoliyat. U moddiy boylikdan ham, huzur-halovatdan ham va fozillikdan ham iborat emas. Masalan, boylik hayotning oliy maqsadi bo'la olmaydi, chunki u boshqa maqsadga erishish vositasi, "mukammal ne'mat – o'z-o'ziga bo'ysunadi". Hayot ne'mati, o'z-o'ziga bo'ysungani holda, o'z-o'ziga maqsad bo'lishga va hech narsaning bo'lishiga muhtoj emas. Oliy ne'mat, o'z mazmuniga ko'ra, insonning o'ziga xosligi, uning bu dunyoda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Boshqa jonzodlardan farqli o'laroq, inson ichish-yeyishdan boshqa aqlga ham egadir. Shuning uchun ham insonning asosiy vazifasi- aql bilan faoliyat yuritishdir. Komil inson esa ana shu faoliyatni ajoyib tarzda- fozilga xos xislat ila amalga oshirish uchun yaratilgan.

Aristotelga ko'ra, oliy ne'matga intiluvchi hayot faqat faol bo'lishi kerak. Bizning borlig'imizni mumkinlik tarzida mavjud bo'lgan energiyani ro'yobga chiqarish tashkil etadi. Namoyon bo'lmagan yaxshi fazilatlar farog'atga olib kelmaydi. Bu yerda, xuddi Olimpiya munosabatlaridagi singari, mukofot chiroyligiga emas, musobaqada yutganga tegadi².

Fozillar tavsifi. Oliy ne'matga erishish, Aristotel fikricha, oliy maqsaddan tashqari unga bo'ysunadigan ma'lum miqdordagi quyi maqsadlarni qo'yishni ham taqoza etadi. Ularning mohiyatini tushunib yetish uchun komil inson ta'rifiga

¹ Qarang: Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – B. 22-23.

² Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.279.

murojaat etish, undan kelib chiqish zarur. Mukammal inson o'z faoliyatini axloqiy mukammallikka erishishga yo'naltiradi, buning sharti esa fozillik yoki jasorat, faoliyatda to'g'ri harakat, maqsaddan iborat.

Fazilatlar – affektlar (nafrat, qo'rqinch, jasorat) ham, qobiliyatlar (qobiliyat uchun maqtashmaydi ham, qoramaydi ham) ham emas. Fazilatlar orttirilgan xususiyatlardir. Fazilat ikki nuqsonning: mo'l-ko'lchilik va yetishmovchilik o'rtasi; uni topish qiyin, chunki aylana markazini har kim ham topa bilmaydi, shuning uchun ham axloqiy kamolot juda kam erishiladigan, ayni paytda, maqtovg'a sazovor va go'zal narsadir.

Fazilatning manbai – ruh-ko'ngildir. Ko'ngil ikki qismdan: aqliy quvvatga ega bo'lgan hamda aqldan tashqari qismlardan tashkil topadi. Ko'ngilning aqliy quvvatga ega qismiga oqillik, zukkolik, farosatlilik, zehnlilik va shunga o'xshash hislatlar kiradi. Aqldan tashqari qismiga esa insof, adolat, mardlik kabi axloqiy xislatlar tegishlidir. Bunday hislatlarga erishish insondan faollikni, shuningdek, iroda kuchini ishga solishni taqozo etadi.

Fazilatlarini Aristotel 2 ga ajratadi: etik va dianoetik fazilatlar. Birinchisi xarakter fazilatlarini, ikkinchisi-intelektual xarakter fazilatlar. Masalan, saxiylik, tiyqlik – etik fazilatlar, donolik, aqllilik va es-xushini yig'ish – dianoetik fazilatlar hisoblanadi. Etik fazilatlar odatlardan paydo bo'ladi. Dianoetik fazilatlar asosan ta'lim, tajriba asosida shakllanadi va ma'lum bir vaqt o'tishini taqazo etadi. Dianoetik fazilatlarini tushuntirish uchun Aristotel "Nikomax etikasi"ning 6-kitobida jon haqidagi ta'limotini qisqacha bayon qiladi. Jonni aqlli va aqlsiz qismlarga bo'lib, o'z navbatida aqliy qismini ham ikkiga ajratadi: birinchisi yordamida borliq prinsiplarini mushohada qilinadi, ikkinchisi orqali o'zgarishga qobiliyatli bo'lgan prinsiplar idrok etiladi.

Aristotel ta'kidlaganidek, iroda (ixtiyor erkinligi) maqsad, niyat vositalari bilan ish ko'radi. Haqiqiy maqsadga intilish shaxsiy tanlovga bo'ysunmaydi va inson, xuddi ko'radigan bo'lib tug'ilgani singari, ana shu intilish bilan ham tug'ilishi zarur. Kim tabiatiga ko'ra ana shu sifatga mukammal ega bo'lsa, ana shu fazilatli insondir¹. Uningcha, ba'zilar, "modomiki, fozil odam bo'lish o'zinning hohish-irodamga bog'liq, ixtiyorimda ekan, uni hohlasam fozil bo'la olaman", deb o'ylashim mumkin. Ammo hayotda bunday bo'lishi mumkin emas, chunki hatto, badan tarbiyasi ishlarida ham bunga erishib bo'lmaydi. Ko'ngil, dil parvarishi haqida gap ketganida shuni aytish mumkinki, eng fozil bo'lishga intilgan odam,

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.280

agar u tabiatan fazilatli bo'lmasa, o'z maqsadiga erisha olmaydi. Biroq, "shu intilishi tufayli avvalgi holatidan ko'ra fazilatliroq bo'lishi mumkin"¹.

Yuksak axloqiy fazilatlarining shakllanishida aql, uning yordamida bilimning ahamiyatini ko'rsatish Aristotelning axloqiy tushunchalarni tadqiq etishga yondashishining muhim bir jihatini tashkil etadi.

Mutafakkir fikricha, inson hayotining xaqiqiy maqsadi – xuzur-halovat emas, balki farovonlikdir. Farog'at-bo'sh vaqtdadir. Aqlga muvofiq kechirgan hayot insonni inson qiladi. Oliy jasorat haqiqatni nazariy mushohada qilishdan iborat.

Aristotel fikriga ko'ra, oliy jasorat haqiqatni nazariy mushohada qilishdan iborat. Jasorat, mo'tadillik, saxiylik, bag'rikenglikda ifodalangan qonun insonning fozil, erkin, yorqin tipidan iborat. Aristotelning etik ideali ana shunday xislatlarga ega insondir. Ayni ana shu hislatlar hayot ideali bo'lgan xaqiqatni mushohada etishga o'rgatadi. Demak, uningcha, **asosiy etik ideal – xaqiqatni anglash.**

Aristotelning axloqiy ta'limotida adolat kategoriyasi alohida o'rin tutadi. "Etika"ning beshinchi kitobinda u adolat haqida so'z yuritadi va o'z tushunchasini bayon qiladi. Bular: a) qonuniylik; b) adolat va tenglikka olib boruvchi («Nikomax etikasi»).

Adolat to'g'risida gapirar ekan, Aristotel uning xususiy shaklini ikki turga bo'ladi: taqsimlovchi adolat va tenglashtiruvchi adolat. Birinchisida taqsimlash prinsipi bo'lib, shaxslarning sha'ni, nomusi xizmat qiladi. (xizmatlari, axloqiy jasorati va b). Bu proporsionallik prinsipidan iborat. Ikkinchisida iqtisodiy asoslardan, xususan arifmetik proporsionallikdan kelib chiqiladi. Tenglashtirish ehtiyoj tufayli zarur bo'ladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar shuni ko'rsatadiki, Aristotel axloq tushunchalarini o'rganishga o'z davri ijtimoiy muhitidan kelib chiqib yondashgan. Uning ba'zi mulohazalariga qo'shilmaslik mumkin. Lekin axloqiy fazilatlar orasida zamon o'zgarishiga qarab o'z mazmun-mohiyatini yo'qotmagan, asrlar sinovidan o'tgan, barcha davrlar uchun birdek ahamiyat kasb etib, inson ma'naviy qiyofasini belgilaydigan axloqiy fazilatlar, ularni ifoda etuvchi tushunchalar borki, ularning ilmiy va amaliy qadr-qimmatini zamoni tanlamaydi, abadiy mavjud umuminsoniy axloqiy qadriyatlar sifatida saqlanadi, yangi avlodlar uchun muhim ma'naviy kuch bo'lib qolaveradi. Aynan ana shunday masalalarni muhokama etganligi bilan Aristotel axloqiy ta'limoti qadrlanadi.

Iqtisodiy qarashlari. Adolat kategoriyasini Aristotel ko'proq iqtisodiy munosabatlar tizimi misolida tushuntiradi. Xususan, u qiymat masalasini "adolat"

¹ Arastu. Poetika. Ahloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 114.

muammosining xususiy xoli deb olib qaraydi. Xo'jalik ne'matlarini ayirboshlash, uningcha, adolat prinsipiga asoslanishi kerak. Adolatning xususiy xoli moddiy ne'matlarga teng munosabatdir. Shunga muvofiq holda, insoniy fazilat - bu, avvalambor, to'g'ri mo'ljal ola bilish, mos hatti-harakat qilish, yaxshilikning bor joyini aniqlash demakdir. Bunday ko'nikmani Aristotel "o'rtacha" tushunchasi orqali ifodalaydi. "O'rtacha" deganda, mutafakkir, yomon bilan yaxshilikning o'rtasini emas, balki yaxshiliklarning o'rtasini, aniqrog'i, eng yaxshisini tushunadi¹.

Inson, aniqrog'i, fazilatli inson ortiqcha boylikdan, to'kin-sochinlikdan ham, yetishmovchilikdan ham chetlashadi, ular o'rtasidagini tanlaydi. Inson komillikka intilishi kerak, chunki u barcha narsa to'g'risida to'g'ri fikr yuritadi va barcha xollarda unga hayot xaqiqati ochiladi: u xaqiqatning o'lchovi va me'yori sifatida barcha juz'iy hollardagi haqiqatni ko'radi. Fazilatli hatti-harakat qilishning shart-sharoitlari esa quyidagicha: 1) o'z harakatini anglashi zarur; 2) shunday harakat qilish kerakki, u vosita emas, balki o'z-o'zicha maqsad bo'lsin; 3) muayyan prinsiplarga qat'iy rioya etishi kerak.

Aristotel adolatning xususiy shaklini ikki turga bo'ladi: taqsimlovchi adolat va tenglashtiruvchi adolat. Birinchisida taqsimlash prinsipi bo'lib, shaxslarning sha'ni, nomusi xizmat qiladi. (xizmatlari, axloqiy jasorati va b). Bu proporsionallik prinsipidan iborat. Ikkinchisida iqtisodiy asoslardan, xususan arifmetik proporsionallikdan kelib chiqiladi. Tenglashtirish ehtiyoj tufayli zarur bo'ladi.

Adolatsizlik, mutafakkir fikricha, moddiy ne'metlarga tengsiz munosabatning xususiy ko'rinishidir.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Aristotel uchun inson hayotining xaqiqiy maqsadi xuzur-xalovat emas, balki farovonlikdir. Farovonlik-bo'sh vaqtdadir. Aqlga muvofiq kechirgan hayot insonni inson qiladi.

Fazilatlar ichida inson uchun eng zarur bo'lgani–boylik. U insonning ko'zlagan maqsadiga erishishi uchun quroldir. Boylik deganda Aristotel aniq ma'noda xo'jalik uchun zarur buyumlar, oilaga va davlatga foydali, inson hayoti uchun kerakli narsalarni yig'ishni, yaratishni tushunadi. Farovonlik–ortiqcha boylikka ega bo'lishni anglatmaydi. Boylikka ega bo'lganlar ikki guruhga bo'linadi. Birinchisini isrofgarchilikka yo'l qo'yib, tejamkorlik to'g'risida o'ylamaydiganlar tashkil etadi. Ikkinchisini o'ta xasis me'yoridan ortiq tejaydiganlar tashkil qiladi. Har ikkala guruh kishilarini fazilatli deb bo'lmaydi.

¹ Qarang: Asmus V.F. Antichnaya filosofiya. – M., 2000. – S. 271.

Eng yaxshi odamlar o'rtacha yo'ldan – me'yoricha sarf etish va tejash yo'lidan boradi.

Mana shu bilan bog'liq holda Aristotel xo'jalik yuritishning 2 ta turini alohida farq qiladi: “ekonomika” va “xrematistika”. Ekonomika, ya'ni iqtisod xo'jalik yuritishning to'g'ri usuli, u oila va uning a'zolarini oliy maqsad-farovonlikka erishish uchun zarur bo'lgan narsalarga ega bo'lishga imkon beradi. “Xrematistika” esa, oliy maqsadga emas, cheksiz boylik orttirishga undaydi.

Aristotelning estetik qarashlari. Estetikaning fundamental tushunchalaridan biri go'zallik ekanligi ma'lum. Go'zallik haqida gapirar ekan, Aristotel, avvalambor, oddiy yoqimlik bilan chiroylilikni farqlaydi. Xususan, u hissiyot orqali tanlashni estetik tasavvur orqali olingan tanlashdan farqlagan. Shu orqali real go'zallikni ideal go'zallikdan, ya'ni istakni yuzaga keltiradigan go'zallikni farqlagan. “Metafizikada” u matematik fanlar ham chiroylilikdan aloqasini uzmagani, yoqimli hissiyotlarni yuzaga keltiradi, deydi.

Aristotelning go'zallik bilan yaxshi holatni farqlaganini aniq aytib bo'lmaydi, chunki hech qayerda u haqida aytib o'tmagan. “Ritorikada” chiroylilik- bu yaxshi holat, deb aytib ketgan, xolos. Bu, albatta, nima chiroyli va nima axloqiy degan narsalarni belgilab bermaydi.

Aristotel fikricha, poeziya alohidalikdan ko'ra universallik xususiyatiga ega. Boshqacha aytganda, poeziya abstrakt narsalar bilan shug'ullanadi, bu esa falsafaning ishi. Shuning uchun Aristotel didaktik poeziyani inkor etgan, chunki falsafiy tizimni she'rda bayon qilish-bu ritmli falsafiy asar yozishdir va uning she'riyatga umuman aloqasi yo'qdir.

Aristotel “Poetika” asarida epik janr- tragediya va komediyani tahlil etgan va ayniqsa tragediya tavsifiga keng to'xtalgan; tasviriy san'at, skulptura va musiqalar faqat eslab o'tiladi¹.

Aristotelning siyosiy nazariyasi

Jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limotida ham Aristotel qiziqarli mulohazalarni bildirgan. Uning ta'kidlashicha, komil inson – mukammal fuqaro bo'lishi uchun davlat ham mukammal bo'lishi kerak. Oliy maqsad - xaqiqatga mushohada etish yo'li bilan erishish intellektual intuisiya bo'lsa-da, biroq inson tabiati nomukammal. Ana shu nomukammalligi tufayli hayot qator ne'matlarga, fazilatlariga muxtoj, ular oliy maqsadga nisbatan quyida turadi va unga bo'ysunadi. Shuningdek, insonga tana sog'lig'i, ovqat, zaruriy shart-sharoitlar kerak.

Davlat, Aristotel fikricha, qandaydir muomala turini anglatadi. Davlatlar o'rtasidagi munosabat muomalaning oliy shakli, deb asoslanadi. Davlat doirasida

¹ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003,p.334-335

boshqa ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos maqsadlari va yo'llarining yaxshi sistemasi mavjuddir.

Davlat (davlat deganda Aristotel grekcha polisni tushunar edi – M.Sh.) har qanday jamiyat kabi, qandaydir bir maqsad uchun yashaydi. Davlatning maqsadi - inson farovonligi, uning ma'naviy va intellektual hayoti uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat.

Aristotel fikricha, oila bu - oddiy, jo'n birlik bo'lib, hayot davomiyligini ta'minlash va kundalik ehtiyojlarni qondirish uchun kerak; bir necha oilalar qisqa muddatli ehtiyojlarni emas, uzoqni ko'zlab harakat qilishsa, aholi punktlari paydo bo'ladi. Bir qancha aholi punktlari birlashib, undan davlat paydo bo'ladi. U ehtiyojlarni qondirish, yaxshi hayotni qurish uchun mavjud bo'ladi, shu bois Aristotel, davlat oila va boshqa birliklardan farq qiladi, deydi. Faqat davlatda shaxs o'zining barcha ehtiyojlarini qondirishi mumkin, ehtiyojlar tabiiy ekan, demak, u ham tabiiydir. Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki. inson tabiatan siyosiy hayot bilan bog'liq va bunda davlat uni ta'minlaydi va bu tabiiy holdir; kishi davlatsiz axloqiy rivojlanmagan bo'lardi yoki super odam hisoblanardi.

Aristotelga ko'ra, tabiat insonga nutq berib, jamiyatni shaklantirdi. Ijtimoiy hayot rivojining yakuni - bu davlatdir. Davlat shaxs va oiladan ustun turadi, chunki davlatsiz hech kim farovonlikka erisha olmaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishmay. o'zini mustaqil hisblagan kishilar yo past, yo ilohiy odamlar hisoblanadi. Davlat fuqarolarning baxtli va farovon yashashi uchun xizmat qiladi. Bunday konsepsiya, agar u mistik va totalitar nuqtai-nazarda bo'lmasa, yashashga loyiqdir. Aristotel, imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, ko'p davlatlarni, imperiyalarni ko'rmagan bo'lsa-da, hamda faqat grek shahar-davlatlarini bilgan bo'lsa-da, o'zining konsepsiyasini chuqur, yaxshi izohlab bera olgan.

“Siyosat” asarida oilaviy munosabatlar deyarli qul va quldor o'rtasidagi munosobatlarga va boylik to'plash kontekstida olib qaralgan. Qullik tabiiydir. Tug'ilganidan boshlab kimdir-qul va kimdir-quldor. Tabiatan kimdir erkin, kimdir esa qul bo'lishi adolatli va foydali.

Aristotel kishilarni ikki ijtimoiy guruhga bo'lib tashlagan va qullarni past qatlamga mansub deb hisoblagan. Ammo uning quldorlar o'z vakolatlarini suiste'mol qilmasliklari va qullarning vaqti kelib erkin bo'lishi mumkinligini aytishi Aristotelni muayyan darajada “oqlaydi”. Undan tashqari, u qulning bolasi har doim qul emasdir; urush va boshqa larda adolatsizlikka yo'l qo'yilishi mumkin, deydi. Baribir, Aristotelning qullikni qo'llab-quvvatlashi uning tor ijtimoiy tajribadan kelib chiqib fikrllashidan dalolat beradi. U ba'zida qullikning ijtimoiy asosini inkor etsa, ba'zida uni qo'llab-quvvatlab, o'z falsafasini shunga to'grilaydi.

Aristotel fuqarolar burchlari haqida afina demokratiyasidan kelib chiqib aytgan bo'lib, bu hozirgi saylovga asoslangan tizimdan farq qiladi. Xususan, uningcha, hamma kishilar hukmronlik qilishi va ijrochi bo'lishi va bu rollar almashinib turish kerak. Undan tashqari, ular sudning va Kengashning ishida ishtrok etishi shart.

Davlatning har xil turlarini muhokama qilib, Aristotel ularni umum manfaatlarni himoya qiladigan va shaxsiy maqsadlarni ko'zlaydigan davlatlarga ajratgan. Bu ikki turning o'zi 3ta yaxshi va 3ta yomon (yoki normadan chekingan) ga ajratiladi . Ular quyidagilardan iborat:

Monarxiya – unda davlat rahbarining “o'zi Qonun”.

Politiya (respublika)–unda hokimiyat ko'pchilikning qo'lida bo'ladi, lekin ko'pchilikning birdan-bir fazilati – harbiy fazilat.

Tiraniya (zolim shox hukmronligi)ni Aristotel qattiq qoralagan.

Oligarxiyada ozchilik ko'pchilik ustidan hukmronlik qiladi.

Demokratiyada xokimiyat demagoglar qo'lida bo'lib, ular xalqning boshiga bitgan balodir.

Aristokratiyada davlat bilimdon, iqtidorli, tajribali rahbarlar tomonidan boshqariladi .

Uchtasi–monarxiya, aristokratiya, politiya davlat boshqaruvining yaxshi shakllaridir. Qolgan uchtasi–tiraniya, oligarxiya, demokratiya davlat boshqaruvining yomon shakllari bo'lib hisoblanadi. Monarxiyadan chekinish-bu tiraniyadir. Aristokratiyadan chekinish-bu oligarxiya, politiyadan chekinish-bu demokratiyadir.

Boshqarishning har xil turlari haqida gapirib, Aristotel ulardan yaxshi xabardor ekanini namoyish qiladi. Uning uchun ideal davlat hukmdori shunday bo'lishi kerakki, u barcha fuqarolardan ustun bo'lib, uni tabiatan hukmdor yoki monarx deyish mumkin bo'lsin. Ammo aslida bunday mukammal insonning o'zi yo'q, umuman bunday qahramonlikka ega kishilarni jamiyatda juda kam uchratish mumkin. Shu bois, aristokratiya kamchilikka loyiq kishilar boshqaruvi bo'lib, monarxiyadan ustun turadi. Aristokratiya boshqaruvning yaxshi turi bo'lib, bunda boshqaruvda xalq masalasiga e'tibor qaratilgan bo'ladi va xalq o'zi ishongan yaxshi kishilarga hokimiyatni o'zi beradi. Ammo Aristotel tan oladiki, zamonaviy davlat uchun aristokratiya yetishib bo'lmaydigan ideallik bo'lib, shu bois polityaga urg'u beriladiki, bunda xalq ommasi qonun va tartib asosida boshqaruv o'rinlariga loyiq kishilarni tanlab qo'yadi. Politiyada hokimiyat tepasiga o'rta qatlam chiqadi; bu boshqaruv tipi oligarxiya va demokratiya o'rtasida turadi.

Bunday davtlarda hokimiyat oligarxiyaga emas, ko'pchilikka tegishli bo'ladi; ammo, demokratiyadagi singari, mulksiz aholi boshqaruvga yaqinlashtirilmaydi, masalan, armiyaning og'ir piyodalar qo'shinida faqat mulki

bor fuqarolar xizmat qila oladi. Aristotelning ta'kidlashicha, politiyaga Afinaning mil.avv. 411 yilgi konstitutsiyasini misol qilib ko'rsatish mumkin, ammo unda besh mingga yaqin armiyada xizmat qiladgan fuqarolar hokimiyatga qarashli bo'lib, Kengash yig'ilishlarida ishtrok etganida, boj to'lovidan ozod qilingan edi. Bu Feramen konstitusiyasi bo'lib, Aristotel undan hayratga tushgan. Ammo o'rta qatlamning nisbatan barqaror qatlam ekanligi va boylar ham, kambag'allar ham unga ishonchi yetarli asoslanilmagandek ko'rinadi.

“Siyosat” asarining 7 va 8 kitoblarida Aristotel ideal davlat haqida gapiradi. Uningcha, barqarorlik va taraqqiyotning yagona real kafolati - bu fuqarolarning tartibli va axloqiy tozaligidir. Aksincha, agar davlat axloqsiz bo'lsa va ta'lim jarayoni oqilona tuzilmagan bo'lsa, fuqarolar hech qachon davlatga munosib odamlar bo'la olmaydilar.

Aristotel fikricha, shaxs o'zining hayotiy tajribasi asosida rivojlanadi va komillikka erishadi. Bu jarayon davlat, jamiyat hayotidan ajralmagan holda amalga oshiriladi, davlat esa mukammalikka o'zining fuqarosini komilka erishtirish orqali yetishadi.

Aristotel davlatni yaxshi va yomonlikni belgilaydigan Leviatan deb hisoblamagan, uning Sparta davlatini tanqid qilganligi ma'lum. Davlatning bosh maqsadi-boshqa davlat ustidan hukmronlik qilish, urush olib borish, deb ahisoblash katta xato. Davlat farovon hayot tashkil etish uchun mavjud ekan, shaxs bo'ysunadigan qoidalarga u ham bo'ysunishi kerak. Aristotel “oliy farovonlik” shaxsiy va ijtimoiy hayotda bir xil, deb hisoblagan¹.

Aristotel iqtisodiy munosabatlarda muomalaning ijtimoiy shakllarini ko'radi va ularning ichidan 3 tasini alohida ajratadi: 1) oiladagi muomala; 2) umumiy xo'jalik ishlari bo'yicha muomala; 3) xo'jalikning baxt-saodat bilan almashish muomalasi. Davlat hayot uchun mavjud bo'lmog'i kerak. Aristotel davlatga quyidagicha tavsif beradi: davlat bir joyda yashovchi insonlarning o'zaro muloqoti, adolatsizlikka qarshi o'zini himoya qilish uchun tuzgan ittifoqi; u xo'jalikda ayirboshlash uchungina bo'lgan muloqat emas. Bularning barchasi davlatning tashkil topishi uchun zarurdir. Lekin, davlat faqat ulardangina tashkil topmaydi. “Davlat shu paytda yuzaga keladiki, qachonki oila va urug' o'rtasida baxtli hayot uchun muomala paydo bo'lsa, ularning hayoti komil va to'liq bo'lgan sharoit va vaqtda davlat paydo bo'ladi” (“Siyosat”).

Aristotel falsafasi tahliliga yakun yasar ekanmiz, uning qomusiy olim ekanligini, o'zigacha bo'lgan ilmiy, falsafiy fikrlarni o'rganib, sintezlab, umumlashtirishga uringanini; ilmlarni klassifikasiya qilganligini; falsafa, mantiq va boshqa bir qancha fanlarning asoschisi bo'lganligini va shu tariqa ilmiy va

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.351-358

falsafiy fikrning keyingi rivojiga ulkan hissa qo'shganligini, aniqrog'i, taraqqiyot yo'nalishini belgilashga olib kelganligini ta'kidlash zarur.

Takrorlash uchun savollar

1. Aristotelning hayoti to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Aristotel qalamiga qanday asarlar mansub?
3. Aristotel Platonning g'oyalar to'g'risidagi ta'limotiga qanday e'tirozlar bildirgan?
4. Aristotel nimani substansiya sifatida asoslagan?
5. Aristotelning umumiy va yakkalik munosabati haqidagi qarashlarini qanday baholaysiz?
6. Aristotel materiya va shakl hamda ularning munosabatlarini qanday tavsiflaydi?
7. Aristotelning 4ta sabab to'g'risidagi qarashlari asosini nima tashkil etadi?
8. Aristotel harakatning qanday turlarini farqlagan?
9. Aristotelning olim sifatida yaratgan fizikaviy ta'limotining mohiyati nimada?
10. Aristotel kosmologik ta'limotining o'ziga xosligi nimada?
11. Nima uchun Aristotelni geosentrik sistemaning (Ptolomey sistemasining) hammuallifi deyishadi?
12. Aristotelning jon to'g'risidagi qarashlari qanday?
13. Aristotelning bilish nazariyasida nimalarga ko'proq e'tibor qaratiladi?
14. Aristotelni falsafani fan sifatida asoslagan mutafakkir deyish mumkinmi?
15. Aristotelning axloqiy qarashlarining mazmun-mohiyati nimada?
16. Aristotel jamiyatning sosial strukturasi qanday tavsiflagan?
17. Aristotel davlat va uni boshqaruv to'g'risida qanday mulohazalar bildirgan?
18. Aristotelning estetik qarashlarini qanday baholaysiz?
19. Nima uchun Aristotelni mantiq fanining asoschisi deymiz?
20. Aristotel jamiyatning iqtisodiy strukturasi to'g'risida qanday fikr-mulohazalar bildirgan?

11-MAVZU : ELLIN - RUMO DAVRIDA ANTIK FALSAFA. EPIKUREIZM

Er.avv. 4- asr o'rtalariga qadar Gresiyada Platon ta'limoti hukmron bo'lgan bo'lsa, shu asrning 20-yillariga kelib Aristotelning peripatetiklar maktabi ta'siri kuchli bo'lgan. Bu davrda Demokrit materialistik maktabining ilm-fan rivojiga ta'siri bir oz susayadi. Epikur materializmi atomistik materializmning yangi ko'rinishi sifatida shakllanadi. Uning avvalgisidan farqi shundaki, Demokrit atomistikasi ko'proq nazariy xarakterga ega bo'lsa, Epikur materializmi amaliyot, inson hayoti bilan bog'langan; ya'ni, Demokritni ko'proq Kosmos, olam to'g'risida nazariy mushohada yuritish qiziqtirgan bo'lsa, Epikurni ana shu olamdagi inson, uning baxt-saodati masalalarini o'ylash band etgan.

Epikur eramizdan avvalgi 341 yilda Samos orolida tug'ilgan. Samosda u platonik Pamfiliy ustozligida, so'ngra Teosda unga katta ta'sir ko'rsatgan Demokritning izdoshi Navsifan ustozligida, ular orasidagi keyingi ixtiloflarga qaramasdan, ta'lim olgan. 18 yoshida Epikur Afinaga harbiy xizmatni o'tadi, va so'ngra Kolofonda o'zini o'qishga bag'ishladi. Lekin Aristotelning ham, Akademiya boshlig'i Ksenokratning ham ma'ruzalarini eshitishga muvaffaq bo'lmagan.

Otasi singari Epikur ham o'z faoliyatini maktabda o'qituvchilik qilishdan boshlagan. Eramizdan avvalgi 310 yilda u Metilenda – so'ngra nisbatan kechroq Lampaskda dars bergan, - eramizdan avvalgi 307-306 yillarda Afinaga ko'chib o'tib, o'z maktabiga asos solgan. Ushbu maktab Epikurning shaxsiy bog'ida joylashgan bo'lib, uning darvozasi peshtoqisida “Mehmon, bu yerda Sizga yaxshi bo'ladi; bunda rohat-farog'at – oliy ne'mat bor”, degan yozuv bo'lgan.

Diogen Laertskiyning ma'lum qilishicha, faylasuf o'zining bog'ini ham o'z o'quvchilariga qoldirgan. O'z maktabining joylashgan o'rniga ko'ra epikurchilar “bog'lardan chiqqan faylasuflar” nomiga ega bo'ldilar. Epikurga hayoti davridayoq xudoga qaragandek qarashgan va bu kabi munosabat tufayli, albatta, epikurchilar falsafaning boshqa maaktablari faylasuflariga nisbatan ko'proq darajada o'z ustozlarining qarashlariga sodiq bo'lganlar. Asosiy ta'limotlarni o'quvchilar yoddlashi shart bo'lgan.

Epikur sermahsul muallif bo'lgan (Diogen Laertskiyning so'zlariga ko'ra u 300dan ortiq asarlar yaratgan), biroq uning asarlarining ko'p qismi yo'qolib ketgan. Ular 37 kitobdan tashkil topgan “Tabiat haqida” asari, “Gerodotga xat” (unda Epikurning fizikaviy ta'limoti bayon qilinadi), “Astronomiya, metereologiyaga oid mulohazalar”, “Menekeyga xat” (etikaga oid o'y-fikrlar) va b.

Ma'lumotlarga qaraganda, Diogen Laertskiy bizga uch nafar didaktik xat qoldirgan, ulardan Gerodot va Menekeyga yozilganlari haqiqiy hisoblanadi, biroq

Pifoklga yozilgani, taxmin qilinishicha, Epikurning asaridan uning o'quvchisi tomonidan ko'chirib olingan parcha hisoblanadi. Shuningdek, uning asosiy "Tabiat haqida" asarining parchalari ham saqlab qolingani. Ular epikurchi Psioning kutubxonasidan topilgan (taxminlarga ko'ra bu eramizdan avvalgi 58- yilda konsul lavozimini egallagan L.Piso bo'lishi mumkin). Epikurdan so'ng maktabni Mitelenlik Germarx boshqardi, keyinchalik uning o'rnini Polistrat egalladi. Germarx va Polienlar bilan bir qatorda Metrodor Lampsakskiy ham bevosita Epikurning o'quvchisi bo'lgan. Siseron Fedrning (Afinada eramizdan avvalgi 78-70 yillarda sxolarx bo'lgan) Rimda, eramizdan avvalgi 90-yillarda o'qigan ma'ruzalarini tinglagan. Biroq maktabning eng mashhur o'quvchisi Epikur falsafasini o'zining «De Rerum Natura» ("Narsalar tabiati haqida") asarida bayon qilgan lotin shoiri T.Lukreskiy Kar bo'lgan. Ushbu falsafaning asosiy maqsadi odamlarni xudolar va o'lim oldidagi qo'rquvdan xalos qilish va ularga qalb osoyishtaligiga erishishga yordam berish bo'lgan.

Epikur falsafiy mushohada yuritish, tadqiqotlar olib borishni azob-uqubattan xoli, baxtli, ozod hayotga yetaklovchi inson faoliyati deb tushungan. U yozadi: "Insonning azob-uqubatini davolamaydigan faylasuf so'zi bo'm-bo'shdir. Inson tanasidan kasallikni quvib chiqara olmagan tibbiyotdan hych qanday naf bo'lmagani singari, qalb kasalini haydab yubora olmaydigan falsafadan ham hych qanday foyda yo'q"¹. Menekeyga yozgan xatida esa uqtiradi: "Hych kim yoshligida falsafa bilan shug'ullanishni ortga qoldirmasin, qariligida esa falsafa bilan shug'ullanishdan charchamasin... Kimki falsafa bilan shug'ullanishga vaqt o'tib ketdi desa, u baxt-saodatga erishishga vaqt yetib kelgani yo'q yoki vaqt o'tib ketdi, degan kishiga o'xshaydi"².

Epikur fikricha, agar o'lim va samo hodisalari insonni dahshatga solmaganida edi, unda u tabiatni o'rganishga ehtiyojni sezmagani bo'lar edi. Uning ilgari surgan muhim tezislaridan biri: "O'limning bizga hych qanday aloqasi yo'q, chunki biz yashaganda, u yo'q bo'ladi, o'lim kelganda esa, biz yo'q bo'lamiz". Uningcha, falsafaga amaliy ta'lim sifatida qarashi insonni baxt-saodatga yetaklaydi, qo'rqinchlardan ozod etadi.

Haqiqat, ishonchlilik va umuman, fikrning borliqqa munosabati masalasida Demokrit va Epikur qarashlari qarama-qarshidir. Xususan, Demokrit aniq fanlarga intilgan, falsafadan esa qoniqish hosil qilmagani bo'lsa, Epikur falsafani mutloqlashtiradi; Demokrit borliqda zaruriyat hukmronlik qiladi desa, Epikur tasodif mavjud deb biladi. Demokrit hodisalarni tushuntirishda ko'p fikrlik tarafdori bo'lsa, Epikur unda yakka fikr, yakdillik tarafdori.

¹ Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf/Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar.-T.:Yangi asr avlodi,2013-B.124

² O'sha joyda -B.122-123

Shunday qilib, Epikur falsafasining maqsadi sof aqliy mushohada yuritish, sof nazariya emas, balki odamlarni ma'rifatli qilishdir. Biroq bu ma'rifatchilik Demokritning tabiat to'g'risidagi ta'limotiga suyanishi, tabiatda g'ayri-tabiiy kuchlarning mavjudligini inkor etishi, tabiatni uning o'zidan kelib chiqib, tabiiy boshlang'ich asoslarga tayanib tushuntirishi lozim.

Shuni ham aytish kerakki, Epikur xudolar mavjudligini inkor etmagan, ularni olamlarning (metakosmiyalarning) oralaridagi bo'shliqda yashashadi, farog'otli hayot kechirishadi, yerdagi hayotga, inson mavjudligiga hyech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, deb hisoblagan.

Epikur falsafani 3 qismga bo'ladi: etika – baxt-saodat, uning shart-sharoitlari, unga to'siq bo'ladigan omillar to'g'risidagi ta'limot; fizika – etikadan avval kelib, uni asoslaydigan qismi. U olamning tabiiy boshlang'ich asoslari, ularning aloqalari to'g'risida baxs yuritib, kishilarning qalbiga qo'rqinch soladigan narsalardan, xususan ilohiy kuchlarga ishonish, jonning o'lmasligi, insonning taqdiri azaldan qochib qutula olmasligi to'g'risidagi fikrlardan ozod etadi. Agar etika hayotning maqsadi to'g'risida ta'limot bo'lsa, fizika shu maqsadni ommalashtirishga xizmat qiladigan tabiiy elementlar yoki olamning asoslari, tabiiy shart-sharoitlari to'g'risidagi ilmdir. Uchinchisi kanonika (kanon, qoida so'zidan olingan) bo'lib, u haqiqat mezonlari va ularni bilish qoidalari to'g'risidagi bilimdir. Bunga Epikur alohida asar bag'ishlaydi va unda haqiqatning 3 ta mezonini ajratib tavsiflaydi: 1) idrok, 2) tushunish, 3) his-tuyg'ular.

Idrokni Epikur tabiat predmetlarini va fantaziya obrazlarini hissiy idrok etish deb tushungan. Birinchisida idrok predmetining o'zi aks etadi, ikkinchisida esa, xayolda yaratilgan predmetlar (ular havoda, bo'shliqda daydib yurishadi) obrazi hosil bo'ladi. Birinchi holda predmet obrazi hissiy organlar orqali hosil bo'ladi, ikkinchisida predmet obrazining o'zi tanaga kirib keladi; ular turli sezgilarning chuvalashishidan hosil bo'lib, yakka tasavvur (predmet to'g'risida, albatta) shaklida mavjud. Tushunchalar yoki mohiyat haqidagi umumiy tasavvurlar yakka tasavvurlar asosida hosil bo'ladi. Diogen Laertskiyning aytishicha, bu tushunchalar, umumiy tasavvurlar tashqaridan ko'ringan, zohir bo'lgan predmetlarni eslash shaklida talqin qilinadi. Epikur fikricha, tushuncha hamda umumiy tasavvurlar borliqni aks ettiradi va haqiqatdan iborat bo'ladi. Ana shuning uchun ham hissiy idrok va unga asoslangan umumiy tushunchalar chin bilimlar mezonlaridir. Xato fikr hissiy idrokka fikr tomonidan qo'shiladigan narsalar hisobiga hosil bo'ladi.

1. *Epikur fizikasi.* Epikur tomonidan fizikaviy nazariyaning yaratilishi amaliy maqsad bilan belgilangan: odamlarni xudo va oxirat oldidagi qo'rquvlardan ozod qilish va ularga qalb osoyishtaligiga erishishda yordam berish. Xudolarning mavjudligini inkor qilmagan holda, u xudolar insonlarning ishlariga

aralashmasligini va inson xudolarning rahmini keltirishi, ulardan gunohlarini kechirishini so'ramasligi mumkinligini, turli maqbul yoki nomaqbul odatlarni jiddiy qabul qilmasliklari lozimligini ko'rsatishga harakat qilgan. Bundan tashqari, umrboqiylikni inkor qilgani holda, u insonni o'limdan, qo'rqish hissidan xalos qilishga umid bog'lagan. O'lim oddiygina so'nish, his qilish va qandaydir hissiyotlarning to'liq yo'qolishi bo'lsa, bizni oxiratta kutadigan jazolar yo'q bo'lsa, o'limdan nima uchun qo'rqish darkor? "O'limning bizga hiech qanday aloqasi yo'q, chunki parchalanib ketgan narsa, hiech nimani his qilmaydi, his qilmaydigan narsaning esa bizga hiech qanday aloqasi yo'q"¹.

Epikur fizikasi asosini atomistik materializm tashkil etadi. U Demokrit atomistik materializmidan ancha farq qilib, uni sezilarli darajada yangi mazmun bilan boyitadi. O'z atomizmi uchun Epikur ikkita his etib bo'lmaydigan boshlang'ich fikrni, prinsipni qabul qiladi:

1. Mavjud bo'lmagan narsadan hiech bir narsa paydo bo'lmaydi.
2. Olam hozir qanday bo'lsa, avval ham, bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

Mazkur prinsiplar Epikurning o'z fizikaviy ta'limotida Demokrit tizimiga tayanganini ko'rsatadi (garchi uni birmuncha o'zgartirgan bo'lsa-da). Bu to'g'risidagi F.Koplston mulohazalariga murojat qilsak, quyidagicha talqinning guvohi bo'lamiz.

1. Epikurning fizikada Demokrit atomizmiga tayangani tushunarli, chunki u uning o'z maqsadga erishishiga muvofiq bo'lgan. Aynan Demokrit atomlarning mexanik harakati bilan barcha narsalarni tushuntirgan va shu yo'sinda xudoning ishtirokni umuman inkor qilmagan; ruh ham tana kabi atomlardan tashkil topganligiga ishonirgan holda umrboqiylikni inkor qilish uchun qulay bo'lgan fikrlarni taklif qilgan. Epikuriy fizikasining ushbu amaliy maqsadini ayniqsa, ajoyib badiiy tilda yozilgan «De Rerum Natura» kitobida aniq kuzatish mumkin. Hiech nimadan hiech nima hosil bo'lmaydi, hiech nima hiech nimaga aylanadi, deya uqtirgan Epikur, bu bilan keksa kosmologlarning fikrini takrorlagan. "Va, avvalambor, biz shuni tan olishimiz kerakki, hiech nima mavjud bo'lmagan narsadan hosil bo'lmaydi, chunki agar shunday bo'lganida, hiech qanday urug'ga hojat qolmasdan, barcha narsa barcha narsadan hosil bo'laverar edi. Va agar yo'qolayotgan narsa mavjud bo'lmagan narsaga parchalanganda barcha narsa allaqachon yo'q bo'lib ketgan bo'lar edi, chunki parchalanishdan hosil bo'lgan narsa mavjud bo'lmas edi".

2. Ushbu satrlarni Lukresiyning fikrlari bilan taqqoslab ko'ramiz: narsalarning hiech nimadan paydo bo'la olmasligi, tug'ilgandan so'ng hiech nimaga aylana olmasligining isbotlanganligi ma'lum. Tajribada kuzatilayotgan modda(jism)lar avval mavjud bo'lgan moddiy mohiyatlar – atomlardan tashkil topgan va ushbu moddalarning o'limi ularning tashkil etuvchi mohiyatlarga

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p. 401

parchalanishidan boshqa narsa emas. Demak, dunyodagi jamiki narsalarni tashkil etuvchi Koinotning dastlabki elementlari Atomlar va Bo'shliqdir. "Koinot yagona umumiy sifatida jismni tashkil etadi: bizning his qilish organlarimiz har bir muayyan holatda bizga jismlarning haqiqatan ham mavjudligini bildiradi; bizning hissiyotlarimizning guvohligi esa, avval aytganimdek, bizning to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinmaydigan barcha narsalar haqidagi mulohazalarimizning mezoni bo'lishi zarur. Bundan tashqari, agar biz bo'shliq deb nomalagan narsa mavjud bo'lmaganida edi, jismlar qayerda va nimalar oralig'ida harakatlanishini bilmagan bo'lar edik. Ayni paytda ularning harakatlanishi aniq, buni hissiyotlarimiz tasdiqlaydi. Shuni qo'shimcha qilishimiz zarurki, ushbu fikrni qabul qilmasdan turib, atribut yoki jism va bo'shliqning tasodifiy xususiyati bo'lishi mumkin emasligini, barcha mavjudotlarga xos bo'lgan hech qanday umumiy xususiyatga erishish mumkin emasligini anglab bo'lmaydi".

3. Atomlar kattaligi, shakli va og'irligiga ko'ra farq qiladi (epikurchilar ulardan avval o'tgan atomistlar nima deyishlariga qaramasdan, atomlar og'irlikka ega deb hisoblaydilar), ular ajralmas va ularning miqdori ham cheksiz. Avval ular vertikal bo'ylab pastga qarab harakatlangani holda bo'shliqda "jala" bo'lib yog'iladi. Lukresiyning ta'kidlashicha, atomlar bo'shliqda chang zarralari quyosh nurida harakatlangani kabi harakatlanadi. Bundan kelib chiqadigan fikr shundan iboratki, epikurchilar atomlar bir-biriga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqlar bo'ylab harakat qiladi, deb o'ylamaganlar, chunki agar shunday holat yuzaga kelganida edi, ular orasidagi to'qnashuv faqatgina Ilohiy aralashuv tufayligina sodir bo'lishi mumkin edi. Dunyo qanday vujudga kelganini izohlash uchun Epikur atomlarning bir-biri bilan to'qnashishi mumkinligini qabul qilishga majbur bo'lgan; bundan tashqari, bir vaqtning o'zida u erkinlik (ixtiyori o'zida bo'lish) qay tarzda paydo bo'lganiga izoh berishga intilgan (epikurchilar bunga qattiq ishonganlar). Shu sababli u alohida atomlar g'ayriixtiyoriy ravishda qiyshiq chiziq bo'ylab yoki to'g'ri chiziqdan og'ishgan holda harakatlana boshlaydi, deya ta'kidlashgan. Xuddi shuningdek atomlarning dastlabki to'qnashuvlari sodir bo'lgan va barcha narsalar bir-biridan bo'sh kengliklar bilan ajratilgan va shu tufayli son-sanoqsiz dunyolar (intermundia) hosil bo'lishi natijasida aylanma harakatlarni yuzaga keltirgan holda barcha narsalar aralashib ketgan.

Inson qalbi tekis va yumaloq atomlardan tashkil topgan, biroq hayvonlardan farqli ravishda, ular yurakda joylashgan hamda qo'rquv va quvonchning namoyon bo'lishi bilan tasdiqlanuvchi rasional ibtidoaga ega. Irrasional qism, hayot tamoyili butun tana bo'ylab sochilib ketgan. O'lim holati sodir bo'lishi bilan qalb atomlari bir-biridan ajralib ketadi hamda qabul qilish jarayoni to'xtaydi: o'lim – bu qabul qilishning mavjud emasligi.

Epikurchilar stoiklarning antroposentrik teleologiyasini to'liq inkor qilganlar va ularning teodisiyalari bilan umumiy hech nimaga ega bo'lmaslikka intilganlar. Inson aziyat chekadigan yovuzlik Koinotning Iloh tomonidan boshqarilishi g'oyasi bilan umuman mos kelmaydi. Go'zal va baxtiyor xudolar dunyolararo makonda (untermundia) mavjud bo'ladilar; ularning odamlar bilan, ular nima yeb, nima ichishlari hamda grek tilida so'zlashishlari bilan umuman ishlari yo'q. Xudolarning

hokimiyati va ularning sokin maskani ko'rinib turibdi; u yerda na quturgan shamollar, na bulutlardan shiddat bilan yog'ayotgan yomg'irlar mavjud; oppoq qor yog'ib, ularni bezor qilmaydi, bulutlarsiz sof samo ularni o'rab turibdi va ularga qarab kulib turibdi.

4. Xudolar odam ko'rinishiga ega, ularga o'xshash yaralgan, chunki ular ham, garchi o'ta mayda bo'lgan atomlardan tashkil topgan bo'lsada va garchi efirli yoki kvazitanalarga ega bo'lsalarda, ikki jinsga ajralgan; tashqi ko'rinishidan ular odamlarga o'xshaydi, xuddi ular kabi nafas oladilar va ovqatlanadilar. Xudolar Epikurga nafaqat o'zining to'liq xotirjamlikning etik ideali timsoli sifatida ifodalash uchun kerak bo'lgan. Epikurning fikricha, odamlarning xudolarga ishonishi faqatgina ular obyektiv ravishda mavjud ekanligi haqidagi taxminlar yordamidagina tushuntirib berilishi mumkin edi. Obrazlar bizga xudolar tomonidan yo'naltiriladi, ayniqsa tushda, biroq bizning mulohazakorligimiz bizga xudolar mavjud va barcha jihatlariga ko'ra ular insonlarga o'xshashligini anglatib turadi: ular qanday baxtiyor hayotda yashayotganlari haqidagi bilimlarni esa bizga faqatgina ong taqdim qiladi. Odamlar xudolarni ularning ustunligi uchun ulug'lashi mumkin va ularga iltijo qilishning odatiy marosimlarida ishtirok etishlari mumkin, biroq ulardan qo'rqish hamda qurbonliklar qilib, ularning marhamatiga erishishga intilish umuman noto'g'ri va noo'rin. Haqiqiy xudojo'ylik adolatli o'ylardan iborat.

Diyonatlilik – bu barchaning oldida boshiga ro'mol o'ragan yoki biror narsa kiygan holda barcha mehroblar oldida tiz cho'kishdan iborat emas. Yoki yuzingni yerga bosib, kaftlaringni keng yoygan holda xudolarning butxonalarida duo qilganing bilan, yoki hayvonlarning qoni bilan mehroblarni yuvganing bilan, yoki va'da ustiga va'da berganing bilan diyonatli bo'lib qolmaysan. Diyonatlilik – bu qalbning to'liq osoyishtaligi.

5. Shu sababli donishmand inson o'limdan qo'rqmaydi, chunki o'lim – bu oddiygina so'nish demak; bu xudolarga tegishli emas, chunki ular inson muammolari bilan umuman qiziqmaydilar va shu sababli, ular jazolashlaridan qo'rqmasa ham bo'ladi. Bu yerda biz Vergiliyning mashhur satrlarini yodga olishimiz mumkin: Narsalarning asosini anglagan insonlar qo'rquv va Qismatdan qo'rqmaganlar, ibodatlarga bo'yin egmaganlar. Ochko'z va dahshatli Axerontni ham tiz cho'ktirganlar chinakamiga baxtlidirlar¹.

Yuqoridagi mulohazalar va boshqa manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Epikurning atomizmi Demokritning atomistik ta'limoti bilan quyidagi o'xshashlik va tafovutlarga ega.

Birinchidan, Epikur, Levkipp va Demokritlar singari, borliq va noborliq (bo'shliq)ning mavjudligini tan oladi, bo'shliqni fazo deb tushunadi. Jismlar(borliq)ning mavjudligini sezgilar tasdiqlaydi. Bo'shliqning mavjudligi shu bilan asoslanadiki, uningsiz sof harakat sodir bo'lmaydi. Jismlar kichik jismlar yoki ularni hosil qiladigan zarrachalar, elementlardan tashkil topadi. Bu

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p. 401-404

zarrachalar faqat shakli va miqdori bilangina emas, og'irligi bilan ham bir-biridan farq qilishadi. Epikurning bu fikri hozirgi atomizmga juda yaqin turadi. Demokrit singari, Epikur ham atomlarni cheksiz bo'linmaydigan deb hisoblaydi. Ma'lumki, aynan ana shu fikr Zenon uchun ko'plikning mavjudligi hamda harakatni inkor etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan edi.

Epikur atomning eng kichik, minimal qismlari mavjudligini ta'kidlaydi va bu bilan fizikafiy bo'linmaslik va matematik bo'linmaslikni farq qiladi.

Atomlarning muhim xususiyati - harakatda bo'lishi. Atomlar bo'shliqda bir hil tezlikda abadiy harakat qilishadi. Bu jarayonda ba'zi atomlar bir-biridan uzoqda bo'ladi, boshqalari bir-biri bilan qo'shib, titroq, tebranuvchi harakatda bo'lishadi. Harakatni Demokrit qat'iy deterministik ruhda talqin qilib, tasodifni inkor etgan bo'lsa, ("Odamlar o'z mulohazalaridagi chorasizlikni yopish uchun tasodif nomini o'ylab topishgan"), Epikur, aksincha, tasodifni obyektiv hodisa sifatida talqin etadi va bundan etikada iroda erkinligini asoslashda foydalanadi. Fizikalarning taqdirga qul bo'lishidan ko'ra xudolar haqidagi afsonalarga ishongan yaxshiroq, chunki ular hych bo'lmaganda xudolarga sig'inish asosida ularning rahm-shafqatiga umid qiladilar, taqdiri azal esa, o'zida ayovsizlikni, shafqatsizlikni mujassamlashtiradi.

Etikada fatalizm yoki zaruriyat tufayli erk (ozodlik) prinsipini asoslar ekan, fizikada uni tasdiqlovchi asosni - zaruriyat tufayli to'g'ri chiziqli harakatda bo'lgan atomlarning og'ishi prinsipini ishlab chiqadi. Atomlarning og'ishini Epikur ularning to'qnashishini asoslash uchun kiritadi. Atomlarning og'ishi o'z-o'zidan, spontan tarzda sodir bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Etikada bu prinsip iroda erkinligi sifatida talqin qilinadi. Bu prinsipga asoslanib, Epikur o'z kosmologiyasini quradi. Uningcha, borliqni hosil qiluvchi olamlar cheksiz, chunki ularni tashkil etuvchi atomlarning ham son-sanog'i yo'q. Barcha olamlar (dunyolar) vaqti kelib turli xil tezlikda parchalanib ketadi va qayta hosil bo'ladi. Bundan jon ham istisno emas. U ham nozik zarrachalardan tashkil topgan jism, bu zarrachalar butun tana bo'ylab tarqalgan va shamolga juda ham o'xshaydi; tana o'lishi bilan, jon ham halok bo'ladi.

Epikur tabiatni o'rganishning ishonchli metodini analogiya deb biladi. Bu metod predmet to'g'risida bir emas, bir nechta, ko'p xil tushuntirish ehtimoli borligini ko'rsatadi.

Murakkab hodisalarga bir xil izoh berish mumkin emas. Epikur bunday hodisalarga bitta, yagona talqin berish olomonning boshini qotirishni hohlaganlarga yarashadi, deydi.

Epikur etikasi asosida quyidagi fikr yotadi: inson uchun birinchi va tug'ma ne'mat, baxtli hayotning boshi va oxiri - rohatlanish. Rohatlanishni u salbiy belgi-azoblanishning yo'qligi deb tushunadi. "Rohatlanish, lazzat olish deganda

biz buzuq niyat bilan amalga oshiriladigan amallarni tushunmaymiz. Shuningdek, faqat hissiy lazzatlanishni ham nazarda tutmaymiz. Bunda biz tana azobi va jonning bezovta bo'lishidan xalos bo'lishni tushunamiz"¹. Epikur rohatlanishning ikkita turini farqlaydi: 1) tinchlik, osoyishtalik rohati - tananing azob uqubatdan forig'ligi, 2) harakat rohati.

Shuningdek, es-hushni yig'ish, aql bilan ish ko'rishni ham Epikur buyuk fazilat deb biladi. Barcha yaxshi fazilatlar aql bilan ish ko'rish natijasidir: aql bilan ish ko'rmay, axloqli va adolatli bo'lmay, yaxshi yashash mumkin emas: "Aql-farosatdan mahrum holda baxtli yashagandan, aql-farosat bilan badbaxt bo'lgan a'loroqdir"².

Mana shundan kelib chiqib, Epikur rohatlanish turlarining tasnifini beradi: u hohishlarni tabiiy va quruq (bo'sh) turlarga bo'ladi. O'z navbatida, tabiiylarni tabiiy va zaruriy hamda tabiiy, lekin zaruriy emas turlariga ajratadi.

Epikur jonning, qalbning azoblanishini tananing azoblanishidan yomonroq deb biladi. Uning etikasining asosini individualizm tashkil etadi. Epikurning asosiy talabi: "bilinmasdan yasha". Bu talabning bajarilishi jonning osoyishta yashashini anglatadi. Ayni paytda, Epikur do'stlikni ham rad etmaydi, uni xavfsizlikni ta'minlovchi omil deb izohlaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, Epikur etik dunyoqarashi utilitarizmdan iborat. Bunga uning adolatning kelishuv, shartnoma asosida paydo bo'lishi nazariyasi ham mos keladi: "Tabiatan kelib chiqadigan adolat-bu foydali narsa to'g'risida kelishuv bo'lib, bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad-odamlarning bir-biriga yomonlik qilmasligi, yomonlikka chidash berishidir"³. Kelishuv, shartnoma natijasi bo'lmish adolat o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra odamlar hayotining o'ziga xosligi, shaxsiy manfaatlari bilan taqozalanadi.

Epikur tilning paydo bo'lishi to'g'risida gapirib, dastlabki paytda kelishuv prinsipining mavjudligi kerak emas, faqat taraqqiyotning yuqori bosqichlaridagina unga ehtiyoj paydo bo'ladi, deb aytadi.

Epikurni dialektika ham, mantiq ham qiziqirmagan. Mantiqdagi uning e'tiborini tortgan yagona muammo, haqiqat mezoni bilan bog'liq masala bo'lgan. Dialektika esa, faqatgina u fizikaga xizmat qilganligi sababligina uni qiziqtirgan, fizika esa, faqtagina etikaga xizmat qilganligi tufayli uning e'tiboriga sazovor bo'lgan. Shu sababli Epikur barcha ilmiy izlanishlarni rad qilgan holda va matematikani hayot bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli befoyda fan deb e'lon qilgani holda etikaga stoiklarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratgan. (Metrodor shunday deb aytgan: "Gomer asarlaridan bir qatorini ham o'qimaganing va Gektor

¹ Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.357

² Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf/Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar.-T.:Yangi asr avlodi, 2013. -B.124

³ Antologiya mirovoy filosofii.T.1,Ch.1-S.358

kim – troyalik yoki grek bo'lganligini bilmaganing uchun qayg'urishning hojati yo'q"). Epikur tomonidan matematikaning qabul qilinmaganlining sabablaridan biri, uning hissiy tajriba bilimlari bilan mustahkamlanmasligidir: real hayotda geometrik nuqtalar, chiziqlar va yuzalar mavjud emas. Hissiy bilimlar qanday bo'lmasin, bilimlarning asosidir. Agar inson o'z hissiyotlariga ishonmasa, u holda o'zi yolg'on deb hisoblagan fikrlarni qiyoslab ko'rish uchun mezon bo'lmaydi.

Epikurning mantig'i yoki kanonikasi bilimlarning me'yorlarini, qonunlarini hamda haqiqat mezonlarini o'rganadi. Haqiqatning asosiy mezoni idrok, qabul qilish hisoblanadi, chunki bu holatda biz nimaningdir mavjudligiga guvoh bo'lamiz. U obyektlarning obrazlari his qilish organlariga kirib borganida mavjud bo'ladi va bu holat doimo haqiqiy bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, idrok tushunchasi ostida epikurchilar doimo obrazli tasavvurlarni nazarda tutganlar, aniqrog'i, uni obrazlarni qabul qilishda hosil bo'ladigan tasavvurlar deb tushunishgan. Ushbu obrazlar uzluksiz oqim bo'lib, aynan bir obyektidan kelib tursa va bizning his qilish organlarimizga kirib borsa, biz ushbu so'zni tor ma'nosida qabul qilamiz; biroq alohida obrazlar tana teshiklari orqali kirib kelsa, ular aralashib ketadi va fantastik manzara va ko'rinishlar, masalan, kentavr obrazi yuzaga kelishi mumkin. Har ikki holatda ham biz "tasavvur"ga ega bo'lamiz va tasavvurlarning har ikkisi ham obyektiv manbalar asosida paydo bo'lganligi sababli, ular haqiqiy hisoblanadi. U holda qanday qilib xatoliklar yuzaga keladi, degan savol tug'iladi. Unga javob: faqatgina mulohazalar tufayli. Masalan, agar biz aniq o'xshashlik mavjud bo'lmasa-da, obraz aniq tashqi obyektga mos keladi, degan xulosaga kelsak, yoki shu kabi fikr yuritsak, biz xato qilgan bo'lamiz. (Qiyinchilik, albatta obraz tashqi obyektga mosmi yoki yo'qmi, va ushbu muvofiqlik to'liqmi yoki qismanmi ekanligini qanday aniqlash mumkinligidan iborat bo'ladi; biroq bu masalada epikurchilar bizga yordam bermaydilar). Shunday qilib, birinchi mezon - Qabul qilish. Ikkinchi mezon – bu epikurchilar fikriga ko'ra, oddiygina xotirada "saqlab qolish"ni aksa ettiruvchi tushunchadir. Bizda obyekt, masalan, inson haqidagi tasavvur hosil bo'lganidan so'ng, "inson" so'ziga duch kelganda bizning xotiramizda muayyan inson yoki uning umumlashtirilgan obrazi vujudga keladi. Tushunchalar doimo haqiqiy bo'ladi. Faqatgina fikrlar yoki mulohazalar yolg'on bo'lishi mumkin. Agar fikr yoki mulohaza kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar bilan bog'liq bo'lsa, ularni tajriba tasdiqlashi mumkin, agar u bizning qabul qilish tajribamizga bo'ysunmaydigan yashirin obyekt bo'lsa (masalan, atomlar), u holda ular hiech bo'lmaganda tajribaga qarshi bo'lmasliklari lozim. Biroq yana bir, uchinchi mezon, ya'ni aynan bizning xulqimizni belgilab beruvchi hissiyotlar ham mavjud. Shunday qilib, lazzatlanish hissi biz afzal bilgan narsalarning mezoni,

og'riq hissi esa, biz qochishimiz lozim bo'lgan narsalar mezonidir. Aynan shundan kelib chiqqan holda Epikur "haqiqatning mezonlari Qabul qilish, Tushunchalar va Hissiyotlardan iborat", degan xulosaga kelgan¹.

Epikureizm Rimda er.avv. 2- asrdayoq tarqaldi. Er.avv. 1- asrda esa Neapol chekkalarida Sidon va Filodem maktablari paydo bo'ldi. Filodem (110-39) Sidonlik Zenon shogirdi bo'lib, uni "Epikurchilar faxri" deb atashgan. Er.avv. 80-yillarda Filodem Italiyaga keladi va Pizonga qarashli joyda Rim Epikur maktabini tashkil etadi. Bu maktab bilan buyuk Rim shoirlari Vergiliy va Gorasiylar yaqin aloqada bo'lishgan. Bu yerda Filodem mantiq, falsafa, estetika, adabiy tanqidga oid ko'p asarlar yozgan.

Rimda respublikachilar muassasalari inqirozga yuz tutgan bir paytda, epikurizm maktabi madaniyat va ma'rifat markazi vazifani o'tagan edi. Lekin Vezuviy vulqoni otilganda, bu yerda kutubxonadagi barcha kitoblar yonib, kulga aylangan, shu jumladan, Filodemning induksiyaga oid risolasi ham yonib ketgan. Bu risolada stoiklarning induksiya faqat aprior ishonchli asoslarga tayangandagina, to'g'ri xulosa beradi, degan fikrini to'g'ri tanqid qiladi, analogiyaning mohiyatini tushuntirishga urinadi. Filodem ,har qanday xulosalash asosida o'xshashlik bo'yicha xulosa chiqarish yotadi, xulosalash faqat induksiya tayanadigan faktlar va kuzatishlarga zid keluvchi holatlar bo'lmagandagina to'g'ri natija beradi, degan fikrni asoslaydi.

Lukresiy Karning falsafiy qarashlari. Tit Lukresiy Kar - Rim materialistik epikureizmi vakili. Uning "Buyumlar tabiati to'g'risida" asari (poemasi) butun dunyoga mashxur bo'lgan (er.avv. 1 asr boshi - 1 asr o'rtalarida bitilgan). Lukresiy Kar Rim uchun qiyin kechgan davrlarda yashagan. Xususan, bu davrda Rim zodagonlari dohiysi Lyusiy Karneliya Sullaning qonli diktaturasi, Sullaning Marish bilan kurashi, chavandozlar sinfining quvg'in qilinishi, Spartak boshchiligidagi Rim qullarining qo'zg'oloni (73-71), uning fojialari, mag'lubiyati, yangi savdo – sudxo'rlar guruhi faoliyatining kuchayishi, Pompey, Kras Sezarning yuksaklikka ko'tarilishi, Sulla davomchilari va bor-yo'g'idan ajralgan dehqonlarning Katilina boshchiligidagi qo'zg'oloni, Yuliy Sezar g'alabasi va shu kabi voqyealar bo'lib o'tgan. Mana shunday davrda yashagan Lukresiy Kar o'zining shoirlik va faylasuflik talantini ko'rsata oldi. U borliq, uning sabablari haqida faqat faylasuf sifatida mushohada yuritib qolmay, ularga Empedokl, Epikur

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.405-407

argumentlaridan foydalangan holda hamda Gomer, Enniy fantaziyalari bilan nigoh soldi.

Lukresiy Kar - Epikur atomistik materializmi va axloqiy ta'limotning o'ziga xos izohlovchisi va targ'ibotchisi. U Rim sharoitida odamlarning erishishi qiyin bo'lgan tinchlik, osoyishtalikka yetaklaydigan falsafani yaratishni maqsad qilib qo'yadi. Lukresiy Kar fikricha, inson baxt-saodatining eng katta dushmani do'zax azobidan, xudoning inson hayotiga aralashishidan qo'rqishdir. O'zining poemasida aynan ana shu "dushmanlar" bilan kurashish vazifasini qo'yadi. Mutafakkir fikricha, bu qo'rqinchlarni yengib bo'ladi. O'lim qo'rqinchi, xudolardan qo'rqish insonning olamdagi o'z o'rnini, tabiatga va xudolarga bo'lgan munosabatini bilmaganligi natijasidir. Bu qo'rqinchlar bilim, falsafa, ma'rifat bilan yengib o'tiladi. Falsafa xudolarning inson hayotiga, narigi dunyodagi mavjudligiga ta'sir ko'rsata olmasligini asoslashi zarur.

Inson uni ezadigan qo'rqinchlardan ozod bo'lishi uchun tabiat to'g'risida, xususan, uning paydo bo'lishi, tuzilishi, uni tashkil etadigan elementlar, eyelementlar o'lgandan keyin nima bo'lishi to'g'risida chin bilimlarga ega bo'lishi kerak. Etika – baxt-saodat haqidagi ta'limot bo'lib, fizikaning – tabiat to'g'risidagi fanning natijalari yakunidan iborat bo'lishi kerak. Demak, tabiatni o'rganish o'z-o'zicha emas, jonni bilish uchun, etika uchun kerak. Shuning uchun ham, fanda yaratiladigan gipotezalarni muxokama etishda olamni naturalistik va materialistik tushuntirish prinsipiga rioya etish zarur; tabiatdagi barcha hodisalar, ularning xususiyatlarini tabiiy sabablardan keltirib chiqargan holda tushuntirish kerak; bunda hech bir g'ayri-tabiiy kuchga, ajoyib-g'aroyibotlarga va boshqa kuchlarga murojaat qilishga ehtiyoj yo'q. Chunki, bunday kuchlarning yo'qligini kuzatish, tajriba faktlari tasdiqlaydi.

Lukresiy Kar – hodisalarni turli xil asosda tushuntirish, talqin etish tarfdori. Uning poemasi muallifning Epikurning Gerodotga yozgan xati mazmunini, xususan, uning kosmologiya va fizika sohasidan keltirilgan turli xil misollar yordamida tabiatda sodir bo'layotgan hodisalar va jarayonlarning turlicha talqinining mavjudligi to'g'risidagi fikrlarini yaxshi o'zlashtirib olganligini ko'rsatadi. Lukresiy bu asarida Epikur keltirgan misollardan ham foydalanadi. Masalan, uning aytishicha, Quyosh har kuni yangidan tug'iladi va u har kuni osmondagi o'z o'rniga qaytadi, degan fikrlarning har ikkalasini bildirish mumkin. Shuningdek, mutafakkir fikricha, Oy sharsimon bo'lib, o'zida Quyoshdan tushgan nurni aks ettiradi deyish yoki Oy o'z nurini sochadi va oylik fazalari (kattalashishi va kichrayishi) uning atrofida aylanadigan, davriy ravishda uning nurlarini to'sib turadigan qorong'i jism harakati bilan belgilanadi, deb aytish ham mumkin.

Lukresiyning hodisalarni tushuntirishda naturalizm va materializm prinsipiga zid kelmaydigan har qanday gipotezani qabul qilish mumkin, degan fikri

aslo gipotezalarni solishtirish, ularning to'g'risini tanlash kerakligini inkor qilishni anglatmaydi. Lukresiy pragmatist ham, agnostik ham emas, albatta. U yashagan davrda ilm-fan holati raqobatdosh gipotezalardan birortasiga ustunlik berish, asoslash uchun yetarli qonunlarga, faktlarga ega emas edi. Lekin haqiqatni anglash uchun Lukresiy muntazam ravishda o'z zamonasi ilmu fani, falsafasi erishgan darajasidan chetga chiqishga harakat qiladi. Ana shuning uchun ham o'z poemasida shu davr falsafasini, xususan, tabiat, inson, axloq to'g'risidagi ta'limotlarini bayon qiladi. Bunda poemaning tabiat to'g'risidagi qismning yaxshi ishlab chiqilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ana shuning uchun bo'lsa kerak, Lukresiy asarini atomistik materializmning poetik ensiklopediyasi deb atashadi¹.

Asarda borliqning fizikaviy elementlari, ularning harakati, materialistik kosmologiya va kosmogoniya, madaniyat tarixi, materialistik antropologiya va psixologiya masalalari bayon qilingan.

Lukresiyning ayniqsa 2ta g'oyasini insonni uni ezadigan sharpalardan ozod etishda muxim deb hisoblashadi: 1) jonning o'lishi to'g'risidagi fikr; 2) xudolarning insonlar hayotiga ta'sir etish qobiliyatiga ega emasligi haqidagi fikr.

Lukresiy ham, xuddi Epikur singari, xudolarni olamlar o'rtasidagi bo'sh joylarda o'rnashgan, ular olamga ta'sir eta olmaydi, degan fikrni bildiradi. Lukresiyga ko'ra, tabiatning paydo bo'lishida ham, boshqarilishida ham xudolar, ular irodasining ishtiroki yo'q. Barcha dunyolar son-sanoqsiz, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan, badan bilan sezib bo'lmaydigan moddaning qismlari uyurmali harakati va oqimidan paydo bo'lgan. Bu zarrachalar – boshlang'ich asos yoki barcha narsalarning “urug'”laridir.

Aynan ana shu zarrachalardan barcha jismlar va jonlar, barcha olamlar va tabiat hodisalari paydo bo'lgan. Ularning barchasi tabiiy zaruriyat tufayli vujudga kelgan. Faqat dastlabki jismlar, ularning birlashmalari va harakati, bo'shliq mavjud. Bu dastlabki oddiy jismlar mangu va buzilmasdir, biroq ulardan paydo bo'ladigan barcha narsalar o'tkinchi, o'lish tabiatiga egadirlar.

Yo'qdan bor bo'lmaydi, lekin barcha narsalar o'zi kelib chiqadigan “urug'iga” ega bo'lishi kerak. Bu urug'lar abadiy. Agar ular buzilganda, yo'q bo'lganda butun materiya, butun mavjudot ham yo'q bo'lar edi. Dastlabki oddiy jismlardan paydo bo'lgan murakkab jismlar halokati materiyaning yo'q bo'lishi degani emas, u faqat murakkab jismning sodda elementlarga ajralishi, bu elementlarning tabiat hodisalarining umumiy, mangu oqimiga qaytishidir. Cheksiz olam o'z bag'riga oladigan daryolar o'ladi. Tirik mavjudotlar, jismlar o'ladi, xususan, ularning joni o'ladi, lekin tabiat mangu yashaydi.

¹ Qarang: Asmus V.F. Antichnaya filosofiya-M.: Vysshaya shkola,1999-S.332

Jon ham tana singari moddiydir va atomlardan tashkil topgan. Oddiy atomlardan farqli o'laroq, bu atomlar eng kichik, dumaloq, silliq, harakatchandir. Jonni butun xolatida saqlab turgan atomlar u o'lguncha bir birini ushlab turishadi, inson o'limidan keyin jon atomlari ham tarqalib, uchib ketishadi. Epikurga ergashib, Lukresiy ham jonning narigi dunyoda yashamasligi u yoqda tursin, umuman o'lim va hayotning bir-biriga hyech qanday munosabati yo'q, "o'lim va hayot hyech qachon uchrashishmaydi", bir-biriga tegib ketmaydi, deydi. Hayot ekanmiz, o'lim bizni qo'rqitmaydi, chunki u biz uchun yo'q. O'lim kelganda esa, biz yo'qmiz, jonimiz ham yo'q, demak o'limdan qo'rqish sezgisi ham yo'q. Bu fikrlarni asoslashni falsafa vositalari yordamida amalga oshirib bo'lmas edi. Shuning uchun ham Lukresiy poezaya vositalarini tanladi, obrazlar orqali o'z fikrlarini ifodaladi. Masalan, Demokrit singari, atomlarning sezgi orqali bilinib bo'lmasligi, bo'shliqda harakatlanuvchi atomlar to'g'risidagi farazlarini Lukresiy odatda ko'zga ko'rinmaydigan, lekin Quyosh nuri ostida ustunlarda shu'lalanib, titrab, tebranib turadigan changlarga o'xshatadi. Alohida olingan atomlarning ko'zga ko'rinmasligini u ko'rish illyuziyalari: uzoqdan tog' yonbag'irlaridagi pada harakati yoki tekislikdagi ikkita qo'shinning urushi obrazlarida tushuntirib beradi.

Lukresiy o'ziga hissiyotdan ko'ra ko'proq nima aniq bo'lishi mumkin degan savolni beradi. Uningcha, biz hissiy kechinmalar haqida mulohaza qiladigan Ongning o'zi to'liq hissiyotlarga asoslangan, va agar ular haqiqiy bo'lmasa, u holda Ongning chiqargan xulosalari ham xuddi shu kabidir.

Epikureizm to'g'risidagi mulohazalarga yakun yasab, aytish kerakki, u atomiznni yuqori pog'onag ko'tardi, kosmologiyani tajriba natijalariga tayanib tushuntirishga urindi. epikurchilar astronomik masalalarda, masalan, biz to'liq aniqlikka ega bo'la olmasligimizni aytib o'tganlar, chunki biz ushbu holatni haqiqiy deb aytishimiz mumkin, boshqalar esa buning aksini, ya'ni "samoviy jismlar turli sabablar ta'siri ostida yuzaga keladi", degan fikrni isbot qilishga harakat qiladilar¹.

Shuni yodda saqlash zarurki, greklarda zamonaviy ilmiy uskunalar bo'lmagan va ularning ilmiy xulosalari asosan aniq kuzatuvlarga asoslanmagan farazlarga asoslangan. Lekin, shunga qaramay, ular falsafani ilm bilan bog'lash yo'lida muhim qadam qo'yidilar.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlarida tinchlikni himoya qilishgani ham muhimdir.

Takrorlash uchun savollar

1. Epikur hayoti va asarlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.412

2. Epikur falsafaning predmeti va muammolari haqida qanday mulohazalar bildirgan?
3. Epikur atomistik ta'limotni qanday rivojlantirdi?
4. Epikur bilish nazariyasining mazmun-mohiyati nimada?
5. Jon va tananing munosabati to'g'risida Epikur nima degan?
6. Epikur etikasining negizida qanday mulohazalar yotadi?
7. Epikur tabiatni o'rganishning ishonchli metodi deb nimani hisobladi?
8. Tit Lukresiy Kar hayoti va asarlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. Lukresiy Epikur axloqiy ta'limotini qanday izohladi?
10. Lukresiy atomizmni qanday yangi mazmun bilan boyitdi?
11. Lukresiy jon va tana munosabati to'g'risida qanday mulohazalar bildirdi?

SKEPTISIZM

Er.avv. IV-asr Qadimgi grek falsafasi rivojining eng yuqori cho'qqisi bo'ldi. Platon va Aristotel tashkil etgan falsafiy maktablar ayni paytda ulkan ilmiy markazlar bo'lib ham xizmat qildi. Ularda matematika, astronomiya, fizika, biologiya hamda gumanitar fanlar bo'yicha yirik, keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi. Er.avv. III-asrda antik jamiyatda uzoq davom etgan bo'hron boshlanib, u ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oldi. Bu bo'hron falsafada o'z ifodasini yangidan shakllangan oqimlar, maktablarda topdi. Ana shulardan biri skeptisizmdir. Uning nazariy asosini antiq falsafada ilgari surilgan va asoslangan g'oya: barcha narsalarning o'zgarib turishi, nisbiyligi g'oyasi tashkil etadi (Geraklit, Demokrit, sofistlar va b.).

Skeptisizm so'zi grekchadan o'zbek tiliga o'girilganda "nurlanish", ko'rinish berish, shuningdek "tarozida tortish", "qat'iyatsizlik" kabi ma'nolarga ega. Skeptisizm maktabi nomining asosini eng keyingi ma'nosi tashkil etadi: ya'ni bilish mumkinligini dogmatik tarzda inkor etish emas, balki qat'iy, uzil-kesil mulohaza yuritishdan, o'zaro teng kuchli bo'lgan zid fikrlardan biriga qat'iy tarzda yon bosishdan o'zini tiyish zarurligini asoslash yotadi.

Skeptisizmning asoschisi *Pirron*dir. U Peloponnesdagi Elida shahrida tug'ilgan. Diogen Laertskiyning ko'rsatishicha, u er.avv. 365-275 yillarda yashab, ijod etgan. Uning falsafiy ta'limotining shakllanishiga Megar dialektikachilari, ayniqsa Demokrit va uning izdoshi Anaksarx qarashlari katta ta'sir ko'rsatgan. Pirronning Aleksandr Makedonskiyning Osiyoga qilgan yurishida ishtirok etganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Bu, ehtimol, uning axloqiy ideali-qasoskor bo'lmaslik ("ataraksiya")ning shakllanishiga muayyan darajada ta'sir etgan.

Pirron maktabda o'qituvchilik qilgan, yozuvchi bo'lgan, biroq u o'z fikrlarini og'zaki bayon qilgan. Hyech qanday kitob yozib qoldirmagan.

Skeptisizm maktabi asoschisi Pirronning falsafiy tizimida stoiklar va epikurchilar tizimlaridagi kabi nazariya amaliyotga bo'ysungan, vaholanki bu ta'limotlar orasida qat'iy farq mavjud. Stoiklar va epikurchilar fanni yoki ijobiy bilimlarni qalb osoyishtaligiga erishish vositasi deb hisoblagan bo'lsalar, skeptiklar bilimlarni inkor qilgan va fanga shubha bilan qaragan holda qalb osoyishtaligiga erishmoqchi bo'lganlar.

Elidalik Pirron dunyoqarashi bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, u Demokritning hissiy xususiyatlar g'oyasiga, sofistlarning relyativizmiga va kireniklarning gneosologiyaga tayangan holda o'z nazariyasini yaratgan. U inson ongi narsalarning ichki mohiyatini anglash imkoniyatiga ega emas, deb ta'lim bergan (biz barcha narsalarni "anglay" olmaymiz): biz narsalarni faqatgina ular bizga qanday ko'rinishda namoyon bo'lsa, shundayligicha bilishimiz mumkin. Aynan bir narsalar turli odamlarga turlicha ko'rinadi va natijada biz kimning fikri to'g'ri ekanligini bilmaymiz, chunki har qanday fikrga undan kamroq nohaqqoniy bo'lgan zid fikr chiqishi mumkin. Shu sababli biz oxirigacha bir narsaga ishonch hosil qilishimiz mumkin emas va donishmand kishi – bu yakuniy mulohazalardan o'zini tiygan kishidir. "Bu narsa shunday", deb ta'kidlash o'rniga, "Menimcha" yoki "Ehtimol, bo'lishi mumkin", deb gapirish zarur.

Aynan shu skeptizm va undan kelib chiqadigan mulohazaga bo'lgan ishonchsizlik amliy hayotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Hyech nima o'z-o'zidan xunuk yoki go'zal, haqiqat yoki yolg'on bo'lmaydi, yoki hyech bo'lmaganda biz hayotimizdagi barcha tashqi narsalar to'laqonli ravishda indifferent ekanligiga ishonch hosil qila olmaymiz. Donishmandning hayotdagi maqsadi qalb osoyishtaligiga erishish va uni saqlay bilishdan iborat. Bu to'g'ri, chunki hattoki donishmand kishi ham harakatlardan qocha olmaydi va hayotdan chetlasha olmaydi, biroq, ehtimol, u eng yaqin fikrlarga, an'ana va qonunlarga tayangan holda yashashi va mutlaq haqiqatga yetishib bo'lmasligini yodda saqlashi darkor.

Diogen Laertskiyning ma'lum qilishicha, Pirron o'z falsafiy qarashlarini og'zaki tarzda bayon qilgan, va biz ular haqida faqatgina uning o'quvchisi bo'lgan Fliuntlik Timon asarlari tufayligina bilamiz, Sekst Empirik uni "Pirron ta'limotining izohlovchisi" deb nomlagan. Timon Gomer va Gesiod parodiya bo'lgan "Sillalar" asarini yaratdi, va bu yerda u Kseofan va Pirronning o'zidan tashqari barcha grek faylasuflari ustidan kuldi. Timonning fikriga ko'ra na hissiy qabul qilish, va na onga tayanish mumkin emas. Shu sababli biz barcha fikr va mulohazalarga shubha bilan qarashimiz, va hyech bir nazariy fikrlarga ishonmasligimiz darkor, va shundagina biz ataraksiya hamda haqiqiy vazminlikka erishishimiz mumkin.

Siseron, aftidan, Pirron skeptik ekanligini bilmagan va uni ko'proq hayotning tashqi ko'rinishlariga befarqlikni targ'ib qilgan va amaliyotga tatbiq qilgan nasihatgo'y, deb hisoblagan. Ehtimol, Pirronning o'zi skeptisizm nazariyasini yaratmagan, biroq u yozma asarlar qoldirmaganligi sababli, biz ishonch bilan hyech nimani ta'kidlay olmaymiz¹.

Pirron antik davr skeptisizmiga xos bo'lgan falsafiy muammoni quyidagicha ifodalaydi: "Kim baxt-saodatga intilsa, shu faylasufdir"². Saodat esa, azob-uqubatning yo'q bo'lishidadir. Mana shunday talqin qilingan baxt-saodatga erishishni orzu qilgan kishi 3 ta savolga javob berishi kerak: 1) buyumlar nimadan tashkil topadi? 2) bu buyumlarga biz qanday munosabatda bo'lishimiz kerak? 3) bu munosabatlardan qanday natijaga ega bo'lamiz va qanday foyda ko'ramiz?

Birinchi savolga javob topib bo'lmaydi. Chunki har qanday buyum boshqasiga nisbatan yuqori darajada emas. Shuning uchun ham hyech bir narsani na go'zal, na xunuk, na adolatli, na adolatsiz deb bo'lmaydi. Hyech bir buyumga nisbatan uni haqiqatga muvofiq mavjud, deb bo'lmaydi va hyech qanday bilish usulini chin deb ham, yolg'on deb ham tavsiflab bo'lmaydi. Bizning har qanday predmetga nisbatan bildirgan fikrimizga unga teng kuchli bo'lgan zid fikrni bildirishimiz mumkin.

Mana shunday o'y-fikrdan Pirron hyech qanday predmetga nisbatan hyech bir mulohazani bildirib bo'lmaydi? degan xulosa chiqaradi va unga tayangan xolda ikkinchi savolga javob beradi. Faylasuf uchun predmetga munosabatda bo'lishning eng yaxshi usuli – u to'g'risida mulohaza bildirishdan o'zini tiyish.

Bu o'zni tiyish ishonchli hyech narsa yo'qligini anglatmaydi. Demak, Pirron agnostisizm tarafdori emas. Zero, ishonchli narsalar hissiy idrok, taassurotlardir. Chunki ularni biz faqat hodisalar sifatida qabul qilamiz. Masalan, birorta narsa achchiq yoki shirin bo'lsa, mening "Bu menga achchiqdek yoki shirindek tuyulyapti", degan fikrim chin bo'ladi. Xato faqat shunda kelib chiqadiki, qachon fikr bildirayotgan kishi tuyulayotgan narsa asosida haqiqatda mavjud narsa to'g'risida xulosa chiqarsa, hodisadan uning haqiqiy asosiga o'tsa³.

Bunday javob keyingi–uchinchi savolga bo'lgan javobni belgilab beradi. Pirron skeptisizmi uchun predmet to'g'risida birorta fikr bildirishdan o'zini tiyish ehtirosiga berilmaslik, qasoskor bo'lmaslikni anglatadi. Bu holat faylasufning faoliyatsiz bo'lishi kerak degani emas, albatta. Faylasuf, uning ta'kidlashicha, o'z mamlakatida qabul qilingan qonunlar, urf-odatlariga amal qilgani holda hatti-

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.413-416

² Iqtibos manbasi: Asmus V.F. Antichnaya filosofiya-M.: Vysshaya shkola,1999-S.303

³ Asmus V.F. Antichnaya filosofiya-M.: Vysshaya shkola,1999-S.303

harakatda bo'lib, bunda o'zining fikrlash usuli, tafakkur tarzi, o'y-fikrlarini so'zsiz haqiqat deb bilmasligi kerak.

Pirronning shogirdlari ko'p bo'lib, ular orasida *Timon* ajralib turadi. U 3 ta satirik she'r kitobi – "Sill"ni yaratishi bilan mashhur bo'lgan. U shifokorlar davrasida bo'lgan, o'g'lini medisinaga o'qitgan, shu sababli Timonda hissiy idrok, hissiy holatlardagi qarama-qarshiliklarni tadqiq etishga qiziqish bo'lgan. Mutaxassislar "Hissiy idrok to'g'risida", "Fiziklarga qarshi" asarlarni Timonga tegishli deb taxmin qilishadi. "Sill"da barcha falsafiy maktablar bahslari ustidan kulgan (Pirrodan boshqasiga).

Pirronga o'xshab, Timon falsafaning bosh masalasini amaliyotda, inson xulq-atvori, u erisha oladigan saodatda, deb tushungan. Pirronizm tarixida Timon uning targ'ibotchisi, ehtimol, birinchi mantiqshunosi bo'lgan. Xususan, u gipotezalarning mavjudligi to'g'risidagi fikrlarni tanqid qilgan, vaqtning bo'linishi haqidagi mulohazalarni rad etgan. Shuningdek, Timon narsalarning o'z holicha mavjudligi bilan ularning xissiyotimizdagi ifodasini farqlagan. Pirron singari, Timon ham ishonchli bilim asosini hissiy mushohadada deb bilgan. Predmet to'g'risidagi turli fikr-mulohazalarni, ular qanchalik qarama-qarshi bo'lmasin, teng kuchli deb hisoblagan. Bundan u "o'zini tiyish" to'g'risidagi o'y-fikrlarini keltirib chiqargan.

Timon o'limidan keyin skeptiklar maktabi faoliyati 1- asrga kelib to'xtab qoladi. Keyinchalik bu maktab an'analari Ptolomey shogirdlari Sarpedon va Geraklit (Gelen o'z asarlarida guvohlik bergan shifokor-empirik) faoliyatlarida qayta tiklangan.

Ana shu Geraklitning shogirdi *Enesidem* bo'lgan. U antik davr skeptisizmining kuchli nazariyotchisi bo'lib tanilgan. Enesidem er.avv. asrning oxirida yoki eramizning dastlabki davrida yashagan. Ma'lumotlarga ko'ra, Enesidem o'zining asosiy asarini Siseronga bag'ishlagan. "Pirron nutqlarining sakkizta kitobi" deb atalgan bu asaridan tashqari, u "Donishmandlik to'g'risida", "Tadqiqot to'g'risida" hamda "Pirron ocherklari" kitoblari muallifidir.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Enesidem skeptisizmi Geraklitning materialistik fizikasiga yo'l bo'lib xizmat qilgan. Geraklit fikricha, bir narsa to'g'risida qarama-qarshi fikrdan avval qarama-qarshiliklar bir predmetga xosga o'xshab ko'rinadi. Bu tezis skeptisizm asosidir. Enesidemning boshqa dunyoqarash masalalari bo'yicha fikr-mulohazalari ham Geraklitnikiga yaqin turgan. Xususan, yuqoridagi umumiy asosdan boshqa butun va bo'lakning aynanligi va tafovuti, harakat turlari, jismlarning mohiyati va vaqtning bo'linishi, havoning jonning birinchi stixiyasi ekanligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bu fikrlarni Enesidem gipoteza tarzida bildirgan.

Enesidem davriga kelib skeptisizm “Yangi Akademiya”da hukmronlik qila boshlaydi. Platonning hissiy bilishning ziddiyatligi, oquvchanligi to’g’risidagi fikrlariga asoslanib, Arkesilay va Karneadlar bilish masalalarini yangicha talqin etishadi. Mutaxassislar skeptisizmning pirronizm va “Yangi Akademiya”dagi ko’rinishlari o’rtasidagi tafovutni farqlashadi. Bu farqni antik dunyo tarixchisi va skeptisizmi nazariyotchisi Sekst Emperik ham o’rganadi.

Akademiya skeptiklari fikricha, qarama-qarshi fikrlar, masalan, yaxshi yoki yomon, ehtimol tarzida bo’lishi mumkin. Birorta narsani yaxshi yoki yomon deb tasmol qilishning shu davr urf-odatlaridan zaruriy tarzda kelib chiqishi shart emas. Bu- shunchaki urf-odatlarga “ergashish” natijasi.

Enesidemning ikkinchi kitobi eleychilarga ma’lum bo’lgan harakat, o’zgarish, tug’ilish va o’lish tushunchalarida yashiringan ziddiyatlarga bag’ishlangan. Uchinchi kitobda hissiy mushohada va tafakkur, to’rtinchi kitobda xudolarni, tabiatni bilish mumkin emasligi masalalari tadqiq etilgan. Ularda qarama-qarshilar teng kuchli degan fikr asoslanadi. Beshinchi kitobda “sababiyat” tushunchasi tadqiq qilinadi. Sabab deganda boshqa birorta hodisani keltirib chiqaruvchi hodisa tushuniladi. Masalan, Quyosh tolaning qizishi, erishi sababidir. Sabablar turli xil bo’ladi.

1. “O’zida mujassamlangan”, ya’ni u mavjud bo’lgan ta’sir bor, yo’qolishi bilan, u ham yo’q bo’ladi. Masalan, arqon bilan bog’lab tortish-bo’g’ish sababi.

2. O’zaro birgalikda sabab bo’lish. Masalan, omochning harakati uning tortayotgan xo’kizlar kuchi bilan belgilanadi.

3. “Bir-biriga yordam beruvchi”. Masalan, ikkita kishi qiynalib qilayotgan ishga uchinchi kishi yordam beradi. Bulardan Enesidem skeptik xulosa chiqaradi: sababiyat mavjud bo’lishi ham, bo’lmasligi ham mumkin¹.

Enesidem mil.avv. 43 yilda yozgan asarida skeptiklar ta’limotini himoya qilishga qaratilgan 10 metafora yoki argumiyent keltiradi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tirik mavjudotlar turlari o’rtasidagi farq shundan dalolat beradiki, u yo bu obyektning “g’oyalari” turfa xildir, negaki, ular nisbiydirlar.

2. Odamlar o’rtasidagi farq yuqoridagidan dalolat beradi.

3. Sezgi organlarimizning tuzilishi va ular uyg’otadigan taassurotlar ham turlicha(masalan, Sharqda badbo’y hid taratishiga qaramay, xushtam meva bor).

¹ Qarang: o’sha joyda –B.307

4. Turli holatlarda idrok jarayonlari turlicha kechadi, masalan, tushdagi va tetiklikdagi hamda yoshlikdagi va keksalikdagi idrok qilish. Yoki, aytayli, kuchli shamol to'liqlari yosh yigitga maroq baxsh etsa, keksa kishiga bu yelvizak bo'lib tuyulib, etini junjukturadi. Yoinki, masalan, suvga solingan tayoq bizga singanday ko'rinsa, kvadrat shaklidagi minora uzoqdan aylanadek ko'rinadi.

6. Obyektlar hanch qachon sof holda namoyon bo'lmaydi, ular hamisha muhit ta'sirida bo'ladi, masalan havoning ayni holati bois yanglishish yuzaga keladi, xususan, kunduzi yashil tusda bo'lgan maysa, kechga borib sarg'ish bo'lib ko'rinadi.

7. Idrokning turfa xilligi predmetlar sifatlarining turfa xilligidan kelib chiqadi. Masalan, bir qum zarrasi paypaslab ko'rganda g'adir-budur bo'lib tuyulsa, boshqa barmoqlar orasidagi boshqa qum donachalari yumshoq va silliq taassurotlarini uyg'otadi. 8. Umuman nisbiylik mavjud.

9. Idrok sofligiga bog'liq bo'lgan taasurotdagi farq. Masalan, quyoshga nisbatan sariqroq bo'lib ko'rinadigan kometa, unga qaraganda kuchliroq taasurot uyg'otadi.

10. Turmush tarzlari, axloq kodekslari, qonunlar, miflar va falsafiy ta'limotlar turfa xildir

Agripp Enesidemning mazkur 10 ta argumentini 5 taga keltiradi:

1. Bir obyektning turli nuqtai nazardan olib qaralishi.

2. Isbotlash jarayonining cheksiz davom etishi, isbotlarning o'zlari isbotlanishi zarur bo'lgan farazlarga tayannishi va shu tariqa jarayonning cheksiz davom etishi.

3. Odamlarning turli temperamentlaridan kelib chiqib, obyektlarni turlicha idrok qilishlari, shuningdek, idrok jarayoniga idrok qilinayotgan obyektning boshqa obyektlar bilan aloqasining ham ta'sir ko'rsatishi.

4. Cheksiz isbotlash jarayonidan qochish maqsadida dogmaga aylanish (umum e'tirof etilib, deyarli chinligiga isbot talab qilinmaydigan farazlarning tasodifiy xarakteri).

5. Yopiq doira yoki o'zi isbotga ehtiyojmand har qanday isbotni ishonchli xulosa sifatida qabul qilish¹.

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.418-420.

Takrorlash uchun savollar

1. Skeptisizm qanday tarixiy sharoit ta'sirida shakllandi?
2. Qadimgi Rim skeptisizmining negizida qanday g'oya yotadi?
3. Pirron hayotining asosiy qirralarini bilasizmi?
4. Pirron antik davr skeptisizmiga xos falsafiy muammoni qanday ifodalagan?
5. Timon falsafaning bosh masalasini nimadan iborat deb hisoblagan?
6. Enesidem dunyoqarashi qanday asosga ega?
7. Enesidem sababiyat to'g'risida qanday mulohazalar bildirgan?

STOISIZM

Stoisizm, epikureizm singari, materialistik yo'nalishdagi ta'limot. Ular orasidagi farq shundaki, birinchisi Demokrit atomizmiga tayansa, ikkinchisi Geraklit ta'limotiga suyanadi va undagi gilozoistik qirralarini kuchaytiradi. Ayni paytda stoisizm kiniklar axloqiy ta'limotini naturalizm nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqadi va uni *Polemon* etikasi bilan bog'laydi. Shu tariqa stoiklar materializmi panteizmga yaqinlashadi.

Stoiklar maktabi asoschisi kitionalik Zenon(336-264) bo'lgan, u mil.avv 335 Kiprdagi Kitionda tug'ilib, Afinada mil.avv 263 yillar atrofida vafot etgan. Dastlab u otasining ketidan borib savdo bilan shug'ullangan. Afinaga mil.avv 315-313 yillarda kelib, Ksenofonning "Sokrat haqida esdaliklar"ini, Platonning "Sokrat Appologiyasi"ni o'qigan va ular Zenonda katta taassurot qoldirgan. Mil.avv 300 yil u o'zining maktabiga asos soladi va u stoya (qayta yozuv, kolonada) deb nomlanadi, u yerda o'zi ma`ruzalar o'qiydi. Aytishlaricha, u o'z joniga qasd qilgan. Uning asarlaridan faqat ayrim parchalar, fragmentlar yetib kelgan.

Zenon vorisi Assalik Kleanf (mil.avv 330-322/321), undan keyingi vorisi esa Kilikadagi Soldan Xrisipp bo'lgan va uni stoya maktabning ikkinchi asoschisi deyishgan. Xrisipp stoiklar doktrinasini tizmlashtirishni tanqid qilgan. Aytishlaricha u 705 asar yozgan va ulardagi dilektik g'oyalari va mushohada uslubi tufayli mashxurlikka erishgan.

Zenon shogirdlari ichida Xioslik Ariston, Karfagarlik Gerill, Gerakleylik Dion, Kiyalik Persionlar bo'lgan. Kleanf shogirdi bosforlik Spayr bo'lgan. Xrisippga ikkita shogird voris bo'ladi: Tarsalik Zenon va Selevkiyli Diogen. Diogen mil.avv 155 yilda boshqa faylasuflar bilan jarima masalasi bo'yicha Rimga boradi. Bu faylasuflar Rimda yoshlarga ma`ruzalar o'qishadi va ularning hurmatlariga sazovor bo'lishadi¹.

¹ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.428

Zenon o'limidan keyin stoya maktabini eski ortodoksial ta'limot ruhida bo'lgan *Kleanf* (264-232), keyinchalik Xioslik *Ariston* boshqaradi. Keyingisi davrida maktabda kiniklar etikasi elementlari yanada jonlanadi. Ayni vaqtda, uning boshqaruvi paytida stoisizmga Arkesilay hujumi boshlanadi, u Akademiyaga skeptisizm g'oyalarini olib kirishga urinadi hamda shu tariqa stoisizmga ta'sir o'tkazadi. Jamiyat ma'naviy hayotiga stoisizmning ta'siri Xrisipp davrida kuchayadi: stoiklar Akademiya skeptiklaridan ustun kelishadi; bunda skeptiklarning dogmatik ta'limotini tanqid qilish, rad etishda stoiklar qo'llagan mantiqiy metodlar, ayniqsa tushunchalarni aniq ta'riflash usuli yaxshi samara beradi.

Stoiklar fizikasi Aristotel fizikasi, ayniqsa uning materiya va shakl to'g'risidagi ta'limoti bilan Geraklit ta'limotining ayrim elementlarining qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Aristotelda materiya va shakl o'rtasidagi munosabat dunyoviy sharni "birinchi turtki beruvchi"dan ajratib turadigan joyda (Aristotel Xudoni materiya va shakl birligi deb hisoblagan, stoiklar, aksincha, olamni yaxlit deb bilishgan) tugaydi. Bu ta'limot izchil emas, idealizm elementlari bilan qorishgan edi. Unda olamdagi qat'iy zaruriyat maqsadga muvofiqlik bilan qo'shilgan edi. Stoiklarning bunday ta'limoti, tabiiyki, epikureizm bilan qo'shila olmas edi. Ana shuning uchun ham stoiklar epikureizmning ko'p olam, ko'p atomlar mavjudligi to'g'risidagi ta'limotiga qarshi chiqadilar, olamda bo'shliq yo'q deb hisoblashadilar. Stoiklar Geraklitdan barcha narsalar olovdan paydo bo'lgan degan fikrni olganlar. Shuningdek, ular Geraklitdan olamni logos boshqaradi, degan fikrni ham qabul qilganlar.

Inson va jamiyat to'g'risida. Inson – ijtimoiy mavjudot, olamning bir bo'lagi, u o'z-o'zini himoya qiladi, ana shu holat insonning hulq-atvorini, hatti-harakatini belgilashdan tortib, to davlat farovonligini o'ylashgacha bo'lgan urinishlarini taqozalaydi. Dono odam shaxsiy manfaatlaridan davlat manfaatini ustun qo'yadi.

Bilish nazariyasi va mantiq masalalari talqini.

Stoisizm da mantiq masalalarini tadqiq etishga katta e'tibor qaratiladi. "Logika" terminini aynan shu stoiklar ilmiy aylanmaga kiritishgan va shu nom bilan falsafaning bir bo'limini atashgan, uni boshqa bo'limlari – fizika va etika bilan birdek ko'rishgan.

Logikani esa dialetika va ritorikaga bo'lishgan, ba'zi stoiklar unga haqiqat nazariyasini kiritishgan. Bu stoiklarda epistemologiya (bilish nazariyasi) va logika(mantiq) masalalarining uzviy bog'liq tarzda tadqiq etilganligini ko'rsatadi.

Bilish masalalariga yondashar ekan, stoiklar nafaqat Platonning umumiy transendentalligini, balki Aristotelning konkret umumiylikni ham inkor etishgan.

Ular fikricha, alohidalikgina mavjud bo'lib, bizning bilimlarimiz faqat yakka narsalar haqidadir. Bu narsalar bizda ular haqida tasavvur shakllantiradi, bilimlar shu narsalarni bilishdir. Shu orqali stoiklar Platonga qarshi pozitsiyani egallashadi: Platon sezgilarga ehtiyotkoranalik bilan yondashadi, stoiklar esa uni bilimning asosi sifatida qabul qilishadi. Bilim olish uchun idrok kerak. Idrokdan so'ng - obyekt ko'z oldimizdan yo'q bo'lib ketgandan so'ng- u miyada qoladi. Miyada qolib eslanganda esa, u tajribaga aylanadi.

Stoiklar sensualizmni rasionalizm bilan qo'shishga uringanlar. Ular aqlni individual rivojlanish natijasi deb hisoblashsada, uni asta-sekinlik bilan tasavvurlar yordamida shakllanadi deganlar. Ketma-ketlikda shakllangan aql g'oyalaridan tashqari, tajriba orqali paydo bo'ladigan umumiy g'oyalar borligiga ham ishonishgan. Inson tabiati ichki g'oyalar deb ataladigan g'oyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Undan tashqari, insonlarning reallikni aql yordamida anglashi mumkinligini e'tirof etishgan.

Stoiklar haqiqat mezonlari masalasiga katta e'tibor berishgan. Bu mezonlarni "ushlab oluvchi"(kataleptik) tasavvur yoki idrok deyishgan. Natijada haqiqat jon bilan birga bo'lgan idrkoni o'zida mujassamlashtirgan(bu aniq bilimlarni ilm-fan beradi degan qarashga zid). Ammo jon bunday obektiv haqiqat-idrok bilan kelisha olmasligi mumkin va o'shanda kelishmovchilik yuzaga keladi¹.

Bilish tabiatiga xos mana shunday xususiyatlar, stoiklar fikricha, mantiq masalalariga yondashuvni belgilaydi. Stoiklarga ko'ra, mantiqning predmeti – so'z belgilari, tovush, bo'g'in, so'z, gap, ular ifodalaydigan fikrlar (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, xulosalash).

Bu fikrlar ichki nutq shaklida ham, tashqi ifodasida ham bir xil. Fikrning chin yoki xatoligini mantiqning bir qismi–*dialektika* o'rganadi. Stoiklar dialektikasi ularning bilish nazariyasiga mos keladi. So'z belgisi – tovush, u anglatadigan narsa–tasavvur. Tasavvur tabiatda mavjud narsalarga tegishli. Mantiq ilmining boshlang'ich nuqtasi – tasavvur va tasavvurning tabiatdagi muayyan bir narsaga munosabati. Mavjud narsalar – bu *jislar, jism sifati, jism harakati, jism munosabati* bo'lib, ular faqat hissiy mushohada (idrok) orqaligina tasavvur predmeti bo'la oladi. Hissiy tasavvur – tasavvurlarning birinchisi va asosiysi. Ikkita holat tasavvurlarning chinligini belgilaydi: 1) hissiy tasavvurlardan kelib chiqish usuli; 2) bu tasavvurlarning o'zining xususiyatlari.

Hissiy tasavvur predmetning jondagi modifikatsiyasi bo'lib, ongga yetib borgach, u predmetning o'zini anglashga majbur qiladi. Zenon va Kleanf fikricha,

¹Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.428

predmet jonda muhrlanadi. Xrisipp fikricha esa, predmet jonni “modifikasiyalaydi”. Hissiy tasavvur faqat shunda chin bo’ladiki, qachon unda predmet qanday bo’lsa, shunday holatda, o’ziga xos xususiyatlari, aloqalari bilan aks etsa. Chin hissiy tasavvurlar bilan bir qatorda, xato, aldab qo’yadigan hissiy tasavvurlar ham mavjud. Ular, masalan, tushlar, gallyusinasiyalardir.

Chin fikrni qanday qilib xato fikrdan ajratish mumkin, degan savol qo’yib, stoiklar unga “ha, shunday mezonlar bor”, deb javob berishadi. Buning uchun:

- 1) aql sog’lommi;
- 2) predmetni idrok etuvchi sezgi organlari sog’ holatdami;
- 3) predmetning fazoda o’rni, uning sezgi organiga nisbatan joylashishi idrokka mos keladimi;
- 4) idrok jarayoni yetarlicha vaqtda davom etdimi;
- 5) idrok predmetni uning barcha xususiyatlari bilan qabul qila oladigan darajada jiddiymi;
- 6) predmet bilan sezgi a’zosi o’rtasidagi muhit uni normal idrok etish uchun zarur bo’lgan sharoitni buzishga olib kelmaydimi;
- 7) dastlabki taassurotni keyingi idroklar tasdiqlaydimi (bevosita yoki bilvosita), degan savollar qo’yib, ularga javob topish zarur.

Agar mana shu savollar bo’yicha tekshiruv idrokning chinligini tasdiqlasa, u predmetni adekvat tarzda aks ettirgan deb hisoblanadi va unday tasavvur “ushlab oluvchi” yoki “kataleptik” deb ataladi. Aynan ana shunday tasavvurni bilim mezoni deb hisoblashadi.

Har bir tasavvurni aql tekshiradi, biroq qaror qabul qilishda aql predmet xususiyatidan kelib chiqadi. Agar aql haqiqatan ham kataleptik tasavvur bilan kelishsa, idrokning adekvat mulohazasi – “kataleptik” vujudga keladi. Agar aql roziligi bizning (subyektning) ixtiyorimizda bo’lsa, bunday mulohaza *iroda erkinligi* akti bo’lib hisoblanadi.

Odamlar o’z xatosi sababini tashqaridan emas, o’zlaridan qidirishi lozim. Insonga nafaqat tasavvurlarning kelib chiqishi, balki qolgan barchasi ham unga bog’liq, ya’ni uning predmetga qanday munosabatda bo’lishiga, ixtiyor erkinligiga bog’liq. Ishonchsiz yoki xato fikrga kelishning sababi haddan tashqari tez isbotlangan tasavvurni to’g’ri deb qabul qilishdir. Kataleptik tasavvurlar o’z-o’zidan bizning shubhalarimizni yo’qotadi, chin fikrni topishga yordam beradi.

Inson tug’ilganida uning ongi hyech narsa yozlmagan jadvaldek bo’ladi. Hissiy idrok (mushohada) ongni asta-sekin tasavvurlar bilan to’ldira boshlaydi. Bunday idrok nusxalari xotirada muhrlanib qoladi va buning natijasida *empirik tushuncha* paydo bo’ladi. Empirik tushunchalarning ikkita turi mavjud: 1) barcha kishilarda birday, tabiiy holda tajriba asosida hosil bo’ladigan tushunchalar; 2)

tafakkur natijasida, ongli tarzda yo'naltirilish oqibatida paydo bo'ladigan tushunchalar.

Bola yetti yoshga yetganda "tabiiy" tushunchalardan unda "logos" yoki "aql" paydo bo'ladi. Predmetning his qilinadigan sifati shu predmetga real tarzda tegishli, tushunchaga esa reallikda hech narsa mos kelmaydi. Aqlimiz hissiy mushohada (idrok) yetkazib beradigan yaqqol tasavvurlarni o'zgartirishi, hissiy tajribada hosil qilingan bir qancha tasavvurlarni birlashtirishi va shu kabi boshqa usullardan foydalanishi mumkin. Aql hayotda tasavvurlarning ba'zi qismlarini chiqarib tashlashi, qismlarning joylashish tartibini almashtirishi mumkin. Jins tushunchalarining paydo bo'lishi ham huddi aqlning ana shunday qobiliyati asosida hissiy taassurotlarni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladi. Jins tushunchalar ixtiyoriy tarzda emas, balki zaruriy ravishda hosil bo'ladigan elementlardir, ular tufayligina *nutq* va *tafakkur* paydo bo'ladi.

Tajribamiz xaos holatida emas, balki tartibli. Bu tartib jins tushunchalar tufayli saqlanib turadi, chunki har bir jins tushuncha turlarni o'z ichiga oladi. Ana shuning uchun ham tajriba sohasi ko'rinib turadi, tushunarli bo'ladi, aqlimiz esa mushohada (idrok), tasavvurlardan (ular alohida-alohida tasavvurlarni ifoda etadi) umumiy mulohazalarni hosil qiladi; ular tajriba sohasini to'laligicha qamrab oladi va, shu tariqa, tajribani har bir kishi uchun erisha oladigan vositaga aylantiradi.

Bu ta'limotda logos ham nutq a'zosi (organi), ham tafakkur a'zosi tarzida yuzaga chiqadi. Logos odamlarni hayvonlardan ajratib turadi. Inson Xudo bilan bir qatorda aqlga ega, uning logosi Xudo aqli bilan baravardir, har ikkalasi butun olam miqyosida amal qiladi va materiyani o'zi hohlagan ko'rinishda shakllantiradi. Stoiklar odam aqlining dunyoviy aqlni o'zida ifoda etishini ana shunday tushuntirishadi.

Shunday qilib, aql borliqni fikrlay oladigan va til vositasida ifoda qila oladigan ko'rinishga keltiradi. Ilohiy aqldan farqli o'laroq, inson aqli xato qilishi mumkin. Fikrlash predmetlari, ya'ni faqat tafakkurda mavjud predmetlar o'z ma'nolariga ega, chunki ular olamda hukmron bo'lgan aql bilan muvofiqlashadi. Ana shuning uchun ham aql predmetlari *haqiqat sohasi* va *xatolar sohasiga* ajraladi.

Stoiklar fikricha, "chin" yoki "xato" bo'lish – tasavvur va mulohazalar belgisi, ular jonning moddiy modifikasiyasi belgilari emas, balki tasavvurlar va mulohazalarga muvofiq keladigan aql bilan bilinuvchi predmetlar belgilaridir. Har bir aqliy mushohada qilayotgan yoki gapirayotgan kishi, "biror narsa"ni fikrlaydi yoki u to'g'risida gapiradi va uni tafakkur va mulohazadan farq qilish kerak, u ana shularning mazmunini tashkil etadi. Hissiy mushohadaning bilishdagi ahamiyati ana shunda. Lekin uning roli qanchalik yuqori bo'lmasin, u hali ilmiy bilim emas,

uning manbai, xolos. Ilmiy bilimning haqiqiy belgisi – bu uning mantiqan isbotlanishi.

Stoiklarning formal mantiq masalalari konturini chizishga urinishganlarini mulohazalar to'g'risidagi qarashlaridan ham payqash qiyin emas. Xususan, ular mulohazalarni oddiy va murakkab turlarga ajratgani holda, ularning mantiqiy qiymatlarini, ya'ni chin-xatoligini aniqlashga e'tiborini qaratishadi.

Stoiklarning mantiqiy isbotlash to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqishdagi xizmatlari sezilarlidir. Stoiklar fikricha, chin fikrlar bir-biriga muvofiq keladi, bir-biridan kelib chiqadi. Ana shuning uchun ham donolik faqat kataleptik tasavvurlarga moslikda emas, balki to'g'ri muhokama yuritish, xato fikrlarni istisno qilishdadir. Stoiklar *dialektikasining* vazifasi ana shundan iborat. Dialektika – bu xulosa chiqarish va isbotlash to'g'risidagi ta'limotdir (rivojlanish, aqlning haqiqat tomon harakati to'g'risida emas). Bu ma'noda talqin etilgan dialektika logikadan boshqa narsa emas.

Stoiklar Aristotelning materiya va shakl to'g'risidagi noaniq tasavvurlariga chek qo'yishib,, dualizmdan monizmga o'tdilar. Aristotel fikricha, Xudo “shakl” bo'lib, usiz materiya mavjud emas, u olamdagi barcha jarayonlarning maqsadi. Stoiklar esa, olamning yagona substansiyasida materiya va kuchni farqlab, ularni atributlar deb bilishadi. Substansiya–bu jism, u o'z-o'zini shakllantiradi. Va, aksincha, kuch va shakl–moddiy emas, aql bilan erishiladigan ibtidodir.

Stoiklar F.Koplston fikricha, Aristotelning 10ta kategoriyasini 4taga tushirishgan: substansiya, sifat, holat va munosobat¹.

Jism–mavjudotning yagona jinsi. Lekin kishilar o'y-fikrida jismga turli xil qarashlar mavjud. Bu qarashlarning mohiyati *kategoriyalardir*. Zero, jismni uning xossasiga qarama-qarshi qo'yadigan fikr *substansiyani* hosil qiladi. Muayyan xossaga ega bo'lgan fikr *sifatiy kvalifikasiya* kategoriyasidan iborat. Ana shunday fikrda, tasavvurda jism va uning hossasi qo'shilib, birlikni hosil qiladi. Masalan, “donishmand” tushunchasi ana shundaydir. Kvalifikasiyalashgan(ixtisoslashgan) jism harakatda yoki osoyishtalikda deb ifodalaydigan fikr atributlari (harakat yoki osoyishtalik) to'g'risidagi tasavvurlar bilan birlashib, *sifati* yoki *holati* bilan tavsiflanadigan predmetlar guruhini hosil qiladi. Demak, stoiklarning kategoriyalar to'g'risidagi ta'limoti jismlarni ular fikr qilinadigan tasavvurlar bo'yicha tasniflashdan iborat. Bunda jismlar o'z xossalari va munosabatlari bilan yoki ularsiz fikr qilinishi mumkin. Nima bo'lganda ham, jism barcha kategoriyalarning

¹ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.428

substrati (gavdalantiruvchisi), kategoriyalar esa mavjudotning (borliqning) jinslari deb fikr qilinishi kerak.

Lekin barcha narsalarning oliy jinsi “*mavjudot*” emas, balki “qandaydir bir narsa”dir. Mavjud narsa “qandaydir bir narsa”ning turi. “Mavjudot” har doim moddiy mavjudotdir. Biroq “qandaydir bir narsa” jismsiz ham bo’lishi mumkin. “Mavjudot” – bu faqat ta’sir etuvchi va ta’sirlanuvchi narsa. Biroq jisimgina ta’sir etishi, harakatda bo’lishi mumkin. Aynan materiya har qanday mavjudlikning yoki mohiyatning asosidir. Lekin materiya yakka predmetni boshqa predmetlardan farq qilib turadigan holda yaratishi uchun yana kuch ham zarur. Moddiylikdan hamda ta’sir etish va ta’sirlanish qobiliyatidan tashqari, jisimga uch o’lchamdagi *ko’lam* ham xosdir.

Mavjudlikning substansialligidan farqli o’laroq va materiyaning substansiallik ibtidosiga tegishli bo’lmagan *jisimsizlik* ham mavjuddir. Stoiklar jisimsiz narsalarning to’rt turini: *fazo*, *vaqt*, *bo’shliq* va “*sof*” fikr predmetlarini farq qiladilar. *Fazo* – bu jisimiy, moddiy narsa bilan to’ldirilish qobiliyatiga ega “qandaydir bir narsa”dir, u chegaralangan. Bundan farqli o’laroq, *bo’shliq* chegaralanmagan, ya’ni cheksizdir. Stoiklarda yaxlit olamni ifodalaydigan so’z bo’lmagan. *Fazo* va *bo’shliq* jismning mavjudligi bilan birga zohir bo’ladigan, ifodalanadigan narsalardir. Stoiklar *vaqtni* harakat ko’lami yoki dunyoviy harakat ko’lami sifatida tavsiflashadi. *Fazo* singari, *vaqt* ham o’lchamga, ko’lamga ega. *Fazo* va *vaqt* jism bilan birgalikda mavjud. Bunda *fazo* borliqning moddiy jihati bilan, *vaqt*–faoliyatli jihati bilan bog’liq. Jismlarga *fazo* va *vaqtdan* tashqari, yana *sof* fikr predmetlari–“lektalar” xosdir. *Fazo* va *vaqt* yaqqol tasavvur qilinadigan narsalar bo’lsa, “lekta” – tushunchadir. *Lekta*–jins tushuncha bo’lib, barcha mavjud narsalarga, ularning aksidensiyalariga tegishlidir.

Stoiklar fikricha, mavjudotlar jinslari bu–sifat ham, holat ham, munosabat ham emas; ular muayyan sifatga, holatga va boshqa predmetlarga munosabatda bo’lgan predmetlardir. Sifat, holat va munosabat oddiy jins tushunchalar, *sof* fikr predmetlaridir.

“*Xossa*” narsaning mohiyatiga tegishli va o’zining davomiyligi va qarshilik ko’rsatish qobiliyatidan qat’iy nazar, barcha narsalarga taalluqlidir. U uzoq vaqt yashashi, tashqi ta’sirlarga turlicha qarshilik ko’rsatishi mumkin. Bundan farqli o’laroq, holat odatda, uzoq vaqt yashay olmaydi, lekin tashqi kuch ta’sirida uzoq yashashi mumkin.

Stoiklarga sifatni jism deb e’tirof etadilar. Sifat “*pnevma*” (nafas olish)dan iborat, u predmetning barcha qismlariga kiradi. “*Pnevma*” barcha hossalari substrati, aynan ana shu sifatiga ko’ra predmet shu holda bo’ladi. Biroq, bu predmetning asosiy sifatilariga taalluqli emas. Borliqning oliy elementlari – *havo* va *olov*: ulardan *hayot* va *ong* paydo bo’ladi. Aksincha, *suv* va *yer* – passiv moddiy

elementlar, hayot va shaklni ular olov va havodan oladilar. Olov va havoning oliy elementlari o'zlariga va boshqa elementlarga yaxlitlik baxsh etadi, bunga quyi elementlar qodir emas.

Olam–yagona tirik mavjudot, u jon va ana shu jon kirgan predmetlardan tashkil topadi.

“*Holatda bo'lish*”–harakat yoki osoyishtalikdan iborat, ular, o'z navbatida, muayyan bir kuch ta'siri natijalaridir, bunday kuchlar olamning barcha joylarida mavjud.

Osoyishtalik–kuchlar muvozanati bo'lib, bu kuchlar qarama-qarshi tomonga yo'nalgan bo'ladi.

Harakatning uch turini farq qilish zarur:

- 1) fazoda o'rnini o'zgartirish;
- 2) sifatning o'zgarishi;
- 3) kuchlanish (tonik harakat) bilan taqozalangan harakat.

Ularning uchallasini ham fazoda o'rin almashishga olib borib taqash mumkin. Elementlar boshlang'ich jismdan paydo bo'lishadi va unga qaytishadi, buning sababi quyiqlashish va siyraklashishdir. *Tonik harakat* “pnevmatik” jismlarga xos bo'lib, u ichki qismlari harakatidan tashkil topadi va bu harakat markazdan chekkalarga qarab yo'nalgan bo'ladi (teskari yo'nalishda ham bo'lishi mumkin). Markazga qarab yo'nalgan harakat jism va uning qismlari birligini, teskari yo'nalishdagi harakat jismlar miqdori va shaklini belgilaydi. Jismning boshqa barcha sifatlari ham “pnevma” bilan taqozalangan. Xususan, noorganik tabiatda ana shunday. Organik tabiatda esa, yangi kuchlar ishga tushadi, ular “pnevma”ning noziklik va kuchlanishi darajasi bilan belgilanadi.

Stoiklarning *sababiyat* to'g'risidagi ta'limoti dunyoviy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur etishni taqoza qiladi. Dunyodagi barcha narsalar kuchning yagona manбайдan hosil bo'ladi. Sababiy ta'sirlarni oliy elementlar: olov, havo va ularning aralashmasi bo'lgan “pnevma”lar yaratadilar. Boshqa barcha jismlar ularda “pnevma” bo'lgani uchun sabab bo'lishi mumkin. Sababiyat faqat nomoddiy natijalarga olib keladi, chunki sababiyatning mohiyati shundaki, bir jism boshqa jism holatini o'zgartiradi, harakatga keltiradi, unda muayyan o'zgarishlarni sodir qiladi.

Vaziyat, sababiyatdan farqli o'laroq, yo'q bo'lsa, ta'sir sodir bo'lmaydi. Sabab va oqibat o'rtasida hech qanday o'zaro ta'sir mavjud emas.

Stoiklarning falsafasidagi muhim tushuncha – *fatumdir*. Har qanday sababiy ta'sir tabiat qonunlariga muvofiq holda sodir bo'ladi. Jismlar o'zaro ta'sirda bo'lganida, muayyan oqibat paydo bo'ladi. Ana shunga ko'ra, hodisalar o'rtasida sababiy aloqadorlik bor, degan xulosaga kelishadi. Sabab va oqibat

o'rtasidagi ketma-ketlik, aslida birinchi harakatga keltiruvchi kuch faoliyati bilan bog'liq.

Olam – ilohiy tirik materiyaning zaruriy mahsuli. Sababiy kuch yagona oqim sifatida ko'p alohida, yakka oqimlar va irmoqlarga bo'linib ketadi va bunda o'zining yaxlitligini saqlab qoladi. Demak, barcha jarayonlardagi sababiy aloqadorlik yagona substratga yoki “fatum”ga bog'liq. Bu tushunchalar stoiklarni “oldindan ko'rinish”, “zaruriyat doirasidagi iroda erkinligi” to'g'risidagi ta'limotini yaratishga olib keladi. Shu yerda monizm prinsipi buziladi. Sababiyatni tushuntirish teleologik tus oladi. Olam ilohiy olovdan paydo bo'ladi. Bu olov nafaqat moddiy sabab va nafaqat sababiy shakllanish qonuni, balki, bir vaqtning o'zida, barcha narsalarni boshqaradigan aql, ma'naviy ibtidodir va u olamda maqsadli tartib bo'lishini nazarda tutadi. O'simlik o'z urug'ida ildizi va shoxlari, bargi, guli va hosilni mujassamlantirgani singari, olamda paydo bo'ladigan har bir predmet dunyo miqyosida boshqa predmetlar majmuasidagi qandaydir hohish, maqsadlar tizimidagi muayyan maqsadning ro'yobga chiqishidir.

Ilohiy substansiya–barcha mavjud narsalarning maqsadini ifodalovchi tasavvurni yaratuvchidir, uning substratidir. Buni stoiklar “*urug'li logos*” deb atashadi. Mazkur tushunchaga Aristotel o'z ontologiyasiga kiritgan to'rt sabab: moddiy sabab, dinamik sabab, mantiqiy sabab, maqsad sabab olib kelib birlashtiriladi. Stoiklarda xuddi shunday *fatum* (rok) va *oldindan ko'rish* ham birlashtirilgan. Insonda iroda tushunchada fikrlanayotgan nimanidir maqsad qilib qo'yadi, uni mexanika qonunlariga bo'ysungan harakat orqali ro'yobga chiqaradi. Insonda sodir bo'ladigan mana shu holatni stoiklar butun olamga xos deb hisoblaydilar.

Xususan, ibtidoiy ilohiy olovdan izchil tarzda havo, suv, yer paydo bo'ladi. Bu quyi elementlarning birligini ularning ichiga kiruvchi “pnevma” yaratadi, bu birlik turli darajadagi tozalik va kuchga ega bo'lishi mumkin. Pnevma noorganik tabiatda ko'r-ko'rona zaruriyat va sababiyat, o'simliklar olamida mos ravishda markazdan chekkaga qarab harakatlanadigan kuch, hayvonot olamida aql tushunchalarini ko'ra olmaydigan jon sifatida, maqsadsiz hohish bo'yicha va tasavvurlarga tayanib amal qiladigan kuch tarzida, insonda esa, jon sifatida mantiqan harakat qiladigan, aql bilan biladigan, aqlni hohlovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

“Ilohiy pnevma”ni ana shunday dunyo rang-barangligi, ko'p xilligi birligida deb bilish Xrisippga barcha fatumga muvofiq sodir bo'ladigan narsalar, ayni paytda, “oldindan ko'rish”ga ham mosdir, deb aytishga asos bo'lgan. Bunday xulosa noto'g'ri va “ilohiy pnevma” mohiyatidan kelib chiqmaydi, chunki “pnevma” turli sohalarda turlicha usullar bilan amal qiladi. Ana shuning uchun

ham stoiklar fatum bilan oldindan ko'rish orasiga *tabiat* tushunchasini joylashtiradi. Uning fatum bilan umumiyliги – maqsadga muvofiqligida.

Stoiklar qarashlariga *teodisiya* xos. *Teodisiya* – olamda mavjud yovuzlik uchun Xudoni falsafiy jihatdan oqlash. Kleanf olamda yovuzlikning, tabiatda esa maqsadga muvofiqlikka mos bo'lmagan hodisalarning mavjudligini fatumga to'nkashga, xususan, uning oldindan ko'rish bilan bog'liq eamaasligini, o'z holiga tashlab qo'yilgani natijasi ekanligini ko'rsatishga urinadi.

Xrisipp fikricha esa, yovuzlik oldindan ko'rishsiz dunyoga kirib kela olmaydi. Biz yovuzlik deb hisoblaydigan ba'zi narsalar tabiatdagi maqsadga muvofiqlik tufayli yuzaga keladi. Bundan tashqari, fizikaviy yovuzlikni yovuzlik deb bo'lmaydi, u insondan baxtini tortib ololmaydi. Demak, asosiy masala oldindan ko'rish bilan o'zaro aloqador, bir-birini taqoza etadi.

Stoiklar fatum bilan iroda erkinligi o'rtasidagi ziddiyatni hal etishda harakat turlari o'rtasidagi tavofutga tayanishadi. Noorganik jism harakati uchun turtkini boshqa harakatlanuvchi jismdan oladi. O'simlik tashqaridan kelgan ozuqani qayta ishlash jarayonida harakatlanadi. Hayvonning harakati sababi uning psixikasida. Hayvondan farqli o'laroq, insonda harakatga keltiruvchi tasavvur va tuyg'ular qatoriga uchinchi element–mantiqiy tafakkur, aql kelib qo'shiladi. Aql egasi bo'lmish inson hamma vaqt ham vaziyat taqozalab turgan harakatni sodir etishga rozi bo'lavermaydi. Insonning amaliy erkinligi asosida nazariy erkinlik yotadi. Faqat tuyg'ular, lazzatlanish aql chig'irig'idan o'tgandan keyingina ,kuchga kiradi, aqlga mos irodaga aylanadi. Inson hayvondek tug'ilib, aqliy mavjudotga aylanishi kerak. Bu faqat *donolargagina* nasib etadi.

STOIKLAR KOSMOLOGIYASI

Stoiklarning kosmologiyasi Aristotel va atomistlar ta'limotiga tayanadi. Stoiklar fikricha, Kosmos yagona. Aristoteldagi singari, Kosmos cheklangan va shar shaklida. Atomistlardagi singari, u cheksiz bo'shliq bilan o'ralgan, lekin Kosmik shar ichida bo'shliq yo'q. Kosmosdagi yaxlitlik “pnevma” tufaylidir. Pnevma barcha jismlarga xuddi jon tanaga kirgani singari kiradi.

O'zlarining qarashlarida stoiklar Geraklitning logos va olov- dastlabki asos, degan qarashlariga qaytib kelishdi. Ammo ularda Platon va Aristotel fikrlaridan olingan joylar ham bor. Xususan, hamma narsalarning urug'i bor, degan nazariy g'oya asosida moddiy olam tuzilishini tushuntirishga urinish mavjud.

Stoiklarning Kosmosga bo'lgan qarashlari panteistik va gilozoistik xarakterga ega. Kosmos–tirik va aqlli mavjudot. Mangu takrorlanib turadigan jarayonda Kosmos dastlabki olovdan paydo bo'ladi, yashaydi va yana qayta olov

holiga keladi va bu sikl mangu davom etadi. Agar Kosmos ichida bo'shliq bo'lganda edi, unda olamning birligi yo'qolgan bo'lar edi. Kosmos hayotida olamning birligi ko'plikka yoyiladi, ko'plik, turli xillik yagona ilohiy substansiya holiga qaytadi va bu jarayon mangu davom etadi.

Stoiklar, yuqorida ta'kidlanganidek, olamning alanganishi va paydo bo'lishi to'g'risidagi ta'limotida Geraklit kosmologiyasiga tayanishadi. Ilohiy substansiyaning maqsadi *diakosmezis*–aqli mavjudotlarni yaratish. Olam xudolar va insonlar uchun yaratilgan. Diakosmezisda ilohiyot alohida xudo shaxslariga ajratilgan. Barcha aqli mavjudotlar jamoani tashkil etishadi. Bu jamoa yerdagi barcha jamoalarning proobrazi. Aql hukmron olamda fuqaro bo'lish – insonning maqsadi.

Stoiklarga ko'ra reallik ikkita boshlang'ichga ega: passiv va aktiv. Bu yerda Platondagi kabi dualizm yo'q va dastabki faollik - g'oya emas, balki moddiylikdir. Bu yerda ikkita boshlang'i asos ham moddiylikdan iborat. Lekin, shuni ham aytish kerakki, stoiklar doktrinasi moneistik bo'lsada, ular hamma vaqt ham unga amal qilishmagan. Bu haqida Zenon qanday fikrda bo'lganligini bilmaymiz, ammo Kleanf va Xrisipplar bularni bir butunlik sifatida olib qarashgan.

Passiv boshlang'ich asos bu - sifatdan holi bo'lgan materiya, aktiv esa, aql yoki Xudo. Tabiiy go'zallik yoki tabiatdagi intiho boshlang'ichda fikrlash yoki Xudo borligini ko'rsatadi. Bularni inson uchun kim tashkillashtirganligi, bundan tashqari oliy mavjudot bo'lgan inson ongga ega ekan, demak borliq yomonlik timsoli hamdir, negaki butun qismdan yaxshi bo'lishi mumkin emas. Xudo bilan dunyoviy ong o'xshash, Xudo o'zining substrakti singari moddiydir.

Geraklitdan so'ng stoiklar hamma narsalarning boshlang'ich sababi olov deyishgan. Xudo bilan faol olov birga bo'lib, u olam deb nomlanadi. Shu bilan birga u birinchi manba hamki, undan moddiy olam paydo bo'ladi. Bu elementlar Xudo tamonidan yaratiladi va unga qaytib boradi. Olam paydo bo'lgandan keyin Xudo unga ruh tanaga qanday munosobatda bo'lsa, o'shanday munosobatda bo'ladi. Xudoning tanasi ham olamning elementlaridan tashkil topgan, lekin ular nozikroqdir. Ular boshlang'ich sababchisidir va yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi, boshqa elementlar esa harakatsiz va shaklsiz bo'ladi, ammo ular sabab bo'lsa, harakatga va shaklga ega bo'lishi mumkin.

Demak Xudo faol kuch bo'lib, yuzaga kelishi kerak bo'lgan narsalarni o'zida mujassamlashtiradi. Stoiklar ularni “spermatik logoslar” deb atashgan. Bu aktiv narsalar “urug'lar” bo'lib, ulardan yakka narsalar paydo bo'ladi; yoki aniqrog'i, bu urug'lar shakllanib, alohida narsalarga aylanadi. Dunyoning rivojlanishi jarayonida olovning issiqligidan havo paydo bo'ladi va undan suv

shakllandi. Suvning bir qismi - yer, ikkinchi qismi suv bo'lib qolaveradi, uchinchi qismi esa, havoga qayta aylanadi hamda qayta bo'linganda, olovga aylandi. Shunday qilib, Xudo tanasi olamga tarqaladi (olamni egallaydi).

Geraklit, hych bir joyda hamma joyni qamrab oladigan umumiy yong'in haqida aytmagan. Stoiklarga ko'ra, Xudo o'zidagi narsalrni avval tarqatadi va keyin yana qaytib oladi, bu esa, katta yong'in ko'rinishida bo'ladi. Olam doimiy ravishda tartibli paydo bo'lish va yo'q bo'lish jarayoning to'xtovsiz amalga oshirib keladi. Undan tashqari, har bir yangi olam avvalgi olamni takrorlaydi. Avvalgi dunyodagi kishi yangi dunyoda ham xuddi shu amallarni bajaradi.

Inson haqida gapirar ekan, stoiklar uning tana va jondan tashkil topishini ta'kidlaydilar. Jon ham tana, lekin "pnevmatik" tana, unga tonik harakat xos. Jon beshta hissiy a'zodan, nutq organi, qabul qiluvchi va boshqaruvchi organdan (miyadan) tashkil topgan.

Barcha qismlar "pnevma" oqimidan kelib chiqadi. Jon yurakda joylashgan. U barcha ma'naviy vazifalarni bajaradi: tasavvur, mulohaza, xulosa chiqarish, sezish, hohlashni amalga oshiradi. Sezgi organlaridan olingan obrazlar asosida jonda *tushunchalar kompleksi*–logos paydo bo'ladi. Jon tanadan ajralgandan keyin, uning mavjudligi hayot davomida tanadan olgan tonus darajasiga bog'liq. Fozil odamlarning joni tanadan holi holda uzoq vaqt yashashi mumkin. Biroq dunyoning alanganlashida, o't olishida u ilohiy substansiyaga qaytadi. *Polingenesiya* bosqichida olam taraqqiyoti avvalgi ko'rinishda takrorlanadi. Bu "abadiy qaytish" dunyoning mangu mavjudligini belgilaydi.

Inson to'g'risidagi fikrlarini rivojlantirib, stoiklar odamlarning erkinligini (zaruratni anglashini) inkor etishadi, ya'ni inson o'z xohish-irodasi bilan baribir qilishi kerak bo'lgan narsani qiladi. Hokimiyatning zaruratini stoiklar taqdirning silsilalarga qarshi kurashida yordam deb tushunishadi. Taqdir va oldindan ko'rish bu - Xudoning har xil ko'rinishi. Bu kosmologik determinizm ichki erkinlik borligini tan olish, insonning voqyealarga munosabatini va bahosini bera olishi mumkinligi bilan yengillashtiriladi va "Xudo sharofati" tufayli, inson erkindir.

Xudo olamni yaxshi niyatda yaratishini e'tirof etishar ekan, stoiklar bu dunyoda nimaga yomonlik bor ekanligini va hych bo'lmsa yomonlikka nisbatan "optimistik" qarashlarni tushuntirib berishi kerak edi. Bu doimiy muammoni hal etishga Xrisipp qaror qildi. U alohida narsalarning nomukammaligi butunning mukammaligiga olib keladi, deydi. Bundan shu kelib chiqadiki, aslida "yomonlik" degan narsaning o'zi yo'q.

Xrisipp o'zining oldindan ko'ra bilish metodiga asoslanib, yaxshilik yomonliksiz mavjud bo'la olmaydi va hech bir narsa qarama-qarshisiz avjud bo'la olmaydi, deb hisoblagan. Shuning uchun ham bittasini olib tashlasangiz, ikkinchisi yo'q bo'lib ketadi. Bunday qarash, albatta, adolatli. Masalan biz rohat-farog'atni his qilamiz ekanmiz, demak, qayg'uni ham his etamiz. Bu yerda gap Xudoning irodasi bilan bog'liq notabiiy narsalar haqida emas, balki tabiiy narsalar haqida bo'layapti. Biz qayg'uni yomonlik desak ham, u ba'zida yaxshilik o'rni bosadi. Masalan, tishimiz jarohatlansa, u og'riydi va bunga biz yaxshi va zarur narsa sifatida qarashimiz mumkin. Tish og'rig'i bu – albatta, yomon, ammo, ko'z oldingizga keltiring: agarda u yo'q bo'lganida, jarohat olgan joydan signal bo'lib, biz vrachga borishimiz uchun turtki bo'lmasdi. Xuddi shunday, ochlik yaxshimas, lekin bizda ochlik hissi bo'lmasa-yomon, och qolganimizni bilmay, sog'liqni yo'qotishimiz mumkin.

Shunday qilib, jismoniy yomonlik faylasuflar uchun muammo emas. Ammo axloqiy yomonlik qanday? Stoiklarga ko'ra, aslida hech qanday yomonlik yo'q, yomonlik qilgan shaxsning hatti-harakatining maqsadi bor, buni axloqi ko'rsatadi: bu harakatning o'zi indifferant hisoblanadi (yaxshilik yo'lidagi har qanday harakatga yaxshi yoki yomon deb qarash mumkin, ya'ni kishi axloqi past bo'lib, yomonlik sodir etsa, o'zini esa yaxshilik qilayotgan kishi deb hisoblasa, unda u faqat obektiv nuqtai-nazardan yomonlik qilayapti, deyish mumkin, ammo uni ayblash mumkin emas).

Yuqoridagi fikrga taqqoslamay, harakatlarning o'zini olib qarasak, Xrisipp harakatlarning o'zi yomonlik emas, yaxshilikdir deganida haq bo'ladi. Harakatlarning yomonlik bo'lmasligini quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin. Agarda bir kishi o'qdan o'ldirilgan bo'lsa, ikkinchisi adolatli urushda o'ldirilgan bo'lsa, unda ularni harakat nuqtai-nazaridan axloqiy yomonlik deyish qiyin. Axloqiy yomonlik pozitiv bo'lishi mumkin emas, unday desak, biz Yaratganni hamma narsalarning asoschisi deya olmaymiz. Axloqiy yomonlik, to'g'ri qoidalardan adashgan kishilar irodasining axmoqona harakat sodir etishi bo'lib, u aqlga ziddir. Yana kishilar yaxshi va yomon maqsadga ega bo'lishi mumkin, demak axloqiy sohada, jismoniy sohadagi kabi, bir- biriga qarama-qarshilik bo'lishi mumkin. Jasurlik haqida qanday gapirishimiz mumkin, agarda biz qo'rqqulikni bilmasak; adolat haqida nima deyishimiz mumkin, agarda adolatsizlikni bilmasak? deydi Xrisipp¹.

¹ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.429-432

Stoiklar etikasi

Stoiklar, ayniqsa Seneka, falsafaning etikaga bag'ishlangan sohasiga katta e'tibor qaratishgan. Seneka so'nggi stoiklarga tegishli bo'lgan, ammo uning qarashlari oldingi davr stoisizmiga ham mos keladi. Uningcha, falsafa qalb osoyishtaligini, hayotning bir tartibda bo'lishini ta'minlab, xulq-atvorni boshqaradi, nima qilish keragu, nimadan tiyilish kerakligini ko'rsatadi, odamlar faoliyatini boshqaruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, muayyan holatlarda ularni hayot to'lqinlarga uloqtirib yuboradi. Uningsiz ishonch va jasorat yo'q: hayotda har damda ko'p narsalar bo'lib turadi, u narsalarga bizning moslashgimizga to'g'ri keladi; ana shunday vaziyatda faplsafaga murojat qilamiz, undan madad kutamiz.

Falsafa asosan xulq-atvor bilan shug'ullanadi. Hayotning maqsadi, baxtga erishishning ishonchli vositasi-yaxshlik qilishda, ya'ni hayotning tabiat jarayonlari bilan birdamligida, kishilar hatti-harakatlarining tabiat qonunlariga mos kelishida yoki kishilar irodasining ilohiy irodaga to'g'ri kelishidadir. Stoiklar asosiy tezisi: «Tabiat bilan birdamlikda yashash». Inson uchun o'zining hatti-harakatlarini olam qonuniyatlariga bo'ysundirish, kishi o'zining xulq-atvorini o'zligiga va o'z qarashlari talablariga bo'ysundirishining zarurligi shundaki, olamning o'zi tabiiy qonuniyatlariga bo'sunadi. Qadimgi stoiklar tabiat(Fisk) so'zi ostida kishi amal qilishi kerak bo'lgan qonunlarni, borliqni tushunishgan. Xrisipp davridan boshlab esa tabiatni antropologik nuqtai nazardan tahlil qilish ustuvor bo'lgan.

Tabiat bilan birdamlik haqidagi stoiklar konsepsiyasi kiniklar konsepsiyasidan farq qiladi. Ular uchun Diogen qarashlari namuna bo'lgan. Kiniklar uchun tabiat odamzotning boshlang'ich nuqtasi va instinktlari edi, ular uchun tabiat bilan bog'liq qarashlar kishilik jamiyati va sivilizatsiyasini inkor qilish degani edi. Bu inkor odobsiz xul-atvorda o'zini tasdiqlagandek bo'lar edi. Stoiklar uchun tabiat qonunlariga bo'ysunib yashash bu - olamning ilk faolligi yoki logos bo'yicha yashash degani; bu prinsipga insonning joni ham bo'ysunadi. Bunga e'tiborini qaratib,Plutarx Xrisippni har doim etik qarashlarini olamning tuzulishi va qonuniyatlaridan boshlaydi, deb yozadi.

Shunday qilib, stoiklarga ko'ra, insonning Yaratgan irodasiga to'liq bo'ysunishi - etik maqsaddir.

Stoiklar inson ongi, xulq-atvorining instinktlarga munosabati masalasini ham muhokama etishadi. Ular fikricha, asosiy instinkt bu - tabiat hayvonlarga in'om etgan instinkt bo'lib, u jonzodning o'z-o'zini saqlab qolishiga yo'naltirilgandir. Stoiklar uchun bu instinktga amal qilish hayvonlarning o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini barkamollashtirishiga teng bo'lgan. Insonga esa aql

berilgan bo'lib, u hayvonat dunyosi ustidan hukmronlik qiladi; aql bilan yashash tabiat bilan birdamlikda bo'lishni taqoz etadi. Shuning uchun ham, Zenon fikricha, hayotning oliy maqsadi bu – tabiatga mos bo'lish- yaxshilik qilishdir, chunki tabiat yaxshilik qilish bilan yashashga undaydi. Shu orqali biz tabiatdagi mavjud narsalarni tajribalarimiz orqali bilamiz va bizning tabiatimiz ham umum olam qismi ekanligini anglaymiz.

Shuning uchun oliy maqsad - o'z tabiatingga, hohishingga ko'ra emas, balki unversum bilan muvofiqlikda yashash, unga to'g'ri kelmaydigan narsalarni qilmaslik va aql bilan ish qilish, to'g'ri yo'l tutish kerak. Bu-hamma narsalarni boshlanishi va tartiblanishi qoidasi, u Zevsga ham tegishlidir.

Laeretlik Diogen stoiklar qarashlariga fikr bildirib, yaxshilikka qaratilgan hayot bu - tabiat bilan birdamlikdir, bu esa, to'g'ri fikr bilan yashashdir, degan. Negaki, barcha narsalar tabiatga zarur ravishda bo'ysunadi, degan stoiklarning qarashi savol keltirib chiqaradi: kishilarga tabiatga bo'ysunish kerak deyishdan nima naf, agarda odam avvaldan tabiatga bo'ysunib kelgan bo'lsa? Stoiklar unga shunday javob berishgan: insonlar ongli mavjudotdir, shuning uchun ular tabiat qonunlariga bo'ysunishadi, ularga bu qonunlarni bilish huquqi berilgan va shuning uchun ham insonlar tabiatga ongli ravishda bo'ysunishadi. Bundan axloqiy ta'limotning bosh maqsadi kelib chiqadi: inson o'zining ichki holatini o'zgartirish huquqiga egadir. (Bu, albatta, deterministik pozisiyadan chekinishdir, ammo deterministlar hych qachon o'zlarining qarashlarida izchil bo'lishmagan, stoiklar bundan istisno emas).

Bundan kelib chiqadiki, hych bir harakatga nisbatan qat'iy tarzda u yaxshi yoki yomon deb baho bera olmaymiz - determinizm erkin axloqiy ma'suliyatga yo'l qo'ymaydi. Monistik nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, yomonlik bu-oddiy yomonlik va doimiy cheksizlikdan kelib chiqib yondashsak, bu to'g'ri va yaxshidir. Stoiklar, garchi nazariy nuqtai nazardan bo'lsa-da, to'g'rimas harakatlar bo'lmaydi, degan qarashga ega bo'lishgan. Masalan Zenon kannibalizm, inest nikohni, bir jinslar o'rtasidagi aloqalarni yomonlik deb hisoblamagan. U albatta bunday harakatlarni ma'qullamoqchi bo'lmagan, lekin jismoniy harakatlarni indifferen deb bilib, asl axloqiy yomonlikni inson orzu-istaklari va xohish-intilishlarida deb hisoblagan. Kleanf taqdir yo'lidan borish kerak deb, quyidagi fikrni aytadi: «agar mening taqdirimga yomonlik qilish bitilgan bo'lsa, unda men bu yo'ldan ham yura berishim kerak». Shunga o'xshash qarashni biz Senekaning fikrlarida ham uchratamiz: «Intiluvchilarga taqdir yo'l ko'rsatadi, xohlamayotganlarni majbur etadi».

Xullas, amaliyot ta'sirida stoiklarning qat'iy determinizmdan voz kechishiga to'g'ri keldi, ya'ni donishmand deb taqdir yo'lidan ongli ravishda yuradigan kishilarni aytish mumkin(bu yuqorida aytilgan fikrdan kelib chiqiladi). Odobga yo'naltirilgan etikasiga ko'ra, stoiklar inson ichki tabiatini, taqdir voqyealariga nisbatan bo'lgan munosobatini o'zgartirish, uning qiyinchliklariga bardosh berish va taqdirni o'zgartirishni emas, taqdirga bo'ysunish erkinligiga egaligini ta'kidlashadi.

Undan tashqari, stoiklar o'zining qadriyatlar tizimini yaratgan bo'lib, unga ko'ra, donishmand kishi oliy qadriyatlarga intilishi va pastlaridan yiroqroq bo'lishi kerak. Ammo amaliy hayotda hych bir deterministik tizim to'laligicha izchil bo'lmaydi, bunga hayratlanish kerak emas, negaki, erkinlik aynan haqiqat bo'lib, nazariyaga to'g'ri kelmasa ham, u reallikdir. Stoiklarga ko'ra, yaxshilik qiluvchilar o'z-o'zidan to'la ma'noda yaxshidir, yaxshilik hisoblanmagan narsa yaxshilik ham yomonlik ham emas, u qandaydir indifferent narsadir. Yaxshilik qilish – u kelishilgan ko'ngil bilan belgilanadigan holat bo'lib, u qo'rquv, umid yo boshqa tashqi ta'sir kuchida emas, balki o'z-o'zidan mavjuddir.

Yaxshilikka bo'lgan aynan o'shanday qarash, ya'ni yaxshilik qilgan kishi kelgusi hayotida yaxshilik ko'radi, yomonlik qilgan kishi esa, jazolanadi, degan qarash Xrisippning platonchilar ustidan kulishiga olib keldi. Ammo indifferentlik sohasini ko'rib chiqib, stoiklar shuni tan olishdiki, tom ma'noda ba'zi narsalardan qochish va ba'zi narsalarga intilish kerak. Bu nazariyaga qarshi bo'lsa-da, amaliyot uchun to'g'ri edi; lekin u, shubhasiz, stoiklarning doktrinasidan kelib chiqqan bo'lib, unga ko'ra yaxshi yo'ldan borish bu - tabiatga bo'ysunishdan iboratdir¹.

Stoisizm davrida axloq masalasi falsafaning asosiy masalasi bo'lib qolgan edi. Bunda baxt-saodat inson faoliyati va intilishlarining oliy maqsadiga aylanadi. Zenon fikricha, baxt-saodat va maqsad – “muvofiqlashtirilgan” hayot. Bunda Zenon mantiqiy kelishuvni, ya'ni hamfikrlikni, shuningdek his-tuyg'ularimiz, hohishlarimizning fikrlarimiz bilan muvofiqligini nazarda tutadi.

Kleanf, oliy ne'mat bu–“tabiat bilan kelishuvga erishish”, deb ta'kidlaydi.

Dunyoda amal qilib, uni boshqaradigan, har bir mavjudot turmushi tarzini va xulq-atvorini belgilab beradigan qonun bu – logos. Insonning rivoj topgan aqli xudo aqliga aynandir. *Oliy insoniy baxt – inson tabiatiga mos hayot kechirish.*

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.428-437.

Lekin inson haqiqiy tabiatni unga avvaldan berib qo'yilgan (tabiat tomonidan) imkoniyatlar, xususiyatlarni rivojlantirish asosida yaratadi.

Baxtli hayot–bu fazilatli hayot, ana shuning uchun ham inson fozillikka intilishi kerak. Fozillik–to'g'ri turmush kechirish san'ati. Stoiklar fikricha, barcha tirik jonlar uchun dastlabki his-tuyg'u–o'z-o'zini saqlash, o'zini sevish, qadrlash. Bunda faqat ayrim kishining o'z-o'zini emas, butun jinsni, urug'ni saqlash nazarda tutiladi.

Yetuklik davrida tabiat bilan kelishuv aql bilan kelishuv darajasiga o'sib o'tadi. Haqiqiy ne'mat–oliy maqsadimiz uchun biror narsa bera oladigan narsadir. Uning teskarisi–haqiqiy yovuzlikdir.

Axloqiy nuqtai nazardan qaraganda, *axloqqa befarq bo'lgan barcha munosabatlar, holatlar, kechinmalar ne'mat ham, yovuzlik ham emas*. Rohatlanish, sog'liq, kuch, boylik, qadr-qimmat–haqiqiy ne'matlar emas; huddi shuningdek, azob-uqubat, kasallik, kambag'allik, quvg'inlik – haqiqiy yovuzlik emas. Bu narsalardan yaxshilikka ham, yomonlikka ham foydalanish mumkin. Bularning foydali yoki zararli bo'lishi ularga inson munosabati bilan bog'liq.

Fozillik–to'g'ri amal qilayotgan aqlning yuqori darajasi. Insonning boshiga tushadigan kulfatlar, illatlarning manbai–affektlardir.

Stoiklar fikricha, yaxshi fazilatlar quyidagilardan iborat: mulohazakorlik, mardlik, o'zini tuta bilish, adolatlilik. Ushbu fazilatlar yo barchasi birga mavjud bo'ladi, yoki ulardan hych biri mavjud bo'lmaydi: ulardan biriga ega bo'lgan kishi ularning barchasiga ham ega bo'ladi. Zenon barcha yaxshi fazilatlarining sarchashmasini mulohazakorlikda deb bilsa, Kleanf – uni o'rtachalik, mo'tadillikda deb hisoblaydi. Ayrim masalalar bo'yicha qarashlaridagi farqlarga qaramasdan, stoiklar yaxshi fazilatlar aynan bir tabiatga ega bo'lgan hosilalar sifatida chambarchas bog'liq va shu sababli ulardan birining mavjudligi qolgan barchasining mavjudligini ham belgilab beradi, degan fikrni yoqlaydilar. Xuddi shuningdek, ular bitta nuqson bor joyda qolgan barcha nuqsonlar ham mavjud bo'ladi, degan fikrga qat'iy ishonganlar.

Shunday qilib, insondagi asosiy narsa – bu xarakter (inson tabiati); aslida esa o'z burchini bajarish kabi yaxshi fazilatlariga ega bo'lish (burch atamasini chamasi Zenon o'ylab topgan) asl ma'noda faqatgina donishmandlarga xosdir. Dognishmand ehtiroslardan holi va o'zining qadrini his qilish tufayli hych kimning, hattoki Zevsning ham ,o'zidan ustun ekanligini his qilmaydi. Bundan tashqari u o'z hayotining egasi va o'zini o'ldirish xuquqiga ham ega.

Agar barcha yaxshi, ezgu fazilatlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lsa va ulardan birining mavjudligi qolganlarining ham mavjud ekanligini anglatsa, u holda ularning barchasi teng qiymatli ekanligini taxmin qilish qiyin emas. Inson yo jamiki ezgu fazilatlariga ega va nuqson hamda kamchiliklardan holi, yoki u faqat

illatlarga ega. Xrisippga ko'ra, ma'naviy takomillashish yo'lini to'liq bosib o'tmagan inson to'laqonli holda jamiki ezgu fazilatlarga ega bo'la olmaydi, ya'ni u haqiqiy baxtni yaratuvchi ezgu fazilatlarni o'zida mujassamlantirmaydi.

Bundan kelib chiqadigan fikr shundan iboratki, faqat ayrim kishilargina ezgu xislatlarga ega bo'la oladilar va ular bunga hayotlarining oxirida erisha oladilar. Inson butun hayoti davomida, yoki uning qandaydir qismida gunohlarga ko'milib yashaydi. Va, hatto, u ezgu fazilatlarga ega bo'lsa ham, bu hodisa faqat uning keksayganidagina sodir bo'ladi. Biroq ushbu qat'iy ma'naviy idealizm faqatgina nisbatan erta ijod qilgan stoik mutafakkirlarga xos bo'lgan, nisbatan kechroq ijod qilgan stoiklar ma'naviy taraqqiyotga ishonganlar va odamlarni ezgu fazilatlar yo'lini tanlashga va shu yo'ldan yurishga da'vat qilganlar. Hyech bir inson donishmandlikning talablariga javob bermasligini tan olgani holda, ular dunyoni axmoqlar va ezgu fazilatlar va donishmandlik yo'lida turganlarga ajratganlar.

Stoiklar etikasining o'ziga xos xususiyati ularning ehtiroslar nazariyasida o'z ifodasini topgan. Stoiklar ehtirosni to'rt turga: qayg'u, qo'rquv, hirs va lazzatlanishga ajratganlar. Ularning barchasi irrashional va tabiiylikka qarama-qarshidir. Shu sababli muammo ularni kuchsizlantirish va boshqarishda emas, balki ulardan xalos bo'lish va sovuqqonlik, vazminlikka erishishdan iborat. Ehtiroslardan hyech bo'lmaganda, ular odat tusiga kirganda xalos bo'lish zarur. Shu sababli stoiklar etikasi amalda asosan ma'naviy erkinlikka erishish hamda o'z hayotiga egalik qilish maqsadida ehtiroslar bilan kurashishni anglatadi. Lekin, ayrim stoiklar donishmand inson ham ayrim qo'shimcha rashional hissiyotlar – masalan, lazzatlanish hissiyotlarini his qilishi ham mumkin ekanligini e'tiborga olgan holda ushbu qat'iy qarashlardan uzoqlashganlar.

Aytish kerakki, stoiklar etikasining ushbu tomoni, ya'ni aynan jamiki tashqi narsalardan to'liq ozod bo'lishga erishishga intilish kiniklarning merosidir, biroq bu masalaning kiniklar bilan umuman bog'liq bo'lmagan boshqa tomoni ham mavjud, bu - kosmopolitizm. Har bir inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot va ong bizning jamiyatda yashashimiz zarur ekanligini anglatib turadi. Ong barcha odamlarga xos, demak, har bir inson uchun yagona qonun va yagona Vatan mavjud. Insoniyatni o'zaro bir-biri bilan dushmanlik qiluvchi davlatlarga ajratish bema'nilik. Donishmand qaysidir bir davlatning fuqarosi hisoblanmaydi, u Dunyo fuqarosidir. Bundan kelib chiqadiki, biz barcha insonlarga nisbatan ezgu niyatli bo'lishimiz zarur, chunki hattoki qullar ham o'z xuquqlariga ega va hattoki dushmanlar ham bizning marhamatimiz va kechirishimizga loyiqdirlar. Tor ijtimoiy qarashlar chegarasidan bu kabi chiqish, albatta stoiklar tizimining monizmi (dunyoning negizi bitta - ruh yoki materiya - deb biluvchi falsafiy

talimot)dan kelib chiqqan, biroq ularning ushbu kosmopolitik qarashlari asosida o'z jonini saqlashga intilish yoki o'z-o'zini sevishning fundamental roli yotadi. Birinchi navbatda, albatta, o'z jonini saqlash instinkti insonning o'z-o'zini sevishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Biroq, u ushbu sevgi sarhadlaridan chetga chiqib ketadi va insonning o'ziga tegishli bo'lgan jamiki narsalarni – oila, do'stlari, vatandoshlari, va, nihoyat, jamiki insoniyatni qamrab oladi.

Albatta, insonda barcha boshqa hodisalardan yaqin bo'lgani - o'z jonini saqlash tuyg'usi kuchli darajada namoyon bo'ladi va uning uchun katta ahamiyatga ega bo'lmagan narsalarga nisbatan u kamayib boradi; shu sababli, ushbu etik nuqtai nazardan, har bir individumning vazifasi-o'z muhabbatini insonga shaxsan tegishli bo'lmagan narsalarga nisbatan ham kengaytirishdan iborat. Boshqa so'zlar bilan aytganda, biz odamlarni o'zimizdan kam bo'lmagan darajada sevganimizda yoki bizning sevgimiz o'z shaxsiyatimiz bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar, hattoki jamiki insoniyatni ham qamrab olganda hamda barcha jabhalarda bir xil kuchga ega bo'lgan holda namoyon bo'lganida ma'naviy idealga erishamiz¹.

Stoisizm tahlili unda bilish, ayniqsa mantiq masalalari, shuningdek, ontologiya muammolarining ustuvor bo'lganligini ko'rsatadi. Bunda Geraklit, ayniqsa Aristotel dialektikasi, xususan, uning materiya va shakl to'g'risidagi qarashlarining ta'siri kuchli bo'lgani kuzatiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Stoisizm qanday yo'nalishdagi falsafiy ta'limot?
2. Stoisizmning bosh muammosi nimadan iborat?
3. Stoiklar fizikasining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
4. Stoiklar mavjudlikniqanday talqin qilganlar?
5. Stoiklar harakat haqida qanday mulohazalar bildirgan?
6. Stoiklar ilohiy substansiya tushunchasiga qanday ma'no berganlar?
7. Stoiklar sabab – oqibat munosabatini qanday tushunishgan?
8. Stoiklar harakat va osoyishtalikni qanday talqin qilishgan?
9. Stoiklar bilish nazariyasida qanday muammolar muhokama etilgan?
10. Stoiklarning mantiq rivojidadagi o'rni nimalar bilan belgilanadi?
11. Stoiklar haqiqatni va yolg'onni qanday talqin qilishgan?
12. Stoiklarning ijtimoiy qarashlari qanday?
13. Stoiklar axloq masalalarini qanday muhokama etishgan?
14. Stoiklar dialektika deganda nimani tushunishgan?
15. Stoiklar kosmologiyasi to'g'risida nimalarni bilasiz?

¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.385-388

NEOPLATONIZM

Ulkan Rim imperiyasining vujudga kelishi, kuchli xarbiy salohiyat va administrativ tuzilmaga egaligi, uning aholisining ongi, dunyoqarashidagi o'zgarishlar bilan birga kechdi. Bu Rimga bo'ysundirilgan davlatlar siyosiy mustaqilligini yo'qotgan, xalq ommasi qashshoqlashishi kuchaygan, boy kishilar qatlamining shakllangan davri edi. Mulkiy, ijtimoiy tengsizlik kuchaygan, yovuzlik, kulfat ijtimoiy hayotda hukmron bo'la borgandi; tabiiyki, bunday holatda kishilarning dinga bo'lgan intilishi kuchayadi. Er.avv. 1- asrda esa, aksincha, dinni "unutish", ilmga bo'lgan intilish tobora yaqqolroq sezila boshladi. Falsafadan xususiy fanlarning ajralib chiqish tendensiyasi kuchaya bordi. Matematika, astronomiya, mexanika, medisina, filalogiya, ritorika, adabiy tanqidchilik, adabiyotshunoslik maxsus usullarni qo'llaydigan, professional faoliyat yuritishni taqoza etadigan xususiy-ilmiy bilim sohalariga aylana bordi. Ilmiy kutubxonalar, qo'lyozmalar, fondlari tashkil bo'la boshladi. Nafaqat Afina, balki Aleksandriya, Pergam, Rodos ham yirik ilmiy markazga aylandi.

Ayni paytda, Sharqdan G'arbga qarab diniy ta'limotlar tarqala boshladi. Bu ta'limotlar, ular bilan bog'liq marosimlar mustahkamlanishi uchun qulay sharoitga ega bo'la bordilar. Ular aralashib ham ketdilar. Rim imperatorlarining Sharq marosimlariga yomon ko'z bilan qaramaganligi diniy ta'limotlar, aqidalarning o'zaro ta'sir etishiga, bog'lanishiga va sinkretik ko'rinishdagi ta'limotlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyatda paydo bo'lgan mana shunday ehtiyojga javoban, falsafa diniy va ba'zi xollarda, hatto, mistik mazmun va ko'rinish kasb eta bordi. Neoplatonizm mana shunday tarixiy sharoitning ma'naviy mahsuli sifatida vujudga keldi. Neoplatonizmning asoschilaridan biri va uning salohiyatli vakili Plotindir.

Plotinning tug'ilgan joyi, hayoti haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Evnapiy uni Likonda tavallud topgan desa, Svida – Likopolda tug'ilganligini ta'kidlaydi. Har holda uning er. avv. 203-204 yillarda Misrda dunyoga kelganligi aniq. Porfiriyning aytishicha, Plotin Iskandariyaning ko'plab professorlari ma'ruzalariga qatnagan va 38 yoshga to'lgandagina o'zi izlagan mutafakkir Ammoni Sakkas bilan uchrashishga muvaffaq bo'lgan. U er. avv. 242 -yilga qadar Ammonining shogirdi bo'lib, undan tahsil olgan. Shu yilda imperator Gordianning qo'shini tarkibida Eron falsafasini o'rganish maqsadida Eronga jo'nab ketadi. Ammo Gordian Misopotamiyada o'ldirilgach, ekspedisiya muvaffaqiyatsiz yakun topadi. Bu paytga kelib 40 yoshga to'lgan Plotin Rimga yo'l oladi. Bu yerda u o'z maktabiga asos solib, yuqori martabali davlat

amaldorlari, hatto, imperator Galliyen va uning rafiqasi ishonchini qozonadi. Plotin ularga Aflotunning “Davlat” asaridagi g’oyalar asosida hayot kechiradigan Platonopolis shahriga asos solishni taklif qiladi va buning uchun imperatordan rozilik ham olgani ehtimol qilinadi. Ammo, negadir imperator noma’lum sabablarga ko’ra mazkur g’oyani keyinchalik rad etganligi hamda shahar g’oyasi shuning bilan barham topganligi ma’lum. Plotin 60 yoshga kirgan chog’ida uning shogirdi Porfiriyning nomi ham chiqib qolgandi, keyinchalik esa ustozidan juda ilhomlangan shogird uning avtobiografiyasini yozadi.

Keyinchalik Porfiriyy ustozining asarlarini tizimlashtirib, ularni har biri 9 bobdan iborat 6 kitobga ajratadi. Plotining asarlarini birlashtirishga xizmat qiladigan “Enneada”, ya’ni “to’qqizlik” atamasi shundan kelib chiqqan. Aytishlaricha, faylasufning og’zaki ma’ruzalari sodda va ravon uslubda bayon qilingan bo’lib, uning yozma asarlarini mutoala qilish birmuncha murakkabliklar tug’dirgan. Bu hol mutafakkir ko’rish qobiliyatining nisbatan pastroq bo’lganligi hamda ayni sababga ko’ra u qo’lyozmalarini qayta ko’zdan kechirmaganligi bilan izohlanadi. Bu esa, turgan gapki, Porfiriyning ishini birmuncha qiyinlashtirgan, ammo, shunga qaramay, u ustozining uslubini saqlab qolishga harakat qilgan.

O’z davrida Plotinga ko’pchilik maslahat so’rab murojaat qilganlar, shu ma’noda o’z zamonasida aksar kishilarning ma’naviy peshvosi bo’lgan. Bundan tashqari, uning sahovatpesha va mehribon bo’lganligi, shuningdek, o’z uyida yetim bolalarga g’amxo’rlik qilib, tarbiya qilganligi bot-bot ta’kidlanadi. Uning ko’plab do’stlari bo’lib, dushmanlari yo’q edi; u garchi zohid inson bo’lsada, axloqan yetuk va tabiatan yumshoq kishi sifatida nom qozongan. Ammo, Plotinning bir oz asabiy kishi bo’lganligi va bu, ayniqsa, uning ma’ruzalarida ko’proq ko’zga tashlanib turganligi xususida ma’lumotlar mavjud. Plotinning sog’lig’i u qadar yaxshi bo’lmay, mil. avv. 269- 270 yillar chamasi Kampanyedagi qishloq uyida vafot etadi.¹

Plotin– antik davr falsafasidagi idealizmning eng so’nggi yorqin vakili. U bilan qiyoslanganda neoplatonizmni yakunlagan Prokl ham ijodkor sifatida emas, ko’proq analitik, sistemaga soluvchi sifatida mashhur. Plotin o’zidan deyarli yarim ming yillik ilgari merosga murojaat qildi, uni tiklashga urindi. U ko’proq mistik, teosofdir.

Asosiy tushunchalari. Plotin falsafaning vazifasini borliqning oxirgi asosi bo’lgan ilohiy borliqdan kelib chiqib, butun mavjudotni tushuntirishdan iborat, deb bilgan. Bu aslida falsafiy emas, diniy mazmunga ega vazifadir. Lekin Plotin uni hal etish vositasini falsafa va dialektikada ko’rgan. Uningcha, bu vazifa murakkab,

¹ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.464-465.

uni faqat daholar hal eta olishi mumkin, oddiy odamlar ongiga uni yetkazish balki mumkindir. “Ota-ona qoldirgan farzandlarni begona kishilar tarbiyalaganda o’z ota-onalarini aniqlashi qiyin bo’lganidek, borliqning asosidan qanchalik uzoq ketsa, odam uning mohiyatini tushunib yetishda shunchalik qiynaladi. Bu qiyinchiliklarni yengib o’tish uchun inson ruhi, jonini xissiyotidan yuqori qo’ya olishi kerak. Lekin shunday odamlar ham borki, ular aqliy mushohada (intelektual intiusiya) qobiliyatiga ega”¹. Ana shular borliqning yagona asosi, birligini tushunib yetishadi va orqaga qaytib, uni oddiy xalqqa tushuntirishadi.

Plotinning ta’kidlashicha, jon o’z holicha mavjud. U tana singari butundir. Jon tana garmoniyasi emas (pifagorchilar shunday deyishgan). Shuningdek, jon tana entelexiyasi ham emas (agar unday bo’lganda, shakl haykal yashagan material –misga qanday munosabatda bo’lsa, u ham tanaga shunday munosabatda bo’lar edi). Shakl tana singari qismlarga bo’linadi. Jon shakl emas. Barcha predmet, hodisalarda jon bor, jon ulardan mustaqil bo’lgan boshlang’ich ibtidodir. Olam go’zaldir, u shakl bilan tanalar qo’shilishi natijasidir. Ularni, ya’ni o’z holicha mustaqil bo’lgan narsalarni qo’shadigan real kuch bo’lishi kerak, u – dunyoviy jondir. Lekin jon go’zallik bilan aynan bir narsa emas, jon butun dunyo uchun bitta, dunyoda esa go’zallik bilan bir qatorda xunuklik ham mavjud. Ana shuning uchun ham go’zallikni jonning prototipi deb tushunish kerak, xolos.

Jonga shakl beradigan narsa–aql. Jon tanadan mustaqil, unga nisbatan birlamchi bo’lgani singari, aql ham jonga nisatan birlamchi mohiyatdir. Aql o’z-o’zicha mavjud, uning predikati, ya’ni asosiy xususiyati dunyoning birligidir. Agar predmetni muayyan borliq tarzida fikr qilmoqchi bo’lsak, uni birlikdagi, yaxlitlikdagi borliq sifatida tasavvur etishimiz zarur. Jon barcha narsalarni yaratadi hamda ularga birlik baxsh etadi.

Shuni ham aytish kerakki, Ploting fikricha, olamda birlik bilan bir qatorda ko’pliqlik ham mavjud. Birlikni jon aqldan oladigan bo’lsa, aql shaklning birligi manbai emasmi? degan savol tug’iladi. Unga Plotin yo’q, unday emas, deb javob beradi. 1) Aql o’z-o’zini yaratadigan mohiyat emas. Unga go’zallik orqali erishiladi, go’zallik esa ne’matga bog’liq; 2) Aql o’zida ko’plikni – g’oyalar to’plamini mujassamlashtirgan.

Aqlni o’z holicha olganimizda ham uning ikkilanganligini: fikr qilinayotgan narsa bilan tafakkurga, predmet va aqliy faollikka bo’linadi, ulardan tashkil topadi. Aql, oliy darajadagi narsa sifatida, undan ham yuqoriroq turgan predmetga ega. Bu birlikdir. Lekin uning manbai nima ?, u qanday ko’rinishga ega ? U, Plotin fikricha, matematik nuqta ham, tushuncha ham emas. Yagonalik birlik

¹ Asmus V.F. Antichnaya filosofiya-M.: Vysshaya shkola,1999-S.381

ne'matidir. Uningcha, Yagona boshqa barcha narsalar uchun mavjudlik shart-sharoiti bo'lishi bilan bir qatorda, barcha predmetlar uning predikati hamdir.

Mana shunday murakkab dialektik tabiatga Yagonani qanday bilish mumkin, degan savol qo'yib, bilish nazariyasini ana shu savolga javob sifatida shakllantiradi.

Bilish masalasiga murojat kilib, Plotin uning ikki usuli mavjudligini aytadi: 1) hissiyot va 2) aql. Hissiyot boshlang'ich asosni bilishga qodir emas. Lekin aqlning tushunchalari va kategoriyalari Yagonaga aloqador emas, chunki u har qanday tavsifdan yuqori turadi. Kategoriyalarning ichida oliysi–borliq kategoriyasi. Bu kategoriya mavjudlik va birlikni (Yagonani) farqlaydi: Yagona mavjudotning predikati hisoblanadi. O'z navbatida, mavjudot turga, shaklga ega. Biroq boshlang'ich asosga na shakl, na tur xos. U hych qanday fikriy obrazga ega emas. Boshqa barcha qategoriyalar borliq kategoriyasi bilan bog'liq, biroq Yagonaga tegishli emas. Agar shunday bo'lsa, Yagonani qanday qilib bilish mumkin ? degan savol tug'iladi va unga javob beriladi: har bir predmet– Yagona, demak har qanday predmet jon va shuning uchun ham soddaga daxldor. Jon Yagonani bilish darajasiga ko'tara oladi, lekin xissiyot yoki aql orqali emas, balki bilish obykti bo'lgan predmetga diqqat-e'tiborini jamlash asosida, ya'ni Yagona bo'lmagan barcha narsadan fikran chetalashadigan va fikr-zikrini soddaga qaratadigan mushohada yordamida bilishdir. Yagonani bilish u bilan qo'shilib ketishdan iborat bo'lib, bunda jon va Yagona o'zaro mos keladi.

Olamning kelib chiqishi to'g'risida gapirib, Plotin hissiy olamni mangu mavjud emas, u vaqtda chegarasiga ega, deydi. Ayni paytda, uni Yagonadan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Dastlab, Plotin fikricha, ikkinchi boshlang'ich asos paydo bo'lgan, lekin uning paydo bo'lishi birinchi boshlang'ich asos ehtiyoji bilan emas, balki uning borlig'ining to'laligi bilan taqozolangan. Bunda birinchi asosning borlig'i to'lib-toshib ketadi, o'z chegarasidan tashqarisiga chiqib, boshqa borliqni yaratadi.

Buni quyidagi misolda qiyoslab tushuntiradi: Quyosh o'zidan nur chiqaradi, lekin nur o'z holicha shu'lalanadi. Ikkinchi boshlang'ich asos singari, asta-sekin borliqning boshqa qirralari va darajalari vujudga keladi.

Yagonadan birinchi paydo bo'ladigan narsa–Aql. Unda 3 ta jihatni farqlash lozim: 1) modda tushunchasi; 2) fikr qilinadigan borliq; 3) tafakkur.

G'oyalar dunyosi sifatida aql har xil turlar va shakllardan tashkil topadigan to'plamdir. Turni biror narsa turidan boshqa narsa deb qabul qilib bo'lmagani uchun, g'oyalar dunyosida “modda” ham mavjud bo'lishi kerak. “Modda” hissiy olam materiyasi emas, u aqlning bir lahza bo'lgan shakldir. Hissiy olamning materiyasi–o'lik materiya. Aql “moddasi” yoki ideal olam borliq, mavjudot bo'lib,

uning orqasida Yagona turadi. Hissiy olam materiyasi sharpa bo'lib, uning orqasida borliq turadi.

“Modda”dan keyin keladigan Aql lahzasi fikr qilinadigan borliq, mavjudlikdir. Aqlning uchinchi lahzasi tafakkurdir. Mana shu aql tushunchasining uch lahzasiga yaralishning uch lahzasi to'g'ri keladi. Materiya (modda)ning asosi o'zga (Yagonaga nisbatan) bo'ladi. Bu “o'zga” Yagonaga nisbatan to'plamdir. O'zganing Yagonaga murojati borliqning aniqligini hosil qilishga olib keladi. Plotinda Yagona va Aqldan keyin jon turadi.

Materiya haqidagi mulohazalari. Jonning undan tashqaridagiga murojat qilishi, uni materiyaga olib keladi. Platonga ergashgani xolda, Plotin olamning paydo bo'lishi materiyani yoki noborliqning bo'lishini taqoza etadi. Tabiatdagi barcha narsalar hyech narsadan paydo bo'lmagani yoki yo'q bo'lmagani sababli, qandaydir substrat mavjud bo'lishi kerak va u jismlarning sifatlari, xossalari mavjudligining asosi bo'ladi. G'oyalar olamidan hissiy qabul qilinadigan olam quyidagilar bilan farq qiladi: 1) fazoda ko'lamga egaligi, 2) vaqtda uzayishi, 3) haqiqiy emasligi bilan ajralib turadi.

Olamni hosil qiluvchi kuchlar – aql fikrlari. Ularda ongsiz tarzda tushunchalar qayd etilgan bo'lib, manbai ideal olamdadir. Shuning uchun ham hissiy olamda sodir bo'ladigan voqyealar tartibi g'oyalar olamiga taqlid qiladi.

Inson joni ilohiy va hissiy olam chegarasida joylashgan. Uning ilohiy jon bilan birligi yuqori darajadadir. Bu aloqadorlik jonning yerdagi hayotidagi hatti-harakati bilan bog'liq. Inson o'lgandan keyin jon tanadan chiqib, o'zining avvalgi hayotiga qaytadi, aql bilan bog'lanadi, g'oyalarni mushohada etadi, hissiy olamdagi barcha ne'matlardan xalos bo'lib, ilohiyat bilan qo'shib ketadi. Bunda barcha quyi ruhiy funksiyalar: idrok, xotira, hayol, odatlar yo'q bo'ladi. Agar jon ilohiylik darajasiga ko'tarila olmasa, unda quyi ruhiy funksiyalarni o'zida saqlaydi va jonning ko'chishi sodir bo'ladi. Bu insonning yerli hayotidagi moyilliklari bilan belgilanadi. Plotin fikricha, qo'shiqni sevgan kishilar joni sayroqi qushlarga ko'chadi, yirtiqichlikka moyil kishilar joni yirtiqich xayvonlarga ko'chadi.

Jonini yangi holati, uning avvalgi moyilliklariga mos kelishi bilan birga, avvalgi hayoti uchun qasosga ham duch keladi: boshqa kishilarga nisbatan noqonuniy munosabatda bo'lgan kishi joni, o'z navbatida, boshqa kishilarning noqonuniy harakatidan aziyat chekadi.

Plotin jonning tanaga nisbatan munosabati to'g'risidagi avvalgi qarashlarini qayd etadi: jon tanaga hyech qanday fazoviy munosabatda bo'lmaydi. Jon tanaga xuddi o'zining organi sifatida munosabatda bo'ladi va ehtiyojga muvofiq ravishda tashqi olam bilan birlashib ketadi. Jonning 3 turdagi faoliyati mavjud:

Jonning tana bilan aloqasi, uning tanaga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadigan faoliyati. Quyi ruhiy funksiyalar ana shundaydir.

Jonning tanada yashab turgan, lekin aytgan paytda, funksiyalari unga bog'liq bo'lmagan xolatidagi faoliyati.

Jonini tana bilan bevosita aloqada bo'lmagan holatidagi faoliyati.

Jonning birinchi faoliyatiga hayajonlanish, rohatlanish yoki azoblanish bilan bog'liq holda kechadigan sezgilar taalluqli. Bunday xolatning subyektivi – jon va tananing birgaligida bo'lishi: tanaga harakat yoki hayajonlanish, jonga ularni anglash xosdir. Ikkinchi holatga bilish faoliyatining yuqori funksiyalari tegishli. Birinchi navbatda, bu xotiraga tegishli. Plotin xotirani tasavvurlar saqlanadigan makon deb biladi. Ruhiiy faoliyatining ikkinchi turiga tafakkur ham taalluqli.

Plotin etikasi jonning tozalanishi to'g'risidagi mulohazalar bilan yakunlanadi. Tozalanish jonning tanadan ozod bo'lishidan, yerli hayot manfaatlaridan xalos bo'lishidan, ilohiiy darajaga ko'tarilishidan iborat. Bu holatning yakuni – ekstaz, ilohiiyatga ekstatik sho'ng'ish, ilk Yagona bilan birlashib ketishdir.

Plotin falsafasi-jahon miqyosida qulchilik madaniyatining halokatga uchrashi davri falsafasi. Ana shuning uchun ham ekstaz yerli hayot tashvishlaridan holi, o'z-o'zi bilan cheklangan holat ideal sifatida baholanadi.

Porfiri (232-301-304) Plotindan keyingi yirik, iqtidorli neoplatonikdir. 262-263 yillarda Plotinga shogird bo'lgan. Mahsuldor yozuvchi, olim va faylasuf sifatida mashhur. "Aristotel kategoriyalariga muqaddima" ("Beshta oxang haqida" nomi bilan ham ataladi) asari Porfiriyni dunyoga mashhur bo'lishiga olib keldi. Bu asar juda ko'p mamlakatlarda tarqalgan, tarjima qilingan. Unda Porfiri tushunchaning belgilari (jins, tur, tafovut, shaxsiy va tasodifiy belgilar) to'g'risida muhokama yuritadi. Shuningdek, Porfiri kosmologiya va astrologiyaga oid asarlar ham yozgan. Xristianlikka qarshi bitilgan polemik usulda bitilgan ishlari ham bor. Porfiri Platon va Aristotelning mantiqiy ta'limotlarini talqin qilgan, izohlagan yirik neoplatonchi mantiqshunos hisoblanadi. Amaliy falsafaga oid yozgan kitoblari ham bor. Ularda siyosiy fozillik, affektlardan forig'lanish, fazilatlar to'g'risida fikr yuritadi.

Porfiri amaliy mistikaga katta ahamiyat bergan. Ilohiy Avgustinning guvohlik berishicha, Porfiriyni "Jonning yuqorilashi" traktati bo'lgan, unda mutafakkir ikkita yo'l: faylasuflar uchun bo'lgan sof aqliy mushohada yo'li va olomon uchun treurgiya yo'li (xudolarga ta'sir o'tkazish usuli) to'g'risidagi ta'limot mavjudligini ta'kidlaydi.

Suriya maktabi- 4-asrdagi neoplatonizmning yo'nalishlaridan biri. Uning asoschilaridan biri Porfiriyni shogirdi *Yamvlix* edi. U quyi Suriyaning Xalkida shahrida tug'ilib, ijod etgan. Rimda ustozini Porfiriyni ta'lim olgan. Keyinchalik Suriyadagi Anameyda falsafadan dars bergan. Neoplatonizmni rivojlantirishda Plotindan ham ko'proq amaliy mistika tomon og'ishgan. *Yamvlix* yaratgan

“Pifagor ta’limotlari majmuasi” asaridan bizgacha bir qancha risolalari yetib kelgan: “Pifagor hayoti xaqida”, “Umumiy matematika fani to’g’risida”, “Nikomax matematikasiga kirish”, “Falsafaga doir ma’lumotlar”, “Arifmetika teologumenlari”. Eng keyingi risolasida Yamvlix antik davr olimlarining hych birida uchramaydigan dekananini - barcha sonlar to’g’risidagi pifagorchilar ta’limotini rivojlantiradi. “Majmua”da sonlar, musiqa, geometriya va astronomiyaga oid bilimlar bayon qilingan. Yamvlixning yo’qolib ketgan traktatlari orasida Platonning “Timey”, “Fileb”, “Parmenid”, “Fedr” dialoglari, Aristotelning “Fizika”, “Kategoriyalar”, “Talqin to’g’risida”, “Birinchi analitika” kitoblariga yozgan sharhlari bor deyiladi. Shuningdek, yo’qolgan asarlar qatorida “Mukammal Xalvey ilohiyotshunosligi” ham bo’lib, u qadimgi greklarning kech ellinizm davrida Sharq xalqlari dini va mistikasiga munosabatning tipik ko’rinishini o’zida ifoda etardi.

Yamvlix Plotin ishlab chiqqan kategoriyalar: Yagona, Aql, Jon tushunchalari mazmunini boyitadi. Xususan, “Yagona” tushunchasini ikkita yagonaga ajratadi. Ulardan birinchisi, Plotinda bo’lgani singari, har qanday borliq, har qanday bilish va har qanday nomlanishidan yuqori turadi. Ikkinchisi esa, keyingi barcha narsalarning boshlang’ich asosi bo’lib, uni nafaqat Yagona, balki Ezgu ne’mat deb atashadi. Bunday farqlash keyingi triada shaklidagi qurilmalar uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Bunda kech platonizmga xos sxolastika, sxematizm yaqqol namoyon bo’ladi.

Yamvlixga ko’ra, “sof aqlar” va “jon”—dunyo ustidagi xudolar. Ular o’n ikkita olam sohalari—yer, suv, havo, olov, yetti planeta va efigra nisbatan “boshqaruvchilik” vazifasini bajaradi. 12 ta osmon xudosi triadalar hosil qilib, ularning soni 36 ga yetadi, 10 ga ko’paytirilgandan keyin esa 360 bo’ladi (bu qadimgi davrda yilning 360 kundan iborat degan tasavvurlariga moslashtirilgan bo’lsa kerak).

Yamvlix yashagan davr nafaqat Suriyada balki butun Rim imperiyasida ko’pxudolik dinlarning xristianlikka qarshi eng oxirgi kurashi bilan xarakterlidir. Yamvlix qadimgi grek politeizmini, Olimpni uning barcha xudolari bilan birga falsafada tiklashga urindi. Insonda tabiatni, Kosmosni idrok qilishga yo’naltirilgan qobiliyatni emas, balki xudolarga ishonish, ular bilan muloqotni afzal deb bildi. Axloqiy va siyosiy fazilatlarni Yamvlix quyi bosqich deb tushundi. Eng oliy fazilat, uningcha, xudolar bilan birlashishdir. Yamvlix o’zining asosiy vazifasi deb teurgiya, mantiq, qurbonlik qilish va ibodatlarni bildi. U dinlardagi asosiy voqyealarni turkumlashga intildi.

Prokl (410-485) antik davr neoploatonizmi rivojini yakunlaydi. Bunday yakunlanish Afinada – Anaksagor, Sokrat, sofistlar, Platon, Aristotel, Platon maktabi, Aristotel maktabi, Epikur, stoicism asoschisi Zenon faoliyat ko’rsatgan

joyda amalga oshadi. Bu davr mistikaning kuchayish bilan ajralib turadi. Falsafani ilm ruhi tark etadi.

Prokl qarashlari Yevklid “Asoslari”, Platon asarlariga, xususan “Parmenid”, “Timey”, “Kratil” dialoglariga sharhlarida bayon qilingan. Ulkan nazariy asari “Ilohiy elementar ta’limot” faylasufning butun neoplatonizm sistemasini qisqa holda bayon qiluvchi 211 tezisdan iborat asari bo’lib, unda “Yagona”, “Aql”, “Jon”, “Kosmos” tushunchalari talqin etiladi, ilgari surgan tezislari misollar yordamida tushuntiriladi. “Platon ilohiyotchiligi” asarida Prokl Yagona va uch turdagi xudo: fikrlanadigan, fikrlaydigan va fikrlanuvchi–fikrlovchi xudo to’g’risidagi ta’limotni bayon qiladi. Triadali qurish va bayon etish metodini Yamvlixga qaraganda izchilroq va dadilroq ifodalaydi. Buning negizida predmet rivojlanishining triada ko’rinishida sodir bo’lishi g’oyasi yotadi. Barcha hodisalar: xudolar, tirik mavjudotlar, kosmos va falsafa sohasidagilar, mifologiya va mistikalar triada bo’yicha rivojlanadi.

Triadada Prokl uch holatni farqlaydi: birinchisi–o’zida bo’lish. Boshqacha nomi–sabab, bo’linmas birlik, mavjudlik, ota, potensiya. Ikkinchisi – o’zidan chiqish, boshqacha aytganda, o’z chegarasidan tashqariga emanasiya-sabab sifatida ta’sir etish. Bu birlikdan ko’plikka o’tish, bo’linishning boshlanishi, “ona”, “energiya”dan iborat. Uchinchi jihati–“o’zga borlig’idan” orqaga, o’ziga qaytish, tarqoqlik va ko’plikdan yana bo’linmaydigan birlikka ko’tarilish. Shunday qilib, bu uchta holat “joyda bo’lish”, “chiqish” va “qaytish”dir.

Yagona haqidagi ta’limotda–triadaning birinchi bo’g’ini to’g’risidagi ta’limotda Prokl Yamvlix ishlab chiqqan Yagonaning bo’linishi to’g’risidagi ta’limotga tayanadi. Yamvlix singari, u ham so’zsiz bilib bo’lmaydigan Yagonani boshqa Yagonadan farq qiladi. Bu boshqa borliq o’zida muayyan ko’plikni mujassamlantiradi, biroq u hech qanday sifatga ega bo’lmagani uchun, Aqldan avval keladi, Aql va so’zsiz Yagona oralig’ida mavjud bo’ladi. Prokl bu bosqichni son deb ataydi, uning boshqacha nomi – borliq usti birligi (Yagonasi).

Yagonadan keyin keladigan Aql ham triada ko’rinishida bo’linadi: 1) fikrlanadigan Aql yoki “o’z-o’zida bo’lishlik”. Bu bosqichda Aql o’zi uchun predmet, yoki “borliq”.

Ikkinchi bosqichda Aql o’zidan chiqadi va o’z-o’zini tafakkur qiladi. Bu intellektual aql, fikrlaydigan aql, ya’ni ma’noga ega “aql”.

Uchinchi bosqichda “Aql” o’z-o’ziga qaytadi, ya’ni borliq va tafakkur aynan bir xil bo’ladi. Boshqacha aytganda, bu – hayot o’zidadir. Bu triadaning Gegel triadasidan farqi shundaki, Gегда uchinchisi sintez bo’lib, u avvalgi ikkitasini: tezis va antitezisni o’zida mujassamlashtiradi, ulardan yuqori turadi va progressni hosil qiladi. Oliy darajadagi xudo Prokllda o’z-o’zicha holda tushuntiriladi.

Triada prinsipini Prokl Jonga nisbatan ham qo'llaydi: ilohiy jon, demon ko'rinishidagi jon, inson joni.

Prokl ta'limoti neoplatonizmning hukmronligini saqlab qolishga, ayni paytda, uning rivojiga yakun yasashga bo'lgan urinish natijasidir. Prokl sistemasi xristianlikka qarshi tura olmas edi. Chunki xristianlik imperiyada, uning oxirgi ikki asrida hukmron mafkua, davlat dini maqomiga ega edi.

529 yili imperator Yustinian dekreti bilan Afinadagi Platon Akademiyasi yopiladi. Antik falsafa o'zining ming yillik umrini tugatadi.

Qadimgi Akademiya Platonning so'nggi ta'limotlari tarqatilguncha, ya'ni kuchini yo'qota borganga qadar faoliyat ko'rsatib turdi. Bu ta'limotdan yuz o'g'irgan faylasuf Akademiyani 270-241 yillarda boshqargan *Arkesilay* bo'ldi. U ko'proq Platonning ilk asarlari hamda Sokrat ta'limotiga yon bosdi. Arkesilay falsafaning bosh vazifasini stoisizm bilan kurashda ishlatiladigan qurolni dialektikada deb bildi. U o'z shogirdlaridan har bir tezisni isbotlash va rad etish bilan mashq qilishni talab etdi. Sokrat singari u hych narsa yozmagan.

Arkesilay donolikning idealini xato fikrlash, adashishdan xoli bo'lishda deb hisoblaydi. Unga erishishning yo'li–hodisalarning asl tabiati va mohiyati to'g'risida mulohazalar bildirishdan o'zini tiyish. Epikur *idroki* ham, stoik Zenonning *katoleptik tasavvurlari* ham haqiqatning ishonchli mezoni bo'la olmaydi.

Katolepsis katoleptik tasavvur bilan kelishuv sifatida mumkin emas, chunki tasavvur bilan emas, faqat mulohaza bilan kelishish, unga qo'shilish mumkin. Arkesilay fikricha, tasavvurlarni fikrlab, predmetning qanday bo'lsa, shunday ekanligini aniqlab bo'lmaydi. Uningcha, bunday tasavvurlarning mavjud bo'lishi ham mumkin emas. Kataleptik tasavvurlar yo'q ekan, demak hych bir narsani bilib bo'lmaydi. Shu tariqa, Arkesilay boshchilik qilgan Akademiyada *skeptisizm* paydo bo'ladi va Akademiya o'quvchilari har bir ilgari surilgan tezisni isbot qilish va rad etishni mashq qilishga o'tadilar. Arkesilay esa, stoisizmning mohiyatini anglash, undagi ziddiyatlar va qiyinchilik tug'diradigan masalalarni yechishga kirishadi.

Karnead 160-129 yillarda Akademiyani boshqaradi. Arkesilay Zenon-stoikka qarshi kurashgan bo'lsa, Karnead stoisizm dahosi Xrisipp, uning davomchilari bo'lgan Diogen va Antipatrlarga qarshi kurashadi.

Karnead ishonchli bilim mezoni haqidagi masalani qo'yadi. Uningcha, Epikur *hissiy mushohadasi* ishonchli bilim mezoni bo'la olmaydi. Hatto abstrakt, mavhum tafakkur ham bunday mezon bo'la olmaydi, chunki u zarur materiallarni hissiy mushohada (idrok)dan oladi.

Karneadga ko'ra, tashqi ta'sir predmeti sezgi organida o'zgarish sodir qiladi, lekin ongga faqat tasavvur shaklida yetib boradi; shuning uchun ham

ishonchli bilim mezonini faqat idrokni *to'g'ri tasavvur qilishdan* qidirish lozim. To'g'ri tasavvur nafaqat o'zini, balki uni paydo qilgan predmetni ham ongga yetkazadi va shu asosda predmetni borliqda qanday bo'lsa, shundayligicha ongga kiritadi.

Tasavvurga xos bo'lgan narsa—uning ham obyektga, ham subyektga munosabatda bo'lishi. Zero, “Ro'y berayotgan hodisalarning hammasi ham taqdiri azal mevasi emas. Ularning ba'zi birlari bizning hukmimizdadir”¹. Shuning uchun ham tasavvur obyektga mos bo'lsa-chin, mos kelmasa – xato bo'ladi. Stoiklar tasavvurning subyektga munosabatini uning obyektga munosabati deb qabul qilishgan edi. Haqiqatan ham tasavvurlar biz uchun ishonchlilik kuchi bilan bir-biridan farq qiladilar. Lekin stoiklar kataleptik (ushlab qoladigan) deb ataydigan tasavvurlar ularning chin ekanligini ko'rsatadigan belgilarga ega emas. Hodisalarning haqiqiy tabiatini bilish uchun hiech qanday mezon mavjud emas. Lekin bu kundalik hayotda ishlatiladigan mezon mavjud emasligini anglatmaydi. Bunday mezon bo'lib *yetarli darajadagi ishonchli tasavvur* xizmat qiladi. Karnead yozadi: “Har qanday haqiqat nisbiylikka yo'g'rilgan ishonchdir. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, haqiqat ehtimollikdir”². Qanday daraja va kuchga ega ishonchlilikning yetarli bo'lishi masalasi har bir alohida holda mavjud mulohaza predmetining muhimligiga bog'liq.

Karnead fikricha, tasavvurlar ehtimollikning uch bosqichi mavjud: 1) tasavvur shunchaki ehtimol xarakterga ega; 2) tasavvur shunchaki ehtimolli bo'lib qolmay, balki boshqa tasavvurlarga zid ham bo'lmaydi; 3) ehtimolli bo'lgan, boshqa tasavvurlarga zid bo'lmagan va har tomonlama tekshirilgan tasavvurlar mavjud.

Birinchi bosqich ham sodda, ham murakkab tasavvurlarni qamrab oladi. Murakkab tarkibga ega bo'lganda, tasavvur yakka deb qabul qilinib, unga yo'ldosh bo'lib kelayotgan tasavvurlardan ajratib olinadi.

Ikkinchi bosqichdagi ehtimollik o'zida ziddiyatlar yo'qligi bilan tavsiflanadi va bu ikki tomonlama tekshiruv asosida tasdiqlanadi. Bunda tasavvurning “ziddiyatsizligi” (ya'ni boshqa tasavvurlarning uni istisno qilmasligi) aniqlanadi. Bu mazkur tasavvurning aniq, ravshan bo'lishi, uning hiech qanday shubhaga o'rin qoldirmasligini bildiradi.

Ehtimollikning uchinchi darajasiga tekshiruv to'liq bo'lib, hiech bir narsaning unutilmaganiga ishonch hosil qilgandan keyin erishiladi.

Karnead fikricha, uchinchi bosqichdagi tasavvur ehtimolli ham mulohazaning to'liq chin bo'lishini kafolatlamaydi, faqat unga yaqinlashtiradi, xolos.

¹ Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf/Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar.-T.:Yangi asr avlodi, 2013.-B.144

² O'sha joyda

Yuqorida aytilgan fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Karnead, Arkesilaydan farqli o'laroq, kataleptik tasavvurni butunlay rad etmaydi, uni predmet va uni idrok etayotgan holat bilan bog'laydi.

Karneadda muayyan darajada skeptisizmga yon bosish bor. Xususan, u predmetlarni nazariy bilish mumkin emasligi to'g'risidagi tezisni ilgari surib, uni asoslashga urinadi.

Er.avv. 156 yilda Karnead Rimga diplomatik missiya bilan keladi va bu yerda ajoyib falsafiy nutq qiladi va unda bitta tezisni avval isbotlaydi, keyin rad etadi. Xususan, birinchi kuni adolatning inson tabiatiga xos, shuning uchun ham unga intilish zarurligini isbotlaydi. Ikkinchi kuni esa, adolatning shartli ekanligi, uning faqat kuchsizlarga mo'ljallangani, kuchlilarning unga amal qilishi shart emasligini ko'rsatadi. Auditoriyada ulkan taassurot qoldirgan argumentlash tashqi effekt hosil qilish maqsadiga ega edi va shunday bo'lib qoldi, xolos.

Karnead er.avv. 129 yilda vafot etdi, undan faol shogirdlar qolishdi. Ularning orasida ko'zga tashlanadigani *sxolarga* (maktab boshchisi) lavozimini egallagan *Klitomax* edi. Biroq uning vorisi *larisslik Filon* (Mitrodit bilan bo'lgan urushda Afinadan Rimga qochib borgan) oxir-oqibatda Karnead ta'limotidan chetlashdi. Uning fikricha, chinga o'xshab ko'ringan har qanday tasavvurga xuddi shunday kuchga ega bo'lgan qarama-qarshi fikrni – xato mulohazani keltirish mumkin. Demak, predmetlarning asl mohiyatini bilib bo'lmaydi. Albatta, bu predmetni butunlay bilib bo'lmaydi, degan xulosa emas: unda faqat stoiklar ta'limoti rad etiladi, xolos.

Filonning stoisizmni tanqid qilishini *Askalonlik Antiox* davom ettiradi. U Arkesilaydan keyin Akademiya falsafasining rivoji yo'nalishini xato deb hisoblaydi: Sokrat ta'limoti negizida paydo bo'lgan falsafiy maktablar – qadimgi Akademiya maktablari, Likey va Stoya ta'limotlari o'rtasidagi kurashni bartaraf etishni, ular ixtiloflarining jiddiy, muhim emasligini, umumiy tomonlarining bosim ekanligini va aynan ana shunga asoslanib, ularning kuchini birlashtirish, bir tomonga qarab yo'naltirish orqali, ularning ma'naviy boyligini saqlab qolish va rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa, Antiox ta'limotida *eklektik* tendensiyaning mavjudligini ko'rsatadi.

Bilish masalalarini hal etishda Akademiya va Likey bilan stoiklar ta'limotining o'rtasida turadi. *Hayotning oliy maqsadini* komil inson tabiatiga xos va mos bo'lgan Aql, Jon va Tanada va, demak, komillikka erishishda deb biladi. Antiox fikricha, faqat dono odam erkin (ozod) "boy" va go'zaldir. Dono emaslar – aqlsizlar va "qullar"dir.

Er.avv. IV-asrda pifagorchilik alohida falsafiy maktab sifatida mavjudligini tugatgan. Hayotining oxirgi paytida Platon o'z sistemasiga pifagoreizmga muhim deb hisoblagan elementlarni qo'shadi. Bu uning jonning taqdiri, matematik

miqdorlar va figuralarga borliqning muhim elementlari sifatida qarash, “Timey”ning qator kosmologik g’oyalari, boshqa shu kabi ta’limotlar edi.

Pifagorchilik ko’rinishidagi Platon ta’limotini *Spevsipp* (maktab boshchisi) va *Ksenokrat* rivojlantiradi. Ma’lumki, bunday platonizmni o’z vaqtida Aristotel tanqid qilgan edi. Keyinchalik falsafa sohasidagi muvaffaqiyat materialistik ta’limotlar tomoniga: epikureizm va stoisizmga ko’chib o’tadi. Platon ta’limoti ta’sirini yo’qota boshlaydi, Akademiya esa Arkesilay va Karnead davrida qadimgi platonizmdan skeptisizmga qarab og’adi.

Pifagoreizm an’analarining kesib qo’yilishi, uning uzil-kesil yo’q bo’lishiga olib kelgani yo’q. Pifagoreizmning yangi tarafdorlari Platon ta’limotidagi pifagorchilik elementlariga (Pifagor ta’limotiga emas) e’tibor qaratdilar. Bu platonizmni qayta tiklashga urinish edi. Yangi pifagoreizm haqiqiy platonizmni Likey va Stoya ta’limotlari bilan qo’shishga urindi. Bu yangi pifagoreizm er.avv. III-asrga qadar bo’lgan platonizmga, aniqrog’i neoplatonizm paydo bo’lgan davrga qadar o’z kuchini saqlab qoldi.

Yangi pifagoreizm tarafdorlari jon masalalari muhokamasida Platon va pifagorchilarga suyanishadi. Din bu davrning eng ta’sirchan kuchi edi.

Er.avv. 1-asrda yangi pifagorchilarning taniqli arboblari Gadeslik Modeart, Tianlik Apolloniylar edi.

“Payg’ambar”, “g’aroyibot yaratuvchisi” rovida *Apolloniy* o’z hayotida pifagorchilar idealini amalga oshirishga uringan.

Pifagorchilik ruhidagi platonik bo’lgan yana bir shaxs *Xeroniyalik Plutarx* (48-120) edi. U biografik janrda yozilgan “Parallel hayot tasvirlari”, shuningdek, “Platon dogmasi” asarining muallifidir. Plutarx faqat tanasiz mohiyatni chin mohiyat deb hisoblaydi. Materiya – mavjudot emas, u shakl va mohiyatga o’zining miqdoriy xususiyatlariga ko’ra erishadi. Metafizika va fizika kategoriyalari simvoli (ramzi) – son. Oliy ibtido – bir hamda noaniq ikkidir. Ularda ruh va materiyaning qarama-qarshiligi o’z ifodasini topadi. Bir soni–borliq ibtidosi va yaxshilik, ne’mat, mukammallik ramzi; noaniq ikki– borliqdagi nomukammallik, tartibsizlik va o’zgaruvchanlikning manbai. Ba’zi yangi pifagorchilar bir soni bilan xudoni aynanlashtirgan. Xudo–olamning yaratuvchisi va harakati sababi, u o’zidan tashqaridagi materiyaning tartibga keltiradi va undan barcha mavjudotlarni paydo qiladi.

Pifagorchi platoniklar to’rtta bir-biridan mustaqil boshlang’ich asosni e’tirof etishadi:

- 1) tanasiz shakl yoki sonlar;
- 2) moddiy asos;
- 3) olamdagi mavjud ezgulik va tartib ibtidosi;
- 4) yovuz dunyoviy jon – dunyodagi yovuzlik manbai.

Bu boshlang'ich to'rt asoslarni tavsiflash va qo'shishda mantiqiy ziddiyatlar kelib chiqadi. Masalan, qanday qilib Xudo (faol kuch) nomukammal materiyaga ta'sir o'tkazadi va unda o'z ifodasini topadi, degan savol ziddiyatli edi. Bu savolga javob berar ekan, yangi pifagorchilar Xudoni yaxlit tanasiz mavjudot sifatida tavsiflashadi. Uning ijobiy hislati - kuch. Xususan, Xudo materiyadan olamni yaratuvchi kuchdir. "G'oyalar"—mos yakka mavjudotlarning proobrazlari.

Olam bilan Xudo o'rtasida bo'g'in to'g'risidagi ta'limotni rivojlantirishda yahudiy mutafakkiri *Aleksandriyalik Filonning* roli katta. U taxminan er.avv. 30-eramizning 50-yillari yashagan. 40 yoshida Rimga elchi maqomida kelgan.

Filon falsafasi iudaizmi grek falsafasi bilan qo'shish tajribasidan iborat. Uning qarashlari negizida Moiseyning Besh kitobi yotadi. Ana shu Besh kitobda butun grek donishmandligini ko'radi va o'z yozmalarida uni talqin qiladi

Falsafaning maqsadini u Xudoni bilishda deb hisoblaydi. Xudo olamda ham, makonda ham bo'lmaydigan, lekin u o'zida barcha narsalarni qamrab oladigan substansiyadir. Arxitektor ko'nglida uy loyihasi bo'lgani singari, Xudoda—ilohiy logosda, yaratuvchi va yaraluvchi orasida yaratilishning ilk ma'naviy obrazi mujassamdir.

Aql bilan bilib olinadigan olamning aql yetadigan joyidagi narsa ilohiy logosdir. Logos birinchi farishtadir, Xudodan birinchi tug'ilgan o'g'il. Xudo yorug'lik singari ta'sir etadi, ya'ni o'zidan "nurlar chiqarib", narsalarni *emanasiya* yo'li bilan yaratadi. Biroq bunda Xudoning energiya manbai yo'qolmaydi, energiyasi kamaymaydi.

Ko'rinib turibdiki, Filonning eklektik ontologiyasining mazmuni diniy dunyoqarashga borib taqaladi hamda kosmologiya bilan yakunlanadi. Buning uchun zarur bo'lgan materiallarni Filon Platon, Stoya va yangi pifagorchilar ta'limotlaridan olgan. Bosh g'oyasini esa iudaizmdagi Xudoning olamni yaratish dogmasidan olgan. Olam yaratilgan, lekin o'tkinchi emas. Odam, Filon fikricha, yaratilgan narsalarning ichida eng oliysi. U hissiy dunyoga ham, g'ayrihissiy dunyoga ham tegishli. Inson aqli ayni paytda ham mukammal, ham nomukammal, Xudo bilan birlikda ham, undan ajralgan hamdir.

Axloqiy qarashlarida ehtirolardan to'la xalos bo'lishni (stoiklarda u "apatiya") targ'ib qiladi. Falsafiy qarashlarining yuqori nuqtasini tashkil etadigan g'oya – nazariy hayotning amaliy hayotga nisbatan afzalligidir. Lekin nazariyaning mohiyatini Xudoga bo'lgan munosabatda va uni bilishda, deb tushunadi.

Filon insonning *bilish* qobiliyati kuchiga ishonmaydi va bu bilan skeptisizmga yon bosadi.

Neoplatonizm tahlili shuni ko'rsatadiki, unda Platonning g'oyalar, borliq, uning tuzilishi to'g'risidagi g'oyalari sezilarli darajada rivojlantirilgan. Bunda pifagorchilar, Aristotel, stoiklar falsafiy ta'limotlaridagi ba'zi tushunchalarga,

mulohazalarga munosabat bildirilgan, ularni qayta anglashga urinishlar bo'lgan. Shu tariqa, neoplatonizm da mumtoz grek falsafasi muayyan darajada falsafiy bahs-munozaralar, analitik mushohadalar predmeti va yo'nalishlarini belgilab bergan.

Ellinizm davri falsafasi, butunisiga olib qaralganda, falsafiy fikr rivojidadagi yangi bir bosqichni tashkil etgani ma'lum bo'ladi. Uning ayniqsa falsafaning predmeti, bilishdagi qarama-qarshi mulohazalar, ziddiyatlarning roli, haqiqat va uning mezonlari masalalarini muhokama etishga qo'shgan hissasi salmoqlidir.

Tarorlash uchun savollar

1. Neoplatonizmning shakllanish tarixiy shart-sharoitlari qanday?
2. Plotin hayoti va asarlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Plotin falsafaning vazifasini nimada deb bilgan?
4. Plotin Aristotelning materiya va shakl haqidagi qarashlariga qanday munosabatda bo'lgan?
5. Plotin jon masalasida qanday fikrda bo'lgan?
6. Plotin Birlik va Ko'plik munrosabati masalasini qanday tushuntirgan?
7. Plotin Yagona tushunchasini qanday talqin qilgan?
8. Plotin Aql to'g'risida nimalar degan?
9. Yamvlix Plotin ishlab chiqqan Jon, Aql, Yagona tushunchalarini qanday boyitgan?
10. Prokl triadasining mohiyati nimada?
11. Arkesilay dialektikani qanday talqin qiladi?
12. Karnead bilish haqidagi qarashlarida ko'proq nimalarga e'tibor qaratgan?
13. Filon dunyoqarashi qanday?
14. Antilo kim?
15. Pifagorchi neoplatoniklar qarashlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

Xulosa

Qadimgi grek madaniyatining bizning sivilizasiyamiz uchun ahamiyati nihoyatda ulkan ekanligi yaxshi ma'lum. Bu haqida Gegel bildirgan fikr e'tiborga loyiqdir: “ “Gresiya” so'zida har bir yevropalik o'ziga qandaydir bir yaqin bo'lgan narsani eshitadi”¹. Yevropa olamiga greklar bebaho meros – o'zining adabiyoti va san'atini qoldirganini hych kim inkor etmaydi; bu falsafiy fikrga nisbatan ham tegishlidir. Kichik Osiyoda paydo bo'lib, grek falsafasi ikki buyuk mutafakkir – Platon va Aristotel davrida gullab-yashnadi va keyin neoplatonizm orqali G'arb va Sharqda tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

¹ Iqtibos quyidagi manba bo'yicha: Copleston F. History of philosophy. Vol.1. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. P. 2

Yevropa tafakkuri taraqqiyotining ilk bosqichi bo'lgan va o'z –o'zicha katta mazmunga ega bu falsafa har qanday faylasuf talaba uchun ayniqsa qiziqarlidir. Grek falsafasi hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan muammolarni o'rgandi; unda biz mazkur muammolarning qiziq yechimlarini topamiz va shuning uchun ham bu falsafa yevropa sivilizasiyasining buyuk yutug'i bo'lib qolaveradi¹.

Qadimgi grek falsafasining Sharqda, xususan, Yaqin va O'rta Sharqda, ayniqsa Markaziy Osiyoda falsafiy fikr rivojiga turtki berganini alohida ta'kidlash zarur. U Yaqin va O'rta Sharqda ilmiy markazlarning, Akademiyalarning, shu jumladan, Xorazm Ma'mun akademiyasining shakllanishi, ularda jiddiy ilmiy, falsafiy tadqiqotlarning olib borilishi uchun nazariy manba bo'lib xizmat qildi. Bunday ilmiy markazlardan Muxammad Al Farg'oniy, Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al Kindiy kabi buyuk olimlar, mutafakkirlar yetishib chiqdi; ular ning ilmiy-falsafiy kashfiyotlari Qadimgi grek fani va falsafasi an'analarning Sharqda "jonlanishi", qayta tiklanishiga – "Sharq Renessansiga" olib keldi.

Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi Qadimgi grek ma'naviy merosini XV-asrdan boshlab ijtimoiy hayotida xristian dini mafkurasi susaya borgan G'arbga yetkazishda zarur bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajardi, ya'ni G'arb ilmiy hayotdagi turli davrlar aloqasini mustahkamladi, "G'arb Uyg'onishi"ning boshlanishiga shart-sharoit yaratdi va bu bilan ilmiy-falsafiy fikr rivojidadagi vorisiylikni ta'minlashga xizmat qildi.

¹ Қаранг: ўша жойда.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J 1.- T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.: O'zbekiston, 2018.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariva 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
6. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojida roli va ahamiyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 304 b.
8. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 325 b
9. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R., Qobulniyozova G., Ruzmatova G. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 208 b
10. Po'latova D., Ruzmatova G. G'arb falsafasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: PREMIER-PRINT, 2013. – 425 b.
11. Skirbekk G., Gilye N. Falsafa tarixi. – Toshkent: Sharq, 2002.
12. G'arb falsafasi. O'quv qo'llanma / Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: O'FMJ, 2005.
13. Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003-2004.
14. S. Radhakrishnan Indian Philosophy Vol. I London: Reprinted 2009
15. Fung, Yu-Lan. A Short History of Chinese Philosophy. (ed. Derk Bodde). New York: Macmillan, 2001
16. Azizidin Nasafiy. Zubdatul-haqoyiq (Haqiqatlar qaymog'i). – Toshkent: Sharq, 1995.

-
17. Alekseyev P.V. Istoriya filosofii. – M.: Prospekt, 2006.
 18. Antologiya mirovoy filosofii. V 4-x tt. T.1, ch1 –M.: Msl, 1969
 19. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
 20. Aristotel. Soch. v 4-x tt.T.2 – M.:”Msl”, 1978
 21. Axmanov A. S. Logicheskiye ucheniye Aristotelya. –M., 1960.
 22. Bart A. Religii Indii. Per. s fransz. M., 1987.
 23. Bogomolov A.S.,Oyzerman T.I. Основы теории историко-философского процесса.-M.:”Nauka”,1983
 24. Быков F.S. Zarojdeniye politicheskoy i filosofskoy misli v Kitaye. – M.: Msl, 1966.
 25. Gandi M. Moya jizn. – M.: Msl, 1969.
 26. Gegel G. V. F. Leksii po istorii filosofii.V 3-x kn.1. – SPb: Nauka,1993.
 27. Datta D. Filosofiya Maxatmi Gandi. – M.: Msl, 1959.
 28. Drevnekitayskaya filosofiya v 2 tomax. – M.: Msl, 1972.
 29. Jahon falsafasi. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2004.
 30. Zotov A.F. Sovremennaya Zapadnaya filosofiya – M.: Vsshaya shkola, 2000.
 31. Istoriya filosofii. – M.: Nauka, 1998.
 32. Kerimov U.L. Teoriya logosa:Germenevtika rragmentov Geraklita.- Tashkent: “SAN’AT”, 2013
 33. Konrad N.I. Zapad i Vostok. – M.: Msl, 1966.
 34. Konfusiy. Lunyuy. Pekin. 1957 // V kn. Drevnekitayskaya filosofiya. Sobr. tekstov. – M.: MЫsl, 1972.
 35. Qarang: Arastu. Poetika. Ahloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
 36. Qarang: Chanshev A.N. Kurs leksiy po derevney filosofii.,M.:Vsshaya shkola,1981.
 37. Qarang: Чанышев A.N. Kurs leksiy po drevney i srednevekovoy filosofii.- M.:Vsshaya shkola,1991
 38. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo’jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. – Toshkent: Yozuvchi, 2000.
 39. Lirika Drevnego Yegipta. –M., 1965
 40. Litman A.D. Filosofskaya мысл nezavisimoy Indii. – M.: Msl, 1966.
 41. Lukanin R. K. Organon Aristotelya. -M.: Nauka, 1980.
 42. Mel T. Vostochnaya filosofiya. – M.: MЫsl, 2000.
 43. Nagata Xirosi. Istoriya filosofskoy мысли Yaponii. – M.: Progress, 1991.
 44. Nazarov Q. O’zbek falsafasi.-T.: NOSHIR nasriyoti,2013.
 45. Neru D. Otkrytiye Indii. – M.: MЫsl, 1968.
 46. Neru Dj. Vzgljad na vseмирnuyu istoriyu. – M.: Msl, 1974.

-
47. Neru Dj.. Avtobiografiya. – M.: Msl, 1955.
 48. Nijnikov Ye.M Istoriya filosofii. – M.: MЫsl, 2005.
 49. Oyzerman T.I. Filosofiya kak istoriya filosofii.-M.: Vldos,2006
 50. Platon. Sobr. Soch. V4-x tt.T.1-M.: Msl, 1990
 51. Pyer Ado.Chto takoye antichnaya filosofiya? / Perevod s fransuzkogo V.P. Gaydamaka - M.: Izdatelstvo gumanitarnoy literatur,1999
 52. Reale D., Antiseri D. Zapadnaya filosofiya ot istokov do nashix dney. 1-4 toma. – M.: Proyekt, 1998-2005.
 53. Rozenberg O.O. Vvedeniye v izucheniye buddizma po yaponskim i kitayskim istochnikam. Ch.2. – P., 1998.
 54. Semushkin A.V. Empedokl-M.: Msl, 1994
 55. Sidixmenov V.Y. Kitay: stranisy proshlogo. – Smolensk: Rusich, 2000.
 56. Stepanyans M.T. Vostochnaya filosofiya. Vvodnyy kurs. – M.: Msl, 1997.
 57. Tagor R. Postijeniye jizni. – M.: Msl, 1984.
 58. Tagor R. Sobr. soch. T. I-XII. – M.: Msl, 1964-65.
 59. Tohir Karim.Milliy tafakkur taraqqiyotidan(“Avesto”zamonidan to XXI asr boshlarigacha).-T.:ChO’LPON,2003
 60. Falsafa. Qomusiy lug’at / Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: O’FMJ, 2004.
 61. Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Infra-M, 2006.
 62. Xrestomatiya po ellinisticheskoy-rimskoy filosofii.-Sverdlovsk,1987
 63. Xrestomotiya po istorii filosofii. V 3-x kn. – M: VLADOS, 1997.
 64. Haqiqat manzaralari. !00 mumtoz faylasuf/ Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar.- T.:Yangi asr avlodi, 2013.-B.46
 65. Chanьishev A.A. Filosofiya drevnogo mira i srednix vekov. – M.: Msl, 1981.
 66. Chanьishev A.N. Kurs leksiy po drevney i srednevekovoy filosofii.- M.:Vysshaya shkola,1991
 67. Chatterdji S. Data Vvedeniye v indiyaskuyu filosofiyu. – M.: Msl,1955.
 68. Chattopadhyaya D. Lokayata. Darshanь. Istoriya indiyaskogo materializma. per. s ang. – M.: Msl, 1961.
 69. Epos o Gilgameshe.-M-L.,1961
 70. Yan Xin-shun. Drevnekitayskiy filosof Lao-szy i yego ucheniye. – M.: Msl, 1950.
 71. Yaspers K. Vsemirnaya istoriya filosofii. – M.: Msl, 1996.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.philosophy.ru.

-
3. <http://www.intencia.ru>.
 4. <http://www.ido.rudn.ru>.
 5. <http://www.filosofia.ru>.
 6. <http://www.falsafa.dc.uz>.
 7. <http://www.phenomen.ru>.
 8. <http://www.lib.ru>/FILOSOF.